

ABADSYAT TOMONIDAN BOSHQARILAYOTGANLAR

O'n yillik yubiley
munosabati bilan,
yangilangan va
kengaytirilgan nashr



*Bugun va abadiylikda
ahamiyatga ega
bo'lgan hayot*

Jon Biver

Aziz do'stim!

Muso Sanolar kitobining 89:12-sanosida Xudoga murojaat qilyapti: "Bizga kunlarimizni sanashni o'rgat". Yerdagi har qanday son – abadiylikning cheksiz voqeligiga qiyoslaganda hech narsa emas, ammo vaqt bilan o'lchanadigan dunyodan ketganimizda, qanaqa mukofotlarga erishishimiz, shu yerda in'om etilgan vaqtni qanday boshqara olganimizga bog'liq bo'ladi.

"Abadiyat tomonidan boshqarilayotganlar" kitobining maktubi – men Xudoning Ruhidan olgan eng kuchli va insonni o'zgartirishga qodir bo'lgan vahiy-lardan biri hisoblanadi. Bu haqiqatlarni anglab yetgan bir talay jamoatlar, xizmatkorlar va alohida insonlar Osmon Shohligi uchun xizmatlarida yangi maqsad, nazar va ishtiyoqqa erishdilar. Ushbu qo'llanmalar bilan bo'lishish – men uchun katta baxt.

Bu kitobni butun dunyo bo'ylab, sizlarga va barcha xizmatkorlarga sevgim va yordamim belgisi sifatida yuboryapman. Iltimos, bu mavzuni o'rganing va tanishlaringiz orasida boshqa bor bo'lgan qo'llanmalar bilan bo'lishing. Kitobning sahifalaridagi haqiqatlarni chuqurroq tushunib yetganingizda, tilagim, sizga hayotingiz va kelajagingiz uchun Xudodan buyuk rejalar va maqsadlar ochilsin.

Do'stim, men bu vahiy-ni olganimda erishgan o'zgarishlarga siz ham erishishingiz uchun ibodat qilaman. Abadiylik haqidagi vahiy-ni anglashga intilar ekansiz, ishonamanki, sizning hayotingiz, oilangiz va xizmat-ingiz o'zgarmay qolmaydi. Ushbu kitob sizga va shogirdlaringizga qanday ta'sir etganini eshitishdan mamnun bo'lib qolaman.

Masihdagi birodaringiz

John



Jon Biver
JohnBevere@ymail.com



ABADSYAT TOMONDAN BOSHQARILAYOTGANLAR



Jon Biver

«Zamon tashvishlari orasida eng zarur maqsadni koʻzlab yashashni unutib qoʻyish va muammolarga qadalib qolish juda oson. Jon Biverning “Abadiyat tomonidan boshqarilayotganlar” kuchli kitobi sizga mangulikda ahamiyatga ega boʻladigan, yerdagi hayot uchun ragʻbat, ilhom va otlanishni qoʻshadi».

- «LifeChurch.tv» jamoatining bosh choʻponi va kitoblar muallifi, KREYG GRECHEL

«“Abadiyat tomonidan boshqarilayotganlar” kitobi – komil hayotning mazmunini qidiruvchilar uchun javob boʻlib, u eng ustun yoʻl toʻgʻrisida muhim maktubni oʻz ichiga olgan. Bu kitobni, albatta, oʻqib chiqish zarur».

- Ommabop kitoblar muallifi va notiq, JON MAKSVELL

«Mening doʻstim, Jon Biver tomonidan yozilgan “Abadiyat tomonidan boshqarilayotganlar” kitobining oʻn yillik nashri – umr shunchaki bir necha kunlardan iborat emasligini juda soz ravishda esga soladi. Ushbu kitobni oʻqiganingizda, siz orom va umidga ega boʻlasiz, negaki hayotda yuqori darajadagi daʼvatga muvofiq tarzda yashash joizligini esga olasiz».

- «Elevation Church» jamoatining choʻponi va «Nyu-York Tayms» gazetasining fikricha ommabop kitoblar muallifi, STIVEN FERTIK

«Jon “Abadiyat tomonidan boshqarilayotganlar” kitobida, abadiyat toifasida fikr yuritish qanchalik muhimligini anglatish uchun Muqaddas Kitobdan foydalanadi. Uning taʼlimoti Masihga ishonadigan kishilarga qay tarzda bugungi kunda yashab, abadiyat haqida mulohaza qilish mumkinligi toʻgʻrisida koʻproq donolik va tushunchaga ega boʻlishga koʻmaklashadi deb ishonaman».

- Ommabop kitoblar muallifi va Muqaddas Kitob oʻqituvchisi, JOYS MAYER

«“Abadiyat tomonidan boshqarilayotganlar” kitobida insoniyat hayotidagi ulugʻvor “sirlardan” biri – abadiyat jasurona yoritilgan. Jon Biver ushbu mavzu boʻyicha Muqaddas Kitobdagi donolikni, har doimgidek aniq va jon-jahdi bilan tadqiq etadi, oʻquvchilarini oʻz meʼyorlaridan narini

ko'zlagan holda, manguulik haqidagi o'ylar bilan yashashga ruhlantiradi».

- «Xillsong» jamoatining bosh cho'poni, BRAYAN XYUSTON

«“Abadiyat tomonidan boshqarilayotganlar” kitobini mangu meros barpo etishni va Xudo Shohligini kengaytirishni istaydigan har bir kishi o'qib chiqishi lozim. Kalomga tayangan holda, Jon o'z o'quvchilarini yerdagi eng bebaho imkoniyat – vaqtdan mumkin qadar to'g'ri foydalanishga rag'batlantiradi va ilhomlantiradi. Bu kitob – zamonaviy klassika!»

- «Church of the Highlands» jamoatining bosh cho'poni, «Toza havo» va «To'rtta piyola» kitoblarining muallifi, KRIS XODJES

«Jon Biver “Abadiyat tomonidan boshqarilayotganlar” kitobida manguulikning jumbog'ini ochadi va bugungi qarorlarimiz oxirgi nafasimizdan keyingi hayotga qay tarzda aks etishiga ishonarli dalillar keltiradi. Bu kitobni o'zimizga chetlab o'tishga yo'l qo'ymasligimiz kerak».

- «Nyu-York Tayms» gazetasining fikricha, «The Circle Maker» ommabop kitobining muallifi, «National Commu-nity Church» jamoatining bosh cho'poni, MARK BATTERSON

«Jon Biver “Abadiyat tomonidan boshqarilayotganlar” kitobida o'quvchilarni doimo abadiy hayotni ko'zlab yashashga chorlayapti. Jon – mening eng yaxshi do'stim va bu kitobni tavsiya qilish men uchun katta sharaf».

- Jorjiya shtati, Geynesvilladagi «Free Chapel» jamoatining bosh cho'poni va «Nyu-York Tayms» gazetasining fikricha ommabop kitoblar muallifi, JENTEZIN FRANKLIN

ABADSYAT TOMONDAN BOSHQARILAYOTGANLAR

O'n yillik yubiley
munosabati bilan,
yangilangan va
kengaytirilgan nashr



Jon Biver

Driven by Eternity by John Bevere, Uzbek Latin

© 2025 Messenger International

www.MessengerInternational.org

Originally published in English as Driven by Eternity

Additional resources in Uzbek Latin by John and Lisa Bevere are available for free download and video streaming at

MessengerX.com and on the **MessengerX** App

To contact the Author: JohnBevere@ymail.com

This book is a gift from Messenger International and is
NOT FOR SALE

«Abadiyat tomonidan boshqarilayotganlar» Jon Biver,
O'zbek tilida lotincha

© 2025 Messenger International

www.MessengerInternational.org

Birinchi marta ingliz tilida «Driven by Eternity»
nomi ostida chop etilgan.

Jon va Liza Biverlar tomonidan qo'shimcha manbalarni O'zbek tilida
lotincha **MessengerX.com** va **MessengerX** ilovasi orqali bepul ko'chirib
olish mumkin.

Muallifning elektron manzili: JohnBevere@ymail.com

Bu kitob – “Messenjer interneyshnl”dan hadya va SOTISH MAN ETILADI.



App Store AQSHda va boshqa mamlakatlarda ro'yxatga olingan Apple Inc.ning tovar belgisidir.
Google Play va Google Play logotipi Google LLC ning tovar belgisi.

*Men bu kitobni abadiy hayotni
barpo etishda tinmay mehnat qilayotgan
kishilarga bag'ishlayman.
Izlanishda tolmanglar. Uning qayta
kelishi aniq va Uning mukofoti O'zi bilan.
«Abadiy hayot shuki – Seni – yagona, haqiqiy
Xudoni va Sen yuborgan Iso Masihni
tanib-bilishsin».*

Yuhanno 17:3

MUNDARIJA

Kitob haqida.....	11
Soʻz boshi.....	13
Muqaddima.....	15

1 – Boʻlim

1-BOB. Abadiy.....	21
➤ 2-BOB. Affabel sohligi: Endeldagi hayot.....	37
➤ 3-BOB. Affabel shohligi: Birinchi sud kuni.....	57

2 – Boʻlim

4-bob. Oʻliklar uchun mangu uy.....	81
5-bob. Yolgʻon ustidan sud.....	99

3 – Boʻlim

6-bob. Buyuk chekinish.....	129
7-bob. Poydevor.....	155

4 – Boʻlim

➤ 8-bob. Affabel shohligi: Ikkinchi sud kuni.....	167
9-bob. Samo.....	193
10-bob. Masih sudi.....	211

5 – Boʻlim

11-BOB. Xudoning uyi.....	227
12-BOB. Xudo tomonidan daʼvat etilganlar.....	241

6 – Boʻlim

13-bob. Koʻpayish.....	265
14-bob. Shaxsiy taʼsir koʻrsatish.....	291
Ilova. Najotga qanday erishish mumkin.....	307

KITOB HAQIDA

«**A** badiyat tomonidan boshqarilayotganlar» ni boshqa kitoblar singari boshdan oyoq o'qib chiqish mumkin. Kitobdan, shaxsan yoki guruh bo'lib o'rganishda foydalanmoqchi bo'lgan kishilar uchun, u oltita qismga bo'lingan va har bir qismning oxirida mulohaza uchun savollar berilgan. Bu darslar olti haftaga mo'ljallangan, biroq bu tartibni o'z rejangizga binoan o'zgartirishingiz mumkin.

Qismlar va ularga muvofiq boblar:

1-bo'lim.	1-3-boblar.
2-bo'lim.	4, 5-boblar.
3-bo'lim.	6, 7-boblar.
4-bo'lim.	8-10-boblar.
5-bo'lim.	11, 12-boblar.
6-bo'lim.	13, 14-boblar.

Agar siz bu kitobni «Abadiyat tomonidan boshqarilayotganlar» o'quv darsining bir qismi sifatida o'qiyotgan bo'lsangiz, haftada bitta o'quv darsini guruh bo'lib tomosha qilishni yoki tinglashni va tegishli qismda joylashgan mulohaza uchun keltirilgan savollarga javob berishni tavsiya etamiz. Shundan so'ng, har bir guruh a'zosi kitobning muvofiq bobini kelgusi uchrashuvgacha o'qib kelsin. Har bir haftaga bitta o'quv darsi berilgan.

Yoqimli o'qishni tilaymiz!

SO‘Z BOSHI

Har birimiz Xudoning qarshisida turadigan kun keladi.
Biz shunga tayyormizmi?

Kalom bizni ogohlantiryapti: «Shuning uchun birodarlar, o‘z da‘vatingizga va tanlovingizga amin bo‘lish uchun yanada astoydil harakat qilinglar...» (2-Petrus 1:10, ingliz tilidan tarjima). Bu yerdagi asosiy so‘z – amin bo‘lish hisoblanadi.

Siz biror narsada o‘ta darajada amin bo‘lib, so‘ng adashganingizni anglab qolgan payt bo‘lganmi? Hamma erkaklardek, men ham aksariyat hollarda, biror narsaning yo‘nalishi, yo‘riqnomasi, taomili, tartibi yoki usulini bilishimga ishonchim komil bo‘ladi, keyin to‘satdan boshqa joyga kirib qolganimni yoki loyiha, yig‘in va tartib-qoidani yo‘riqnomaga rioya qilgan holda qaytadan boshlash lozimligini tushunib qolaman. Bunday hol meni ranjitadi. Men allaqachon yoqilg‘i, vaqt yoki pul, qandaydir xarajatlar sarfladim. Bilaman deb amin bo‘lgan narsani, aslida bilmagan bo‘lib chiqaman.

Abadiyat bilan ham shunday xatoga yo‘l qo‘yishni istamayman.

Bu kitob ustidan ishlar ekanman, avvalo o‘zimga ko‘p narsalar ochildi. U o‘n yil ilgari nashr etilgan edi, o‘shandan buyon men va jamoam ushbu maktub insonlarning hayotini o‘zgartirayotgani haqida sanoqsiz xatlar olamiz. Biz qayta ko‘rib chiqilgan va yangilangan nashrning ustida ishlash kabi oson bo‘lmagan vazifani muhokama qilganimizda, men bu narsa o‘ta muhim ekanini bilar edim. Ushbu sahifalardagi vahiylar shoshilinch va muhim ekanini kuchli his etdim. Biz Xushxabar qo‘riqchilarining boshqalarni inoyat va haqiqat bilan abadiy hayotga tayyorlashdan yuqoriroq da‘vatimiz yo‘q.

Afsuski, Yaratuvchimizning qarshisida turganimizda, biror narsani o‘zgartirish uchun juda kech bo‘ladi. Kitobni o‘qib yoki o‘rganayotib, sizni

abadiyat uchun o'ta muhim imkoniyatga – O'zining shafqati va inoyati bilan batamom o'zgartirish keltiradigan Muqaddas Ruhning harakatiga ochiq bo'lishingizga umidvorman va shu narsa uchun ibodat qilaman.

Chin yurakdan,
Jon Biver,
2017-yil, may.

MUQADDIMA

Nega abadiyat so'zi diqqatimizni o'ziga tortadi, u qay tarzda butun boshli millatlarga ta'sir etishga qodir? O'tgan asrning o'rtalarida, Birinchi jahon urushi va Buyuk kasodlik oralig'idagi umidsiz vaziyatda umr kechirish uchun tug'ilgan Avstraliyalik Artur Steysning tarixi aynan shu haqda. Uning hayoti muttasil jinoyat sodir etish va ichkilikbozlikdan iborat edi, ammo 1930-yil 6-avgustda Artur Iso Masih bilan uchrashgandan so'ng, hammasi boshqacha tus oldi. U yangi imonli paytida, uning cho'poni Sidneyning har bitta ko'chasida abadiy hayotni e'lon qilishni istab, yig'laganini va ibodat qilganini eshitib qoldi. Artur o'zida bu ibodatni amalga oshirishga undovni his etdi.

U har kuni ertalab tong otmasdan uyg'onib, taxminan bir soatlar ibodat qilar, so'ng soat 5:00 dan 5:30 orasida Xudo uni ilhomlantirgan narsani qilish uchun uyidan ravona bo'lardi. U ko'p soatlar davomida, har yuz qadamdan keyin Sidneyning yo'lovchilar yuradigan yo'llariga yagona narsa – abadiy hayot jumlasini yozib chiqqan. Yigirma yildan ortiq vaqt mobaynida uning bu ishi hamma uchun sirlicha qolib ketgan. Minglab odamlar to'xtab, ma'nosi haqida fikr yuritishga majbur etgan «abadiy hayot» jumlasini kim yozgan edi? U bu so'zning ta'sirini va kuchining miqdorini tushunganmidi? Faqat 1956-yil ushbu sir oshkora bo'ldi.

Arturning o'limidan so'ng sidneylik shoir Duglas Styuart quyidagi so'zlarni bosib chiqardi va bu haq kishining so'zini graffit uslubida abadiylashtirdi:

Ushbu Artur Steys ismli uyalchang va sirli shoir,
Vaqt va zamonning qa'ridan chiqayotgan
Yagona qudratli so'zni,
Butun umrining yumushiga aylantirdi.

Mana, unga abadiy hayot, abadiy hayot
Deb aytili va u eshitdi:
U so'z samodan yangraydigan va do'zaxdan javob qaytaradigan
Qo'ng'iroqning ovozi, uning quloqlarida qolib ketdi.

Bitta jumladan iborat bo'lgan voizlik butun millatga yetib bordi. Uning maktubi Sidneyning markaziy maydonida «abadiy hayot» jumlasini o'yib yozilgan bronzadan bo'lgan yodgorlik toshini o'rnatgan, me'mor Rildi Smit tomonidan kelgusidagi avlodlar uchun ham saqlanib qoldi. Keyinroq bu toshni Sidneydagi Olimpiadaning ochilishi marosimining teletranslyasiyasi orqali butun dunyo bo'ylab tomosha qilayotgan milliardlab odamlar ko'rishga muvaffaq bo'ldilar, undan so'ng, Sidney portining ko'prigida, yangi ming yillikka o'tar kechasidagi bazmda, odamlar mushakbozlik ko'rinishida yana o'sha jumlaning ko'rdilar.


Abadiyat butun insoniyatni asr etadi. U o'ziga jalb qilmagan biron millat, xalq yoki inson yo'q. Biz yuragimizda abadiyat bilan yaratilganmiz va hayotimizning noma'lum davomini ham sezib turamiz. Shunday ekan, Yaratuvchimizning mangu haqidagi so'ziga katta ahamiyat berishimiz zarur, boz ustiga Uning Kalamida aytilgan: «Azaldan Men O'shaman... Men amalga oshiraman va kim buni bekor qila oladi?» (Isha'yo 43:13) (Ingliz tilidan tarjimada «abadiylikdan abadiylikka». – taxminiy tarjima). Aynan shu sababga ko'ra, siz bu kitobni tanladingiz. Siz to'g'ri narsani tanladingiz, deb ishonaman.

Keling, dastavval ibodat qilamiz. Men ovoz chiqarib ibodat qilaman, siz ham menga qo'shilishingizga umidvorman:

Abadiylikning aziz Xudosi, borliqning Yaratuvchisi, Koinot Rabbiysi, men Sening qarshingga O'g'ling Iso Masih nomi bilan kelaman. Quling Jon Biver bilan yakdillikda Sendan ko'rish uchun ko'zlarimni, eshitish uchun quloqlarimni ochishingni va ushbu maktub orqali aytayotgan so'zlaringni anglaydigan va qabul qiladigan yurak berishingni so'rayman. Mening hayotimdagi Sening irodangni va yo'llaringni bilishim uchun Muqaddas Ruhning yordamiga muhtojligimni tan

olaman. Yerdagi har bir kunimda va abadiylikda Senga ma'qul inson bo'lishni istayman. Seni bilishim uchun menga faqat yo'llaringni emas, balki yuragingni ham ochgin, zero Seni Samoviy Ota sifatida tanib-bilish, abadiy hayotni tanib-bilishdir. Sening ajib sadoqating, inoyating va shafqating uchun minnatdorman.

Keling, Muqaddas Ruh sizga o'z kuchingiz bilan erisha olmaydigan zehnni va fahmni berishini bilgan holda, boshlaymiz. Bu naqadar ajoyib!



1 - Bo' LIM

1-BOB

ABADIY

Bizga kunlarimizni sanashni o'rgat...

Qo'llarimizning ishlarida bizni

qo'llab-quvvatlagin, qo'llarimizning ishlarida

bizni qo'llab-quvvatlagin.

— Sanolar 89:12, 17

Aksariyat insonlar umrini behuda yashab o'tishni istamaydilar. Bu Xudodan keladigan to'g'ri istakdir. Yuqoridagi oyatda Muso mana shu haqda so'ragan. Hayotdagi ko'p yo'qolgan narsalarni tiklash mumkin, biroq noto'g'ri sarflangan vaqtni qaytarish imkonsiz. Quyosh ufq ortiga botganidan, kunimiz manguikka yo'l oladi.

Muso Xudodan mehnatimizni muvaffaqiyatli qilishini so'rab ibodat qilyapti. U bu so'zlarni ikki marotaba qaytaryapti. Nima uchun? Musoning xotirasi past yoki u so'zlashda savodsiz bo'lmagan. Aksincha, u bu yerda yahudiy tilida odat tusiga kiritilgan ma'lum bir uslubni namoyish etyapti. O'zbek yoki ingliz tilida kompyuterda biror gapni ajratib ko'rsatmoqchi bo'lsak, buni bir necha yo'sinda amalga oshiramiz, masalan, harflarni yo'g'on, qiya yozmaga aylantiradigan tugmalarni bosamiz yoki undov belgisi qo'yamiz. Bularning barchasi o'quvchining diqqatini eng muhim narsaga jalb qilish uchun ishlatiladi. Biroq yahudiy tilida biror so'z yoki jumlagi urg'u berish uchun uni ikki marotaba yozishgan. Shu bilan birga, yahudiy mualliflari hissiyotni doimo, o'ta darajada ehtiyotkorlik bilan namoyon etganlar. Kalomda ikki marotaba qaytarilgan so'zlar nafaqat biz muvaffaqiyatga ega bo'lishimiz Xudoning irodasi, qolaversa, U buni kuchli ishtiyoq bilan istashidan darak beradi. Mana nima uchun U bu so'zlarga urg'u bergan.

Biz muvaffaqiyatli bo'lish uchun yaratilganmiz. Xudo bizning hayotimiz ma'noli o'tishini istaydi! Dastavval bu bizning emas, Xudoning xohishi bo'lgan. U buni Kalom orqali ochyapti. Ruxsatingiz bilan ikkita ana shunday oyatlarni keltiraman: «Rabbiy Xudoying senga qo'llaringning barcha ishlariga mo'l-ko'pchilik bilan muvaffaqiyat beradi» (Qonunning takrorlanishi 30:9). E'tibor bering, barcha ishlariga deyilgan, ayrimlariga emas! Davom etib, o'qiyimiz: «Ushbu qonun kitobi og'zingdan tushmasin; balki uni tunu kun o'rgangin, toki unda yozilganlarni aniq bajargin. Shunda o'z yo'llaringda muvaffaqiyatli bo'lasan va dono harakat qilasan» (Yeshua Nun o'g'li 1:8).

Muvaffaqiyatdan rohatlanish ilohiy donolikni talab etadi. Kalom aytgan: «Donolikni qo'lga kiritadigan o'z jonini sevadi, sog'lom aqlni saqlaydigan ezgulikka erishadi» (Hikmatlar 19:8). Donolik bizga bilim va kerakli fursatda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini beradi. Donolik maxsus iste'dod egalarga berilmaydi, unga Rabbiydan qo'rqadigan kishilar erishishga huquqli va u Masihda bo'lganlarga ochiladi. Abadiy ma'noga ega hayot kechirish uchun ilohiy donolik talab etiladi, mana, aslida nima haqida bu kitob.

Rohat va mukofot keltiradigan muvaffaqiyat donolikdan dunyoga keladi: «Agar dono bo'lsang, donoliging seni mukofotlaydi» (Hikmatlar 9:12). Xudo senga nafaqat iqbol tilaydi, balki seni mukofotlashni ham istaydi. Yana qayta o'qiyimiz: «Xudo kundan kun haqlarning ezgu ishlarini kuzatadi va ularga mangu meros beradi» (Sanolar 36:18, ingliz tilidan tarjima).

Oxirgi yillar aksariyat jamoatlar Xudo bizni muvaffaqiyatli bo'lishimizni istashi haqidagi haqiqatga diqqatlarini jamlab, to'g'ri qilyaptilar. Biroq muvaffaqiyatga Xudoning nuqtai nazari bilan emas, balki jamiyatning fikri bo'yicha qaralmoqda. Muvaffaqiyat manguilik bilan emas, vaqt toifasida o'lchanmoqda. Shu yo'sinda, noaniq tushunchalar kelib chiqyapti, natijada, bu noto'g'ri maqsad va intilishlarga olib kelyapti. Bir kuni har birimiz koinot Hukmdori, Iso Masihning qarshisida turamiz va agar ilohiy donolikka asoslangan umr kechirgan bo'lsak, abadiy merosga ega bo'lamiz.

Bordi-yu, yanglish niyatlar bilan boshqarilgan bo'lsak, jazolanamiz yoki boqiy yo'qotishni boshimizdan kechiramiz. Shunday ekan, bir necha soatlarni sarflab, U nimani izlayotganini aniqlab olish zarur.

Bu kitobning maqsadi va ma'nosi – nafaqat bugun, balki manguilikda

ahamiyat kasb etadigan hayot kechirishga ko'maklashish hisoblanadi. Bunga qanday erishish Muqaddas Kitobda aniq tarzda aytilgan. Agar biz abadiylikni ko'zlab yashashni istasak, keling, buning nima ekanini anglashga urinib ko'ramiz.

Abadiyat

Kalomdan keltirilgan quyidagi ikkita oyatni diqqat bilan o'qing:

«Hech kim manguqlikni tushuna olmaydi»

(Ayub 36:26, ingliz tilidan tarjima).

«U shuningdek, ularning yuraklariga abadiyatni joylashtirdi»

(Voiz 3:11).

Abadiylik. Bu nima? Unga qanday ta'rif berish mumkin? Uni qay tarzda anglash mumkin? Bir izohli lug'atda bu so'z, poyonsiz vaqt, boshqasida esa – vaqtdan tashqari holat deb ta'riflangan. Nega bir manba abadiylikni vaqt bilan o'Ichayapti, boshqasi esa vaqtdan tashqarida? Nega bu ta'riflar savolsiz qolyapti? Nahotki, yerdagi boshqa mavjud bo'lgan narsaga ikki ilmiy kitob mutlaqo har xil ta'rif bersa-yu, ularning bittasi shubha uyg'otmasa? Olaylik, bitta kitobda baliqqa suvda kun ko'ruvchi, boshqasida quruqlikda kun ko'ruvchi mavjudot deb ta'rif berildi, deydik. Biz zudlik bilan kitoblarning birida yanglishish bor, degan xulosaga kelgan va u kitobni tashlab yuborgan bo'lardik. Nega unda abadiyatga berilgan ta'riflarni shubha ostiga qo'ymaymiz va ulardan birini kalamizdan olib tashlamaymiz?

Haqiqat shundaki, abadiyatni ong bilan anglash imkonsiz. Bizning ongimiz manguqlik mohiyatini va qoidalarini tushunishda chegaralangan.

Quyidagicha misol keltirishga ruxsat bering. Borliqning adog'ini tasavvur etib ko'ring. Uning tashqi chegarasini ko'z oldingizga keltiring. Bordi-yu, bu qo'lingizdan kelsa, o'sha chegarani qanday tasavvur etgan bo'lardingiz? Bu nima o'zi? Devormi? U nimadan tarkib topgan? Qalinligi qancha? Bu devorning tashqi tomoni butun koinotning yakuni hisoblanadimi? Agar shunday bo'lsa, devorning ortida nima bor? Yana fazo davom etganmi? Aslida, fazo borliqning davomi emasmi? Oxiri qayerda? Sizning ongingiz cheksiz olamni qurshab ololadimi? Bular to'g'risida o'ylab ko'ring.

Misol uchun tubsiz jarni olaylik. Uzluksiz qulashda davom etishni tasavvur eta olasizmi? Siz hech qachon tubga yetib bora olmaysiz, hatto uni ko'ra olmaysiz ham, doimo qulashda davom etasiz. Ikki narsa bizning sog'lom aqlimizni qiynaydi: birinchidan, tubsizlik, ikkinchidan, to'xtovsiz qulash. Buni anglash imkonsiz va bu ilmiy uydirmaga o'xshab eshitiladi, biroq Kalomda bunday joy haqida yetti marta yozilgan.

Insonning Yaratuvchisi, Xudoning O'zi haqida nima deysiz? Uning kelib chiqishi, to'g'rirog'i, Uning «kelib chiqish nuqtasi yo'qligi» haqida o'ylab ko'ring. Kalom Uning «mangulikdan mangulikkacha» ekanini tasdiqlaydi. Agar U tug'ilmagan va Uni hech kim yaratmagan bo'lsa, qanday Xudo bo'lishni boshladi? U qanday rivojlanib bordi?

Haqiqat shundaki, Zabur qo'shiqchisi aytganidek, U Xudoga aylangani yo'q: «Tog'lar tug'ilishidan oldin, yer va koinotni yaratishingdan oldin asrlardan asrlargacha Sen – Xudosan!» (Sanolar 89:3). Bu haqda mulohaza qilib ko'ring. Mulohazani boshlab, Ayub yozganidek, bu bizning tushunchamizdan yuqorida ekanini anglab yetamiz: «Hech kim mangulikni tushuna olmaydi».

Yuraklardagi abadiylik

Yaratuvchimiz tushunchamizdan yuqorida bo'lgan haqiqatni yuraklarimizga joylagan. Mangulik bizning yuragimizga tanish tushuncha. U har bir kishida tug'iladi. Shuning uchun aytilgan: «Aqlsiz odam o'z yuragida: «Xudo yo'q», – dedi» (Sanolar 13:1). E'tibor bering, Kalomda: «Aqlsiz o'z ongida», deb aytilmagan. Aksariyat, darg'azab tarzda Xudoni borligini rad etadigan xudosizlar yuraklarida Uning borligini biladilar, negaki bu bilim yuraklariga joylangan. Ularning yuraklari hali to'liq tanazzulga yuz tutish darajasida bag'ritosh emas.

Mening uzoq yillar ilgari o'zini xudosizligiga ishonchi komil deb hisoblab yurgan do'stim bor. Biror kishi u bilan Xudo haqda gapirishiga ruxsat bermagan, bir kuni u hatto hamkasbining qo'lidagi Muqaddas Kitobni tortib olib, yerga uloqtirgan-da, uni oyoqlari bilan bosishni boshlagan va hamkasbini ham, Muqaddas Kitobni ham la'natlab ketgan. U o'sha masihiyni zaiflikda va ongi pastlikda ayblagan.

Ko'p yillar o'tib, o'sha xudosiz ko'krak qafasida dahshatli og'riqni his eta boshladi. Shifokorlar og'riqning sababini bilish uchun uning ko'krak qafasini ochishdi va shu zahoti tikib tashlashdi, unga esa yigirma to'rt soatdan ko'p yashamasligi haqida aytishdi.

Kechasi krovatida yotib, borishni hech istamaydigan manzilga yo'layotganini angladi. Hech kimga Kalomda nimalar yozilganini aytishga ruxsat bermagan odam, manguilik haqida qayerdan bilishi mumkin. Balki manguilik uning yuragida bo'lgandir, chunki Kalom butun insoniyat haqida aytgan: «Chunki Xudo haqida nimani bilish mumkin bo'lsa, ularga ayondir, negaki Xudo ularga ochib bergan» (Rimliklarga 1:19).

O'sha kecha do'stimning yuragi to'xtadi. U tanasidan chiqib, chuqur zulmatga g'arq bo'la boshladi. Zulmat shu qadar quyuq ediki, u xuddi uni o'rab olgandek edi; birorta ham yalt etgan yorug'lik ko'rinmas edi. Uzoq vaqt davomida zulmatga qular ekan, azob tortayotgan jonlarning muzlatadigan qichqirig'ini eshitdi. Shiddatli kuch uni to'g'ri do'xazning eshiklariga tortayotganida, birdan o'z tanasiga qaytdi. U hayotga qaytdi.

Ertasiga u bilgan yagona masihiyga qo'ng'iroq qildi. Uning tanishi keldi va faqat Iso Masih orqali keladigan najot haqida voizlik qildi. U Iso Masihni Rabbim va Najotkorim deb qabul qilishi bilan tanishi u uchun shifo so'rab ibodat qildi. U uch haftadan so'ng, kasalxonadan chiqdi, bugun shu kitobni yozar ekanman, o'sha kishi bugun tirik va sog'-salomat. Bu haqiqiy mo'jiza.

U xudosizligida, Xudo yo'q deb yurgan, shunday bo'lsa-da, manguilik uning yuragida yashagan. Aqlsiz kishi Xudoni nafaqat ongida rad etadi, qolaversa yuragida, vijdon saviyasida Unga qarshi turadigan odamdird. Bunday insonga haqiqatni yetkazish imkonsiz. Ong darajasida ishonish boshqa, negaki buni tuzatsa bo'ladi, ammo yurakni tosh qilish, umuman boshqa narsa. Yungerning Muqaddas Kitobning yangi lug'ati quyidagicha ta'rif beryapti: «Kalomda aytilgan aqlsiz – bu avvalom bor, Xudoning qo'rquvini rad etuvchi hamda fikrida va hayotida Xudo haqligining abadiy qoidalarini bejazo mensimay yashovchi kishi hisoblanadi».

Aslida esa aqlsiz Xudoni fikran tan olishi, biroq yuragida Uning bor ekanini rad etishi mumkin, buni hayot tarzi bilan ko'rsatib turadi. Xudodan qo'rqish – mana nima yuragimizni Muqaddas Ruhning qo'li

yetadigan tarzda saqlab turadi, uni yo'qotsak, boshqa choramiz qolmaydi. Pavlus aytgan: «Ey, erkak va birodarlar, Ibrohim avlodidan bo'lganlar va orangizdagi Xudodan qo'rqadiganlarning barchasi! Bu najot so'zi sizlarga yuborilgandir» (Havoriylar 13:26). Faqat Xudodan qo'rqadiganlar abadiy hayot So'zlarini eshita olishadi, xolos.

Abadiylikning ta'rifi

Abadiyatni ongimiz bilan anglay olmasligimizga qaramay, u yuraklarimizga joylangan. Mangulikka ta'rif berar ekanmiz, sizlardan o'z yuraklaringizga quloq solishni so'rab qolaman, bu ushbu kitobdan naf topish uchun zarur. Buni qay tarzda amalga oshiramiz? Avval Muqaddas Ruhning ko'magiga muhtoj ekaningizga iqror bo'lishingiz va so'z boshida yozilganidek, Undan bu haqda so'rab ibodat qilishingiz lozim. U sizning ongingizga emas, ichki insoningizga gapiradi. Ikkinchidan, yuragingizga haqiqatlar ta'sir qilganida, mulohaza yuritish uchun vaqt oling. Kitobni o'qish jarayonida shoshilmang. Shoshilib o'qishdan kam foyda topasiz. Xudo abadiy So'zining to'liq ta'sirini his etish uchun yuqoridagi ikkita bandni qo'llang va siz butkul o'zgarasiz. Dovud aytgan: «Sening qarshingda gunoh qilmaslik uchun, Sening so'zingni yuragimda yashirdim» (Sanolar 118:11). Faqat ong bilan o'qimang, aks holda o'qiganlaringizni tezda unitib qo'yasiz, lekin ibodat va o'rganish orqali, Uning so'zi yurakka kirib borishiga izn bering.

Abadiylikning oxiri yo'q. Har holda gap vaqt haqida ketmayapti, chunki abadiylik vaqtga bo'ysunmaydi. Abadiylik vaqtdan ustun turadi. Mangulik haqida atigi uzluksiz muddat toifasida qarash ham – uning to'liq mazmunini ko'zdan qochirish degani. Mangulikni yaxshiroq tushunish uchun, biz Xudoning O'ziga boqishimiz lozim. U kuchda ham, bilimda ham, donolikda ham, fahmlashda ham, sharafda ham cheklanmagan. U mavjud, abadiy Xudo bo'lgan va bo'lib qoladi. Uning ismi «Abadiy Ota» (Isha'yo 9:6). Yungning aniq tarjimasida o'qiymiz: «Abadiylik Otasi». Uning ismi: «Abadiylik Shohi» (1-Timotiya 1:17). Barcha abadiylik Unda mujassam. Unga aloqasi bo'lmagan narsalarning bari – vaqtinchalik va o'zgarishga moyil. Biror narsa qanchalik yaxshi, ahamiyatli, qudratli yoki chidamli

ko‘rinmasin, oxir-oqibat hammasi g‘oyib bo‘ladi. Hatto zaminimiz va koinot ham o‘zgaradi, biroq U o‘zgarmaydi:

«Yana: «Yo, Rabbiy, Sen azaldan yerning poydevorini qo‘ygansan, osmon ham Sening qo‘llaringning ishidir. Ular yo‘q bo‘lib ketadi, ammo Sen mangu qolasan; ularning hammasi kiyimday eskirib ketadi. Sen ularni rido kabi o‘rab qo‘yasan va ular o‘zgarib ketadi. Lekin Sen O‘sha-O‘shasan, Sening yillaring tamom bo‘lmaydi» (Ibroniylarga 1:10-12).

U nafaqat mangu turadi, balki abadiy o‘zgarmaydi. Kalom bildiriyapti:

«Chunki har bir inson – o‘t kabidir, insonning har qanday shuhrati o‘tdagi gul kabidir: o‘t qurib qoladi, uning guli ham to‘kiladi. Ammo Rabbiyning So‘zi abadiy turadi. Ana shu So‘z – sizlarga voizlik qilingan Xushxabardir» (1-Petrus 1:24, 25).

U abadiy, shu sababli Uning so‘zlari ham abadiy. Xudo alday olmaydi va Uning so‘zi mustahkam. Aksincha bo‘lsa edi, butun mavjudot tashqi zulmatga qulagan bo‘lar edi, zotan U nur va borliqni O‘z So‘zining kuchida ushlab turibdi. Uning aytganlari o‘zgara olmaydi, aks holda U abadiy bo‘lmas edi. Biz bundan hayotimizni qurishda mustahkam poydevor sifatida foydalana olamiz.

Abadiy hukmlar

Bugun ko‘pchilik hayotini boqiy poydevorda, Xudoning Kalomida emas, madaniy an‘analarda, Xudoning Kimligi haqidagi shaxsiy nuqtai nazarida yoki hissiy kechinmalarida qurmoqda. Bu nafaqat imonsizlarga, balki ko‘plab imonli masihiylarga ham tegishlidir. Qandaydir vaqtinchalik narsalarga ishonish, ularni abadiy haqiqat deb bilish, dahshatli. Bunday kishining asosi beqaror va u qulashga mahkum. U yanglish fikrlarda yuradi va yolg‘onga ishonadi.

O‘tkinchi narsalarga ishonadigan odamlar ko‘pligidan lol qolaman. Ayrımlari Xudoga va Uning O‘g‘liga bo‘lgan imonlari haqida aytib beradilar, ammo Ular ishonadigan zot bizga Kalomda ochiladigan Xudo emas. Ushbu yanglishish ularda yetarlicha chuqur ildiz otgan. Inson qanday qilib,

ongidagi jamiyat tomonidan shakllangan va Xudoning tabiatiga qarama-qarshi bo'lgan oddiy tushunchalariga rost deb ishonadi? Iso Masih aytgan:

«Meni rad qilayotgan va Mening so'zlarimni qabul qilmayotgan odamning hukm qiluvchisi bor – Men aytgan so'z, aynan shu so'z uni oxirgi kunda hukm qiladi. Chunki Men O'zimdanda so'zlagan emasman, lekin Meni yuborgan Otam – U nima deyishim kerakligini va nima aytishim kerakligini Menga amr berdi» (Yuhanno 12:48, 49).

Hukm Kuni dunyo barpo bo'lgan paytdayoq belgilangan (Havoriylar 17:13 ga qarang). O'sha kun haqiqatning yangi vahiyalarini keltirmaydi, aksincha, hamma narsa avval aytilgan so'zlar bilan o'lchanadi. Oxirgi kunda biz hozir ega bo'lgan Uning Kalomi hukm qiladi. Abadiy. Yakuniy. Hech qanday mustasno, bahona va o'zgarishlarsiz. Shunday ekan, yangilishda Xudo nima deganini taxmin qilib yurgandan ko'ra, Uning So'zini bilishdan foyda olib va Uning aytganlari bo'yicha yashash afzalmasmi?

O'sha kuni amalga oshadigan hukmlar abadiy deb ataladi (Ibroniylarga 6:2 ga qarang). Boshqacha so'zlar bilan aytganda, hayotimizni Uning Kalomi bo'yicha qurganmizmi yoki yo'qmi, shunga mos qarorlar qabul qilinadi va ular manguilikni qay tarzda o'tkazishimizni aniqlaydi! Ushbu qarorlar hech qanaqasiga o'zgartirilmaydi, shuning uchun ham ular abadiy hukmlar deb nomlanadi.

Aksariyat imonlilar imonsizlar singari yaqinlashayotgan hukmlarga beparvolik bilan qaraydilar. Ular Muqaddas Kitobdan uzoq bo'lgan yolg'on tushunchalarga suyanadilar. Ayrimlari, Xudo ularning yomon ishlaridan ko'ra yaxshi ishlarining soni ko'pligini ko'rganida, iltifot ko'rsatadi deb o'ylaydilar. Samodan tug'ilgan boshqa masihiylar esa, hammadan ko'proq hayratda qoladilar: axir, ularni Iso Masih Hukmdorning qarshisida turmaysiz, zero U sizning Najotkoringiz, deb o'rgatganlar. Hammasi o'z-o'zidan o'nglanib ketadi, deb o'ylaydiganlar ham uchraydi. Ular Kalomga zid bo'lgan shafqatga umid qiladilar.

Yangi Ahd yuqoridagi tushunchalarning birortasini ham o'rgatmaydi. Bu va shunga o'xshash ko'plab nazariyalar insonlarning ongida tug'ilgan, ular o'tkinchi, boqiy va hukm kunida bardosh bera olmaydi. O'zlarini masihiy deb

ataydigan – aksariyat erkak va ayollar orasida ko'pchilik – Hukm kuni ruhiy larzani boshidan kechirishiga shaxsan men aminman.

Hukm kunidagi dadillik

Biz hukmga qo'rquv emas, dadillik bilan kelishimiz joiz.

«Sevgi bizda shunday kamolotga erishadiki, hukm kunida dadil bo'lamiz, chunki biz bu dunyoda Masih kabimiz» (1-Yuhanno 4:17).

«Sevgi bizda shunday kamolotga erishadiki» so'zlariga e'tibor bering. Hukm kunidagi dadilligimizning kaliti bizda mukammallikka (yoki yetuklikka) erishgan Xudoning sevgisi hisoblanadi. Aynan shu joyda ko'pchilik xatoga yo'l qo'yadilar. Ular Xudoning sevgisiga abadiyat emas, balki vaqtinchalik toifasida qaraydilar. Ko'p hollarda, jamiyatda, ba'zan jamoatda maqtaladigan sevgi va ezgulik, insoniy mezon bilan o'lchanadi hamda Xudoning sevgisiga to'g'ri kelmaydi. Bir nechta keng tarqalgan misollarni keltirishga ruxsat berasiz.

«Biz bir-birimizni sevamiz va turmush qurishni istaymiz». Bunday gaplarni nikohdan tashqarida jinsiy yaqinlikka ega bo'lgan kishilardan tez-tez eshitish mumkin. Ular kelajakda rostdan ham oila qurishidan qat'iy nazar, bu gunoh hisoblanadi. Har holda, shu asnoda gapiradigan kishilar nikohgacha yetib bormaganlarini qayta-qayta guvohi bo'lganman. Ular aniq qilib yozilgan buyruqni unutganlar: «Nikoh hammangizda qadrlil bo'lsin, jinsiy munosabatingiz nopok bo'lmasin. Zinokorlaru fohishalarni esa Xudo hukm qiladi» (Ibroniylarga 13:4). E'tibor bering, Ibroniylarga Maktubining muallifi nafaqat jamoatdan tashqaridagi zinokorlaru fohishalarga murojaat etyapti, balki u hamma shunday hayot kechirayotgan kishilar haqida gapiryapti.

«Hamma gapni ochiq aytmayotganimni bilaman, ammo bu bitim tuzishda yordam beradi». Shunday deb, o'zlarining fikricha yaxshi bo'lgan molni sotmoqchi bo'lgan, lekin sotib oluvchini ilintirish uchun dalillarni ozroq bo'rttirish kerak, deb hisoblaydigan ishbilarmonlar aytadilar. Bu yerda gap faqat yolg'on aralashganida emas: hammaga ma'lumki, bunday kelishuvlardan har gal shunday yo'l tutadiganlarning faqat o'zlari naf ko'radilar. Nahotki ular quyidagi ogohlantirishni

unutganlar: «Va barcha yolgʻonchilarning (bilib turib yolgʻon gapiradigan yoki nohaqlik qiladiganlarning) qismati oltingugurt va olov bilan yonayotgan koʻldadir» (Vahiy 21:8, Kengaytirilgan tarjima)?

Shu kishi haqida aytganlarimning barchasi – «haqiqat», deb hamkasblarini, doʻstlarini, qoʻshnilarini salbiy tomonini koʻrsatayotgan kishilar gapiradi. Hamma gap shundaki, yuz foiz oʻzicha haq boʻlish va baribir abadiy andazalarga koʻra nohaq boʻlib qolish mumkin. Nuhning kichik oʻgʻli Xam esingizdami? U akalariga otasining mast va yalangʻoch yotgani haqida aytdi va bu haqiqat edi. Bunga qaramasdan, u qilgan ishning oqibati uni va avlodlarining ustiga laʼnat boʻlib yogʻildi. Nahotki gʻiybatchilar va shikoyatchilar hamma imonlilarga qaratilgan buyruqni unutgan boʻlsalar: «Birodarlarim, mahkum boʻlmasligingiz uchun bir-biringizdan nolimanglar. Mana, Hukm qiluvchi eshik oldida turibdi» (Yoqub 5:9).

Bitta umumiy xulosaga ega boʻlgan son-sanoqsiz misollar keltirish mumkin – ularning bari Xudoning abadiy irodasiga zid. Jamoatga qatnovchilarning orasida ham, bir qarashdan beayb narsalarni gapiradiganlarning borligi odamni qoʻrqitadi. Ular suhbatlarda qatnashadi va atrofdagilar tomonidan namunali fuqaro deb baholanadilar. Ammo abadiyat ularni qanday baholaydi? Yuhanno oʻz maktubida Xudoning sevgisini qanday oʻstirish kerakligini tushuntiryapti.

«Kimki men Uni tanib bildim (ichiga kirdim, bilib oldim, Uni (Iso Masihni) tushundim) deb aytsa-yu, lekin Uning amrlariga (taʼlimotiga) rioya qilmasa, u odam yolgʻonchi va unda haqiqat (Xushxabar) yoʻqdir. Kimki Uning Soʻziga (Uning buyruqlarini ongida saqlasa va Uning maktublarini abadiy mazmunda tushunsa) rioya qilsa (xazinani asragandek asrasa), u odamda Xudoning sevgisi haqiqatan kamolga yetgan boʻladi. Ana shundan biz Unda jo ekanimizni bilamiz» (1-Yuhanno 2:4, 5, Kengaytirilgan tarjima).

Yodingizda boʻlsa, Xudoning aynan mukammal (yetuk) sevgisi Hukmdorning qarshisida turishga dadillik beradi. Yuhanno, zero Xudoning sevgisi odamlar orasida maʼqul yurish-turish orqali emas, Uning amrlarini bajarish orqali mukammal boʻlib boradi, deb aniq tarzda tushuntiryapti.

Unutmang, Havvani yaxshi va yomonni tanib bilish daraxtining yomon tomoni emas, balki yaxshi tomoni o'ziga tortdi! «Xotin daraxtning oziqqa yaxshi, ko'zga yoqimli va donolik berishi uchun ardoqli ekanini ko'rdi» (Ibtido 3:6). Insonning ongi Xudoning abadiy irodasiga zid bo'lgan go'zallik va ezgulikni yaratish mumkin.

Kalom Xudoning amrlarini qisman bajarib, o'zimizni Hukm kunida Rabbii qarshisida dadil tura olamiz, deb ishontirishimiz mumkinligini aytgan. Uning Kalomiga sinchkovlik va ehtiyotkorlik bilan rioya qilish yo'li bilangina Xudoning sevgisi yetuklikka erishadi. Binobarin, Xudo bizga inoyat bergan, inoyat o'z o'rnida U istagandek, Uning So'ziga to'liq itoat etishimiz uchun kuch beradi: «Shuning uchun biz larzaga solinmaydigan shohlikni qabul qilib, inoyatni mahkam tutaylik, toki shu inoyat bilan ehtirom va qo'rquvda Xudoga ma'qul xizmat qilaylik» (Ibroniylarga 12:28).

Gapimizning ma'nosi, jamiyatning ko'zida yoki insoniy tushunchalar bo'yicha yaxshi ko'ringan narsalarni emas, Shoh nimani izlayotganini bilib olishdadir. Xudo bizga deydi: «Bu dunyo bilan tenglashmanglar, balki ongingizni yangilash orqali tubdan o'zgaringlar, toki sizlar Xudoning yaxshi, ma'qul va komil irodasi nima ekanligini fahmlab olinglar» (Rimliklarga 12:2). Bizning madaniyatimiz uchun yaxshi tuyulgan narsalar, Xudoning xohishlariga – abadiy xohishlarga mos kelmasligi mumkin.

Misol keltirishimga izn bering. Men hozir Singapurning mehmonxonasida o'tiribman, dam olish kunlari bu yerdagi ajoyib davlatning qariyb yigirma ming kishilik anjumanda voizlik qilaman, men bu davlatda ko'p marta bo'lganman. Shuningdek, o'zingiz bilan, masalan bang olib yurish qonunga zid bo'lmagan Niderlandiyada ham bir necha marta voizlik qilganman. Odamlar jazodan qo'rqmay, uni ochiqcha chekib yurishlari mumkin. Agar Singapurda odamni bir qancha miqdordagi giyohvand modda bilan ushlasa (hatto kam miqdorda bo'lsa ham), u qamaladi va qattiq jazolanadi. Bordi-yu maxsus giyohvand moddalarni topishsa, jazosi – osish orqali o'lim! Chegaradan o'tayotganda har bir kishiga: «Singapurning qonuniga muvofiq, giyohvand moddalarni sotadigan kishilar o'lim jazosiga tortiladilar», deb yozilgan varaqcha beriladi.

Endi tasavvur qilib ko'ring, uyida doimiy bang chekadigan

Niderlandiyalik yosh yigit Singapurga keladi va mahalliy yashovchilarni modda bilan mehmon qiladi. U yangi do'stlariga zavq bilan deydi:

– Hoy, yigitlar, bu zo'r narsa. Tinchlantiradi, kayf beradi va barcha tashvishlarni olib ketadi. Tatib ko'rishni istaysizlarmi? Bajonidil, sizlarni mehmon qilaman!

Uni zudlik bilan hibsga oladilar. U esa qotib qolgan.

– Nima sababdan meni hibsga olishdi? - Uning milisiya xodimlariga bergan birinchi savoli shunday bo'ladi. Hukm kuni yetib keladi. Golland hakamning qarshisida turar ekan, sodir bo'layotgan voqealar – atigi tushunmovchilik, deb chin dilidan ishonadi.

Biroq hakam aybdor deb tan oladi va jazoni e'lon qiladi.

Hayajonda qolgan yigit aytadi:

– Hurmatli hakam, mening davlatimda bangni erkin tarzda chekishga ruxsat berilgan.

Shunda hakam javob beradi:

– Siz Gollandiyada emas, Singapurdasiz, ushbu davlatda bu ish qonun tomonidan taqiqlangan!

Gollandning aminligi yo'qoladi, oliy sud qarshisida uning endi hech qanday bahonasi yo'q, u mahkum.

Bir necha yil ilgari Singapurda bo'lganimda, bir yosh amerikalikni bironvi mashinasini buzib ochgani uchun hibsga oldilar. Uni hukm qilishdi va jazo sifatida rotang (chirmoviqning shoxi) bilan bir necha marta urishni belgilashdi. Bunday jazo odamga jismoniy zarar yetkazadi, negaki rotang ximik moddalar bilan shimirilgan bambukdan qilingan xivich bilan savalashadi. Hatto prezident Klinton ham o'sha amerikalikning qismatini yengillashtirish haqida kelishishga urindi. Biroq hamma harakatlar behudaga ketdi. Bu yigit Singapurning qonunini buzdi va endi jazoni o'tashi kerak bo'ldi.

Biz barchamiz kun kelib, borliqning oliy sudi qarshisida turamiz. Bu sudning qarori abadiy bo'ladi. Ko'plar hayratda qoladi, lekin bunday vaziyatdan qochib qutulishning imkoni bor.

Siz tayyormisiz? Xudoning So'ziga ko'ra, biz borliqning Hukmdori

qarshisida dadillik bilan tura olishimiz mumkin ekan. Bu kitob sizga tayyorgarlik ko'rishda ko'maklashish uchun yozilgan. Agar o'sha golland Singapurga safarga borish uchun vaqt ajratgan va tayyorlangan bo'lsa edi, jazo olmagan bo'lardi. Biz uchun o'zimizning sudimizga tayyor bo'lish, qanchalik muhim, axir Hukm kunidagi qaror abadiy bo'ladi.

Mukofotlar

Sudlar bir nechta bo'ladi: biri imonsizlar uchun, boshqasi imonlilar uchun va hatto, yana biri farishtalar uchun. Qabul qilinadigan qarorlar ham turli xil bo'ladi. Jazo va yo'qotishlar ham, mukofotlar ham bo'ladi. Bular haqida keyingi boblarda batafsil aytib o'tamiz, biroq qabul qilinadigan qarorlar yakuniy bo'lishini yana bir marta takrorlab o'tishga ruxsat bering. Qayta ko'rib chiqilishning imkonini yo'q, boshqatdan, xayolan cheksizlikni tasavvur etib ko'ring. Biz u haqda oldindan bilishimiz va mukofotga intilishimiz Xudoning irodasidir. Pavlus aytgan:

«Nahotki bilmasangizlar, masofaga yugurayotganlarning hammasi yuguradi-yu, ammo (atigi) bir kishi mukofot oladi. Sizlar ham mukofot olish uchun (o'z masofangizni) yuguringlar. Musobaqada kurashadigan har bir odam o'zini hamma narsadan tiyadi. Ular buni chiriydigan toj olish uchun, biz esa chirimaydigan toj olish uchun qilamiz. Shuning uchun men ham maqsadsiz yugurayotganday yugurmayapman, havoni urayotganday mushtlamayapman, lekin o'z tanamni bo'ysundirib (tanamni ayamay, qiyinchiliklar bilan intizomga solib), o'zimga qul qilyapman, toki boshqalarga voizlik qilib, o'zim nolo'iy deb topilmayin» (1-Korinfliklarga 9:24-27, Kengaytirilgan tarjima).

U aniq aytyapti: «Men tayin maqsadsiz yugurmayapman». Boshqa tarjimada aytilgan: «Men har bitta qadamimni aniq maqsad bilan qo'ymoqdaman, mukofotga qarab yugurmoqdaman» (26-oyat, ingliz tilidan tarjima). Har bir kishi aynan shunday yo'l tutishi – g'alaba qozonish maqsadida yugurishi joiz. Biz boshqalar bilan emas, o'zimiz bilan bellashamiz.

Abadiyat tomonidan boshqarilayotganlar

Sudda hammasi o'z-o'zidan yo'lga tushib ketadi deb o'ylash noo'rin. Bizning uzrimiz qabul qilinmaydi. Negaki Xudo bizga O'z irodasini bilishning imkonini ochdi. Sudda boshqalar bilan taqqoslaganda, hamma narsani to'g'ri qilganiga amin bo'lgan, biroq abadiylik ularning hayotini boshqarishiga va aniqlashiga yo'l qo'ymagan odamlar ko'p bo'ladi. Mana nima uchun bu kitobning nomi – «Abadiyat tomonidan boshqarilayotganlar».

Boshqarilayotganlar ularni nimadir harakatga keltirishi, yo'naltirishi va boshqarishini anglatadi. Qolaversa, bu so'zni ruhlantiradigan kuch beradi, deb tushunish ham mumkin. Yerdagi hayotimizning maqsadi va yo'nalishi nima? Abadiy narsalarmi yoki o'tkinchi narsalarmi? Uning poydevori ilohiy donolikdami? Biz boshqalar bilan o'zimizni taqqoslaymizmi, yolg'onlarga quloq tutamizmi, an'ana va ayrim ta'limotlardagi aytiladigan afsonalarning payida bo'lamizmi? Hayotimizni qurgan narsalar Hukm kunida Uning qarshisida bardosh beradimi yoki barcha mehnatlarimiz abadiyga yo'q bo'lib ketadimi? Biz sudda nimaga asoslanilishini allaqachon bilamiz: «Men aytgan so'z, aynan shu so'z uni oxirgi kunda hukm qiladi» (Yuhanno 12:48).

Aksariyat, o'zini masihiy deb ataydiganlar, sudda Iso Masihning oldiga kelib, taajjubda qoladilar. Haqiqatni diqqat bilan o'rganishga beparvo bo'lgan va Yangi Ahd ta'limotining faqat bir qismini qabul qilib, o'zini xavfsizlikda sezib yurganlar ham bo'ladi. Sizga savolim: haqiqatni juda kech – abadiy qaror chiqarib bo'linganda bilishni istaysizmi yoki hozir – qaysi andazalarga ko'ra sud bo'lishini bilishga imkon borligidami?

Keyingi bobda bir necha boblarni o'z ichiga oladigan kinoya janridagi voqea boshlanadi. E'tibor berib o'qing va hikoya tafsilotlarini eslab qoling, zero butun kitob davomida ularga tez-tez qaytamiz. Bu voqeaning oxiri sakkizinchi bobda joylashgan, boshqa boblarda esa unda ochilgan haqiqatlar to'g'risida mulohaza yuritamiz. Butun kitob kinoya asosida qurilgan, shunday ekan uni sinchiklab o'qing. Balki o'qish jarayonida ortga qaytib, ayrim narsalarga aniqlik kiritishni istashingiz mumkin.

Bu kitobda aytilgan narsalarning aksariyat qismi – shaxsiy hayotimdagi

Xudo jiddiy tartibga solishidan kelib chiqqan tajriba. O'zining haqiqati bilan xuddi mikroskop ostida tekshirgandek, Muqaddas Ruh diqqat bilan tahlil qilgan ko'pgina xatolarim haqida aytib beraman. Bu hukm kunida tebranmas poydevorga ega bo'lish uchun, Kalomni chuqur o'rganishga istak uyg'otadi, deb umid qilaman. Shuningdek, jamiyatimizdagi ko'p ayol va erkaklarni o'zlarining Najotkori deb hisoblaydigan Shaxsdan uzoqlashtirayotgan o'ta muhim yanglishishlar haqida aytib o'taman. Ba'zi joylarda taajjubni sezasiz, ammo ularning ortida va'dalar, umid va yupanch turibdi.

Mabodo siz jasur, haqiqatga chanqoq va yuragingiz Xudoga tegishli bo'lsa, keling, boshlaymiz. Afsuslanmaysiz! Bor qalbingiz bilan quyidagilarni qabul qiling:

«Xudoning in'omi U bilan munosabatlarimizni tikladi va bizga hayotni qaytarib berdi. Kelajakda bizni yanada buyuk hayot – abadiy hayot kutyapti! Siz bunga amin bo'lishingiz mumkin. Men sizlar bunda mustahkam turishlaringni istayman, toki Xudoga umid qiluvchilar hamma uchun eng muhim va foydali narsalarga diqqat qilsinlar» (Titusga 3:7, 8, izohli tarjima).

AFFABEL SHOHLIGI: ENDELDAGI HAYOT

*U masallar (misollar yoki qiyoslash bilan haqiqatni tushuntirish)
orqali ularga ko'p ta'lim berib, O'zining ta'limotida dedi...*

— Mark 4:2 (Kengaytirilgan tarjima)

Bir paytlar biznikiga o'xshagan, shu bilan birga ko'p jihatdan farq qiladigan dunyo bo'lgan. O'sha dunyoda bir-biridan mustaqil bo'lgan millatlar emas, balki Affabel deb nomlangan yagona shohlik bor edi. U o'sha davrda ma'lum dunyoning hamma yerini egallagan bo'lsa-da, butun mamlakatni boshqarish bilan shug'ullanadigan bitta poytaxtga ega edi. Poytaxt Buyuk Affabel shahri deb nomlangan bo'lib, biz quyida uni faqat Affabel deb ataymiz.

O'sha maftunkor mamlakatda tengsiz shoh Jeylin rahbarlik qilardi. Jeylinni o'z fuqarolari o'ta darajada hurmat qilar va qadrlardi. U kuchli, dono, mehribon va hazil-mutoyiba sohibi edi. Barcha mansablariga qaramay, Jeylin odamlarga yetarlicha yaqinlik va ochiqlik ko'rsatardi. U bilan birga bo'lganlarning har biri yaxshilik muhitiga g'arq bo'lardi. Uning ishtiroki hayotning har qanday sohasini yanada yuqori pog'onaga olib chiqardi. Jeylin inson harakatlarining ortini ko'ra olish qobiliyatiga ega bo'lib, odamning yuragidagi maqsadni chuqur his etardi.

Jeylinning otasi Affabelga asos solgan hamda u Ota-Asoschi degan nom bilan mashhur edi. U mamlakatda tartib o'rnatib, so'ng boshqaruvni o'g'liga topshirgan. Buyuk shaharda istiqomat qiluvchilar shohlikning boshqa hududlarida ham, Jeylinga ish yuritish borasida ko'maklashgan



va uning rejalarini qo'llab-quvvatlaganlar. Idora qilish, poytaxtdan turib, yuqori tayinlangan mansabga bo'ysunish ko'rinishidagi hokimiyat tizimi orqali amalga oshirilgan.

Shahar ulkan hududni egallagan (taxminan ikki yuz kvadrat kilometr) va shu qadar ustalik bilan tuzilgan ediki, aholining zichligiga qaramay, odamlarning soni ortib ketmasdi. U hovlilar va qishloqlar bilan o'ralib turardi. O'sha qishloqlar ishchilarning oddiy uylaridan tashkil topgan edi (bunday oddiy uylar bizning zamonimizda hashamatli va nafis hisoblangan bo'lardi). Qishloq aholisi qizg'in mehnatda bo'lishiga qaramay, shohning poytaxti yonida yashashdan shod edilar. Adirlarning shimoliy va janubiy yonbag'rlari san'at odamlari – mahoratli musiqachilar, naqqoshlar, rassomlarning uylarini bezab turardi. Ularning uylari dang'illama va bahosi oddiy ishchilarning uyidan qimmatroq edi.

Shaharning eng ko'rkam qismi qoyilmaqom hovlilardan qurilgan sharqiy tuman edi. Bu tuman Shohlik markazi deb nomlangan. Shoh va uning yaqin yordamchilari bu yerda vaqtining ko'p qismini o'tkazishardi. Aynan o'sha joyda ma'muriyat boshqarmasi va ijtimoiy muassasalar ish yuritir edilar. Shahar markazi Buyuk dengizning qirg'og'i qoyalarining ko'rki edi. Okean kengliklaridan doimiy esgan ohista shabada shaharga salqinlik keltirib turardi. Okeanning qirg'oqlari go'zal qumli sohillardan iborat bo'lib, ulardan faqat shohning bog'lari chiroyda o'zar edilar. Shaharning butun markazi ulkan bog' edi. Shubha yo'q, bu joy yashash uchun eng jozibador va ko'ngildagidek joy edi. Markazda joylashgan uylardan muhtashamlikda faqat Shohning saroyi ustun turardi.

Affabelning o'rtasida hayot daraxti o'sib turardi. Uning g'ayrioddiy mevasini yeyish baxtiga faqat shohning yordamchilari sazovor edilar. Daraxt mevalari ta'mi va ko'rinishi jihatidan ustun turishi bilan birga, o'zida mo'jiza yaratish xususiyatiga ega edi.

Endel shahrining fuqarolari

Affabel poytaxtidan g'arbga oltmish kilometr uzoqlikda va Buyuk Edonga daryosigacha bo'lgan masofada Tashqi cho'l joy olgan edi.



Edonganing ortida shohlikning Endel degan boshqa qismi yashar edi. Affabelda tug'ilgan hamma bolalarni, ular tug'ilgan zahoti Endelning viloyatiga olib kelishardi. Bir haftalik bo'lguniga qadar, ularga g'amxo'rlik qilish shohga tegishli tarbiyachilarga topshirilgandi. Bu shohlikning yosh fuqarolari yoki endellikchalar besh yoshga yetib, o'n yil mobaynida ta'lim olish uchun Endelning maktablariga borar edilar. Ular maktabda Affabelning qonunlarini o'rganishar va shoh Jeylin haqida bilib olishar edilar.

Shoh Jeylin bilan ko'rishish imkoniyatiga faqat shohlikning tarbiyachilari va maktab o'qituvchilari ega edilar. U maktab va bolalar haqidagi g'amxo'rligi amalga oshayotganiga ishonch hosil qilish maqsadida, Endelga taxminan har besh yilda yashirincha kelib turardi. Ko'pchilik shohni ko'rmagan bo'lishiga qaramay, uning yaxshiligi yaqqol ko'rinib turar va bu Endel viloyati hayotining hamma sohalarida namoyon bo'lardi.

Maktabdagi o'n yil, o'quvchilarni kelgusidagi hayotga tayyorlashi kerak edi. Ular o'n besh yoshga to'lganlarida, barcha olgan ta'limlarini amalda qo'llashga qisqa muddatli imkoniyat berilardi. Ushbu vaqt mobaynida ularga bir qancha qimmatbaho narsalar va bu narsalar uchun mas'uliyat topshirilardi. O'zining yosh hayoti va unga ishonib topshirilgan buyumlarni idora qilishiga qarab, yerdagi ellikdan to yuz yilgacha bo'lgan umrlarini qay tarzda o'tkazishlari aniqlangan. Sinov muddati uchun roppa-rosa besh yil berilgan, biroq talabalarning birortasi ham uni qancha davom etishini bilmas edilar. Ularga faqat sinov muddati o'n yildan oshmaydi deb aytilgan. Ushbu muhlatning oxirida har biri shohning qarshisiga kelishi va hayotidagi qarorlari uchun hisobot berishi lozim bo'lgan.

Sinov muhlati yoshlarning qiziqishlarini aniqlar va ko'rsatar edi. Jeylinning o'gitlariga ergashganlar, so'zlari va ishlari bilan, uning hokimiyatini tan olar edilar. Bundaylar Affabel shohligining fuqarolari deb hisoblangan. Ular tanloviga muvofiq mukofotga erishardi. Sinov muddati jarayonida g'alayon ko'targan va shaxsiy xirlari bo'yicha, faqat o'zi uchun yashaganlar Loun yeriga haydab yuborilar edi. Loun yolg'izlik va umidsizlik hukm surgan zulmatning cho'lli yeri bo'lib, u yerda istiqomat qiluvchilar



ozodlikdan mahrum etilgan va butun hayotlari davomida azoblarni boshdan kechirar edilar.

Bu cho'lg'a birinchi bo'lib, Dagon yuborildi va u Loun yerida zulmatning xo'jayiniga aylandi. Dagon ko'p yillar ilgari Jeylinga qarshi isyon ko'targan bo'lishiga qaramay, Endelda uning ta'siri hali ham saqlanib qolgan edi. Endeldagi Jeylinning hokimiyatini tan olgan odamlar Dagonning qora kuchlaridan xalos bo'lishardi. Biroq Jeylinga xizmat qilishdan bosh tortgan kishilar, yiqilgan Dagonning ta'sirida qolishardi.

Buyuk shoh Jeylin, zulmat uning shohligiga tobora kirib borishini oldini olish maqsadida, Affabelning yaxlitligini va ijtimoiy tizimini saqlab qolish to'g'risida farmoyish chiqardi. Dagonga ergashuvchi va Jeylinning shohlik hokimiyatini tan olmaydigan har bir kishi hayotining oxirigacha Loun yeriga haydaladi.

Mana hikoyamiz ham boshlandi. Biz Endeldagi beshta o'quvchining hayoti bilan tanishamiz. Ularning ismlari: Mustaqil, Aldangan, Jur'atsiz, Xudbin va Saxovat. Ruxsatingiz bilan, ularning har birini tanishtirib o'taman.

Mustaqil

Mustaqil hamisha Affabelning mavjudligiga shubhalanadi. U hech qachon ko'rmagan Jeylin ismli shaxs undan naqafat bag'ishlanishni, bu yetmagandek, o'z qoidalariga so'zsiz rioya qilishni talab etishiga ishongisi kelmaydi. Unda o'qituvchilar uni va boshqa o'quvchilarni nazorat qilishda, bu yaxshi yordam beradigan hiyla degan gumon uyg'ongan. Boz ustiga, u o'sha o'ylab topilgan shohlikning qonunlarini o'rganishdan va darslarga borishdan bosh tortadi.

Mustaqil atrofidagi bu bema'nilikka ishongan kishilarning ustidan masxara qilib yuradi. U Jeylinning qonunlaridan erkin ravishda, o'z ixtiyori bo'yicha yashashga qaror qilgan. Uning maqsadlariga zid bo'lmagan moddalarigina bundan mustasno hisoblanadi, agar istasa, o'sha moddalarga bo'ysunadi. U boshqalarga o'z hayotini begonaning irodasiga bo'ysundirib qo'ymasligini namoyish etishda ustasi farang.



Aldangan

Aldanganning Affabel mavjudligiga shubhasi yo'q. U shoh Jeylinga ishonadi hatto uning va'dalari unga yoqadi. U ongida va so'zlarida shohning ta'limoti-yu, qoidalari bilan rozi, shu bilan birga, ko'pincha o'sha ta'limotga teskari tarzda yashaydi. Maktabdagi o'ziga yoqadigan ishlarda ishtirok etib, shohga va uning ta'limotiga sodiqligini ko'z-ko'z qiladi, lekin biror narsada o'z manfaatini ko'rmay qolsa, tezda hammasi boshqa tomonga o'zgarib ketadi. Uning hayot tarzi Jeylinning haqiqiy izdoshinikiga o'xshamaydi, ammo o'zining kuchli xarakteri tufayli tez-tez odamlarni ortidan ergashtirib ketadi. Aldangan hech qachon o'zining sinov muddati va sud haqida chinakam mulohaza qilib ko'rmagan.

U Mustaqil bilan, Jeylinning mavjudligi borasida fikrlari har xilligiga qaramay, a'lo darajada kelishadilar. Aldangan – quvnoq yigitcha, ularning qiziqishlari umumiy, shuning uchun Mustaqil u bilan ulfatchilikdan zavqlanadi.

Jur'atsiz

Jur'atsiz – eng ishtiyoqli o'quvchi qiz. U darslarda tez-tez javob beradi va hamisha yuqori baholar oladi. U juda faol va odatda boshqa o'quvchilar jamiyat hayotida ishtirok etishiga yordam tariqasida, bir talay darsdan tashqari tadbirlarni o'ylab topadi. Talabalarni taniganlarning hammasi Jur'atsizni Jeylinga bag'ishlanganlarning eng tirishqoqi deb aytadi.

Xudbin

Xudbin ham Jeylinga va uning ta'limotiga ishonadi. Unda Affabelning mavjudligiga shubha yo'q, qolaversa Jeylinning – ajabiy shoh, unga o'zini bag'ishlagan har bir kishiga mehribon va shafqatli hakam ekaniga ishonadi. Xudbin Jeylinning tabiati va ta'limoti haqida o'zining cheklangan tushunchasiga ega. U Jeylinning adolatli va muqaddas, shuningdek sevuvchi va shafqatli boshqaruvchi ekanini unitib qo'yadi. Xullas, Xudbin Jeylinning shaxsi haqida o'zi uchun yangilish tasavvur yaratgan. U Aldangan,



Jur'atsiz va Saxovat hech shubhasiz uning sharaflı shohligining bir qismiga aylanishiga ishonadi-yu, biroq Mustaqilning qarshi borishi uni birmuncha xavotirga soladi.

Xudbin Jeylinni tili bilan e'tirof etadigan va uning asosiy qonunlarini buzmaydigan kishi Affabelda yashashga ruxsat olishiga amin. Shunday bo'lishiga qaramay, o'z ismiga monand ravishda, u shaxsiy ishlari bilan band. Ko'pincha yaxshi harakatlarning maqsadi shaxsiy foydasini ko'zlashdan iborat, xolos. U vaqti-vaqti bilan achinish hissidan nimadir qiladi, ammo qandaydir bosimni sezganda, birdan o'zining qiziqishlariga mos keladigan narsani izlab qoladi.

Saxovat

Bizning oxirgi qahramonimiz – shoh Jeylinning hamma qonunlarini chin dildan qabul qiladigan va bajaradigan Saxovat bo'ladi. U Jeylinning irodasini o'rganishda ko'p vaqtini o'tkazar ekan, nafaqat barcha qoidalarni yodlab olgan, balki har birida shohning yuragini tushunishga intiladi. U Endeldagi jamiyatning va maktabning ravnaqi yo'lida o'zini ixtiyoriy ravishda bag'ishlaydi va uzoq vaqtlarini ularni o'rganishga sarflaydi. U o'n besh yoshga to'lgani zahoti, unga Endeldagi buyuk shohning irodasini amalga oshirishga qisqa imkoniyat taqdim etilishini biladi. Uning maqsadi – to'liq, Jeylinning sharaflı uchun yashash, shuning uchun hech narsaga uni bu muhim maqsadga yetaklaydigan yo'ldan qaytarishiga ruxsat bermaydi.

Saxovat Jeylinni sevadi va ular uchrashadigan kunni intizorlik bilan kutadi. Itoatkorlik unga zavq bag'ishlaydi. U tez-tez shohning ezguligi haqida boshqalar bilan bo'lishadi, natijada uni kalaka qilishadi va ko'pincha u yolg'iz qolib ketadi. Jeylinning qonunlariga nisbatan tebranmas sodiqligi tufayli keladigan azoblariga qaramay, hech narsa uni shohga sodiq bo'lib qolishiga halal berolmaydi.

Bitiruvchilar

Yuqoridagi endelliklarning barchasi o'n besh yoshga to'ldilar. Ular belgilangan kun boshqa ikki mingta talabalar bilan maktabni bitirdilar.



Ularning har biriga maxsus vazifa berildi hamda ularga Jeylin tomonidan belgilangan va bitiruv kunining boshqaruvchisi tomonidan topshirilgan ma'lum miqdordagi pul taqdim etildi. Pullar qahramonlarimiz orasida quyidagicha taqsimlandi: Mustaqilga ellik besh ming talant, Aldangan va Jur'atsizga qirq ming talantdan berildi, Xudbin hammadan ham ko'proq – yetmish besh ming oldi, va nihoyat, Saxovat yigirma besh ming talant oldilar. Oxirgi nasihatlarni eshitib, yoshlar hamyonlaridagi pul bilan maktabdan qo'yib yuborilishdi.

Sotuvchi

Mustaqil maktabga kam borgan bo'lsa-da, darslar hali hanuz boshini qo'irlashtirib turganini sezardi. Ba'zida u maktabda eshitganlaridan ayrimlari to'g'ridek tuyulardi. Mabodo shunday bo'lsa, uning xulq-atvori maktabning oxirida u uchun belgilangan pullarning miqdoriga unchalik ta'sir etmasligiga umid qilardi.

U uchun belgilangan talantlar solingan konvertni olganida, uning qo'llari titrab ketdi. Konvertni ochganida, unga berilgan pulning miqdorini ko'rib, o'zining hayratini va yengil tortgan holatini zo'rg'a tutib turdi. U Jur'atsizdan o'n besh mingga va Saxovatdan ikki hissa ortig'i bilan olganini eshitib, yanada quvondi. U o'yladi: «Bu vaqtni behudaga sarflashga kiradi! Saxovat va Jur'atsiz hech qanday foyda keltirmaydigan puch darslarga shuncha vaqtini sarfladilar». Natijada bularning barchasi uning Jeylin umuman mavjud emasligi haqidagi shubhalarini tasdiqladi. Unga berilgan pullarni uzoq yillar avval g'oyib bo'lgan ota-onasi qoldirgan deb qaror qildi. Endi u bularning hammasi yoshlarning ongini boshqarish uchun maktab ma'muriyati tomonidan o'ylab topilganiga uzil-kesil ishonchi hosil bo'ldi.

Ikki haftalik bayramdan so'ng, Mustaqil o'z ishini boshlashi kerakligini angladi. U allaqachon, rejalashtirgan miqdordan ancha ko'proq pul sarflab bo'lgandi. Mustaqil mashinalar sotuvi bilan shug'ullanib, sotuvchilikda tug'ma qobiliyatga ega ekanini tushunib yetdi. Taajjubki, ish baroridan kela boshladi. Bir talay bitiruvchilar pullarining boshlang'ich qismidan Mustaqilning salonidan minilgan va hatto yap-yangi mashinalar sotib



oldilar. U pullarini ko'paytirgach, boshqa ishlar ochishni boshladi, yangi ishlarda ham uni omad kutib oldi. Mablag'i ko'paygan sari butun hayot tarzi ham o'zgarib bordi. U pul ta'sir o'tkazish uchun ajoyib qurol va hoynahoy, baxtga erishtiradigan kuch ekanini tezda fahmlab oldi. Yangi imkoniyatlar, boylik va hashamat, ayollarni o'ziga jalb qilar, hayot esa bundan yana ham jozibador bo'lib borardi.


Mustaqil hech qachon maktabdagi haftalik yig'inlarga qatnashmagan bo'lsa-da, baribir aholining aksariyati uni hurmatli fuqaro deb hisoblashardi, modomiki uning shahar loyihalaridagi moddiy yordamini qadrlashardi. Aftidan, Endellik bu mehnatkash uchun hayot bundan-da baxtli bo'lmaydigandek tuyulardi.

Quruvchi va yer sotuvchi

Aldangan ham o'zida yo'q baxtli edi va bir necha hafta davomida Mustaqil bilan bitiruv bayramini nishonladi. Boshqalar bilan taqqoslaganda, uning pullari unchalik ko'p emas bo'lsa-da, har holda Saxovatnikidan ancha ko'p ekani, uni quvontirar edi. Bunday taqsimlash, uning shoh Jeylinning cheksiz shafqati haqidagi shaxsiy fikrlarini tasdiqladi – bunday shafqat ayrim narsalarga ko'z yopishi ham mumkin.

Maktabda ikkita qiz bilan jinsiy aloqalarga ega edi, lekin bunday xulq-atvor maktabning qonunlariga zid ekanini bilardi. Uning o'zi buni umuman muammo deb hisoblamas, zero u Jeylinga va uning shohligiga shaksiz ishonardi. Unda hayotga nisbatan shaxsiy munosabat quyidagicha shakllangandi: «Jeylinga bag'ishlanganimni tan olib va biror kishiga jiddiy zarar etkazmas ekanman, shohning iltifotiga ega bo'la olaman». U yana shunday hisoblardi: Jeylin hammada ham muammo borligini tushunadi, zero mukammal odam yo'q. Aldangan Jeylinga butun yuragi bilan ishongani uchun, u hukm kuni uning barcha xatolari va kamchiliklarini tekislab yuborishiga ishonchi komil.

Bir necha hafta o'tib, u o'z yumushini boshladi. U quruvchi bo'ldi. Boshida xaridorlarni topish oson kechmadi. Uning uy loyihalari har jihatdan maqtovga loyiq edi, biroq xaridor topishda qiynaldi. Kimdir uning



narxlari juda qimmat deb hisoblasa, boshqasi esa bunday hashamatli uyni sotib olishga qurbi yetmasdi.

U noiloj narxlarni pasaytirdi va chiroyli loyihalarini odamlarga taklif qilishda davom etdi. U odamlarga oldingidek yaxshi sifatni va'da berar, aslida esa past sifatli qurilish materiallaridan foydalanardi. Ayrim materiallari jahon andazalariga muvofiq emas edi. Aldangan yuqori andazalarni qo'llaydiganlar shunchaki ortiqcha ehtiyotkorlik ko'radigan odamlar, degan xulosaga keldi. U tanlagan materiallar har qanday yukni va ob-havoni ko'tara olishiga amin edi. Endi bitimlar ancha yoqimli tus oldi, Endelning qiziqib qolgan aholisi shu qadar ko'p shartnomalar tuzishni boshladiki, u uylarni qurib ulgurmay qoldi. Nihoyat, ish baroridan kelishni boshladi.

Bir necha yil o'tib, Aldangan yer maydonlarini sotish bilan shug'ullanishga qaror qildi. Undan uy sotib olgan odamlarning shikoyatlarini eshitib, uy sotishdan nariroq yurishni va yer sotishni istadi. Endi kafolatli xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari bilan shug'ullanishning hojati yo'q.

Aldangan ikki sotix yerni ming talantga sotib olish mumkin bo'lgan joyni topdi. Bu olib sotish uchun juda yaxshi narx edi. Diqqat bilan o'rganilganda, o'sha yer suv toshqinida cho'kib ketadigan joy ekan. Bu ma'lumotdan atigi bir necha kishi xabardor edilar, boz ustiga ularning hammasi Aldanganning do'stlari edi. U shahar nazoratchisi bo'lmish, do'sti Mustaqilni, yerni lozim bo'lgan geologik sinovlarsiz sotish uchun ruxsat berishga ko'ndirdi. Qolaversa, u birorta ham suv toshqini sodir bo'lganini eslay olmadi, unda xavotirga o'rin yo'q. Bitim hech qiyinchiliklarsiz amalga oshdi. Yosh tadbirkor uchun hayotda, bundan-da yaxshiroq narsaning o'zi yo'qdek tuyulardi.

O'qituvchining yordamchisi

Jur'atsiz bitiruv kunining ertasiga dugonalari bilan magazinlarni aylanishga chiqdi. Uning ikkita maqsadi bor edi: birinchidan, bitiruv bayramini yaqin dugonalari bilan nishonlash, ikkinchidan esa yangi hayot boshlash uchun yangi kiyimlar va boshqa narsalar xarid qilish.



Uning ko'nglidagi eng kuchli orzu, Endel maktabi O'qituvchisining yordamchisi bo'lish edi, u boshqa biror narsani bunchalik kuchli istamasdi. Ushbu mansabga qabul qilishlari uchun suhbatdan o'tish kelasi juma kuniga tayinlangandi.

Magazinlarda aylanishning ikkinchi kuni Jur'atsizning dugonasi G'iybatchi, ularning o'rtalaridagi dugonasi bo'lmish Tuhmatchi maktabning direktoriga, emishki Jur'atsiz talabalardan biri bilan yaqin munosabatlarga ega, deganini aytib berdi, bu esa u istagan mansabga erishishiga jiddiy to'sqinlik bo'lishi mumkin. Axir, bu mutlaqo bema'nilik! U maktabdagi butun o'quv jarayonida o'zini poklikda saqlagan. Jur'atsiz Tuhmatchi buni unga nisbatan hasadi yoki hatto nafrati borligi tufayli qilganini tushundi.

Jur'atsiz g'azab otiga mindi. U o'ta tahqirlanib, dam olish kunlarining qolganini dugonajonining sotqinligi haqidagi fikrlarga to'lib o'tkazdi. U Tuhmatchini ushbu yolg'oni uchun haq to'lashga majbur qilishga qasam ichdi.

Suhbatdan o'tish kuni keldi. Buni qarangki, Jur'atsizni ishga qabul qilishdi. Direktor chindan ham u shunday gaplarni eshitgani, lekin tekshirishlardan so'ng hammasi asossiz bo'lib chiqqanini tasdiqladi.

Juratsiz shunchaki ish o'rniga ega bo'libgina qolmay, Qo'sh Hayot ismli sevimli o'qituvchilaridan birining o'ng qo'li bo'lib tayinlandi. U eng iste'dodli muallimlardan biri edi. U yigirma besh yoshda bo'lib, shu kungacha bir nechta yosh endelliklar bilan ishlagandi. (O'qituvchilar, boshqalar singari yigirma yoshda emas, balki o'ttiz yoshda sudga kelar edilar). Jur'atsiz unga bunday jo'shqin rahbar bilan ishlashni topshirganlaridan hayratda edi.

Mashg'ulotlar boshlandi. Hammasi ajoyib edi, ammo u hali ham xafagarchilikni olib yurardi. Unga ishlari qanchalik baroridan kelayotganining ahamiyati yo'q edi va sobiq dugonasining xiyonatiga chidashga qurbi yetmaydigandek tuyulardi.

Bunga qaramay, sirtidan hammasi juda soz ko'rinar, biroq yuzakilikning ortida ko'ngilsizliklar yashirinib turardi. Qo'sh Hayot muallimning ismi uning shaxsiyatiga batamom monand edi. U ish joyida boshqacha, shaxsiy hayotida esa butunlay boshqacha edi. Uning hukmi doimo eng jiddiy bo'lib, zero u



o'qituvchi sifatida Jeylin bilan shaxsan uchrashish sharafiga ega edi.

Kunlarning birida, Jur'atsiz va Qo'sh Hayot yolg'iz qolganlarida, o'qituvchi unga shilqimlik qila boshladi. U o'zida haqorat va xijolatni his etib, shu zahoti uning oldidan qochib ketdi. O'qituvchi chekinmadi, bir necha hafta davomida o'z niyatini amalga oshirishda davom etaverdi. Jur'atsiz yoqtirgan o'qituvchisining qiliqlariga nisbatan munosabatini o'zgartirdi va uning aytganlariga ko'nishni boshladi: axir, u yaxshi va ajoyib inson. Qiz uning xushomadiga uchdi. Yigit muloyim va xushmuomala, undan tashqari u erkaklarning orasida eng jozibadori hisoblanardi. Oxir oqibat qiz uning siquviga taslim bo'ldi va ularning orasida otashin ishqiy munosabatlar boshlandi.

Jur'atsiz hayotida hech qachon bunday olovli sevgining boshni aylantiradigan hissini tuymagan edi. U har safar bu insonni ko'rganida, hayajondan yuragi qinidan chiqib ketishiga sal qolardi. Belgilangan kun u bilan uchrashish haqidagi fikrlar uni shu qadar boshini aylantirardiki, hatto haligacha saqlab yurgan Tuhmatga nisbatan chuqur xafachiligini ham vaqtinchalik unutib qo'yardi.

Nima bo'lganda ham, to'rt oy o'tib, Qo'sh Hayot unga nisbatan so'vib qoldi. Butunlay tushkunlikda qolgan qiz bu narsaning sababini bilishni istardi. U hamma birga o'tkazgan vaqtlarini eslayverar va yigitdan o'zgarib qolganining sababini aytishini talab qilardi. Va nihoyat yigit Tuhmatdan uning boshqalar bilan eski ishqiy munosabatlari haqida eshitganini aytib berdi. Bu, albatta, muammoning haqiqiy sababi emasdi, aslida u shunchaki Jur'atsizga nisbatan qiziqishni yo'qotgandi. Qo'sh Hayot allaqachon shahardagi boshqa yosh juvonga oshiq bo'lib qolgandi. Qizlar bu yo'ldan ozdiradigan va mashhur yigitning keskin qistovlariga bardosh bera olmasdilar.

Jur'atsiz sindi. Har kuni yigit bilan maktabda ko'rishishga majburligi haqidagi fikrdan o'zini qo'yarga joy topolmasdi. Ishdan ketish to'g'risida ariza yozdi va bir necha kun g'am chekdi, keyin qolgan qirq ming puliga go'zallik saloni ochdi. Jur'atsiz Jeylinning qonunida yig'inlarni qoldirmaslik haqida buyruq bo'lishiga qaramay, maktabdagi har haftalik yig'inlarga



bormay qo'ydi. U ikkiyuzlamachilar bilan hech qanday munosabatlarga ega bo'lishni istamas, u o'ylashicha, yig'inlarga qatnaydiganlarning aksariyati, hoynahoy shundaylar edi.

Kundan kunga yuragini yanada yopib borar, Jeylin va maktabni kamdan-kam yodga olardi. Ilgarigi maktab uchun jonbozliklari endi loqaydlik va surbetlikka aylandi. Undan Jeylinga munosabatini so'raganlarida, unga tegishlilikini tasdiqlardi-yu, biroq shunaqa axloqsiz odamni maktabda o'qituvchilik mansabida ishlashiga ruxsat bergani uchun yuragining tubida uni ayblardi.

Sinov muddati oxirlab qolganda, o'zi buni tan olmasa ham, Jur'atsiz hammadan xafa va zardali ayolga aylanib qolgandi. Sinovning yakuniy yillarini odamlar yetkazgan xafagarchiliklarni yengish bilan o'tkazdi.

Endel hokimi

Endi esa olgan pullaridan, naqadar hayratda qolgan Xudbinga qaytamiz. U Jeylinning qonuniga rioya qilib, bitiruv kechasini qonunda taqiqlangan aroqxo'rlik ziyofatlaridan o'zini tiygan holda nishonladi. Bir necha kun hordiq chiqarib, pullarini ishga solishga tushdi. Uning savdo-sotig'i serdaromad keldi va dastlabki mablag'ini tezda ko'paytirib oldi. Sarmoyasi ko'pligidan, tengdoshlarining orasida shuhrat qozondi.

Xudbin shahardagi eng chiroyli joylarning biridan uy sotib oldi va obro'li, kuchli odamlarni mehmonga chaqirdi. Hukumat a'zolari, malakali sportchilar, tadbirkorlar va boshqa mashhurlar, uning saxiy mehmondo'stligidan huzur qilishdi. Shu tariqa, u tez orada jamiyatdagi eng e'tiborli odamlarning biriga aylandi.

Oradan uch yil o'tgach, o'zining moliyaviy mavqei va aloqalari tufayli Endelning hokimi o'rniga o'z nomzodini qo'ydi va osonlik bilan g'alabani qo'lga kiritdi. U yangi mansabda bir talay jiddiy qarorlar chiqarish kerakligini bilib qoldi, ulardan biri maktabga taalluqli edi. O'quvchilar soni ortib borgani sari, maktab qo'shimcha binolarga kuchli muhtojlik seza boshlagandi. Bu degani, yer xarid qilish, pudratchilar va qurilish uchun mablag' izlash, shuningdek maktabga kerakli barcha asbob-uskunalarni



sotib olishni bildirardi. Muammoni yechishning birinchi qadami shahar aholisidan pul yig'ish edi. Har haftalik yig'inlar chog'ida kerakli pul yig'ilib bo'lgach, Xudbin yig'ilgan mablag' maktabni kengaytirishga yetmasligini eshitib, o'zining shaxsiy pullaridan ming talant qo'shdi.

Shundan so'ng mushkul qarorlarni qabul qilish payti keldi. Nihoyat, maktabga bir yerni sotib olish uchun yetarli mablag' yig'ildi. Taklif qilinayotgan narx ajablanarli darajada ularning mablag'ini tashkil etardi. Biroq, aynan o'sha joyga yirik supermarket xo'jayini ham ega bo'lmoqchi edi. Shahar kengashining fikri ikkiga bo'lindi. Maktab notijorat tashkilot bo'lgani sabab, hech qanday soliq to'lamasdi. Boshqa tomondan, do'kon juda katta daromad keltirishi va shaharni qo'shimcha ishchi joylari bilan ta'minlashi mumkin edi. Shahar kengashining fikri bir joydan chiqmagani sababli, hokimning ovozi hal etuvchi ovoz edi. Xudbinni qarama-qarshi fikrlar qiynadi. Savdo tarmog'ining sohiblari uning saylov oldi shirkatiga katta pullar tikkan va o'z nufuzini uning foydasiga ishlatgan edilar. Ular Xudbinning uyida tez-tez mehmon bo'lar edilar.

Xudbin savdo tarmog'ining foydasiga ovoz berdi. Bu Endelda yashaydigan barcha aholiga farovonlik olib keladi deya, jamiyat oldida o'z qarorini oqlab qo'ydi. U xalqni, bu narsa shaharni yanada ko'p ish joy va shahar g'aznasini daromad bilan ta'minlaydi deb ishontirdi. Bu narsa imkonsiz ekanini bilsa-da, maktabga hozirgi binoni kengaytirishning ichki imkoniyatlarini baribir qidirib ko'rishni maslahat berdi. Uning qarori Jeylning barcha samimiy izdoshlarini ranjitgan bo'lsa-da, aholining aksariyati g'oyat xursand edi. Hokimlik o'rnidagi ikki yillik muddati tugay deb qolgan va yangi saylov muddati yaqinlashib qolgandi. Vijdoni sal qiynalganday bo'ldi va shaxsiy pullaridan Endelning maktabiga besh ming talant qurbonlik berdi. Pulni berar ekan, qurilish uchun mos keladigan boshqa joy topishni va'da berdi. Uning bunday harakati ko'p Jeylin izdoshlarining ishonchini qozonishga yordam berdi. Bu yosh rahbar ikkinchi bora saylovda osonlikcha yutadigandek ko'rinaradi.



Restoran sohibasi

Saxovat maktabning yakunida olgan yigirma besh ming talantdan uch mingini maktab uchun yangi bino qurilishiga qurbonlik qildi. Uning yuragini o'qituvchilardan olgan hamma bilimlari uchun minnatdorlik to'ldirar va shu tarzda o'z tashakkurini bildirishni istardi. Saxovat qolgan yigirma ikki ming talantiga restoran ochishning uddasidan chiqdi.

U oshpazlik mahorati bilan bog'liq hamma narsani jon-dili bilan sevardi. Ustiga-ustak, u zehnli ishbilarmon ayol chiqdi. Restoran u uchun qobiliyatlarini namoyon etish va jamiyatga xizmat qilishda eng yaxshi qurol bo'ldi. U butun viloyatdan eng yaxshi oshpazlarni ishga taklif qilishga va ularning hunarlarini bir joyga jamlab, beqiyos menyu tuzishga erishdi. Restoran bir lahzada muvaffaqiyat qozondi.

Saxovat restorani orqali yuqori baho va mukofotlarga erisharkan, doimo bularning barini uddalashda, unga Jeylin donolik berayotganini ta'kidlardi. U so'zga chiqqanida, har safar maktabdagi o'qituvchilarga tashakkur bildirar va u yerdagi ajoyib ishchilarni maqtardi. U yutuqlarini o'zlashtirmas va shaxsiy muvaffaqiyatlari uchun maqtanmasdi. Saxovat bularning hammasi Jeylin tufayli amalga oshganini bilardi.

Saxovat o'z ravnaqlarini jamiyatga va Endel maktabiga yordam berishga sarflardi. Maktabdagi oshxonaga muhtojlar uchun tushliklar olib borardi. Ba'zida bo'sh vaqtlarida ana shunday tushliklarni tarqatishda o'zi ham ishtirok etardi. Unga kambag'allarni issiq ovqat bilan ta'minlash yoqardi. Undan tashqari, u daromadining yigirma besh qismini maktabning ehtiyojlari uchun topshirishga qaror qildi. Besh yillik sinov muddati davomida maktabga ikki yuz ming dollar qurbonlik qildi.

Saxovat ko'p ishlasa ham, zo'rg'a kun kechiradigan kishilarning ko'pchiligiga bajonidil yordam berdi. Moddiy ko'makdan tashqari, mamnuniyat bilan Jeylinning donoligi haqida so'zlab berar, yordam bergan kishilariga doimo Jeylin bo'lmaganida hech qachon bunday yutuqlarga erisholmagan bo'lishini qayta-qayta takrorlardi.

Restoranning ravnaqiga qaramay, Xudbin boshqa mehmonlar bilan



biror marta Saxovatni uyiga chaqirmadi. Unga hech qachon jamiyatda biror sohada boshqaruvchilik mansabini egallashni taklif etishmadi. U Jeylining o'taketgan qat'iy izdoshi nomiga ega, boz ustiga ayol kishi edi. Shaharda nufuzli kishilar qatoriga kirmasligi Saxovatni ranjitmas va qo'rqitmas edi. U o'zidan ko'ra muhtojroq odamlarga diqqatini qaratardi. U maktabdagi haftalik yig'inlarga borishni yoqtirar, o'sha yerda odamlarga ham pul bilan, ham boshqa yo'llar bilan ko'maklashardi. Saxovat baxtli yosh ayol edi.

Belgilangan Sud kuni

Sinovning oxirgi kuni keldi. Sudga borishi kerak bo'lgan kishilar keyingi besh yilning har qanday kunida bu amalga oshishi mumkinligini bilardilar, chunki birinchi besh yil allaqachon oxirlab qolgandi. Biroq hech biri bu kun shunchalik tez kelishini tasavvur ham etmagan edilar. Kun har doimgidek boshlandi, lekin umuman kutilmagan tarzda yakunlandi. Yarim tunda Affabelning ikki mingta shoh qo'riqchilari bitiruvchilarni olib ketishdi. Ularning maxfiy g'oyib bo'lishi, Endelning aholisi uxlayotgan payti sodir bo'ldi.

Ikki mingta yoshlar qo'riqchilar hamrohligida shahardan yashirin chiqish yo'li orqali olib ketildilar. Bu Edonka daryosi ostida joylashgan chuqur tunnel edi. Tunneldan o'tib, ular yana ikki kun hayot yo'q sahro bo'ylab piyoda yurishdi. Qo'riqchilarning boshlig'i butun safarlari davomida ularga o'zining ovqat, suv va boshqa kerakli narsalaridan ulashib, g'amxo'rlik qildi.

Qo'riqchilar o'zlarini muloyim, biroq vazmin tutardilar. Ularning diqqati faqat oldiga qo'yilgan vazifaga qaratilgandi. Ular atigi ayrim savollarga javob qaytarardilar, endelliklar boshqa savollarga javob berish ularga taqiqlanganini tushunardilar. Taqiqlangan savollarga odatda: «Vahti kelib, hammasini bilib olasizlar» deb javob berilardi va bu yo'lovchilarning qiziqishini yanada kuchaytirardi. Uzoq kutilgan buyuk shaharga yo'l olarkan, ular sahrodagi jazirama va boshqa noqulayliklarga ahamiyat berishmadi. Uchinchi kun saharda ular adirga ko'tarildilar, u yerdan tonggi oftobning nurlari bilan to'lgan buyuk shahar ko'rindi. Affabel ularning



birortasining ham xayoliga kelmagan darajada muhtasham shahar edi.

Shaharga yaqinlashgan sari uning ulug'vorligi yana va yana ochilaverardi. Hatto ular turgan uzoq joydan ham shaharning tengi yo'qligini ko'rish mumkin edi. Endeldan kelgan ayol va erkaklar Affabelning markaziy tumaniga kirar ekanlar, u hayot bilan to'lib-toshganining guvohi bo'ldilar. Bu ajoyib maskanda qushlar nafaqat kuylar, balki so'zlash in'omiga ham ega edilar. Ularning maftunkor va ohangdor qo'shiqlari buyuk shaharning go'zalligi va sharafiga haqida e'lon qilardi.

Endelliklar uchun bu butunlay begona tuyulmadi, negaki ular ungacha qo'riqchilarning otlari gapirganini eshitgandilar. Ushbu oliyjanob hayvonlar nafaqat o'zaro gaplashar, yana o'z chavandozlariga murojaat ham etardilar. Odamlar va ularning otlari o'rtasidagi ta'sirli munosabatlari yaqqol haqiqat edi. Affabelda istiqomat etuvchi barcha hayvonlar so'zlash, sevishtirish va quvonish qobiliyatiga ega ekani ham yaqqol ko'rinib turardi.

Yosh endelliklar qayerga qaramasin, ularni qiziqarli narsalar kutib turardi. Ular Affabeldagi ehtiromga boshlari bilan sho'ng'ib ketdilar. U joydagi havo ham bahri-dilni ochar, ongni ravshanlantirib, ularning toliqqan tanalariga kuch berardi. Butun shahar bo'ylab oqadigan suv mehmonlarni o'ziga tortdi. Suv oqimidan hayot uchqunlari chiqayotgandek tuyuldi. Dilrabo kuylarning ohanglari butun atrof-muhitni bezab turar va ularning zavqqa to'lgan qalblariga tinchlik berardi. Atrofdagi kichik o'simlikdan tortib, havogacha tirikdek tuyular – hamma narsa hayot berish qobiliyatiga ega edi. Bu maftunkor yerning har bir zarrasi hayot bilan to'lib-toshgan edi.

Yoshlar buyuk shaharda ko'rgan har bir narsaga qo'llarini uzatib, ularga tegib ko'rishdan o'zlarini tiya olmas edilar. Ular yugurib borib, hamma narsani ko'rib chiqishni istar, biroq bunday qilish uchun ularga hozir hech kim ruxsat bermasligini tushunib turardilar. Ularni katta qabulxonaga olib keldilar. U joyda ayollar va erkaklarni ikkiga ajratishdi.

Ular kirgan bino shu qadar ulkanligidan, o'ziga son-sanoqsiz odamni sig'dira oladigandek tuyuldi. Uning marmardan bo'lgan devorlari ichida kamida yuz mingta odam bimalol sig'ishi shubhasiz.



Endelliklarga dahlizda, xushbo'y vannaxonada cho'milishni taklif etishdi va shohning qabuliga kirishga tayyorganlik ko'rish uchun maxsus kiyimlar berishdi. Yo'lovchilar o'zlaridan changib ketgan kiyimlarini yechib tashlashdan juda xursand bo'ldilar. Bu yashnab turgan shaharda ularning kiyimlari g'alati va beo'xshov ko'rinaradi.

Har bitta endellikni bu shaharda yashab qolish istagi qamrab olgan edi. Ular g'alati narsani his etar, go'yo uyga qaytgandek tuyulardi. Ular cho'milib, kiyimlarini almashtirib bo'lgach, nonushta uchun yana bitta guruh bo'lib qo'shilishdi. Ularga bir oz suhbat qurish uchun vaqt berilgan ulug'vor binoning hovlisida ularni bezatilgan shohona dasturxon kutardi. Nonushtadan so'ng guruhni yana ikkiga bo'lishdi, bu gal ism bo'yicha. Saxovat, Xudbin va yana besh yuzta yoshlarni o'ngdagi qo'shni xonaga olib ketishdi. Jur'atsiz, Aldangan va Mustaqil boshqa bir yarim mingta kishi bilan chapdagi xonaga olib ketildi. Zalga kiraverishda, ular ostonada o'zlarining ismlari yozilganini payqab qolishdi. Ismlar g'alati tarzda – endelliklarga begona tilda yozilgandi. Birinchi zal «Hayot zali, ikkinchisi – «Adolat zali» deb atalardi.

Hayot va Adolat zali

Chap tomondagi zalning ostonasidan o'tib, Mustaqil dahshatga soladigan g'alati bezovtalikni his etdi. U Jeylin haqida eshitganlaridan biror nimani eslashga urinib, fikran maktab darslariga qaytdi. Miyasi esa butunlay besaranjomlik bilan to'lgan edi. U shu darajada ko'p darslarni qoldirganidan achchiq afsuslandi. U naqadar nohaq bo'lib chiqdi, axir, har holda shahar va shoh mavjud ekan! Zo'rayib borayotgan qo'rquvni bosishga harakat qilib, Jeylinning shafqatli tabiati va sevgisi haqida bir narsalarni titrab-qaqshab eslashga tushdi. Shu damda fikrlariga yopishib olgan shohning haqligi va muqaddasligi to'g'risida o'ylashni umuman istamas edi. U yaxshi odam bo'lgani va jamiyat ishlarida ishtirok etgani bilan o'zini tinchlantirishga tushdi.

Mustaqil chuqur nafas olib, atrofga alangladi, shunda Endelning eng bo'lmag'ur ulfatlari orasida ekanini sezib qoldi. Ularning orasida firibgarlar,



tovlamachilar va aroqxo'rlar bor edi. Bundan tashqari tekinxo'r va ishga mukkasidan ketganlar ham o'sha yerda edi. Unda boshqatdan qo'rquv g'alayoni ko'tarildi, vahima qoplagan payt Jur'atsizga ko'zi tushdi. Ko'zlarini yumib, yengil tortdi. U o'sha zahoti, Jur'atsiz sinfda Jeylinning eng ko'zga tashlanadigan va ishtiyoqli izdoshi bo'lganini esladi. Uning maktabda ishlaganidan ham habari bor, shunday emasmi? Agarda u ham shu zalda Mustaqil bilan birga ekan, balki hali hammasi yaxshilik bilan tugaydi.

U tomonga borayotib, Mustaqil Aldanganga duch keldi. Yana bir yaxshi belgi! Agar u Jur'atsizni yaqindan tanimagan bo'lsada, lekin Aldangan kuchli imonli ekanini bilardi. Ular, hatto Jeylin to'g'risida dam-badam bahslashib turish odatiga ega edilar. U eski og'aynisini quchoqlarkan, birdan kayfiyati o'zgardi.

Aldangan jo'shqin va ijobiy munosabat bildirdi. Hamma vahimalar birmuncha bosilgandan so'ng og'aynilar gaplashishni boshlashdi. Jeylinning shafqati ular kutgandan ham oshib tushganga o'xshaydi. Qaraya, Mustaqil kechirimga loyiq ko'rmagan odamlarni, Jeylin osonlikcha kechirib yubordi. Shunday emasmi? Nahotki, buyuk o'qituvchi Qo'sh Hayot bizlarga bo'lgan talablarida haddidan oshgan bo'lsa? Endi u hammasi yaxshi bo'lishiga mutlaq ishonch hosil qildi.

Biroq Saxovat va Xudbinning yo'qligi biroz bezovtalantirardi. Boshqa tomondan, burchaklarda faryod chekayotgan odamlarni e'tiborga olmaslikning iloji yo'q edi. Balki ular shu tarzda Jeylinning ezguligi uchun minnatdorlik bildirayotgandirlar?

Boshqa zalda ham bir dunyo his-tuyg'ular junbishga kelayotgandi. Maktabni tugatib, bir-birini yo'qotib qo'ygan do'stlar, uchrashuvdan boshlari osmonda edi. Ko'p o'tmay har bitta suhbatda hammani hayajonga solayotgan yagona mavzu avj ola boshladi: hademay, ular Jeylinni ko'radilar!

O'zining asl da'vatini va va'da qilingan taqdirini boshdan kechirish vaqti keldi. Ularning hammasi mo'jizakor shahar to'g'risida g'uvullashardi. Ular har doim, turgan joylari, Endeldan bu joy ancha yaxshiroq ekanini bilar edilar, hatto birinchi taassurotlari ularning barcha orzularidan ham oshib tushdi. Hamma narsa ularning tushunchasiga sig'mas darajada



ulkan edi. Nahotki, ular butun umr shu sharaflı joyda hayot kechirishlari rost bo'lsa? Bunday baxt uchun, ularning har qaysisi, hatto polni yuvib o'tishga ham rozi! Bu zaldagi hamma Jeylin bilan birga bo'lishini bilar, biroq uning adolatli sudining oldida qanday qilib tura olishni bilmasdilar. Birmuncha vaqt o'tib, zalda tantanavor muhit hukm surdi. Ular sodiqlik ko'rsatib yashaganmidilar? Buni tez orada vaqt ko'rsatadi. O'z shohi bilan uchrashishni kutib turgan bu kamtar xizmatchilarni qo'rquv aralash hayajon hissi to'ldirardi.

Dastavval, Hayot zalida kutib turganlarni sud qilishlari kerak edi. Ammo ularga sal o'tib qaytamiz. Hozircha hikoyamiz, bizni Adolat zaliga yetaklaydi.

Sud zaliga chaqiruv

Tush payti edi. Adolat zalida kutib turganlar tinchlanishdi, ularga hech narsa tahdid solmayotganiga qayta amin bo'ldilar. Ularni xavotirlantirayotgan yoki tushunmaydigan barcha narsalarni Jeylinning shafqatiga yoki uning sirli yo'llariga yo'ydilar. Ana shunday o'ylar, ularni yupatardi.

Bir yarim mingta endelliklarning orasida, Mustaqilni zalga birinchi bo'lib chaqirdi. Uni Buyuk Adolat zaliga kuzatib qo'yish uchun to'rtta shoh qo'riqchilari kelishdi. U tarang vaziyatni yengillashtirishga urinib, tasodifan ko'zi tushgan qo'riqchiga jilmaydi va ko'z qisib qo'ydi. Unga javob qaytarmaganidan kuchli taajjubga tushdi.

Zalning eshiklari bekilgan zahoti, oldindan qaynagan savollari yana ko'z o'ngiga keldi. Yuragi ko'kragida xuddi do'mbira ovozidek dukkillardi. Unga bu ovoz, ko'rinmay turgan qo'riqchilarga ham eshitleyotgandek tuyulardi. Aldangan uning yonida bo'lishini u qanchalik istardi! Mustaqil hozir Hakamning oldida turadi, u esa hakam bilan alohida qolmaslikni afzal ko'rardi. Uning dadilligi shitob bilan tugab borardi.

Buyuk zalga kirish oldidan qo'riqchilardan biri qisqa qilib bayonnomani o'qib eshittirdi. Mustaqil o'qilganlarning hammasini eslab qololmasligidan qo'rqib, doim boshi bilan ma'qullardi. Quloqlari shu qadar tepardiki, u kar bo'lib qolishdan qo'rqib turardi. Qo'riqchi Mustaqil



marosimning tartibini tushunganiga ishonch hosil qilib, boshini tebratdi va zalning eshiklari keng ochildi.

Mustaqil ulkan zalga kirishga bir ikki qadam qo'yarkan, butun tanasi titrayotganini sezdi. Har doim sovib turadigan peshanasida ter tomchilari paydo bo'ldi. Ko'rgan narsasi, uni butunlay larzaga soldi, o'zini butkul yo'qotib qo'ydi!



AFFABEL SHOHLIGI: BIRINCHI SUD KUNI

Bularning hammasini Iso xalqqa masallarda aytib berdi va masalsiz ularga gapirmadi, toki payg'ambar orqali aytilgani, ya'ni: «Men og'zimni masallarda ochaman, dunyo yaratilishidan buyon yashirin bo'lgan narsalarni so'zlayman»,— degani amalga oshsin.

— Matto 13:34, 35

Hikoyamni davom ettirishdan avval, Iso Masihning kelajakda sodir bo'ladigan sud to'g'risida aytgan so'zlarini ta'kidlab o'tmoqchiman. Yuhanno Xushxabari (12:48) da quyidagilarni o'qiymiz: «Men aytgan so'z uni oxirgi kunda hukm qiladi». Uning taxti qarshisida – Xudo Kalomining talablari bo'yicha sud qilinishimizni bilamiz.

Hikoyamizdagi qahramonlarga muvofiq tarzda tuzilgan Jeylinning aksariyat so'zlari Kalomdagi oyatlardan tashkil topgan.

Ana endi Affabelga qaytamiz.

Mustaqil ustidan sud

Buyuk zal Mustaqil tassavvur etgandan ko'ra ancha jozibaliroq edi. Agarda unga qolgan bir yarim mingta kishiga, zal haqida so'zlab berishni topshirganlarida bormi, uning ulug'vorligi va hashamatini ta'riflash uchun so'z va qiyos topolmagan bo'lardi. Endelning har qanday binosini, bu zalning me'moriy jihatidan taqqoslaganda cheksiz eski tuyulardi. Xona taxminan yuz ming kishiga mo'ljallangan edi. U hech qachon bitta zalda shuncha odamni ko'rmagandi.





Mustaqil yaqinroq borib, minbardagilar orasida Affabel fuqarolarini tanishni boshladi. Birinchi navbatda, ularning nur taratayotganiga ko'zi tushdi. U o'shalarning beqiyos go'zalligidan lol bo'lib qoldi: ular boshqa dunyodan kelganga o'xshab ko'rinardi. Bunday o'zgarib ketishlarining sababi, ularning barchasiga hayot daraxtining mevalaridan yeyishga ruxsat berilgandi.

Mustaqil o'zicha o'yladi: «Nahotki ularning hammasi oldin Endelning fuqarolari bo'lgan»? So'ng tanish qizni ko'rib qoldi. Uning ismi Ezgulik edi. Qiz undan bir necha yosh katta bo'lib, oddiy ko'rinishi tufayli maktabda hamma uni kalaka qilardi. Hozir esa uning ko'rinishi ajoyib edi. Uning o'ziga xos sifatlari saqlanib qolgan bo'lib, shuning uchun uni tanish oson edi. Biroq unda qandaydir tarzda ko'rkamlik bor bo'lib, Endeldagi eng maftunkor kishidan ham chiroyli edi. Rostini aytganda, bu yerdagi har bir kishi, hatto eng oddiysi ham, u bilgan kishilardan ancha go'zalroq edi.

Birinchi hayratli holatdan o'ziga kelib, hammaning nazari, uni qo'riqchilar olib kelgan tomonga yo'naltirilganini sezdi. U bunaqasini birinchi marta ko'rishdi. Bu taxt edi. Bu shuhratli taxtni ta'riflash uchun hech qanday qiyos topishning imkoni yo'q. Taxtda o'tirganga yaxshiroq qarab, shu zahoti butun shahardagi go'zallik manbai kim ekanini birdan fahmladi. «Bu Jeylin bo'lishi kerak» – deb o'yladi Mustaqil. To'satdan, qat'iy rad etgan shaxsning borligiga chuqur tarzda ishonchi komil bo'ldi.

Jeylinning yuzi chiroyli, ammo jiddiy edi, balki aynan o'sha payt jiddiy bo'lgandir. Chiroyli, lekin qo'rqinchli desak, to'g'riroq ta'rif bergan bo'lamiz. Uning butun ko'rinishi o'ziga tortar holda maftunkor bo'lsa-da, Mustaqil u tomon har qadam qo'yganida, yuragidagi dahshat ortib borardi. Qolgan dadilligi ham yo'qoldi. U bilan endi nima bo'ladi? O'zini tutishga urinib, Mustaqil o'ziga, shafqatli shohning oldiga yaqinlashayapman, deb ta'kidladi. Uni oxiri yaxshilik bilan tugashiga shubhasi bor edi.

U oldinga qarab bordi, birdan, unga tor yo'lakchada to'xtashni buyurishdi. Uning to'g'risida Jeylin qad ko'tarib, yig'ilganlarga murojaat etdi:

– Va hamma anglab yetadi... Men yuraklarni va odamning ichki dunyosini (fikrlar, ichki kechinmalar va maqsadlarni) sinovchiman; har



biringizni qilmishingizga qarab taqdirlayman.

Mustaqil boshqalar bilan birga tinglab turarkan, qo'qqisdan Jeylin to'g'ri uning ko'zlariga qaradi va undan talab qildi:

– O'z faoliyating haqida hisobot ber.

Mustaqil biror narsa deyish uchun og'iz ochishga ulgurmay, devorda gologramma paydo bo'ldi va maktabga borgan birinchi kunidan boshlab, kechagi kunigacha butun hayoti aylanishni boshladi. Har bitta harakat, har bitta so'z, har bitta niyat yig'ilgan guvohlarning ko'z o'ngiga havola edi. U Jeylin to'g'risidagi haqiqatni anglab, titray boshladi: «Undan yashirin jonzod yo'q, ammo hamma narsa yuzada va Uning ko'z oldida ochiq: Unga hisobot beramiz».

Mustaqil har bir ahmoqona, yovuz va xudbin ishlarini ko'rib, bukilishni boshladi. Hamma narsa shuncha odamning nazarida ekani sharmandalik va kutilmagan tarzda hijolatda qolish edi. Oldin arzimas va bezarar tuyulgan narsalar, endi ushbu shuhratli hakam va muhtaram Affabel fuqarolari qarshisida xunuk ko'rinardi. U o'z xulq-atvoridan dahshatga tushdi. Qanday qilib, u shu qadar tuyg'usiz, ahmoq va xato o'ylaydigan odam bo'lgan? U yomon ishlaridan, yaxshi ishlari ko'proq bo'lib chiqadi degan noaniq umidga tirmashardi.

Dahshatli tanbeh va jazo kutayotganiga qaramay, film tugagach, u biroz yengil tortdi. U o'sha kishilarning ichida eng kichigi bo'lsa ham, baxtiyor bo'lardi va yaxshi ishlari, yomon ishlaridan ziyodroq chiqishiga ilinjda edi.

So'ngra, Jeylin bosh kotibdan so'radi:

– Uning ismi Hayot Kitobida topildimi?

U esa tezlik bilan javob qaytardi:

– Yo'q, shohim.

Shunda Jeylin dedi:

– Mustaqil, sen yovuz tabiatni tanlaganing uchun aybdorsan va qolgan butun hayotingni tashqi zulmatda, umidsizlik va yolg'izlikda azob chekib o'tkazish uchun Loun yeriga quvg'in etilasan.



Mustaqil hovliqib qichqirdi:

– Nega, hukmdor?

– Sen menga ishonmading – dedi Jeylin. – Sening o'qituvchilarning o'rgatgan edi: «Zero bu Men ekanimga ishonmasalaring, unda gunohlaring bilan o'lasizlar» va yana: «Chunki najot topishimiz uchun, odamlarga osmon ostida berilgan boshqa hech bir nom yo'q».

– Biroq hukmdor Jeylin, mening yaxshi ishlarimchi? Ular yomonlaridan ko'ra ko'proq emasmi?

Shoh Jeylin javob berdi:

– Gap qonunni ko'p yoki kam buzganingda emas, negaki «Kimki Qonunning barchasiga rioya qilib, biron bir narsada gunoh qilib qo'ysa, u hamma narsada aybdor bo'ladi».

Mustaqil kuch to'plab, e'tiroz bildirdi:

– Unda inson qanday qilib najot topadi?

Bu savolga Jeylinning o'zi javob bermadi. U Affabelning muhtarama a'zosiga qaradi, aftidan, u shohning yordamchisi edi, negaki u shohnikiga o'xshash, lekin hajmi kichikroq taxtda o'tirardi. Ayol javob berdi:

– Nahotki o'qituvchilarning aytmagan bo'lsa, axir Jeylin o'zining maxsus iltifoti bilan odamlarni qutqardi, lekin sen bunga ishonishing kerak edi. Najotga inson o'z kuchi bilan sazovor bo'lishi imkonsiz, bu Jeylinning sovg'asi. Toki hech kim maqtanmasligi uchun, najot yaxshi ishlar evaziga beriladigan mukofot emas.

Jeylin qo'shimcha qildi:

– Ancha ilgari men, o'tgan va kelajakdagi fuqarolarning qonunbuzarliklari uchun haq to'laganman. Hech bir kishi mening qarshimda begunoh turishga yoki qonunni mukammallikda bajara olishga qodir emas, biroq odamlarga bo'lgan sevgim tufayli, men o'zim ularning o'rnida azob chekdim. Binobarin mening najotim – bu qozonib bo'lmaydigan in'om. Sen Affabelning fuqaroligiga sazovor bo'lish uchun yetarli darajada yaxshi ishlar qila olmaysan. U menga ishonish bilan birga beriladi. Sen esa men sen uchun amalga oshirgan najotdan yuz o'girding.



Mustaqil bir necha soniya dong qotib qolgan holda sukut saqlab, so'ng dedi:

– Tushunarli. – U umidsizlik dengiziga g'arq bo'layotganini his etardi. Biror narsaga ilinib qolish maqsadida so'radi: - Demak, hamma ishlarim behuda ekanda?

Jeylin javob berdi:

– Yozilganki: «O'liklar hech narsani bilmaydilar ham, ular boshqa mukofot olmaydilar ham; zero ularning xotiralari unutilgandir. Shuningdek, ularning sevgisi ham, ularning nafrati ham, ularning rashklari ham endi yo'qolgan. Ular boshqa quyosh ostida qilinayotgan biror ishda ulushga abadiy ega emaslar» va yana: «Chunki yovuz odamning kelajagi yo'q, betavfiqlarning chirog'i o'chadi».

Jeylinning so'zlari Mustaqilni esankiratib qo'ydi, u og'iz ocholmay qoldi. U darslarni qoldirganiga pushaymon bo'ldi. Mabodo, u haqiqatni eshitganda, hayotida taqdirini hal etuvchi xatoga yo'l qo'ymagan bo'lardi.

Keyin sukut soniyalarida unga boshqa bir fikr keldi. Bu o'sha butun kun davomida unga yupanch bergan va yangi umidni baxsh etgan fikr edi:

– Ha, hamma aytganlaring – to'g'ri. Biroq, Jeylin, sen shafqatli shohsan, axir! Agar shu haqiqat bo'lsa, sen qanday qilib meni hayday olasan?

Jeylin javob berdi:

– Men shafqatli shohman, aynan shuning uchun men seni bu yerdan jo'natyapman. Sen Endeldagi hayoting bilan, johil hukmdor Dagonning tabiatini bir umrga o'zing uchun tanlading. Men mehribon, haqqoniy va sevuvchi shoh bo'la turib, senga bu buyuk shaharni axloqsizligi bilan bulg'ashga qanday yo'l qo'yaman? Men bu bilan Affabelning pokizaligiga ziyon yetkazaman. Sen tanlagan tabiat sal o'tmay namoyon bo'lishni boshlaydi va minglab pok odamlarning hayotini buzadi. Sen o'z yo'lingni o'zing tanlading. Shuning uchun sen izidan borayotgan shaxs, Dagonga belgilangan jazoning o'zginasini olasan. Agar undan ko'ra yengilroq jazo olishga hukm chiqarsam, adolatsizlik qilgan bo'laman. Men esa adolatliman!

Shundan so'ng Jeylin yig'ilganlarning barchasiga murojaat etib, otasining qadimiy so'zlarini keltirdi: «So'zni mensimaydigan o'ziga ziyon



yetkazadi, amrdan qo'rqadigan esa taqdirlanadi».

Shunda shoh xizmatkorlariga dedi: «Uning qo'l-oyog'ini bog'lab, olib chiqinglar va tashqi zulmatga tashlanglar. U yerda yig'i-sig'i va tishlar g'ijirlashi bo'ladi. Zero chaqirilganlar ko'p, tanlanganlar esa ozdir».

Qo'riqchilar boshlig'i Mustaqilni bog'lab, zalning yon eshigi orqali chiqarib ketarkan, u dahshatdan qichqirdi va uni qo'rqinchli o'lim talvasasi qurshab oldi. Minglab yig'ilganlarning orasidan bir ovoz ham eshitilmas edi. Ular bu odam o'z hayotini bema'ni sarflaganiga va qolgan butun hayotini jazoda o'tkazishiga qayg'u bilan qarab qoldilar.

Mustaqilni boshqa kutish zaliga olib borishdi. Bu yerda humk qilinganlarga tayyorlab qo'yilgan minglab panjarali xonalar bor edi. Zalga kirishda quyidagi so'zlar yozilgandi:

«Hayot daraxtidan tatish huquqini qo'lga kiritish va shaharga darvozalar orqali kirish uchun o'z kiyimini yuvadiganlar baxtlidirlar! Itlar va sehrgarlar, fohishalar va qotillar, butparastlar va yolg'onni mamnunlik bilan amalga oshiruvchilar esa tashqaridadirlar».

Mustaqil shu yozuvga tikilib qoldi va uning ichida g'azabi qaynadi. Endi u butunlay o'zining yovuz tabiatining ta'siri ostida qoldi. Bu yovuzlik undagi hamma ezgulikni batamom yutib yubordi. Uning xulq-atvori shiddat bilan quturgan itning xulq-atvoriga aylanib borardi. U shohning ta'siridan ketib, o'zining nopok ongi asiriga aylandi.

Aldangan Jeylinning qarshisida

Yana bir necha soat o'tdi. Ko'plarni Adolat zaliga chaqirishdi, ammo Aldangan, Jur'atsiz va Qo'sh Hayot hali hanuz o'z navbatlarini kutayotganlarning qatorida turardilar. Aldanganning ko'tarinki kayfiyati boshqalarga ham umid bag'ishlardi.

Zalning eshiklari ochildi va shohning to'rtta qo'riqchisi paydo bo'ldi, ular bu safar Aldanganni chaqirishdi. U tanasini qurshab olgan qattiq hayajondan qaltirab ketdi: uning vaqti keldi. O'z bezovtaligini yashirish maqsadida qolganlarga odatga aylangan so'zlarini aytdi: «Ha, yigitlar,



mening raqamim yutuqli!»

Aldangan bayonnoma bilan tanishdi va Adolat zalining ochiq eshiklaridan kirdi. U ham xuddi Mustaqil his etgan narsalarni his etdi. U ham zalning go'zalligi va ulug'vorligidan hamda yig'ilgan fuqarolarning xotirjamligidan lol bo'ldi. Zal bo'ylab yurarkan, bir necha tanishlariga ko'zi tushdi: ularning hammasi Endeldagi maktabda o'qigan va undan bir-ikki yil oldin bitirgan edilar, buning ustiga u Mustaqilga qaraganda ko'proq tanishlarni ko'rdi, negaki u qariyb hech qachon maktab uchrashuvlarini qoldirmagandi.

U taniganlaridan biri maktabda o'qimagan Berahm ismli kishi edi. U o'taketgan yaramas degan nom bilan dong taratgan odam edi. Aldangan hayron bo'lib, uning to'g'risida to'xtadi:

– Bu nima qilyapti bu yerda?

Qo'riqchilarning boshlig'i Aldanganga o'sha odam bilan gaplashishga ijozat bergan tariqasida boshini chayqadi.

U yaqinroq bordi va so'radi:

– Berahm, bu senmi?

U odam javob berdi:

– Men qachonlardir Berahm edim, biroq hukmdor Jeylin mening ismimni Yarashgan deb o'zgartirdi.

Aldangan ajablandi:

– Sen, umuman, qanday qilib bu yerda o'tiribsan? Seni jamoatimizda eng yovuz kishi deb hisoblashardi. Sen maktabga bormagansan, men bilgan odamlarning orasida eng ko'p sen Jeylinga qarshi chiqqansan.

– Ha, bu rost, biroq men o'zimni shunaqaligimdan va qilmishlarimdan nafratlanardim, – deb javob berdi Yarashgan. – Men maktabga bormaganim tufayli Jeylinning hayotni o'zgartiruvchi so'zlarini hech qachon eshitmagan edim. Sud kunidan bir hafta ilgari Saxovatning restoranida tushlik qildim. U mening hayotim parcha-parcha bo'lib ketganini bilardi va qandaydir tarzda mening yuragimdagi azobni his etishga qurbi yetdi. U bilan suhbatga qolish sharti bilan mening tushligimning haqqini to'ladi. U ikki soat vaqtini sarflab, Jeylin uning ezguligi, najoti va Affabel deb ataluvchi ajoyib yurt haqida so'zlab berdi.



U menga, o'z hayotimni buyuk shohga bag'ishlashga hali kech emasligini tushuntirdi. Menda shartsiz kechirimga ega bo'lishga va uning shohligiga qabul qilinishga hali imkon bor edi. Jeylning sevgisi meni to'ldirdi va o'zimni to'liq uning qo'lga topshirdim. Endelda Unga xizmat qilishimga atigi bir hafta qolganiga qaramay, chin qalbidan qaror qildim. Kimni xafa qilgan bo'lsam va kimning narsasini o'g'irlagan bo'lsam, ulardan kechirim so'radim. Ularning narsalarini olganimdan ikki barobar ortiq qilib qaytarib berdim.

Aldangan bir so'z demay turardi. Ortiga qarab, qo'riqchining aytilganlarni ma'qullagan tarzda boshini silkitganini ko'rib qoldi. Shundan so'ng, Yarashgan o'z joyiga qarab yurdi, Aldangan esa taxt tomonga borishda davom etdi.

U hozirgina eshitgan voqeasi haqida o'ylashdan to'xtamasdi. Unga Jeylning buyuk shafqati haqida aytishgan edi va endi uning qanchalik hayratomuzligining guvohi bo'ldi. O'sha odam u bilganlarning orasida eng yomoni edi, bu yerda esa u ham boshqalar kabi ulug'vorlikka erishdi. Aldangan Jeylning ko'zida muruvvatga erishishiga har qachongidan ham ko'proq ishonardi, negaki u shohning borligiga doim ishongan.

Aldangan taxt qarshisida turarkan, Mustaqildan talab etilgan narsani u ham eshitdi:

– O'z faoliyating haqida hisobot ber.

Mustaqilga o'xshab u ham maktabga borgan birinchi kundan boshlab, to kechagi kunigacha butun hayotini oynajahondan ko'rdi. Darslarga astoydil qatnashganini va Jeylning bag'oyat katta yordamlarini ko'rish uni barcha yig'ilib turganlarning oldida naqadar ovutardi.

Lekin ha demay boshi egildi. Hayot tarzi uni ayblar edi. U doim o'z qilmishlarini oqlab yashagan, biroq ular ulug'vor hakam va vijdoni pok guvohlarning oldida namoyon bo'lganda, u uyaldi va hijolat chekdi. Uning pala-partish jinsiy aloqalari hamma muhtamlar yig'iniga ma'lum bo'lganida, o'zini qaysi teshikka yashirishni bilmay qoldi.

Uning nafaqat ishlari, balki fikr va niyatlari ham yuzaga chiqdi. Jeylin bularning barini qayoqdan biladi? Qanday qilib u Aldanganni, ilgari hech kim bilmagan ishlari uchun sud qilishi mumkin? Yuragining tubidagi



sirlarini endi hech kimdan yashirib bo'lmasdi. Uning ish yuzasidan shartnomalar tuzishda, uy va yer sotishda qanchalik foyda ketidan quvganini hamma yig'ilganlar ko'rib turgandi. U yerdagilar Aldangan o'z istagini amalga oshirish maqsadida g'iybat va tuhmat qilish unga odatga aylanib qolganiga qarab turardilar. Uning barcha ishlari ko'proq naf ko'rish niyatida amalga oshirilgandek tuyulardi. U hamma narsani o'zi bilganicha va o'zi uchun qilardi. Ko'rinib turgan haqiqatlarni rad etish imkonsiz edi. Biroq u bularning barchasi katta ahamiyatga ega emas deb o'zini ishontirardi, axir u Jeylinga ishonib yashagan hamda unga tegishliligini doimo hammaga aytib kelgan.

Uning hayoti ko'rib chiqilgan zahoti, Jeylin shoh kotibiga yuzlanib, so'radi:

– Aldanganning ismi Hayot Kitobida yozilganmi?

– Yo'q, podshohim, – degan javob eshitildi.

Jeylin e'lon qildi:

– Aldangan, sen meni rad etganing uchun aybdorsan va qolgan butun hayotingni tashqi zulmatda, umidsizlik va yolg'izlikda azob chekib o'tkazish uchun Loun yeriga quvg'in etilasan.

Aldangan shol bo'lib qoldi. Uning fikrlari tarqoq edi: «Bu xato bo'lishi kerak. Bunday bo'lishi mumkin emas! Men Jeylinga ishonaman. U: «Meni rad etding» deganida nimani nazarda tutdi?

U bor ovozi bilan baqirdi:

– Men qachon seni rad etdim?!

– Sening o'qituvchilaring, Jeylinni bilamiz deb, lekin o'z qilmishlari bilan Undan voz kechadigan hamda ular hech qanday xayrli ishga yaramaydigan, razil va itoatsiz odamlar haqida ogohlantirishlarini eshitmaganmiding?

Aldangan yana e'tiroz bildirmoqchi bo'ldi:

– Ammo, ulug' shoh, men sening maktabingga qatnadim. Darslarni qoldirmadim va maktabning boshqa ko'p tadbirlarida ishtirok etdim. Men seni, hatto hukmdorim deb atadim!

Jeylin birdan javob qaytardi:



– Nega Meni: Rabbiy! Rabbiy! – deysizlar-u, lekin soʻzlarimga rioya qilmaysizlar? Men sizlarni, tashqaridan diniy boʻlganlarning hammasi ham chinakam xudojoʻy emas, deb allaqachon ogohlantirgan edim. «Yo, Rabbiy! Yo, Rabbiy!» – deganlarning har biri ham Affabel Shohligiga kiravermaydi – deb aytganman. Eng muhim savol shundaki, Osmondagi Otamning irodasini bajardingmi yoki yoʻqmi? Oʻsha kunda koʻpchilik Menga: «Yo, Rabbiy, yo, Rabbiy, biz Sening isming bilan bashorat qilmadikmi?» – deydilar. Men esa ularga eʼlon qilaman: «Men sizlarni hech qachon bilganim yoʻq. Mening oldimdan ketinglar, ey, qonunbuzarlik qiluvchilar».

Aldanganning jazavasi tutdi:

– Men senga ishongandim... Soʻzing boʻyicha, senga ishongandim, men najot topishim kerak!

Jeylin sabrli, lekin qatʼiy edi. U yigʻilib turgan fuqarolarga, kichikroq taxtda oʻtirgan maktabning sobiq oʻqituvchisiga qaradi:

– Aldanganga darslarda oʻtgan bilimlaridan oʻqib ber.

U odam Muqaddas Kitobdan oʻqidi: «Mening birodarlarim, agar biror kishi imonga egaligini aytsa-yu, lekin ezgu ishlarga ega boʻlmasa, bundan nima foyda? Bunday imon unga najot bera oladimi? Xuddi shunday, imon ham ishsiz boʻlsa, oʻz-oʻzidan oʻlikdir. Biroq biror kishi: «Sen imoningga egasan, men esa ishlarimga egaman», – deb aytishi mumkin. Xoʻp, ishlarsiz boʻlgan imoningni menga koʻrsat-chi, men esa senga imonimni ishlarim orqali koʻrsataman! Sen Jeylinning yagonaligiga ishonasanmi? Yaxshi qilasan! Jinlar ham ishonadilar va dahshatdan titraydilar. Ey, nodon odam, ishlarsiz imon oʻlik ekanligini bilishni xohlaysanmi?»

Jeylin yana qaytarib aytdi:

– Sen ishonganman deding, ammo imoningga muvofiq itoatkorlik ishlari hamroh boʻlmasa, bu ishonishga kirmaydi. Ishonaman deyishning oʻzi kamlik qiladi, chunki, hatto najot topa olmaydigan jinlar ham ishonadilar. Chindan ham ishonadigan odam oʻzining yangilangan feʼl-atvorini koʻrsatadi va yovuz tabiatning hosillaridan keltirmaydi. Sen har doim yovuz hukmdor Dagonning hosillarini keltirding, bu esa sen hech



qachon bor qalbing bilan menga ishonmaganingni tasdiqlaydi.

Aldangan eshitganlarini qiyinchilik bilan anglardi:

– Unda yovuz Berahm haqida nima deysan? Men undan yaxshiroq edim. Qanday qilib, uni qabul qilasan-u, meni haydaysan? Sen adolatsizsan!

Jeylin javob berdi:

– Lekin sizlar: «Rabbiyning yo’li noto’g’ri!» – deysizlar. ...Quloq solinglar! Mening yo’lim noto’g’rimi? Sizlarning yo’llaringiz noto’g’ri emasmi? Agar betavfiq odam o’zining qilgan betavfiqligidan qaytsa, odil hukm va haqiqatni amalga oshirsa, o’z jonini hayotga qaytaradi. Chunki u qarab ko’rdi va o’zining barcha qilgan jinoyatlaridan o’girildi. U albatta yashaydi, u o’lmaydi.

Umidi puchga chiqqan va yovuzlik otiga mingan Aldangan, qichqirishda davom etdi:

– Shunday bo’lsa-da, men sen haqingda boshqalarga so’zlab berardim va sening so’zing bilan bo’lishardim. Men hatto o’z xohishim bilan maktabingdagi darslarga borardim!

Endi Jeylin keskin javob qaytardi:

– Nima uchun sen Mening qonunlarimni e’lon qilasan va Mening ahdimni og’zingga olasan, o’zing esa Mening nasihatimdan nafratlanasan va Mening So’zlarimni ortingga tashlaysan? O’g’rini ko’rganingda, u bilan til biriktirasan, zinokorlar bilan birlashasan. Og’zingni yomon so’zlarga ochasan, tiling esa yolg’onni to’qiydi. O’tirib birodaringga qarshi so’zlaysan, o’z onangning o’g’liga tuhmat qilasan. Sen shu ishlarni qilar eding, Men esa jim turardim. Sen Meni ham o’zingdek deb o’ylading. Seni fosh qilaman va sening gunohlaringni ko’zlaring oldiga qo’yaman.

Aldangan jim turardi. Uning fikrlari quyundek izg’isa-da, lekin o’zini oqlash uchun boshqa hech qanday so’z topa olmadi.

Oradan bir necha soniya o’tdi. Shunda shoh xizmatkorlariga dedi: «Uning qo’l-oyog’ini bog’lab, olib chiqinglar va tashqi zulmatga tashlanglar. U yerda yig’i-sig’i va tishlar g’ijirlashi bo’ladi».



Qo'riqchilarning boshlig'i unga yaqinlasharkan, u Jeylin, qo'riqchilar, hatto Affabel fuqarolarining yuziga qarata haqoratlarni uloqtira boshladi. U g'azab otiga minib, o'zini har yonga urardi. Uning haqqoniy fe'li yuzaga chiqishi bilan, undagi bor yaxshi narsalarni yutib yubordi. Uni qo'l-oyog'i bog'liq holda zaldan olib chiqishar, u esa hammani haqoratlashda davom etardi. Mustaqil singari, uni ham sud tugagunicha alohida xonaga solib qo'ydilar.

Aldaganni zaldan olib chiqqan zahoti, Jeylin yig'ilganlarga murojaat etdi:

– Shunday nasl borki, u o'z nigohida pok, lekin o'z nopokligidan yuvilgan emas.

Jur'atsiz Jeylinning qarshisida

Adolat zalining qabulxonasida atigi bir necha yuzta odam qolgan, ularning orasida esa Jur'atsiz va Qo'sh Hayot ham bor edilar. Jur'atsizni hanuz unga nisbatan xafalik azobi qiynar va mumkin qadar yigitdan uzoqroqda yurardi. Yigit ham undan o'zini olib qochardi.

Jur'atsizni olib ketish uchun to'rtta qo'riqchi kirdi. Qiz uni qayerga olib ketayotganini tassavvur etolmay asabiylashar, biroq Qo'sh Hayot ortda qolayotganidan biroz yengil tortdi. Boshqalar singari, unga ham eshik oldida bayonnomani o'qib eshittirishdi, so'ng ichkariga olib kirishdi.

Affabel fuqarolari yonidan o'ta turib, ilgari maktabda o'qiganlarning ko'pchiligini tanidi. Ularning aksariyati, Jur'atsiz bilan qiyoslaganda, maktabda mashhur va imonda sodiq bo'lmagan edilar. Jur'atsiz bir necha kishiga hayrat bilan qaradi, uning o'ylashicha ular bu joyda turishga arziyas edilar.

Jur'atsiz taxtga yaqinlashib, uning atrofidagi bir qancha kichikroq taxtlarga ko'zi tushdi. U bu shohlikda rahbarlaridek tuyulgan ayrim o'qituvchilarni tanidi. Har holda taxtda o'tirganlarning ko'pchiligi uni hayron qoldirdi. Ular Endelning eng past aholisi edi. Taxtda bir-ikkita boylar ham o'tirardi. «Boylar qanday qilib bu faxrli joylarga sazovor bo'ldilar?» – deb o'yladi o'zicha.



Savoliga o'zi javob berishga ulgurmay, Jeylinning ovozi eshitdi:

– O'z faoliyating haqida hisobot ber.

Ulkan oynaijahonda uning butun hayoti gavdalandi. Jur'atsiz maktab yillariga zavq bilan qaradi. Do'stlariga ixtiyoriy ko'magi, darslardan keyingi mashg'ulotlari va sinfdagi rahnamoligi unga umid bag'ishlardi. U o'zining jasurligi va tirishqoqligidan faxrlandi. Biroq oynaijahonda Tuhmatning yolg'oniga bo'lgan munosabati paydo bo'lganida, uning kayfiyati o'zgara boshladi. U hali ham yuragidagi xafalik alamidan qutulmagani ochiq-oydin edi. Uning ko'rinib turgan qalb fikrlari shunaqangi xunuk ediki.

Keyin Qo'sh Hayot bilan munosabatlari boshlandi. U hech qachon o'sha ishqiy aloqalari uchun tavba qilmagan ekan. Jur'atsiz o'zini qurbon bo'lgan hisoblab, hamma aybni Tuhmatga va o'z qarori uchun mas'uliyatni olishga halaqit bergan Qo'sh Hayotga to'nkab kelgan. Undagi alam, g'azab va o'ch olishga ishtiyoq, vaqt o'tgan sayin faqat kuchayib borganini ko'rdi. Hislarini unutishga erishgan bo'lishiga qaramay, baribir muammoning ildizini hal qilmagandi. Bu narsa, nafaqat Qo'sh Hayot va Tuhmatdan xafalikda, balki u aslida hamma qiyinchiliklari uchun Jeylinni ayblashida ham namoyon bo'lardi. U qanday qilib, Qo'sh Hayotga o'xshash kishilarni maktabda dars berishiga ruxsat bergan? Uning nafrati va kechira olmaslik tuyg'usi ochiqchasiga qat'iy va ayovsiz edi.

Film tugaganida, uning alamga to'la, boshqalarga nisbatan ezgulikdan yiroqda ayol ekani oydinlashdi. Ammo bularning bari keng yig'inning guvohligida ko'ringan bo'lsa-da, uning boshidagi o'zini bag'shida etgan yillari shohning iltifotini ta'minlashiga amin edi. Uning boshiga tanbeh tushishi aniq va qiz undan qo'rqar, biroq uni oldinda yana nimalar kutayotganini tasavvur ham etmasdi.

Jeylin shoh kotibiga o'girildi.

– Jur'atsizning ismi Hayot Kitobida bormi?

– Yo'q, shohim.

– Jur'atsiz sen haqlikni yo'qotganlikda va xiyonat orqali mendan voz kechganlikda aybdorsan, shuning uchun qolgan butun hayotingni tashqi



zulmatda, umidsizlik va yolg'izlikda azob chekib o'tkazish uchun Loun yeriga quvg'in etilasan.

Jur'atsizni aql bovar qilmas dahshat qopladi. U oldin shu yerda turganlardan ko'ra ko'proq taajjubni his etdi. Bunday bo'lishi mumkin emas! Bu yomon tush, yo'q, qo'rqinchli tush va u shunchaki uyg'onishi kerak! Balki u nimanidir tushunmagandir.

U quloqlariga ishonmay, so'radi:

– Jeylin, sen menga dahshatli Loun yeriga borishing shart, dedingmi?

– Ha, Jur'atsiz, sen hamma narsani to'g'ri tushunding, – deb javob berdi shoh.

– Shoh Jeylin, bu nimasi axir? Men senga ishonaman. Bu oynaijahondagi hayotimda ham yaqqol ko'rinib turgan edi. Mening hayotim imonimning kuchli ekanining yaxshigina isboti. Mening yuragim toshbag'ir bo'lib qolganini va undagi sevgi so'nganini tan olaman, lekin bunda men aybdormasman. Tuhmat va Qo'sh Hayotlar aybdor. Men ular tufayli qahri qattiq kishiga aylanib qoldim.

– Nahotki, sen o'qituvchilaring orqali aytganlarimni unutgan bo'lsang? – deb so'radi Jeylin. – «Qonunbuzarlikning ko'payishi tufayli ko'plarda sevgi soviydi. Oxirigacha chidagan esa najot topadi». Sen oxirigacha chidamading.

Jur'atsiz e'tiroz bildirdi:

– Ammo, hukmdor Jeylin, men haq kishiman, negaki men senga ishonaman. Men balki ishonchim alangasini yo'qotgandirman, biroq najot topgan inson uni hech qachon yo'qota olmasligiga doimo ishonib kelganman. Hatto ayrim o'qituvchilar ham shunday deb ta'kidlashardi. Ularning aytishicha, hech kim meni sening qo'llaringdan tortib olmaydi.

Jeylin unga javob berdi:

– Ha, bu haqiqat. Hech kim seni mening qo'llarimdan tortib olmaydi, shu bilan birga men senga hech qachon o'zing mendan keta olmasan demaganman. Faqat sening o'zing bunga qodirsan. Nahotki Kalomni o'qimagan bo'lsang: «Agarda ular Rabbiiy va Qutqaruvchi Jeylinni



tanib-bilish orqali dunyoning haromliklaridan qutulgan bo'lib, o'sha haromliklarga yana o'ralib qolib qayta mag'lub bo'lsalar, unda ularning so'nggi ahvollari avvalgi ahvollaridan battar bo'ladi. Haqlik yo'lini tanib bilgandan keyin, tan olgan muqaddas amrdan yuz o'g'rigandan ko'ra, bu yo'lni hech bilmaslik ular uchun yaxshiroq bo'lar edi». Agar ahvollari najot topgunga qadar battarroq bo'lgandan ko'ra, yaxshisi haqiqat yo'lini bilmaganlari afzal edi degan bo'lsam, sen qanday qilib najotni yo'qotish mumkin emas deb o'ylading? Agar bu imkonsiz bo'lganda edi, inson qanday qilib, insonning holati najot topishidan avvalgi holatidan ham yomonroq bo'lishi mumkin?

Mening so'zimga qarama-qarshi gapiradigan o'qituvchilarga nega quloq solding? Har bir kishi haqiqat yo'lini bilib olishi uchun hamma narsani yog'i bilan tushuntirib yozib qo'yganman. Nimaga seni aldashlariga yo'l qo'yding? Mabodo sen mening aytganlarimga ishonganingda edi, yuragingdagi alamni yenggan bo'larding. Sen esa o'zingdagi so'zsiz xavfsizlik haqidagi yolg'on tasavvurda yurib, alaming boshqara olmaydigan darajada o'sib ketishiga yo'l qo'yding, holbuki hozirgi olgan jazoingdan omon qolsa bo'lar edi.

– Mening yaxshi ishlarimchi? – deb yolvordi Jur'atsiz.

Hukmdor Jeylin javob qaytardi:

– Sendan qayta so'rayman, payg'ambar orqali aytgan ushbu so'zlarimni o'qiganmiding: «Agar haq kishi, o'z haqligidan qaytib, betavfiqlik qilsa va betavfiq odam qiladigan barcha jirkanchliklarni qilsa, u yashaydimi? U qilgan uning barcha haq ishlari yodga olinmaydi. U o'zining qilayotgan xoinligi uchun va o'zining qilayotgan gunohlari uchun o'ladi. Lekin sizlar: «Rabbiyning yo'li noto'g'ri!» – deysizlar. Ey, Isroil xonadoni, quloq solinglar! Mening yo'lim noto'g'rimi? Sizlarning yo'llaringiz noto'g'ri emasmi? Agar haq kishi o'z haqligidan qaytsa va betavfiqlik qilsa va shu uchun o'lsa, unda u o'zining qilgan betavfiqligi uchun o'ladi». Hammasi kitobda yozilganidek; sening yaxshiliklaring unut bo'ldi va ular endi hisobga o'tmaydi.

Jur'atsiz oxirgi imkoniyatga tirmashib, dedi:



– Lekin, hukmdor, sening o‘zing agar men seni Najotkorim deb e’tirof etsam, ismim Hayot Kitobida yoziladi, deb aytgansan. Unda nimaga mening ismim yo‘q? Nima uchun sening quling ismimni topa olmadi? Qay tarzda u yo‘qolib qoldi?

Jeylin sabr-toqat bilan, lekin keskin tarzda so‘zladi:

– Yuqorida aytilganini eshitmadingmi? «Oxirigacha chidagan najot topadi». Oxirigacha, sud kunigacha sodiq qolgan g‘alaba qozonadi. Men ravshan qilib aytdim, G‘olib keladigan oq kiyimlarga burkanadi, uning ismini hayot kitobidan o‘chirmayman». Agar men Hayot Kitobidan o‘chirmayman degan bo‘lsam, demak, u o‘chirilishi mumkin. Unday bo‘lmaganida: «Meni hukmdor deb ataganlarning ismi abadiyga Hayot Kitobida yoziladi» deb aytgan bo‘lardim.

– Qanday qilib meni tirik murdalar badarg‘a etilgan Loun yeriga quvg‘in etishing mumkin? – yalindi Jur‘atsiz.

– Endel aholisiga tanish bo‘lgan qadimgi Kalomni o‘qib ber, – deya, Jeylin kichik taxtlarda o‘tirganlarning biriga murojaat etdi.

Hokim o‘qib eshittirdi:

– Aql-idrok yo‘lidan ozgan odam o‘liklar yig‘inidan joy oladi.

Jur‘atsiz jim turardi. Shunda shoh o‘z qullariga dedi:

– Uning qo‘l-oyog‘ini bog‘lab, olib chiqinglar va tashqi zulmatga tashlanglar. U yerda yig‘i-sig‘i va tishlar g‘ijirlashi bo‘ladi. Zero chaqirilganlar ko‘p, tanlanganlar esa ozdir.

Qo‘riqchilarning boshlig‘i unga yaqinlasharkan, u Jeylinni la‘natlashni boshladi. Vahshiyona alam uning bo‘ynidan bo‘g‘ib oldi va ikki marta o‘lgan tabiati to‘la-to‘kislikda namoyon bo‘ldi (Yahudo 12). U kuzgi shamolda ildizi bilan sug‘urilgan va natijada qurib qolgan daraxtga o‘xshab ketdi.

Uni qo‘l va oyoqlari bog‘liq holda yon eshik orqali chiqarib ketishdi. Boshqalar singari uni ham alohida bo‘lmaga joylashtirdilar. U zalni tark etgan zahoti, bosh kotib dedi:

Agar biz haqiqat bilimini olgach, ixtiyoriy ravishda gunoh qilsak, unda gunohlar uchun boshqa qurbonlik qolmaydi, biroq dushmanni yutadigan



olovning qahrini va Jeylinning qo'rqinchli hukmini kutish qoladi. Biz shunday deganni bilamiz: «Qasos olish Mendan, jazoni Men beraman, – deydi Rabbiy». Va yana: «Rabbiy O'z xalqini hukm etadi». Barhayot Jeylinning qo'liga tushish dahshatlidir».

Qo'sh Hayot ustidan sud

Qo'sh Hayotni oxirida chaqirishdi. U Jeylinning qonunlarini bilar va unga chiqarilgan hukm yengil bo'lmasligini juda yaxshi tushunib turardi. U tez orada jinoyatlari uchun qanday jazo olishini hech qiyinchiliksiz bilib oladi.

U qo'riqchilar hamrohligida Adolat zali tomon yurarkan, yo'lda umidsizlikka tushdi. Uning hayoti oynaijahonda ko'rsatildi va ismi Hayot Kitobida yo'q, degan achchiq so'zlarni eshitdi.

– Qo'sh Hayot, sen xiyonatda, haqlikni yo'qotishda, to'siq toshi bo'lganlikda ayblanasan va seni buyuk jazo va azoblar kutib turgan Loun yeriga surgun etilasan.

Qo'sh Hayot, hukmni dahshat ichida eshitib, yolvordi:

– Hukmdor, men sening maktabingda o'qituvchi edim, axir. Men senga xizmat qilish uchun hayotimni baxshida etdim.

Jeylin javob berdi:

– Sen o'qituvchi bo'la turib, kitobdan o'rgatganlaringni o'zing o'qimading: «Birodarlarim, o'qituvchilar ko'proq hukmga duchor bo'lishlarini bilib, ko'plaringiz o'qituvchi bo'lavermanglar».

– Men qanaqasiga to'siq toshi bo'ldim? – deb so'radi Qo'sh Hayot.

Jeylinning ovozi yanada jiddiylashdi.

– Sen mening ko'plab kichik qullarimni yo'ldan urding, ular senga qoqilib, abadiy yiqildilar. Jur'atsiz shulardan biri. U sening qaramog'ingga ishonib topshirilgan edi. Men senga uning ustidan hokimiyatni shaxsiy manfaatlarining yo'lida foydalanish uchun emas, uni himoya qilish uchun bergan edim. O'z nufuzingni ishga solib, shahvoniy nafsingga erk berding hamda uni va boshqalarni zo'rlading. Uni allaqachon dugonasi yaralagandi, sen esa uni shifolashning o'rniga undan foydalanding. Sen uning imonini



barbod etding. U Lounga badarg'a etilish jazosini oldi. Mening senga ogohlantirib aytgan gaplarim, albatta, yodingda:

– «Kimki Menga imon keltirgan mana shu kichiklardan birontasini vasvasaga solsa, uning bo'yniga tegirmon toshini osib, dengizga tashlanishi u uchun yaxshiroq bo'lar edi».

– Lekin, Jeylin, men Lounga borishim kerakligini bilaman, – deb yalina boshladi Qo'sh Hayot, – biroq nega menga eng og'ir qiynoqlarni tayinlading? Nimaga sen menga bunchalik ayovsizsan? Men qandaydir bir imonsiz emas, balki sening xizmatkoring edimku. Men sen haqingda eshitishni ham istamagan Mustaqilga o'xshab yashaganim yo'q. Nima uchun menga shuncha katta jazo?

Jeylin qat'iy va barqaror turardi.

– Sen Muqaddas Kalomni bilarding. Nimaga menga bu savollarning barini beryapsan? Mabodo unutgan bo'lsang, men senga eslatib yuborishim mumkin. Muqaddas yozuvlar yaqqol aytyapti: «Lekin agar o'sha qul o'z yuragida: «Xo'jayinim yaqin orada kelmaydi», – deb, xizmatkoru cho'rilarni urishni boshlasa, unda xo'jayin quli kutmagan bir kunda, o'ylamagan bir soatda kelib, uni tilka-pora qilib, unga imonsizlar bilan bir qismatni beradi. Xo'jayinining irodasini bila turib tayyor bo'lmagan, xo'jayinining irodasi bo'yicha ish tutmagan qul ko'p tayoq yeydi».

Mustaqil o'z qilmishlarini tushunishdan ancha yiroq edi. Sen esa bilimga ham, tushunchaga ham ega eding. Unga berilgan og'ir jazo senikidan ancha yengilroq. Men sen uchun zulmatning qa'ridan joy hozirlab qo'ydim.

So'ng Jeylin qo'riqchilarning boshlig'iga buyurdi:

– Uning qo'l-oyog'ini bog'lab, olib chiqinglar va tashqi zulmatga tashlanglar. U yerda yig'i-sig'i va tishlar g'ijirlashi bo'ladi. Zero chaqirilganlar ko'p, tanlanganlar esa ozdir.

Qo'riqchilarning yaqinlashishini kutarkan, Qo'sh Hayot Jeylinni, qo'riqchilarni va Affabel fuqarolarini la'natlashga tushdi. Qo'riqchilarga qarshilik ko'rsatib, jon-jahdi bilan ularning qo'lidani chiqishga va Jeylinga



tashlanishga urindi. Uning haqqoniy fe'l-atvori batamom yuzaga chiqdi. Undagi shu paytgacha bo'lgan barcha yaxshi narsalarni munofiqlik yutib yubordi.

Zaldan chiqayotib, hammaga la'natlarni yog'dirdi, so'ng uni oyoq va qo'llari bog'liq holda yon eshikdan olib chiqishdi va tez orada Loun yeriga yuboriladigan bir yarim mingta mahkumlarning yoniga qo'shib qo'yishdi.

Qo'sh Hayot zaldan olib ketilgan on bosh kotib yig'ilganlarga e'lon qildi:

– Sening hukming adolatli; ular qilmishlariga yarasha jazo olayaptilar.

Va qurbonlikdan gapirayotgan ovoz eshitildi:

– Sening hukming haqiqat va odildir.

La'natlangan Loun yeri

Bir yarim mingta hukm qilingan endelliklar qafaslarga solingan holda hamda shoh qo'riqchilari kuzatuv ostida zimiston Loun yeriga borish uchun ikki haftalik yo'lga chiqdilar. Ularning yo'li Buyuk olov cho'li orqali o'tgan bo'lib, qizigan yerdan ko'tarilayotgan jazirama issiq chidab bo'lmas darajada kuydirardi. Shu payt cho'lning, o'sha jaziramaning qoq o'rtasida ulkan binoning xira qiyofasi ko'rindi. Yaqinlashib, ular: «La'natlangan Loun yeri», – degan yozuvni o'qidilar.

E'tibor bilan qarasalar, binoning oynalari yo'q, faqat bitta katta eshik borligini ko'rib qoldilar. Unga kirarkan, har bitta mahkum ichkaridan minglab odamlarning dahshatli qichqiriqlarini eslatadigan ovozlarni eshitishdi. Ular o'sha zahoti qo'riqchilar boshlig'iga yolvora boshladilar: «Chindan ham, biz yetarlicha jazo olib bo'ldik. Biz uchun shafqat so'rang, bizga berilgan jazo o'ta darajada og'ir!»

– Odamlar bu yerda qancha vaqt turishadi? – deb so'radi Mustaqil.

– Bir yildan to bir yuz yigirma to'qqiz yilgacha.

Aldangan hayratdan qotib qoldi: axir, u doim yuragining bir tubida, oxirgi ikki haftaning ichida bo'lib o'tayotgan voqealarning barchasi qo'rqinchli tush yoki po'pisa yo'li bo'lib chiqishiga umid qilib kelayotgan edi. U keyingi savolni ham o'sha qo'riqchiga berdi:



– Men qolgan umrimni mana shu yerda o'tkazishim, rostmi?

– Ha, Endelda har doim seni aynan mana shu narsadan ogohlantirishgandi.

Mahkumlarning ko'pchiligini jiddiyroq jazo uchun metallardan bo'lgan binoning eng issiq bo'lgan ustki qavatiga joylashtirishdi. Jazoga loyiq ishlarni qilgan, biroq haqiqatni bilmaganlarni esa bu ulkan imoratning quyi qavatlariga qo'yishdi. Shunga qaramay, u yerda yuz yilni aytmang, bir kun ham chidab bo'lmas edi!

Qo'sh Hayotning uqubatlari haddan ziyod mudhish, taqdiri binoning yuqori qavatidagilarnikidan ham yomonroq edi. Uni qizdirilgan oltingugurtning yonidagi yer osti zindonxonasiga yuborishdi. U yerdan kelayotgan hidga chidashning o'zi og'ir bo'lib, bu joydagi issiqlik eng kuchli darajada edi. Zindon imorat ichida ham emas, balki yerning qa'rida joylashgandi. O'sha joy eng og'ir qiynoqlar maskani ekani, shubhasiz. Qo'sh Hayot bu yerda yolg'izlikda azob chekishi kerak edi. U kabi jazolarni o'taydiganlar uchun xonalar yetarli darajada ko'p edi. Ular bir-biridan uzoqlikda o'tirarkan, faqat o'zining ovozi eshita olardi.

Mahkumlar yaxshilab qulflangan zahoti, shohning qo'riqchilari ketishga hozirlanishdi. Ulkan metallardan bo'lgan eshik ularning ortidan taqillab bekildi va endi binoning ichkarisiga bir yorug'lik nuri ham kira olmasdi. Bu sho'rlik jonlar bir yuz yigirma besh yildan ko'proq vaqtni mutlaq zulmatda va yolg'izlikda o'tkazishi shart edilar. Ular yilda faqat bir marotaba, mahkumlarning yangi guruhini olib kelishganda, nurni ko'rish baxtiga ega bo'lardilar. Shunda ham bu nurni bor-yo'g'i ulkan eshikka yaqin bo'lganlar ko'ra olardilar, xolos. Qo'sh Hayotga o'xshaganlar hech qachon kunning yorug'ini ko'rishmaydi. Tunning zulmati ular uchun belgilangan jazo edi.

Mulohaza

Bu to'rtta Endel fuqarolari butun qolgan vaqti davomida bir vaqtlar haqiqatni eshitmaslikka qaror qilganlaridan afsusda yashadilar. Ular




doimo Endel yerida bilish imkonli bo'lgan Jeylinning so'zlariga e'tiborsiz bo'lishga sabab bo'lgan ahmoqliklari ustida mulohaza yuritardilar. Ular o'tmishga qaytib, o'z taqdirini o'zgartirishi uchun yana bitta imkonga ega bo'lish maqsadida, hamma narsaga tayyor edilar. Eh, ular aksariyat tengdoshlarining ommabop fikrlarini eshitmaslikni, o'zlarining shaxsiy ahmoqona narsalarga bo'lgan ishonchidan xalos bo'lishni va o'zgarmas hamda mustahkam qadimiy Kalomga mahkam yopishib olishni naqadar kuchli istardilar.

Ularga ajoyib shohlik to'g'risidagi xotiralar azob berardi. To'xtovsiz uqubatlar ichida, garchi ular shaharni bir necha lahza ko'rishga muyassar bo'lganliklariga qaramay, uning go'zalligi haqida shirin xayollar surishda davom etardilar. Keskin farqlar jafolarni yanada kuchaytirardi: olovli jazirama, qo'lansa hid va zulmat haqiqat mavjudligini tobora tasdiqlar edi. Ularga tayyorlab qo'yilgan narsalar ajoyib edi, ammo ular o'zlarining ahmoqona qarori bilan undan yuz o'girdilar.

❧ MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR ❧

1-BO‘LIM: 1-3-BOBLAR

1. Ushbu kitobni o‘qishni boshlashdan oldin, siz muvaffaqiyatni qanday ta’riflagansiz? Sizning maqsad, qadriyat va odatlaringiz qay tarzda ushbu ta’rifda o‘z aksini topgan? Yuqorida o‘qib chiqqan sahifalar qanday qilib sizning dunyo qarashingizga ta’sir qildi va ularni o‘zgartirdi?
2. Abadiylik kabi tushunchaning mohiyati ustida mulohaza yuritib, inson uning manguilikdagi taqdirini aniqlaydigan sudda turishi haqidagi fikr qariyb be’manilikdek tuyuladi. Shunga qaramay, Yuhanning birinchi maktubi (4:17) da aynan shu narsa haqida yozilgan. Kitobning qolgan qismlarida ushbu va’daning mazmunini tahlil etamiz, lekin siz o‘z bilimlaringizga tayanib, bu aminlik qayerdan kelayotganini tushuntirishga urinib ko‘ring.
3. Mana shu bo‘limda siz yerdagi hayot va bizning abadiy burchimiz o‘rtasidagi munosabatlarga misol bo‘lib xizmat qiladigan, Affabel shohligi haqida bilib oldingiz. Sizni bu shohlikda va uning idorasida nimalar ko‘proq hayratlantirdi? Undagi biror narsa sizni lol qoldirdimi, quvontirdimi? Yuqoridagi voqeaning tarkibiy qismlari Kalomda qay tarzda yoritilgan?
4. Keling, Endel fuqarolari haqida gaplashamiz. Birinchi to‘rtta sudga munosabatingiz qanday? Ular boshqacharoq o‘tishini kutganmidingiz? Agar ha bo‘lsa, siz sudni qanday bo‘lishini kutgan edingiz?
5. Ushbu darslikni o‘rganish jarayonida, sizni ko‘proq qanday savol qiziqtirdi va nimalar xovotirga soldi?



2 - BO'LIM

4-BOB

O'LIKLAR UCHUN MANGU UY

*Shunda Uning shogirdlari Undan: – Bu masalning ma'nosi nima?
– deb so'radilar. U esa dedi: – Sizlarga Xudo Shohligining sirlarini
bilish (fahmlash hamda yanada aniqroq va chuqurroq tushunish)
ato qilingan, boshqalarga esa masallardadir, shuning uchun ular
qarab turib ko'rmaydilar, eshitib turib anglamaydilar.*

— Luqo 8:9, 10 (Kengaytirilgan tarjima)

Hikoyamizni shu yerda to'xtatib turamiz va keyingi to'rtta bobda Mustaqil, Aldangan, Jur'atsiz va Qo'sh Hayotlarning ustidan bo'lib o'tgan sud voqeasida ochilgan haqiqatlarni yotig'i bilan o'rganib chiqamiz, shundan so'ng voqeaning xulosasiga o'tamiz. Bundan tashqari Saxovat va Xudbin bilan nimalar sodir bo'lgani haqida muhokama qilamiz hamda qolgan boblarda ularning voqeasi orqali ochilgan haqiqatlarni ko'rib chiqamiz. Kitobning eng qiziqarli qismi, Iso Masihning izdoshlari uchun tayyorlab qo'yilgan abadiy mukofotlar haqida so'zlaydi.

Muhim haqiqatlar

Hikoyamizda Jeylin Iso Masihning, Ota esa – Qudratli Ota Xudoning timsolidir. Dagon shaytonni, Endeldagi hayot – insoniyatning yerdagi umrini, Affabel esa – Xudoning samoviy shahrini kasb etadi. La'natlangan Loun yeri – Iso Masihning qutqaradigan inoyatiga ega bo'lmagan, har bitta shaxs mangu hayot kechiradigan olovli ko'lining timsolidir. Oldingi boblarda keltirilgan qahramonlar to'g'risidagi hikoya abadiy mahkumlikda yashaydigan kishilarning har xil hayotiy asarini namoyon etadi. Xudo bu haqda bizni aniq tarzda ogohlantiryapti.

Ha, siz to'g'ri o'qidingiz, abadiy mahkumlikda yashaydilar. Ushbu kitobni yozishga tayyorlanar ekanman, o'quvchiga Kalomdagi «abadiy hukmlar» to'g'risida aytilganlarni yetkazib berish yo'lida kurashdim. E'tibor bilan o'qing:

«Shuning uchun Masihning boshlang'ich (oddiy) ta'limotlarini qoldirib, barkamollikka intilaylik. Shunday qilib, yana o'lik ishlardan tavba qilish va Xudoga imon keltirish, cho'ndirilish, qo'llarni qo'yish, o'liklar tirilishi va abadiy hukm (va jazo) haqidagi ta'limotning asosini solib o'tirmaylik». [Siz bu haqda allaqachon bilib olishingiz kerak edi.] (Ibroniylarga 6:1, 2, Kengaytirilgan tarjima).

Ko'rib turganingizdek, men abadiy hukm va jazo Masihning boshlang'ich ta'limoti ekaniga urg'u berish maqsadida, o'lik ishlardan tavba qilish va Xudoga imon keltirish singari beshta asosiy ta'limotlarni qoldirib ketdim.

Lug'atlardan biri boshlang'ich so'zini quyidagicha ta'riflaydi: «negizning tarkibi muhim va jiddiy qism». Biz bu muhim negizni boshida o'rganishimiz lozim, bu asos. Yaxshiroq tushunish uchun bizning ta'lim tizimimizdan misol keltiraman. Biz boshlang'ich sinflarda o'qish, yozish va hisoblash kabi asosiy bilimlarni olamiz va ulardan foydalangan holda keyingi sinflarni davom ettiramiz. Asosga ega bo'lmay turib, hayotda hech qachon kerakli bilimlarni ololmaymiz. Imonlilar haqida ham xuddi shunday deyishimiz mumkin. Abadiy hukm haqida mustahkam tushunchaga ega bo'lmasdan, Masihda to'g'ri hayot qura olmaymiz. Bularning bari o'qishni o'rganmay turib, ta'lim saviyasini yuqoriga ko'tarish uchun urinishga o'xshaydi.

Har holda yigirma yil xizmat qilib va turli xil joylarda safarda bo'lib, ko'pchilik, hatto Iso Masihning chinakam izdoshlari ham bu haqda hech narsa bilmasligining guvohi bo'ldim. Qarang, muallifning yozishicha: «Siz bu haqda allaqachon bilib olishingiz kerak edi». U shunchaki tanishib chiqish emas, balki mukammal, to'liq bilish haqida aytyapdi. «Allaqachon» so'zi, o'qish va yozish ta'lim olish dasturining negizi bo'lgani kabi, bu ham imonimizning asosi ekanini ta'kidlayapti.

Nima sababdan abadiy hukm mukammal masihiylik hayotida yashash

uchun boshlang'ich ta'limot ekanini qisqacha o'rganib chiqamiz. Kitobni o'qishda davom etar ekansiz, mana shu narsani yodda saqlang, chunki bunday tushunchasiz muhokama qilayotgan mavzuimizni qabul qilishingiz qiyin bo'ladi. Balki, sizda: umuman, gap nima haqida ketyapti, degan savol tug'ilishi mumkin.

Do'zax – o'xshatmami yoki haqiqat?

Kitobni yozishdan avval bir fikr bilan kurashishga to'g'ri keldi: «Qanday qilib hozirgi «bugun yasha, ertani o'ylama» shiori ostida katta bo'layotgan avlodga tez orada borliqning Hukmdori tomonidan bizning taqdirimizga taalluqli bo'lgan mangu xulosa chiqarilishi haqiqat ekanini yetkazib bersam ekan?» Bir necha kun ibodatdagi kurashdan so'ng, menga bir fikr keldi: Iso Masih odamlarning ongiga ruhiy haqiqatlarni yetkazish uchun masallar aytib bergan. Shu tarzda, Affabel haqidagi kinoya tug'ildi.

Yozish jarayonida sud va voqea qahramonlariga Loun yerida umrbodga berilgan jazoni ta'riflashni boshlaganimda, mening borlig'im titradi. Oldingi bobning xulosasini bir yakshanba safardan qayta turib, samolyotda yozdim. O'sha kuni men uchta yig'inda voizlik qilgandim. Yonimdagi yordamchilarim bemalol dam olar, men esa tinchlanolmasdim. Chuqur yarim tun uyga qaytgach, uxlay olmadim va bir kuni olovli ko'l deb nomlanuvchi, eng yomon joyga boruvchilar uchun qo'rqdim. Iso Masihning so'zlari bo'yicha bunday kishilar ko'pchilikni tashkil etadi:

«Tor darvozadan kiringlar! Chunki halokatga olib boradigan yo'l enli va darvoza kengdir, ko'plar ana shu yo'ldan bormoqdalar. Hayotga olib boradigan yo'l esa tang va eshik tordir, oz odam bu yo'lni topadi»
(Matto 7:13, 14).

Joyimda yotib, bir necha yil ilgari Janubiy Afrikadagi qattiq tartibdagi erkaklar qamoqxonasiga Xushxabarni voizlik qilish uchun taklif qilishganlarini esladim. Bu dahshatli joyga kirganimda, ko'rganlarimni juda yaxshi eslayman: badbo'y hid, juda yomon sharoit, bitta kamerada bir-biridan atigi bir necha santimetr uzoqlikda o'tirgan yigirmatadan o'ttiztagacha erkak, devorlarda ilinib turgan prezervativlar – bularning

barchasi men u joyda ko'rgan dahshatlarning ozgina qismi, xolos. Avval Amerikaning bir qancha qamoqxonalari xizmat qilishimga to'g'ri kelgan, biroq bunaqangi chorasiz ahvolni hayotimda birinchi marta ko'rib turishim. Bizning qamoqxonalarimizdagi sharoit ularning oldida oddiy qishloq hayotini eslatadi.

Men bunday jirkanchli sharoitda, qirq-ellik yil u yoqda tursin, qanday qilib bir hafta yashash mumkinligini ham tasavvur eta olmayman. Mahbuslarning ko'pchiligi umrbodga hukm qilingandi. Iso Masihga ishonmaydiganlarning yuzida umidsizlikning chuqur muhri turardi. Men ularning fikrlarini qariyb eshitgandek bo'ldim: «Bir kun kelib, o'lsam, bu yerdan qutulaman». Boshqa tomondan ularni o'limning mavhum voqeligi qo'rqitardi. Buni ko'rish haqiqiy dahshat edi. Ular batamom umidsizlik holatida edilar. Hammamizdek, ozodlikda yurgan odam mana shu qamoqxonaga umrbodga hukm qilinsa, bu joy u uchun mislsiz azob-uqubatlarga aylanadi.

U yerda bo'lganimda, barcha dahshatlarga qaramay, bu qamoqxona baribir do'zaxdan ancha yaxshi, deb o'yladim. Bu yerdagi mahbuslarda hech qursa qo'shnilari bor. Odamlar bir nechta tor oynalarning tizilib turgan panjaralari orqali quyosh nurlarini ko'rishlari mumkin. Do'zaxda o'rtoq ham, so'nmas olovdan taralayotgan nurdan boshqa yog'du ham yo'q. Olovli ko'ldan umrbod qutulib bo'lmaydi, u yerdagi jonlar doimiy qiynoqda hayot kechiradilar! Do'zaxda inson: «Bir kuni men bu yerdan chiqaman», deb o'ylay olmaydi. Ular mangu jazoga muhtalo bo'ladilar.

Do'zax haqidagi ta'limot Iso Masihning asosiy ta'limotlaridan biri bo'lgani sababli, U bu mavzuga bugun jamotlarda voizlik qilayotgandan ko'ra ko'proq to'xtalgan. Xudo do'zaxning tugamas qiynoqlarini ta'riflar ekan, Unda odamlarga nisbatan yetarlicha achinish hissi yo'qligi haqida aytishni istamagan. Aksincha, U Yaxshi Cho'pon sifatida bizga bu haqda uqtirish muhim deb bilgan. Uning barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari achinishga to'la yurakdan chiqqan, demak, do'zax haqidagi ta'limoti ham sevgi yuzasidan aytilgan. Menda savol bor: nahotki biz bugungi voizliklarimizda bu mavzudan og'iz ochmay, shu bilan birga odamlarga g'amxo'r bo'lsak? Shu ham haqiqiy sevgimi?

Kalomda do'zaxga bir necha nom berilgan. Sheol (faqat eski Ahdda) va oraliq vaqt uchun bir nechta o'lim qamoqxonalari nomlari – do'zax, qabr. Mangu do'zaxga berilgan nomlar – jahannam va olovli ko'l. Biz oraliq vaqt uchun va abadiyga so'zlarining o'rtasidagi farqni qisqacha muhokama qilamiz.

Muqaddas Kitob, do'zax – bu jamiyatimiz ishontirishga harakat qilayotgandek timsoliy emas, aniq mavjud joyligini aytmoqda. Sonlar Kitobida, (16-bob) bir olomon guvohlarning ko'z o'ngida yer yorildi va uch oila a'zolarini yer tiriklayin yutib yubordi. Yangi Ahdda dajjol va uning soxta payg'ambarlari haqida yozilgan: «Ularning ikkalovlari oltingugurt bilan yonayotgan olov ko'lga tiriklayin tashlandilar» (Vahiy 19:20). O'limdan keyin ularning nafaqat jonlari, balki jismoniy tanalari ham olov ko'lga ravona bo'ldilar.

Lazar va boy

Iso Masih Luqo Xushxabarida faqat o'zi uchun yashagan va uyining oldida har kuni tiz cho'kib sadaqa so'ragan – qashshoqdan hazar qilgan bir boy bilan ro'y bergan hayotiy voqeani aytib berdi. Biz bu oddiy masal emasligini bilamiz, negaki Iso Masih hikoyasini quyidagi so'zlar bilan boshlaydi: «Bir boy odam bo'lgan edi». Ikkinchidan, u boy Ibrohim haqida gapiradi va qashshoqning aniq ismini – Lazar deb aytadi. Iso Masih odatda O'z masallarida insonlarni ismi bilan atamagan.

Lazar o'lgandan so'ng, farishtalar uni Iso Masih samoda Xudoning huzuriga yo'l ochgunga qadar, Eski Ahdning muqaddaslari uchun yupanch va halovat joyi hisoblangan Ibrohimning makoniga olib bordilar. Boy esa o'limidan so'ng do'zaxga bordi. Biz ushbu oyatlarni o'qiyimiz:

«Do'zaxda azob chekayotgan boy boshini ko'tarib, uzoqda Ibrohimni va uning makonidagi Lazarni ko'rdi. U faryod qilib dedi: – Ey, Ibrohim ota! Menga rahm qilib, Lazarni yuborgin, u barmog'ining uchini suvga botirib, tilimga suv tomizsin. Chunki men bu olovda azob chekayapman» (Luqo 16:23, 24).

E'tibor bering, boy chidab bo'lmaydigan og'riqlarni boshidan kechirgan. Boshqa tarjimalarda uning o'ta og'ir azoblarini ifodalash uchun jon talvasasi, mashaqqat kabi so'zlar ishlatilgan. Do'zax doimiy qiynoq joyi hisoblanadi. Yana bir narsaga e'tibor bering, u Ibrohim va Lazarni va ular ham buni tanidi. Odamlarning hissiyotlari, fikr-mulohazalari, istaklari, tashqi ko'rinishi va kechinmalari yerda qanday bo'lsa, do'zaxda ham qariyb shundayligicha qoladi. Bu odam azobni his etar, eshitar va ko'rar edi. U tanada edi, buni kimdir uning og'zini ho'llab yuborishini istayotganidan bilish mumkin. Iso Masih jon ham, tana ham do'zaxda abadiy halokatga uchrashini aytgan (Matto 10:28 ga qarang). Boshqa so'z bilan aytganda, insonning tanasi do'zaxning olovi va qurtlaridan doimiy tarzda azob chekadi hamda qiynaladi.

Bizning hikoyamiz qahramonlari Loundagi zindonda shafqat so'rab yolvorganlari kabi, boy ham yolvorgan. Do'zaxga borganlar ortga qaytmaydi! U joydagilarning kuchli istagiga qaramay, hech kim kelib, ularni yupatmaydi. Bu haqiqatni oxirigacha tushunish va anglashning imkoni yo'qdek tuyuladi. Ibrohim boyga eslatdi: «Bundan tashqari, siz bilan bizning oramizda buyuk jar o'rnatilgan. Bu yerdan siz tomon (sizni yupatish uchun) o'tmoqchi bo'lganlar o'ta olmaydilar va u yerdan biz tomon ham o'tmaydilar» (Luqo 16:26, yozma harflar bilan keltirilgan so'zlar muallifniki). Men do'zaxni ko'rgan bir ayolni taniyman. Uning aytishicha, u yerda ko'rgan odamlarning har biri qiynoqlarning haddan tashqari og'irligi haqida aytib, qichqirgan. Ushbu so'zlarni yuqoridagi oyatlardagi boy odam ham ta'kidlayapti. O'qishda davom etamiz:

«Lekin Ibrohim unga shunday javob berdi: – Bolam, sen o'z hayotingda yaxshi ulushingni olganing, Lazar esa yomon ulushini olgani esingda bormi? Endi u bu yerda orom olmoqda, sen esa azob chekmoqdasan. Shunda u dedi: – Unday bo'lsa, ey, ota, sendan o'tinib so'rayman, Lazarni otamning uyiga yuborgin, chunki mening beshta ukam bor. Ular ham bu azob joyiga kelmasliklari uchun u ularga guvohlik bersin» (Luqo 16:25, 27, 28).

Siz bir qadimiy iborani eshitganmisiz: «Azobdagi kishi boshqalarni ham o'zi chekayotgan azobga tortadi». Lekin nega bu vaziyatda bizning iboramiz to'g'ri kelmayapti? Nega u odam boshqalar ham unga qo'shilib

azob chekishlarini istamadi? Gap shundaki, do'zaxda suhbat yoki ulfatchilik degan narsalar yo'q. Ayrimlar do'zaxda katta bazm bo'ladi deb o'ylasa, boshqalari do'stlarim bilan birga bo'laman, degan fikr bilan o'zlarini yupatadilar. Mabodo shunday bo'lganida edi, bu odam barcha yaqin do'stlari u bilan birga bo'lishini xohlagan bo'lardi, biroq u yaqinlari bu azob joyga hech qachon kelmasligini g'oyat istadi. Do'zax – mutlaqo yolg'izlik va umidsizlik joyidir. Bundan tashqari, u joy yerdagi xotiralarni abadiy eslatib turadi, menimcha, bu eng og'ir qiynoq bo'lsa kerak.

Qarang, Ibrohim uning aka-ukalari haqidagi o'tinchiga quyidagicha javob beryapti:

«Ibrohim unga: – Ularda Muso va payg'ambarlar bor, ularga quloq solsinlar, – dedi. U esa dedi: – Yo'q, Ibrohim ota, agar o'liklardan biri ularning oldiga borsa, o'shanda tavba qiladilar. Shunda Ibrohim unga: – Agar Muso va payg'ambarlarga quloq solmagan bo'lsalar, unda o'liklardan biri tirilsa ham ishonmaydilar, – dedi» (Luqo 16:29-31).

Bu so'zlarda buyuk haqiqat yashiringan. Ko'pchilik Xushxabarga ishonish uchun qandaydir g'ayritabiiy narsaning guvohi bo'lishni istashadi. Biroq Iso Masih Xudoning ortidan oxirigacha borishimizga yordam berishga qodir imon keladigan Xudoning Kalomidanda buyukroq narsa yo'qligini ko'rsatyapti. Meni noto'g'ri tushunmang – g'ayritabiiy kechinmalar insonni cho'chitadi va qisqa muddatga o'zgartiradi, ammo yurakka doimiy ishonchni solmaydi.

Men cheki yo'q bayram kechalarida sandiroqlab yuradigan dunyoviy o'spirin bo'lgan vaqtlarim edi, bir kuni otam meni Charston Xeston suratga tushgan «O'nta amr» filmiga o'zi bilan olib bordi. Men katta ekranda yer yorilib, odamlarni do'zax yutib yuborganiga ko'z uzmay qaraganim haligacha esimda. Bu surat mening qalbimning tub-tubigacha larzaga soldi. Men kinoteatrdan boshqa odam bo'lib chiqdim. Butun hafta davomida o'zgacha yashashga urindim, keyin hammasi yana eski holiga qaytdi. Nima uchun? Chunki men Xudoning Kalomini eshitmagan, qilmishlarimdan tavba qilmagan va Iso Masihning inoyati meni o'zgartirishi uchun hayotimni Unga bag'ishlamagan edim.

Mening ham va mening do'stlarimning ham hayotida g'ayrioddiy kechinmalar bo'lgan, biroq men o'sha g'ayritabiiy voqealar orqali najot topganim yo'q. Mening hayotim to xonamga bir kursdoshim kirib, meni Xudoning Kalomi, Iso Masihning Xushxabari bilan tanishtirmaguncha o'zgarmagan. Bizga aytilgan: «Shunday ekan, imon – eshitish, eshitish esa – Masihning so'zi orqalidir» (Rimliklarga 10:17); va «Sizlar chiriydigan urug'dan emas, balki chirimaydigan urug'dan, ya'ni tirik va abadiy mavjud bo'lgan Xudoning So'zidan yangidan tug'ildingizlar» (1-Petrus 1:23). Shu sababdan odamlarga o'zimizning kechinmalarimizni emas, Xudoning Kalomini o'qitishimiz va voizlik qilishimiz zarur.

Boshqa tomondan yuqoridagilarga aniqlik kiritish maqsadida, mana nimalarga urg'u berish uchun ruxsat so'rayman: agar kechinmalar Xudoning Kalomiga qo'shimcha va uni kuchaytiradigan bo'lsa, ular kerak va ularning borligi juda soz. Guvohliklar Xushxabarni tarqatishda katta ahamiyatga ega, lekin faqat imon va Xudoning Kalomini qabul qilib, abadiy yashashga qodirmiz.

«Nima uchun men bu yerga kelyapman?»

Endi Kalomdan o'qiganlarimizni to'ldiradigan guvohlik bilan bo'lishmoqchiman. Bir kuni kechga rafiqam bilan do'stimnikida mehmonda bo'ldik. O'sha kuni bizga yosh payti Karib orollarida bo'lganda, u bilan nima sodir bo'lgani haqida so'zlab berdi. Bir marta yomg'ir mavsumida yomg'ir suvi yig'iladigan o'raga tushib ketgan. Uning ukasi orqasidan sakrab, uni qutqarmoqchi bo'lgan, chunki do'stim suzishni bilmagan. Vaziyatga bas kela olmay, yordam izlab yugurib ketgan. Yordam kelganida yigit yarim soatlar mobaynida o'lik yotgan bo'lgan.

U bizga tanasidan chiqib ketganida birorta ham sezish hissidan mahrum bo'lmagani haqida aytib berdi. U shiddat bilan chuqur zulmatga g'arq bo'layotganini his etgan. Qorong'ulik shu qadar qalin ediki, u hatto yuziga tiralib qolgan qo'llarini to'g'irlay olmagan, uni zulmat jismonan o'rab olgandek tuyulgan. «Qo'rquv shu qadar kuchli ediki, bundan kuchliroq qo'rquv bo'lishi mumkin emasdek tuyulardi, shunday bo'lishiga qaramay, qancha chuqurlashib ketavergan sari, qo'rquv shuncha kuchayardi. Yerdan

hech qachon bunday vahimani his etmaganman, uni til bilan ta'riflab bo'lmaydi. So'ng nur shu'lasini ko'rdim va do'zaxga yaqinlashayotganimni tushundim. Men qichqirib yubordim: «Men nega bu yerga kelyapman? Men masihiyman!» Uning ota-onasi haqiqiy masihiy edilar, u esa ular bilan birga jamoatga borar, chunki kattalar uni majburlar edi.

Shundan keyin, dahshat va azob faryodlarini eshitganini aytdi. Men uning so'zlarini aniq eslab qoldim: «Jon, Liza, oddiy faryod bor. Biroq shunday oh-faryod borki, uni eshitganingda tomiringdagi qoning to'xtab qoladi. Men shunday ovozlarni eshitdim. So'ng tangasimon mavjudot bilan yuzma-yuz duch keldim, u menga to'xtovsiz: «Mening oldimga kel, sen menikisan», – deb takrorlardi. Men o'sha mavjudot bilan kurashdim. Avvaliga qo'rquvdan birorta ham so'z ayta olmadim, keyinroq: «Meni qo'yib yubor, meni qo'yib yubor», – deb qichqira boshladim.

Men shu chog' barmog'ini tomog'imga suqqan shifokor bilan olishgan va baqirgan holda o'z tanamda hushimga keldim. Bu haqda onam mening boshimdan o'tganlarini eshitgach, nima deb qichqirganimni aytib berdi. O'sha vaqt onam shifoxonada jarrohlik xonasining yonida o'tirib, Xudoga: «Xudojon, Ota, agar o'g'limni qaytarsang, uni abadiyga Sening qo'llaringga topshiraman!» – degan. Keyinchalik, do'stimiz Karib orollarida birinchilardan bo'lib xizmat boshladi.

Siz u ko'rgan narsalarga shubha bilan qararsiz, lekin yetarli darajada ko'p erkaklar, ayollar va bolalarning hayotida ham shunga o'xshash voqealar bo'lib o'tgan. Modomiki shifokorlar odamlarda klinik o'lim holatining guvohlari bo'lishlari sabab, ularning ko'pchiligi ushbu hodisani o'rganishni maqsad qilib qo'yganlar.

Ulardan biri – Melvin Mors ismli shifokor, u klinik o'limni boshidan kechirgan bolalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. U ikki guruh bolalarni o'rgangan. Birinchi guruh ahvoli og'ir, lekin klinik o'limga tushmagan 121 ta bemordan tashkil topgan. Uch yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan bolalarning hayoti jonlantirish xonasida sun'iy nafas yoki og'ir dori-darmonlar yordami bilan quvvatlantirilib turilgan. Lekin ulardan birortasi ham o'z tanasidan chiqqani haqida xabar bermagan.

Ikkinchi guruh o'sha yoshlardagi 12 ta boladan tashkil topgan bo'lib,

ularning yuraklari to'xtab qolgan holda shifoxonaga olib kelingan (ular suvga cho'kkan, avto halokatga uchrigan va hokazo). Ushbu kam sonli guruhdagi 12 ta bola ham o'z tanalaridan chiqqanini aytganlar. Ayrimlari o'z tanalarini chetdan g'ira-shira ko'rgan va o'sha jarayonda ular bilan nima bo'lganini shifokorlarga izohlab berganlar.

Kimdir, do'stimizning boshidan kechirganlari – oddiy bosinqirash deyishi mumkin, ammo ikkinchi guruh bolalari bilan o'tkazilgan tekshirishlarning natijasi chappasini tasdiqlayapti. Boz ustiga, u yarim soat davomida klinik o'lim holatida yotgan bo'lsa, qanday qilib bosinqirashi mumkin?

Do'zax olovli ko'l bilan solishtirilganda

Bizning do'stimiz, o'limni boshidan o'tkazgan boshqa kishilar singari, do'zax deb nomlangan oraliq qiynoq joyini ko'rgan. U najotga ega bo'lmaganlar uchun abadiy boshpana emas, lekin buyuk oq taxtning Sud kuni kelguniga qadar kutib turish joyidir. Hukmdan keyin odamlar, jinlar va yiqilgan farishtalarning abadiy boradigan doimiy joyi olovli ko'l deb ataladi. Buni Kalomda yaqqol ko'rishimiz mumkin:

«Men buyuk oppoq taxt va taxtda O'tirganni ko'rdim... Shu tariqa, dengiz o'zida bo'lgan o'liklarni berdi, o'lim ham, do'zax ham o'zlarida bo'lgan o'liklarni berdi. Shunda har bir kishi o'z ishiga ko'ra hukm qilindi. O'lim ham, do'zax ham olovli ko'lga tashlandi. Bu ikkinchi o'limdir. Kimki hayot kitobida yozilmagan bo'lsa, olovli ko'lga tashlandi» (Vahiy 20:11, 13-15, qisqartirish muallifniki).

Dastavval, bir narsani aniqlab o'tmoqchiman, oraliq qiynoq joyida, ya'ni do'zaxda bo'lganlarning hammasi sudga olib boriladi. Sud tugaganida, barcha aybdorlar va qonunbuzarlikda yashaganlar, yiqilgan farishtalar va do'zaxning o'zi ham olovli ko'lga tashlanadi.

Olovli ko'l haqida vahiy

Rafiqam ikkimizning yunon millatidan bo'lgan er-xotin do'stlarimiz bor. Xotinining ismi Joy. U xizmatkorlar oilasining uchinchi avlodi. Uning Yunonistonda tug'ilib, o'sgan buvisi yosh paytidan Xudoni tanib-bilishni

boshlagan. Uning savollari atrofdagilarning kulgisini qistagan yoki bee'tibor qoldirgan. U jamoatga borishni istagan, ammo unga: «Xudo yo'q» va «Bunday safsatani gapirishni bas qil», – deyishgan.

Bir kuni, yunon xalq tantanasi vaqti, qishloq maydonida do'stlari o'rtasida xalq raqsiga tusha turib, unga qarata aytilgan: «Efrosiniya, mangu raqs to'g'risida o'ylab ko'r», – degan ovozni eshitgan.

U o'ta darajada qo'rqib ketgan! «Menga buni kim aytdi?» – deb taajjubda qolgan. U haqiqatni bilish umidida raqs maydonini tashlab, uyiga qarab shoshildi. U yo'lda uning yelkalariga qo'yilgan juda og'ir yukni his etdi.

O'zining yotoqxonasiga kirib, tiz cho'kdi va faryod qila boshladi. U ovoz Sohibi bilan gaplashishni istardi. Unga kim gapirdi? Bu so'zlar nimani bildiradi? U bu bilan nima demoqchi bo'ldi? Ushbu savollar uning ongini qiynardi, biroq bu uzoq cho'zilmadi. Tizzalari yerga tegib ulgurmay, uning xonasiga olov kirganini va uni qamrab olganini sezdi. U chalqanchasiga yiqildi va vahiy ko'rdi.

Unga oppoq kiyimli, farishta timsolidagi mavjudot ko'rindi. U qizni ko'tardi va tumanli joyga olib keldi. Va uni o'sha joyda qoldirdi. U atrofga qaragach, batamom hayratda, Golgota qarshisida turganini tushundi. Rabbiiy xochda mixlanib turar va uning yaralaridan qon oqardi. Uning yuzida azobli o'lim talvasasini ko'rish mumkin edi.

Shu chog' Efrosiniya uzoqdan taralayotgan baqir-chaqirlarni eshitdi. U orqasiga qayrilib, xoch va katta-katta olovli tillar ko'tarilayotgan joyning o'rtasidagi ulkan jarlikni ko'rdi. Bu shunchaki olov okeani edi. Unga eshutilgan baqir-chaqirlar esa Xudoni la'natlayotgan olomonning ovozig'a o'xshardi. U bir payt qandaydir kuch uni shu jarga itarayotganini his etdi va oldin u bilan gaplashgan ovoz, unga: «Sen mana shu joyga tegishlisan», – deb aytganini eshitdi.

U dahshatda yig'lashni va rahm-shafqat so'rab yolvorishni boshladi! Qiz o'zida og'ir yukni ko'tarib, xochning tagiga yiqildi va u joyda uzoq qolib ketdi. Shundan so'ng sevgi va achinishga to'la ovoz qaytadan unga murojaat qildi: «U sen uchun buni amalga oshirdi! U sen uchun o'ldi! Agar tavba qilsang va Uning qurbonligini qabul qilsang, sen u joyga (olovli ko'lga) bormaysan!»

Shu soʻzlardan keyin Efrosiniya yanada kuchliroq yigʻlab, eshitganlariga shu zahoti javob berdi. U kechirim soʻradi va birdan yengil tortdi, negaki uni bosayotgan yuk oʻsha zahoti xoch tomonga tushib ketdi.

U boshini koʻtarib, qarshisida turgan sharaflı kiyimdagi Rabbıy Iso Masih turganini koʻrdi. U qizni yerdan koʻtardi va eng ajoyib yashil adirga olib bordi. Endi u oʻz fikrlarida Iso Masih bilan gaplashar edi. Qiz savollar berar, U esa javob qaytarardi. Bu shu qadar hayratli ediki! Undan biz qayerga borayapmiz deb soʻradi va U: «Samoviy Ota bilan koʻrishishga!» – dedi.

Ular adirning choʻqqisiga koʻtarilganida, u shahar darvozalaridan taralayotgan nurni koʻrdi. Har tomondan ajoyib ilohiy kuy va qoʻshiqlar yangrar, gullar va daraxtlar kuyni jaranglatardi. Ular birga darvozadan kirdilar. Shaharning goʻzalligini soʻz bilan taʼriflab boʻlmasdi!

Ular toʻgʻri taxtning oldiga bordilar. Efrosiniya Xudoning yuzini koʻra olmadi, chunki u yopiq edi, lekin u katta kitobni va ziyodan chiqayotgan qoʻl Uni ochayotganini koʻra olardi. Qoʻl yozishni boshladi. U yozilgan soʻzni yaxshiroq koʻrish uchun oldinga engashib qarasa, kutilmaganda Hayot Kitobida oʻzining ismini koʻrdi! (Garchi u oʻsha paytlar Hayot Kitobining borligi haqida hech narsa bilmas edi).

Samoviy Ota uning ismini Hayot Kitobiga yozib, dedi: «Oilamizga xush kelibsan!» U qizning peshonasidan oʻpgan payt farishtalar doira boʻlib turib, buyuk quvonch bilan kuylashni va raqsqa tushishni boshlaganini koʻrdi! U farishtalarning qoʻshiqlarida oʻzining ismi aytilayotganini aniq eshitdi. Efrosiniya ularning raqsiga qoʻshildi. Shu payt Rabbıy unga: «Mangu raqsni izla!» – deganini esladi. Farishtalar uning najot topgani munosabati bilan ulkan bazm uyushtirganini birdan fahmlamadi.

Bir qancha vaqt oʻtib, Rabbıy unga yerga qaytish vaqti kelganini, chunki U qiz uchun katta ishni tayyorlab qoʻygani aytdi. Qiz Rabbıyning nomi uchun olovli sinovlardan oʻtishi shart, lekin Rabbıy doim u bilan birga boʻladi, hamma topshiriqlarni bajarib tugatgandan soʻng, Uning oldiga abadiyga qaytib keladi.

Keyingi lahza, u oʻzining xonasida hushiga keldi. Shunaqa samoviy safardan soʻng yerga qaytganidan oʻta darajada hafsalasi pir boʻldi, biroq uning boshqa iloji ham yoʻq edi. Efrosiniya bilan boʻlgan gʻalati voqea

qishloqqa yoyilgandan keyin quvg'inlar boshlandi. Hammasi agar u ishonganlarining barchasidan voz kechmasa, uni bolta bilan o'ldirmoqchi bo'lgan otasidan boshlandi. U otasiga ko'rganlaridan hech qachon voz kecha olmasligini aytdi.

Quvg'inlar kundan-kunga kuchayib borardi. Bir kuni kechqurun opasi kelib, odamlar ertalab uni qo'lga olishni va pravoslav cherkovi joylashgan qishloq maydoniga olib chiqishni rejalashtirgani haqida ogohlantirdi. Ular o'sha joyga cherkovdan xudo onasi butini olib chiqib, qizni tiz cho'kib, butni o'pishga majbur qilishga, agar qiz o'pmasa va butga sajda qilmasa, uning ustiga yoqilg'i sepib, yondirib yuborishga qaror qilishibdi. Efrosiniya odamlar shunchalik borganiga ishongisi kelmasdi, lekin ular po'pisalarini chindan ham amalga oshirishni o'ylagan, chunki o'sha kecha Rabbiyning farishtasi qizga zohir bo'ldi va yelkasiga yengil qoqib, uni uyg'otdi. Uyg'onganiga ishonch hosil qilib, unga kiyinishni va eshikka borishni aytdi. U farishtaga quloq soldi. Eshikning oldiga chiqib, uni kimdir yerdan ko'targanini his etdi. U uyidan boshqa bexatar joyga, bir necha kilometr uzoqlikda joylashgan qishloqqa jismonan uchib o'tdi.

Aqlga sig'mas qiynoqlar

Joyning buvisi do'zaxni emas, balki «ikkinchi o'lim» deb ataluvchi olovli ko'lni ko'rgan. U chin qalbidan Iso Masihning ortidan ergashishni tanlagani uchun uning taqdiri o'zgardi. Kalomda yozilgan:

«Ammo qo'rqqoqlar, imonsizlar, jirkanchlar, qotillar, zinokorlar, sehragarlar, butparastlar va barcha yolg'onchilarning qismati oltingugurt va olov bilan yonayotgan ko'ldadir. Bu ikkinchi o'limdir» (Vahiy 21:8).

E'tibor bering, bu ko'l olov va oltingugurt bilan yonadi. Oltingugurt – metallga oid bo'lmagan modda bo'lib, u yonganida o'zidan katta issiqlik va badbo'y hid chiqaradi. Do'zaxni ko'rgan odamlarning ko'pchiligi u yerdagi badbo'y hid haqida aytgan: ular aytgan so'zlarning eng keng tarqalgani – bu «chidab bo'lmas». Ushbu o'lim maskanida haqiqatdan ham bo'lganlar u yerda hukm surayotgan dahshatni va uqubatni ta'riflashga inson tili ojizlik qiladi, deb aytishadi.

Ikkinchi o'lim iborasiga ham e'tibor bering. Iso Masih aytgan: «Ruh jamoatlarga (ya'ni, imonsiz odamlarga emas, balki jamoatdagilarga aytmqchi bo'layotganini) nima deyayotganini qulog'i bor eshitsin: G'olib keladigan odam ikkinchi o'limdan ziyon ko'rmaydi» (Vahiy 2:11).

Sizga U bu gapni jamoatlarga aytayotgani g'alati eshitilmayaptimi? Diqqat qiling: olovli ko'lda asosan uch turdagi odamlar bo'lishadi: birinchisi – Uning orqasidan bormay qo'yg'alar; ikkinchisi – Unga sodiq bo'lmaganlar; uchinchisi – U bilan hech qachon birga bo'lmagan, gunohkorlar. Birinchi va ikkinchi guruhga jamoat a'zolari ham kiradi.

Hikoyamizning birinchi uchta qahramonlarini eslang: Jur'atsiz, Aldangan va Mustaqil. Ularning ikkitasi jamoatning timsoli bo'lgan Endeldagi maktabning faol a'zolari edi. Tez orada biz buni yotig'i bilan o'rganib chiqamiz.

Ikkinchi o'lim – bu olovli ko'lda abadulabad og'ir uqubat chekishdir. Birinchi bobda abadiylik – bu asrdan asrga, oxiri yo'q, chiqish yo'li yo'q, qutulib bo'lmas joy, deganimizni eslang! Ayrimlar bir kuni baribir hammasi tugaydi deb o'ylaydilar, biroq bunday fikr Xudoning Kalomidagi ta'limotga so'zsiz zid: «Ular abadulabad tunu kun azoblanadilar» (Vahiy 20:10).

Iso Masih qiynoqlarning oxiri bo'lmasligini ko'rsatish uchun Uning So'ziga bo'ysunmaydiganlarning barchasi haqida shunday degan: «Shunda bular abadiy jazoga, haq odamlar esa abadiy hayotga boradilar» (Matto 25:46).

Abadiy jazo so'ziga e'tibor bering. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, jazoning oxiri bo'lmaydi, u abadiy! Iso Masih bizga aytgan:

«Agar ko'zing seni vasvasaga solsa, uni o'yib olgin. Ikki ko'zing bilan olovli jahannamga tashlanganingdan ko'ra, bir ko'z bilan Xudoning Shohligiga kirganing afzalroqdir» (Mark 9:47).

Ushbu oyatda ko'rinib turganidek, U olovli ko'l, jahannam haqida gapiryapdi. Endi bu so'zlar boshqa tarjimada qanday eshitilishini ko'rib chiqamiz:

«Agar sening ko'zing imoningni yo'qotishingga sabab bo'layotgan bo'lsa, uni o'yib ol! Sen ikki ko'zingni ham saqlab qolib, do'zaxga borgandan ko'ra bitta ko'z bilan Xudo Shohligiga borganing yaxshiroq. U yerda «ularni yamlaydigan qurtlar o'lmaydi va kuydiradigan olov o'chmaydi» (Mark 9:47, 48).

E'tibor bering, yamlaydigan qurtlar o'lmaydi, chunki ularda doimo yeydigan narsa bor. Keling, buni tabiatga taqqoslaymiz. Inson o'lganida, uning tanasini qurtlar yeydi, ular faqat suyaklarini qoldiradi va o'zlari o'ladi. Jahannamdagi qurtlar esa hech qachon o'lmaydi, chunki ular yeydigan narsa tugab qolmaydi. Do'zaxni ko'rgan bir ayol odamlarning olov alangasida burishayotgan tanasini yeydigan ulkan qurtlar haqida aytgandi. Do'zaxda qancha vaqt bo'lishidan qat'iy nazar, odamning tanasi yo'q bo'lib ketmaydi va qurtlar doim uni kemiradilar.

Ha, ha, to'ppa-to'g'ri, bu aql bovar qilmas joy! Lekin biz Xudo azalda olovli ko'lni odamlar uchun yaratmaganini doimo esda saqlashimiz zarur. Iso Masih o'sha dahshatli joyga kimlar borishi kerakligini aytganiga, quloq soling:

«Shunda Uning chap tomonida turganlarga ham so'zlaydi: «Ey, la'natlanganlar! Mening oldimdan shayton va uning farishtalariga tayyorlab qo'yilgan abadiy olovga ketinglar» (Matto 25:41).

U odamlar uchun emas, balki shayton va uning yiqilgan farishtalari uchun yaratilgan. Shunday bo'lishiga qaramay, shayton ko'plarni aldab, o'zi bilan mangu jazoga tortadi. Bizning kinoyamizda ham xuddi shuni ko'rishimiz mumkin. Dagonning ta'siri ko'pchilik yo'ldan ozishiga va Jeylinning qahriga uchrashiga sabab bo'ldi. Dagonga belgilangan jazolar uning ta'siri ostida bo'lganlarga ham yog'ildi. Agar shunday bo'lmaganda Jeylin adolat bo'yicha ish tutmagan bo'lardi.

Abadiy baxtli bo'lish

Biz o'tgan boblarda Jeylinning qahri qanaqa bo'lishini ravshan ko'rdik. Kalom deydi: «O'sha odam Xudoning qahri sharobini, Uning g'azab kosasida tayyorlangan sof sharobni ichadi va Qo'zi hamda muqaddas farishtalarning

oldida yonayotgan oltingugurt ichida azob chekadi. Ularning azoblanishining tutuni abadulabad ko'tariladi, hayvonga va uning tasviriga sajda qilib, uning ismining tamg'asini qabul qiladiganlar kunduzi ham, tunda ham orom topmaydilar» (Vahiy 14:10, 11).

Abadulabad degani nimani bildiradi? Birinchi bobdagi manguylikka oid mulohazalarimizni eslaysizmi? Cheksizlikni tushunishga uringanimizni? Cheksizlikni ong bilan tushunish qiyin, ammo yurak – bunga qodir. Shuning uchun Xudo Uni eshitishni istamagan butun boshli avlod uchun yig'lagan:

«Eh, qani edi, ularning yuraklari shunday bo'lsaki, ular Mendan qo'rqasalar va hayotlarining barcha kunlarida Mening barcha amrlarimga rioya qilsalar, toki ularga va ularning o'g'illariga abadiy yaxshi bo'lsin!» (Qonunning takrorlanishi 5:29).

«Abadiy» so'ziga diqqat qiling. Qani edi, ular abadiyat tomonidan boshqarilgan va yo'naltirilgan bo'lsalar! U: «Qanchadir vaqtga emas» balki «Mening barcha amrlarimni doimo saqlanglar» – degan. Shuningdek, U: «Mening ayrim amrlarimni saqlanglar», – demagan. Yo'q, ularning barchasini har doim saqlash kerak! Bizga Uning hamma irodasini doimo amalga oshirish amr etilgan.

Balki siz: «Men Uning hamma amrlarini bajarmayapman. Men mahkum bo'laman!» dersiz. Ha, bu mutlaqo to'g'ri. Ilohiy Qonun hech bir inson Xudoning haqlik talablariga yetolmasligini aytadi va isbotlaydi, binobarin Uning sudi qarshisida har bir kishi aybdor bo'ladi. Xudoning yuzi qarshisida turib, hech kim: «Men Sening Shohligingga erishishga loyiq tarzda yashadim va mangu jazoga sazovor emasman», – deya olmaydi.

Bizning barkamol emasligimizning sababi ibtidoan boshlanadi: inson bog'da atayin Xudoga quloq solmadi va shu qilmishi orqali gunohkor tabiatni qabul qildi. U Xudoga xiyonat qilib, shayton hukmronligiga bo'ysunadigan, ozod bo'lish yoki o'zini qutqarish uchun hech bir imkoni yo'q qulga aylandi. Buzuq tabiat Odam Atoning har bir avlodiga, har bir insonga o'tib boraverdi, chunki biz ota-onamizning tabiatini me'ros qilib olamiz.

Xudo insonga nisbatan sof sevgisi bois, inson xatti-harakatlari uchun birgina o'zi mas'ul ekaniga qaramay, bizga Najotkorni yuborishni va'da

berdi. Bu Najotkor – Iso Masih. Uning tug‘ilishidan bir necha yuz yillar ilgari, U bokira qizdan dunyoga kelishi bashorat qilingan (Isha’yo 7:14 ga qarang). Uning Otasi – Xudo, onasi esa – shoh Dovud avlodidan kelib chiqqan Maryam ismli qiz. Bu aynan shunday sodir bo‘lishi shart edi, boshqachasiga, agar uning ikkala ota-onasi ham insonlar bo‘lganida edi, Iso Masih Odam Atoning tabiatiga, gunohning qulligiga bo‘ysunardi. U mukammal hayotda yashab o‘tolmasdi va shu sabab, biz uchun narx to‘lay olmasdi. Shu bilan bir qatorda u ayoldan tug‘ilishi joiz edi, negaki insonning gunohga yiqilishi va xiyonatining evaziga inson haq to‘lashi shart edi. Iso Masih yuz foiz Xudo va yuz foiz inson bo‘lgan.

Iso Masih xochda mixlanib, bizning gunohlarimizni O‘ziga oldi, qonini to‘kdi va gunohlarimizning narxini to‘lab, o‘ldi. Biroq U haqlikda yashagani uchun Ota Uni o‘likdan tiriltirdi va samoda O‘zining o‘ng tomoniga o‘tqazdi. Iso Masihning ajdodi va payg‘ambar shoh Dovud, bularning barisini, amalga oshishidan ming yil ilgari ko‘rgan va Iso Masihni xochga mixlanganidan so‘ng nimalar sodir bo‘lishi haqida yozib ketgan. Petrus Elliginchi kunda uning so‘zlarini aytgan:

«U payg‘ambar bo‘lib va Xudo unga qasam ichib bergan va’dasi bo‘yicha uning urug‘idan Bo‘lganni uning taxtiga o‘tirg‘izishini bilib, u Masihning tirilishini, Uning joni do‘zaxda qolmasligini, jasadi esa chirishni ko‘rmasligini oldindan aytdi. Ushbu Isoni Xudo tiriltirdi, bunga esa biz hammamiz guvohmiz» (Havoriylarga 2:30-32).

Iso Masih bizni ozod qilish uchun o‘limdan tirildi. E’tibor bering, U do‘zaxda qolib ketmadi. Bu so‘zlar U do‘zaxda bo‘lganining yaqqol isbotidir. U qachon o‘sha yerga bordi? Xoch va tirilishning o‘rtasidagi qaysi vaqtda bordi? Iso Masih sizlar mangu jazo olmanglar deb, har birimiz uchun o‘limni yoki do‘zaxni boshidan kechirdi. Endi o‘zimiz uchun yashashdan voz kechib, hayotimizni to‘liqligicha Uning hokimiyatiga topshirib, U O‘z qonini biz uchun to‘kkaniga va o‘lganiga rozi bo‘lib, Xudoning qarshisida gunohlarimizdan kechirildik va oqlandik. Endi biz Uning haqligiga mosmiz va sud taxti qarshisida dadillik bilan tura olamiz. Xudoga abadiy Sharaf!

Shu bois bizga hech shubhasiz: «Chunki sizlar imoningiz orqali inoyat

bilan najot topdingizlar. Bu esa sizlardan emas, balki Xudoning in'omidir: bu – savob ishlaringiz tufayli emas, toki hech kim maqtanmasin» (Efesliklarga 2:8, 9), deyilgan.

Agar siz avval Xudoga bo'ysunmay yashaganingiz uchun hech qachon tavba qilmagan, gunohlaringizdan voz kechmagan va hayotingizni butkul Iso Masihning hokimiyatiga bag'ishlamagan bo'lsangiz, unda ushbu kitobning oxiridagi sizning taqdiringizga nisbatan Xudoning najot rejasi yozilgan Ilovani oching va Iso Masihni Rabbim va Najotkorim deb qabul qilishingizga yordam beradigan ibodatni qaytaring.

Oxirgi bir nechta sahifalarda yozilgan gaplar imonlilarga juda yaxshi tanish. Ammo ularning aksariyati keyingi boblarda aytadiganlarimni esa oxirigacha tushunmasliklari aniq. Chindan ham ko'pchilik o'zini masihiyman deb ataydiganlar Kalomdan ochiladigan oddiy haqiqatlardan o'ta taajjubda qoladilar. Quyidagi boblarda mangu jazo haqidagi chuqur bilimlar har bir masihiyni sog'lom ruhiy o'sishi uchun muhim ekanini ko'rib chiqamiz.

5-BOB

YOLG'ON USTIDAN SUD

*Biz esa bilamizki, ...haqiqat bo'yicha
Xudoning hukmi bor.*

— Rimliklarga 2:2 (Kengaytirilgan tarjima)

Iso Masih bizni gunohimizning evazi bo'lmish, dastavval shayton va uning izdoshlariga tayyorlab qo'yilgan jazodan qutqarish maqsadida keldi. Iso Masihning bizlar uchun bergan hayoti Xudoning hayratomuz sevgisini kashf etadi.

Bu haqda o'ylab ko'ring: Xudo insonni, hayvonlarni, qushlarni, hashoratlarni, dengiz hayvonlarini, yerni o'zining komil muhiti bilan yaratdi. Biz shu satrlarni o'qiymiz: «Xudo O'zi yaratgan hamma narsani ko'rdi, mana, bular juda yaxshi edi» (Ibtido 1:31). So'ng barkamol borliqni saqlashi va himoya qilishi uchun insonning qo'lga topshirdi. Sanochi kuylagandek: «Osmon — Rabbiynikidir, yerni esa U inson o'g'illariga berdi» (Sanolar 113:24). Odam Ato Xudoning eng birinchi dushmani bo'lmish Lyusiferdan nafaqat o'zini, shuningdek, Xudoning butun yaratgan narsalarini ham himoya qilishga mas'ul edi.

Xudo bog'da Uni sevishni va Unga bo'ysunishni erkin tanlash huquqiga ega bo'lmagan robotlarni ko'rishni istamadi, shu bois bog'dagi minglab daraxtlarning orasida bitta daraxtni joyladi, u haqda quyidagicha yozilgan: «Rabbiy Xudo insonga shunday amr berdi: «Bog'ning har bir daraxtidan bemalol yeyavergin. Faqat yaxshilik va yomonlikni bilish daraxtidan yemagin. Chunki undan yegan kuniyoq aniq o'lasan» (Ibtido 2:16-17).

U aytgan o'lim, jismoniy o'lim emas edi, chunki Odam Ato undan keyin ko'p yillar yashadi va ko'p marta o'z itoatsizligining oqibatlariga duch

keldi. Aksincha, Rabbiy insonga Xudoning hayotdan uzilishini va o'lim hisoblanmish Lyusiferning fe'liga ega bo'lishini ko'rsatdi.

Qanchadir vaqt o'tib, Lyusifer Havvani aldadi va Xudoning tabiatini uning ko'zida bulg'ab ko'rsatdi. U Havvaning diqqatini qolgan barcha ijozat etilgan daraxtlardan taqiqlangan birgina daraxtga qaratishga erishdi. Havva daraxt yaxshi va yoqimli ekanini ko'rib, undan yedi, shu bilan Rabbiyni «beruvchi» emas, «tortib oluvchi» deb hisobladi. Shunga qaramay, insoniyat ushbu bosqichda hali yiqilgani yo'q edi. Uning eri ham bu narsaga qo'shilganidan so'ng, Xudoning yaratgan mavjudotlari o'lim tabiatiga erishdilar. Chunki uning gunohi og'irroq edi: Havva aldandi, Odam esa ongli ravishda itoatsizlik qildi (1-Timotiyga 2:14 ga qarang).

Buning natijasida nafaqat Odam, balki butun borliq bir zumda o'lim tabiatiga ega bo'ldi. Odam gunohga yiqilishidan ilgari hayvonlar yirtqich emas, go'sht bilan oziqlanmas va o'lmas edi. Yer qimirlashi, quyun, to'fon, ochlik, kasallik yo'q edi. Bularning barchasi inson Xudo unga ishonib topshirganlarini saqlab qolmagani sababli dunyoga keldi. Shu voqeadan so'ng birgina insoniyat emas, shuningdek, butun borliq o'ladigan bo'lib qoldi. Quyidagi oyatlarni o'qiymiz:

«Chunki mavjudot o'z ixtiyori bilan emas, balki bo'ysundiruvchi tomonidan behudalikka bo'ysundirilgan bo'lib, mavjudotning o'zi ham chirish qulligidan ozod etilish hamda Xudoning farzandlarining ulug'vor erkinligiga erishish umidiga egadir. Zero bilamizki, bor mavjudot hozirga qadar birgalikda ingrab azob chekmoqda» (Rimliklarga 8:20-22).

Tabiat o'lim la'natini o'z irodasi bo'yicha emas, balki insoniyatning Xudoga qarshi isyoni natijasida oldi. U g'amxo'rlik qilishi kerak bo'lgan narsalarni saqlab qolmadi. Odam tabiatni ham, o'zini ham, xotinini va barcha avlodlarini ham Xudodan uzoqlashishiga va boshida faqat Lyusifer uchun la'nat qilib tayinlangan o'limga mahkum qildi. Qanchalar sotqinlik, qanchalar xiyonat! Xudo aytishi mumkin edi: «Men sevgan, barakalagan va yaratgan inson Lyusiferni Mendan ustun qo'ydi; shunday ekan ular olovli ko'lga ravona bo'lsinlar, Biz esa (Ota, O'g'il va Muqaddas Ruh) hammasini boshqatdan boshlaymiz – Biz sevgandek, Bizni ham sevadigan

sodiq mavjudotlar yashaydigan yangi dunyo yaratamiz».

Agar Rabbiiy shunday qilganda edi, U O'z qarorida shak-shubhasiz haq bo'lardi. Lekin O'zining aql-bovar qilmas sevgisi tufayli, insoniyatga u tushgan gunoh qulligidan ozod qilishga qodir Xaloskorni yuborishni va'da berdi. Bu Xaloskor, U bilan birgalikda yer-u osmonni yaratgan O'g'lidir. Boshqa so'zlar bilan aytganda, U jazoga loyiq hech narsa qilmay, bizni sevdi, gunoh va o'lim tabiati uchun narx to'ladi. Bu hayratomuz sevgi.

Bu Golgofaning maqsadi edi. Men imonlilarning: «Qanday qilib, sevuvchi Xudo Xushxabar eshitmagan odamlarni do'zaxga yuboradi?», – degan savol o'ylantirib qo'yishiga tushunmayman. Menda bu savolga oddiy javob bor: «Bu Uning emas, bizning aybimiz». Iso Masih insoniyatning ozodligi yo'lida o'ta yuqori narx to'lab, bizga – Xushxabarni qabul qilganlarga dunyo bo'ylab la'natdan sotib olinish haqida eshitmaganlarning oldiga boringlar, deydi. Biz o'z zamonimizning avlodlari uchun javobgarmiz, Xudo esa allaqachon O'zining qismini amalga oshirdi!

Biz Xudoning tabiatini qabul qilamiz

Iso Masih tomonidan, gunohlarimiz uchun to'langan narx nafaqat suddan xalos qildi, shuningdek, bizga Xudoning tabiatiga o'xshagan va gunohga boshqa qaram bo'lmaydigan yangi tabiat berdi. Inson o'z hayotini to'liqlikcha Iso Masihga bersa, u butkul yangi inson bo'ladi.

«Inson masihiy bo'lganida, u ichidan umuman yangi insonga aylanadi. U endi eskiligicha qolmaydi. Yangi hayot boshlandi!» (2-Korinfliklarga 5:17, ingliz tilidan tarjima).

Iso Masihni Rabbim deb qabul qilib, biz aslida olganda, o'ldik. Bizning eski tanamiz o'ldirildi, u Xudoning ko'zlarida Masih bilan xochga mixlandi. Mutlaqo yangi inson Xudoning tabiati bilan tug'ildi. Biz qaytadan tug'ilamiz. Endi biz qachonlardir hayotimizda o'z hukmini o'tkazgan tabiatdan ozodmiz. Kalomda aniq qilib aytilgan: «Shunday qilib, biz o'limga cho'mdirilishimiz orqali U bilan ko'mildik, toki Masih Otasining shuhrati bilan o'liklardan tirilganidek, xuddi shunday, biz ham hayotning yangiligida yuraylik. Chunki shuni bilamizki, bizning eski o'zligimiz U bilan xochga

mixlangan, toki endi gunohning quli bo'lmashimiz uchun gunohning tanasi yo'q qilinsin. Chunki o'lgan odam gunohdan ozoddir. Agarda biz Masih bilan birga o'lgan bo'lsak, unda U bilan birga yashashimizga ham ishonamiz» (Rimliklarga 6:4, 5-6). Shundan keyin biz Odamning xiyonati orqali bo'ysundirilgan emas, balki Masihning tabiatiga mos ravishda yashay olamiz. Masihiy kishining Iso Masihni Rabbim deb tan olmaydigan kishidan hazar qilishi to'liq nodonlikka kiradi. Negaki imonsizlarni shaxsiy ruhiy gunoh DNKsi boshqaradi. Biroq ongli ravishda doimiy gunohda yashaydigan «imonli»ni ko'rish, mutlaqo ahmoqlik va g'ayritabiiy. Qo'shtirnoq ichida yozgan imonli so'zi ostida, Iso Masihni Najotkorim va Rabbim deb ataydigan, aslida esa Unga itoat etmaydigan kishini nazarda tutyapman. Agar Iso Masih chindan ham uning Rabbiysi bo'lganda, bu insonning hayotida ilohiy tabiat namoyon bo'lardi. Iso Masih bu haqda boshqa narsani misol qilib aytgan:

«Shuningdek, har qanday yaxshi daraxt yaxshi hosil beradi, yomon daraxt esa yomon hosil beradi. Yaxshi daraxt yomon hosil bera olmaydi, yomon daraxt esa yaxshi hosil bera olmaydi. Yaxshi hosil keltirmaydigan har qanday daraxt kesilib, olovga tashlanadi. Shunday qilib, ularni hosillaridan bilib olasizlar» (Matto 7:17-20).

Iso Masihning fikri tushunish uchun qiyin emas va o'zgarmasdir. Gap hosillardamas, balki daraxtning tabiatida, garchi u aynan hosillar orqali namoyon bo'ladi. Jumladan, shoxda yaxshi mevani ko'rib, bu o'simlikning mevasini yeb bo'lar ekan, deymiz. Boshqa tomondan, mabodo zaharli mevani topsak, o'simlik yomon ekan, deymiz. Daraxt tomonidan keltirilgan hosillar, u yeyish uchun yaroqlimi yoki yo'qligining yaqqol isbotidir. Shu tarzda Iso Masih bizni, insonning haqiqiy masihiyligini, uning so'zlariga, xudojo'y ko'rinishiga, imonlilar yig'inlariga qatnashiga qarab emas, xatti-harakatlariga qarab aniqlashni o'rgatadi! Uning hosili qanaqa, u e'tiborini Shohlikka qaratganmi yoki o'ziga va bu dunyogami? Havoriy Yuhanno o'zining maktubida buni quyidagicha ta'riflagan:

«Dunyoning yo'llarini sevmanglar. Dunyoviy yaxshilikni sevmanglar. Dunyoni sevish, Otaga bo'lgan sevgini cheklaydi. Dunyoda sodir

bo'layotgan, qariyb hamma narsani, birgina istak boshqaradi: o'z bilganicha harakat qilish, o'zi uchun hamma narsaga ega bo'lishga, odamlarning ko'zida yaxshi ko'rinishga o'chlik. Bularning bari Otadan emas. Bu narsalar sizni Undan uzoqlashtiradi, xolos. Dunyo o'z istaklari bilan o'tib ketadi, Xudoning istagini bajaradigan kishi esa abadiy yashaydi» (1-Yuhanno 2:15-17, The Message).

Biz Liza bilan bu narsaga farzandlarimizni ishontirgunimizcha, juda ko'p vaqt talab etildi. Ular masihiy maktabga boradilar va ayrim, ota-onasi bilan doimiy jamoatga qatnaydigan hamda o'zini masihiy deb ataydigan sinfdoshlari Masihga taqlid qilishning o'rniga, yuqorida keltirilgan oyatdagidek yashashlarini ko'radilar. O'sha sinfdoshlari Xudoning irodasini bajarishdan zavqlanish, uni bajarishni istash va izlashning o'rniga o'zlari uchun yashaydilar.

Farzandlarimizning maktabidagi vaziyat – men keltirishim mumkin bo'lgan cheksiz misollardan faqat bittasi. Bu muammo oilalarda, ishda, hatto jamoatda va xizmatda ham uchrab turadi. Ko'pchilik, o'zini masihiy deb ataydigan kishilar, afsuski, buning aksini ko'rsatadigan hosillar keltiradilar.

Oddiy «murojaat»

Biz Iso Masihni bir marta «Rabbiy» degan kishi abadiy najotga ega bo'ladi deb, Uni qabul qilishdagi urg'uni gunohkorning tavba ibodatiga berib, Xushxabarni buzib voizlik qildik. Lekin Iso Masih bunday o'rgatmagan. U: «Menga: “Yo, Rabbiy! Yo, Rabbiy!” – deganlarning har biri ham Osmon Shohligiga kirmaydi, ammo Osmondagi Otamning irodasini bajaradigan kishi kiradi», – degan (Matto 7:21).

Agar biz Uning so'zlarini o'zimiz eshitgan voizlik, kitob va Xudoning inoyati haqidagi qo'shiqlardan olgan bir tomonlama ta'limotimiz orqali tanlamay, quloq solganimizda edi, ular zamonaviy Xushxabarimizga zid ekanini payqagan bo'lardik. Gunohdan tavba qilish ibodatini takrorlagan va Iso Masihni Rabbim deb aytganlarning hammasi ham samoga boravermaydi deb aytgan so'zlari – aniq-tiniq qilib yozilgan. Mabodo ular samoga bormaydigan bo'lsalar, o'tgan boblarda ko'rganimizdek, ular borishi mumkin bo'lgan faqat bitta joy qolyapti.

Keling, hammaga tanish bo'lgan xushxabarchilik xizmatini ko'rib chiqamiz. Xushxabarchi quyidagi mavzuda voizlik qiladi: «Iso Masihning oldiga kel va “barakalarga ega bo'l”». U Iso Masih bizga quvunch, tinchlik, gullab-yashnash, baxt, sog'liq, jannatni va hokazolarni beradi deb aytadi. Meni to'g'ri tushuning. Xudovand chindan ham bizni barakalashni istaydi, biroq Iso Masih hech qachon odamlar Uning ortidan borishi uchun barakadan qopqon sifatida foydalanmagan.

Qirq besh daqiqalik reklama aksiyasidan so'ng, xushxabarchi tinglovchilardan boshlarini xam qilishlarini so'raydi va ularga savol beradi. Agar ularning kuni bugun bitsa, ular samoga boradilarmi? U yangi kelganlarga ko'maklashish maqsadida har bir kishi atrofiga qarashga hamda bu savolni o'ng va chap tomonda o'tirgan kishiga berishga ruhlantiradi. «Mabodo sening qo'shning “ha” deb javob bera olmasa, uning qo'llaridan tut va oldinga olib chiq», – deydi keyingi jumlada.

Nomzodlar chiqqunga qadar «Qanday bo'lsam, shundayligimcha Sening oldingga kelaman» ga o'xshash qo'shiq yangrab turadi. Boshqa yig'inlarda ular zaldagilarning baland ovozdagi qarsak va olqishlari ostida hamda cholg'u asboblarning tantanavor marshi jo'rligida chiqib keladilar.

Voiz oldinga chiqqanlarga boshlarini xam qilishlarini va uning ortidan, taxminan, shunday ibodatni qaytarishlarini so'raydi: «Ota, men gunohkor ekanimni tan olaman, mening gunohlarimni kechir. Bugun men Iso Masihni hayotimga Rabbim va Najotkorim bo'lib kirib kelishini so'rayman. Sen meni O'zingning farzanding qilganing uchun rahmat. Iso Masih nomi bilan, omin».

Zal olqishlaydi, musiqa chalinadi va «yangi imonga kelganlar» «qanday bo'lsa, shundayligicha» o'z joylariga qaytib boradilar. Faqat endi ular aldanganlar safiga kiradilar. Xudoga bo'ysunmay yashagani uchun tavba, Uning irodasi payidan bo'lish uchun shaxsiy istaklaridan voz kechish, Masih uchun o'z hayotini bag'ishlash haqidagi so'zlarning birortasi ham eshitilmadi. Ular Iso Masihni o'zining «Rabbiysi» deb tan oldilar, ammo yuraklarida hech qanday o'zgarish sodir bo'lmadi. Iso Masih ularning hayotining shunchaki bir qismiga aylandi.

Sizlarga bir xabarni yetkazib qo'yishimga ijozat bering, gap shundaki,

shohlarning Shohi va rabbiylarning Rabbiysi insonning hayotiga ikkinchi bo'lib kelmaydi yoki ko'pchilik raqiblarning orasida birinchi bo'lib ham kelmaydi. U bizning yuragimizda hech qanday inson, narsa, faoliyat bilan O'z o'rnini uchun bellashmagan holda, faqat yagona Shoh sifatida keladi. U yagona Rabbiy bo'lishi lozim: Yuqori Hukmdor va Xo'jayin, bu degani: endi hayotimiz bizning qo'limizda emas.

Tasavvur etib ko'ring, siz bir inson bilan turmush qurmoqdasiz va u sizga uning boshqa seviklilari borligini, lekin siz ro'yxatda birinchida turishingizni aytdi. Butun borliqning Shohi insondan qanchalik darajada buyuk bo'lishi mumkin? U: «Sen mening barcha sevganlarimning ichida eng yaqinisan», – deb aytadigan kelinni qabul qiladimi? Bunday holatda ahd munosabati yo'q, shunday ekan birlashuv ham sodir bo'lmaydi. Qanday katta yanglishish!

Bu «yangi imonga kelganlar» xoch ularning xudbinlikda qurilgan hayotlariga sanchilishiga va yuragida Iso Masihning yangi tabiatini shakllantirish uchun joy ochilishiga imkon bermadilar. Ular shu joyda, yerdagi hayotida yaxshi yashash umidiga va samoga borish va'dasiga ega bo'ldilar, xolos. Qiziq haqiqat shundaki, masihiylarga nisbatan quvg'in uyushtiriladigan davlatlarda odamlar o'z hayotlarini yo'qotayotganini bilgan holda Iso Masihga keladilar. Biz bo'lsa, g'arbdagilar Uning oldiga yaxshi hayot va jannatga yo'lni qo'lga kiritish uchun kelamiz. Lekin biz ham o'z hayotimizdan voz kechishimiz lozim.

Bizning jamiyatimizdagi ko'pchilik xushxabar yo'nalishimizning odatiy vakillari biz voizlik qilayotgan Xushxabar natijasida xato fikrlar bilan yashayapti. Qayta topgan «imoni» bilan ruhlangan yangi imonlilar masihiylik faoliyatiga qo'shiladilar, jamoatga boradilar, hatto xushxabarni tarqatishga tushadilar, chunki bu ular uchun yangi va ajoyib narsa. Bu o'zini sinab ko'rish niyatida yangi klubga, sportning boshqa turiga a'zo bo'lishga, yangi maktabga, ishga yoki oliygohga kirishga o'xshaydi. Bu odam uchun yangilik, lekin ular Iso Masih O'zining haqiqiy izdoshlariga buyurganlarini bajarmadilar, ya'ni – Uning orqasidan borishning bahosini hisoblab ko'rmadilar va Unga xizmati yo'lida hayotini bag'shida etishga uzil-kesil qaror qabul qilmadilar (Luqo 14:27-33).

Erishish uchun yo'qotish

Bu almashishdir, ya'ni Uning hayotiga (tabiati) ega bo'lishning o'rniga o'zimizning hayotimizni to'liqlikcha Unga beramiz. Iso Masih bizga ko'p marta quyidagilarni yetkazishga uringan:

«Kim Mening ortimdan bormoqchi bo'lsa, o'zini rad etsin (o'zini unutsin, bilmaganlikka olsin, o'zidan va shaxsiy qiziqishlaridan ko'zini olsin) va o'z xochini olib, Mening ortimdan yursin (Menga, mening shogirdim va izdoshim sifatida ergashsin)» (Mark 8:34, Kengaytirilgan tarjima).

Biz doimo Unga yopishib olishimiz lozim. Najot – bu shunchaki bir marta ibodat qilib, keyin samoga borish va'dasiga ega «yuqoridan tug'ilganlar» klubiga a'zo bo'lganni hisobga olmaganda, avvalgidek yashab yurish emas. Iso davom etib, deydi: «Chunki kim jonini saqlab qolmoqchi bo'lsa, uni yo'qotadi. Lekin kim Men va xushxabar uchun jonini yo'qotsa, uni saqlab qoladi» (Mark 8:35). Kengaytirilgan tarjimada ushbu oyat quyidagicha yozilgan: «Men va Xushxabar uchun (faqat yerda yashab o'tadigan) o'z jonini bag'ishlagan har bir kishi, jonini (Xudoning abadiy Shohligidagi oliy ruhiy hayotni) saqlab qoladi».

Bu shartsiz almashish, biz Uning xohishlari payida bo'lish maqsadida o'z hayotimizni boshqarish huquqini Unga topshiramiz, o'rniga Uning abadiy hayotiga erishamiz. Bugun voizlik qilinayotgan Xushxabar Iso Masihga ergashishdek, o'ta muhim jihatga katta urg'u bermaydi: biz faqat foyda topish to'g'risida eshitamiz. Aslida biz xochga mixlanishning mazmunini gapirmay, tirilishga taalluqli va'dalarini voizlik qilamiz.

Bu vaziyat yosh yigit oynaijahondan armiyada shartnomali xizmat o'tash haqidagi reklamani ko'rganga o'xshaydi. U taxminan o'zi qatori yoshdagi, kulib turgan, zo'r rasmiy flot kiyimidagi, shaffof-billur osmon ostida, ochiq dengizda ketayotgan ajoyib kemanding bortida turgan yigitni ko'radi. Reklamada dunyoning barcha shaharlaridagi portlar o'tib turarkan, bularning bariga osonlikcha yetib bo'ladigandek tuyuladi.

Yosh yigit shu zahoti boradi va shartnomali xizmatni o'tashga imzo chekadi. U hatto talablar bilan tanishishga urinib ham ko'rmaydi, chunki

butun diqqati ko'zlayotgan foydasiga qaratilgan. U shu qadar baxtliki, endi u dunyoni ko'rish, sharaflı armıyaning bir qismiga aylanishga va ko'p yangi do'stlar orttirish imkonıyatiga ega.

Qarabsizki, u tezda, bundan keyin oldingi odatiga ko'ra soat to'qqizgacha uxlashga haqqi yo'qligini bilib qoladi. U o'ziga qadrli bo'lgan uzun sochlarini olib tashlashi shart. U jamoat joylariga chiqa olmaydi, chunki oyiga bir-ikki kundan bo'lak, hamma vaqt bazada bo'lishi lozim. Eng yomoni – bu hech qanday bo'sh vaqtıni qoldirmaydigan, o'ta zich kun tartibi. Butun kun hojatxona yuvishga, kazarmani tozalashga, yerga egilib-turish va boshqa qiyin sport mashqlari bilan o'tadi. Oldinlari oshib-toshib yotgan bo'sh vaqtdan mahrum bo'lib, u har kech holdan toygan holda krovatiga o'zini tashlaydi.

Yigitcha hali ham umidini yo'qotmagan, axir, u yaqında kemaga minadi. U asosiy ta'limlarni tugatib, kemaga jo'natiladi, biroq jadal mehnat bekor qilinmaydi, endi u faqat ochiq dengızda ishlaydi. Urush boshlanib qoladi va imzo chekmagan urushda qatnashishiga to'g'ri keladi.

U o'zi hech qachon erisha olmaydigan hayotni qo'lga kiritish uchun imzo chekkan edi, boz ustiga bu hayot tekin taklif qilingandi. Ha, bularning hammasi tekin, lekin fursat topib, shartnomani ikir-chikirlarigacha o'rganib chiqmagani sabab, bu hayotga erishish uchun erkinlikdan kechishi kerakligini kutmagandi. O'zini aldangan his etib, u ko'plardan xafa. Uni yaxshi taklif bilan ilintirishdi, shaxsan unga nimaga borishini aytmay, faqat foyda tomonini ko'rsatishdi. Biz tekin najotni voizlik qildik, bu xuddi shunday, biroq uni qabul qilganlarga ular bu uchun shaxsiy erkinligi bilan to'lashi kerakligini aytnaslikka qaror qildik. Erkinlik haqida gapirib, haqiqiy erkinlikni nazarda tutmayapman, balki odamlar Masihdan tashqaridagi gunoh bilan bog'laydigan erkinlik haqida aytyapman. Ular o'z erkinligiga mutlaq amin bo'lsa-da, aslida quldirlar. Bu holatni «Matrisa» filmidagi bir sahna bilan qiyoslash mumkin. Bir kuni kechga o'g'lim filmni ijaraga uyga olib keldi va biz oilamiz bilan tomosha qildik. Men filmda bir ajoyib o'xshatmani ko'rdim. «Matrisa»da qiziq savol o'rtağa tashlangan: «Agar sen uyqudan uyg'onmagan bo'lsang, qanday qilib, haqiqiy dunyoni tushdagi dunyodan ajratish mumkin?»

Bu filmda yigirmanchi asr hayoti aftidan yaxshidek o'tadi. Voqea yigirma birinchi asrning oxiridan boshlanadi. Inson Mashina deb ataladigan sun'iy ong yaratadi. Bu Mashinalar yer yuzidagi hokimiyatni qo'lga olishadi va inson bu hokimiyatni qaytarib olishga urinadi. Urush natijasida dunyo yakson bo'ladi, Mashinalar esa g'alaba qozonadilar. Ular inson tanasidan ishlab chiqaradigan quvvatni olib, yashay olishi mumkinligini bilib qoladilar, binobarin, o'zlarining maqsadlarida insondan foydalanish uchun buyuk tasavvur yaratadilar. Dunyo hali ham oldingidek (yigirmanchi asrdagidek) odatdagicha bo'lib «ko'rinadi», aslida inson tanalari ulkan «ferma» dagi qafaslarga qamalgan, onglari esa Matrisa deb nomlanuvchi jahon miqyosidagi virtual kompyuter dasturiga yoqilgan. Mohiyatan, inson haqqoniy erkinlikka ega emas, balki qullar hisoblanadilar.

Filmning mana shu joyida o'zlarining bir-biriga o'xshashligini payqab qolib, Matrisaning qo'lidan chiqib keta olgan ayollar va erkaklardan saralangan guruh paydo bo'ladi. Ular umuman hayot yo'q dunyoda Sion deb ataluvchi o'zlarining mustamlakasini tuzadi. Ulardan ayrimlari odamlarning ozodligi yo'lida Mashinalar bilan kurashish uchun Matrisaga qaytib bordilar. Jang ayovsiz va hayot og'ir, lekin ularni yolg'on erkinlikda yashashdan ko'ra haqiqiy ozodlik ko'proq qiziqtiradi. Ular soxta qulaylikdagi qullikdan ko'ra qiyinchiliklar bilan haqiqiy erkinlikka erishishni ortiq ko'radilar.

Bu yerda muayyan parallelni ko'rish mumkin. Ko'pchilik imonsizlar masihiylarga o'z erkinligini yo'qotgan, qullarga qaragandek qaraydi, go'yo o'zlari xuddi erkinlikda yashayotgandek. Biroq haqiqat shundaki, aynan Masihda bo'lmaganlar Mashinalarning yolg'onda yashovchi qullariga o'xshab, bog'lab qo'yilgan. Ular gunohning qulidirlar.

Masihiy bo'lish qiyin

Nafaqat Xushxabarni hech qachon eshitmagan yoki unga ishonishdan bosh tortadigan kishilar, balki ushbu avlodning ko'pgina oddiy «imonlilari» ham qullikda yashamoqda. Bizning o'zimiz odamlarni Iso Masihning ortidan borishning mazmuni hisoblangan to'liq Xushxabar bilan tanishtirish majburiyatiga e'tiborsizlik qilib, shu tang ahvolni yaratdik. Aksariyat kishilar

o'zlarini erkin deb hisoblaydilar, ammo aslida erkinlikka ega emaslar, chunki ularning hayoti buning isbotidir. Iso Masih aytgan:

«Rostini, sizlarga rostini aytaman, gunoh qiladigan har bir kishi gunohning qulidir. Ammo qul uyda umrbod yashamaydi, o'g'il esa umrbod yashaydi. Shunday qilib, agar O'g'il sizlarni ozod qilsa, haqiqatan ozod bo'lasizlar» (Yuhanno 8:34-36).

Ushbu so'zlar daraxt hosillari haqidagi haqiqatning ma'nosini yana qayta ta'kidlaydi. Agar inson doimo gunoh qilsa, u gunohning qulidir. U o'g'il emas, negaki uning tabiati o'zgarmadi. U tavba ibodatini qaytargani uchun o'zini ozodman deb hisoblashi mumkin, lekin u o'z huquqlarini Iso Masihga to'liq topshirmadi. U o'zining qalbaki erkinligini saqlab qolishni va najotdan foyda ko'rishni istadi. Bir vaqtning o'zida unga ham, bunga ham ega bo'lishning imkoni yo'q!

Yuqorida aytilganidek, odamlar o'zlarining «samodan tug'ilishini» quvonch, zavq va ishtiyoq ila boshidan kechiradilar, chunki bu yangilik va ochiqlik. Shunga qaramay, ertami-kechmi ularning masihiylikka oid so'zlari va imonli hayot tarzi ortida yashirilib turgan o'zgarmas tabiati namoyon bo'lishni boshlaydi. U endi imonlilar orasida namoyon bo'ladi. Mana nima uchun bu yangilishni birdan sezish qiyin. Shunday bo'lsa-da, Yangi Ahd bizni aynan shu yolg'on haqida ogohlantiryapti.

Pavlus yozgan: «Bilib qo'y, oxirgi kunlarda masihiy bo'lish juda qiyin bo'ladi» (2-Timotiya 3:1, inglizchadan tarjima). Biz oxirgi kunlarda yashayapmiz. Bunga shubha yo'q. Kalomdagi barcha bashoratlar Iso Masihning tez orada kelishini aytyapti. «Masihiy bo'lish» tushunchasiga kelsak, Pavlus bizning kunlarimiz eng og'ir davr bo'lishini oldindan bilgan.

Boshqa tarjimalarda bizning zamonimizga nisbatan xavfli va dahshatli so'zlaridan foydalanilgan. Nega? Pavlusning yashagan vaqtini o'rganib, u o'ta og'ir qarshilikni boshidan kechirganini ko'ramiz. Uni besh marta qamchi va o'ttiz to'qqiz marta tayoq bilan urishgan, uch marta xivich bilan savalashgan, bir marta toshbo'ron qilishgan. U uzoq yillar qamoqda o'tirgan. U qayerga bormasin, hamma joyda quvg'inlarga duch kelgan. Biroq Pavlus bizning kunlarimiz masihiylar uchun eng og'ir

kunlar bo'lishini aytgan! Nima uchun? Uning o'zi javob beryapti:

«Chunki odamlar o'zlarinigina sevadigan, pulparast, maqtanchoq, mag'rur, og'zi buzuq, ota-onalariga itoatsiz, noshukur, betavfiq, yaqinlariga ko'ngli sovuq, murosasiz, tuhmatchi, nafsini tiya olmaydigan, qo'pol, yaxshilikdan nafratlanuvchi, xoin, bemulohaza, kekkaygan va Xudodan ko'ra kayf-safoni ko'proq sevadigan bo'ladilar» (2-Timotiylga 3:2-4).

Agar uning so'zlarini diqqat bilan o'rgansangiz, sizda u nima demoqchi degan savol uyg'onishi mumkin. Nahotki bu sifatlar ro'yxati Pavlus davrida yashagan odamlarning xususiyatidan shu qadar kuchli farq qilsa? Uning zamondoshlari ham ushbu sifatlarga ega bo'lgan. Ular o'zlarini sevadigan, pulparast, betavfiq, toshbag'ir va hokazolar bo'lishgan. Hatto Petrus Elliginchi kunda degan: «Bu buzuq avloddan qutulunglar» (Havoriylar 2:40). Unda nimaga Pavlus, masihiy uchun ushbu sifatlarni eng qiyin davr bo'lishining sababi sifatida, bizning avlodimizni ajratib ko'rsatyapti? U davom etib, tushuntirgan: «Ular xudojo'ylikning (haqiqiy imonning) tusiga ega bo'lib, ammo uning kuch-qudratidan voz kechganlar (e'tiqodining haqiqat ekanini o'z yurish-turishi bilan rad etadi)» (2-Timotiylga 3:5, Kengaytirilgan tarjima).

Xullas, siz nima uchun bizning zamonimizda masihiy bo'lish qiyinligini ko'rdingiz. Ko'pchilik o'zlarini (Yangi Ahdning boshqa oyatlariga muvofiq) samodan tug'ilgan va najot topgan masihiy deb ataydilar, biroq xoch ularning xudbinligini o'ldirishiga ijozat bermaydilar. Ular Iso Masihning ortidan ergashish yo'lida o'zining barcha huquqlaridan voz kechmaydilar. Bunday odamlar Iso Masih ularning Najotkori deb chin dildan ishonadilar, ammo Uning Kimligi uchun emas, Undan nimadir olish uchun Unga ergashadilar. Bu vaziyat, ayol kishi pul uchun turmushga chiqqan vaziyatdan hech ham farq qilmaydi. Balki u sevib turmush qurayotgandir, lekin uni noto'g'ri niyatlar boshqaryapti. Aynan shunday niyatlar bilan odamlar Iso Masihni najot topish, xudojo'y odamlar to'dasi shu hayotda omadga erishish va o'limidan so'ng jannatga tushish uchun izlaydilar. Iso Masih ularning Najotkori ekaniga chin qalbdan ishonib, Unga hech qachon hayotlari ustidan boshqaruvni bermaydilar.

Yemirilgan chegaralar

Yana bir muammo, chegaralarning yemirilganida. Keling, o'z manfaatlarini ko'zlaydigan, lekin o'zini samodan tug'ilgan deb biladigan, haqiqiy imonli tilida gapiradigan, xudojo'y do'stlarga ega, masihiy yig'inlardan zavq oladigan, biroq o'zgarmas tabiatida qolib ketgan insonni faraz qilaylik. Aslida bunday inson – o'zi bilmagan holda tovlamachidir, qolaversa muammo shundaki, bunday o'z-o'zini aldash vabo singari tarqalib ketgan. Agar odam samoning me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan, lekin masihiy madaniyati «me'yorlari» ga asoslanib yashasa, uning haqqoniy masihiy bo'lishi juda qiyin. Pavlus davrida inson imonli bo'lsa, uning hayoti har soatda xavf ostida bo'lgan. U o'zini Masihga bag'ishladimi yoki yo'qmi degan savol tug'ilmagan ham, chunki inson hayot chiziqlarini aniq-tiniq qilib chizib olgan. Pavlus davom etadi:

«Sen esa mening ta'limotimni, yurish-turishimni, maqsadimni, imonimni, bardoshimni, sevgimni, sabr-toqatimni hamda Antioxiya, Ikoniya va Listra shaharlarida boshimga kelgan quvg'inlarimni va azoblarimni to'liq bilar eding. Men qanday quvg'inlarga bardosh bergan bo'lsam, Rabbiy meni hammasidan xalos qildi. Zotan Iso Masihda xudojo'y yashamoqchi bo'lganlarning barchasi ham quvg'in qilinadilar. Yovuz va firibgar odamlar esa o'zlari adashib, boshqalarni ham adashtirib, o'z yovuzliklarini oshirib boraveradilar» (2-Timotiya 3:10-13).

Pavlus hammasini ravshan qilib tushuntirgan. U nafaqat boshqalarga o'rgatgan, balki Timotiy Pavlusga ishona olishi uchun harakat qilib yashagan ham (abadiyat tomonidan boshqarilgan kitobimning keyingi sahifalarida aynan shu haqda gap boradi). Uning maqsadi ibodatlarga keladigan javob, mo'jizalar yaratadigan notabiyy in'omlar va Xudoning So'zini yuqori darajada o'qita olish qobiliyati emas edi. Yo'q, u bularga diqqatni qaratmagan. U hayot tarzi haqida aytgan. Bu eng muhim omil bo'lgan va shunday bo'lib qolishi zarur.

U ushbu so'zlar bilan davom etadi: «yovuz va firibgar odamlar» oshib boradilar. Yovuz odamdan uzoqroq yurish kerakligini hammamiz bilamiz, biroq tashqi ko'rinishi chin fe'l-atvoriga mos kelmaydigan, tovlamachilar

eng katta xavf tug'diradigan odamlardir. Bu odamlar o'zlarini masihiy deb ataydilar va masihiy ko'rinishga ham egalar, lekin ularning hayotida o'zgartiruvchi inoyat kuchi borligining hech bir isboti yo'q. E'tibor bering, Pavlus, bundaylar nafaqat boshqalarni aldaydi, shu bilan birga ularning o'zlari ham aldanganlar, deydi.

Bu hikoyamizdagi Aldanganning voqeasida aniq aksini topgan. Yosh yigit Endeldagi maktabda faol o'quvchi edi, o'zini bag'ishlangan izdosh deb bilgan va shohning himmatiga sazovorligiga chin dildan ishongan. U o'z sodiqligini hayoti orqali isbotlash o'rniga, daxldorligini tasdiqlash uchun ko'p urindi. Faqat uni o'zi emas, uning atrofidagilar ham uning haqqoniyligi borasida yanglishgan. Aldanganning hayot tarzi ko'plarning, birga yotgan qizlardan tortib, to uning voizliklari ta'sirida qolgan talabalargacha yiqilishiga sabab bo'ldi.

Voizliklari, deb so'raysizmi? U o'qituvchi emas edi, axir. Ha, aytgancha, voizlik deganda, bizning aytadigan so'zlarimizdan ham balandroq jaranglaydigan hayot tarzimizni nazarda tutyapman. Jeylanning izdoshlari bo'lmish Endeldagi talabalar uchun Aldanganning kuchli xarakteri va hayot tarzi ta'siri ostiga tushib qolmaslik juda qiyin edi. Mustahkam bo'lmagan kishilar uning ta'siriga tushib qolishardi.

Bizni ushbu kurash haqida nafaqat Pavlus, shuningdek, Yangi Ahdning boshqa mualliflari ham ogohlantirgan. Yahudo bizga deydi:

«Sevganlarim, men sizlarga umumiy najotimiz haqida yozishga g'ayratim ko'p bo'lib, bir narsa haqida nasihat qilib yozishni lozim ko'rdim: Bir vaqtlar muqaddaslarga topshirilgan imon uchun astoydil kurashinglar» (Yahudo 3).

Uning so'zlaridagi qat'iyatga e'tibor bering. Najot orqali oladigan ajoyib narsa haqida aytishni istagan Yahudo, yana boshqa narsani ham chetlab o'ta olmas edi. U bizni imonimiz uchun kurashishga ruhlantirishga bel bog'ladi. Bu qanday kurash? So'ngra u tushuntirgan:

«Chunki qadimdan mahkum bo'lishga tayin qilingan ba'zi odamlar orangizga yashirincha suqilib kirib olganlar. Bu betavfiqlar

Xudoyimizning inoyatini buzuqlikka aylantirmoqdalar hamda yagona Xudo Egamizni va Rabbimiz Iso Masihni rad qilmoqdalar» (Yahudo 4).

Kurashimiz o'zlarining betavfiq hayotlarini yashirish uchun Xudoning inoyatini buzuqlikka aylantirgan kishilarning ta'siriga qarshi turishdan iborat. Bunday hujumlar jamoatga qaratilgan boshqa barcha quvg'inlardan ko'ra halokatliroqdir. Ular Muqaddas Kitob qadriyatlariga zid qonunlar bo'lib, jumladan bola oldirish va maktabda evolyusiya nazariyasini o'tish majburiyatidan ham xavflidir. Ularning ta'siri qandaydir oqim yoki soxta dinning ta'siridan yanada kuchliroq. Ular abadiy halokatga olib boradi!

Siz balki, bu so'zlar qanday qilib jamoatdagi odamlarga qo'llanilishi mumkin, axir Yahudoning so'zlari Iso Masihni rad etgan yoki Undan voz kechgan odamlarga tegishli, deyishingiz mumkin. Bugun bizning jamoatlarimizda bunday yo'l tutgan odamni masihiylar qabul qilmaydi, dersiz. Nega siz o'sha davrdagi imonlilarni zaif bo'lgan deb hisoblayapsiz? Yana bir marta Kalomdagi matnni diqqat bilan o'qib chiqing. Bu odamlar o'ramizga yashirincha suqulib kirdilar, deyilgan. Bizning yig'inlarimizda bugun ham, Yahudo davrida ham Masihdan ochiqchasiga voz kechgan kishi ko'zga tashlanmay qolmaydi. Unda qanday qilib ular Uni rad etishlari mumkin? Bunga javobni Yangi Ahddagi boshqa kitobdan topamiz. «Ular: "Xudoni bilamiz", – deb aytadilar-u, lekin o'z qilmishlari bilan Undan voz kechadilar» (Titusga 1:16).

Ular so'zlari bilan emas, balki hayotlari bilan Masihdan voz kechadilar. Xudoni bilaman deydi, Iso Masihni Rabbim deb e'tirof etadi, aslida o'z qilmishlari orqali buning aksini ko'rsatadilar. Esingizdami, ular nafaqat boshqalarni, shuningdek o'zlarini ham aldaydilar. Boshqa so'zlar bilan aytganda, ular chin yurakdan masihiyman deb ishonadilar.

Xudoning haqiqiy inoyati

Yahudo bunday odamlar Xudoning inoyat maktubini buzuqlikka aylantirmoqda deb ta'kidlamoqda. Biz yashayotgan oxirgi zamonda bu juda keng tarqalgan, chunki bizning ta'limotimiz bu narsani ro'y berishiga eshik ochib berdi. Biz Xudoning inoyati itoatsizligimizning himoya qavati bo'lib xizmat qiladi deb o'rgatdik. Jamoatda ko'plardan shunday so'zlarni eshitish

mumkin: «Men noto'g'ri hayot kechirayotganimni bilaman, lekin Uning inoyati uchun Xudoga shukr». Bu jiddiy yanglishish. Kalomda yozilishicha, inoyat – bu bizdan haqiqat talab etayotgan narsalarni bajarish uchun ichimizda joylashtirilgan Xudoning kuchi.

Inoyat haqida, shunchaki Xudoning biz sazovor bo'lmagan marhamati sifatida o'rgatilgan. Bu haqiqatdan ham biz sotib ololmaydigan, sazovor bo'lolmaydigan Uning marhamati. Ammo u bizga itoatkorlik uchun kuch bag'ishlaydi. Rostdan ham inoyatga ega ekanimizning isboti bizning xudojo'y hayotimiz hisoblanadi. Uning So'ziga itoatkorlik hayotimizda inoyat borligidan guvohlik beradi. Shu bois Yoqub deydi:

«Xuddi shunday, imon ham ishsiz bo'lsa (uni tasdiqlaydigan itoatkorlik harakatlari va ishlarisiz), o'z-o'zidan o'likdir. Biroq biror kishi: Sen imoningga egasan, men esa ishlarimga egaman», – deb aytishi mumkin. Xo'p, (yaxshi) ishlarsiz bo'lgan (shubhali) imoningni menga (qo'lingdan kelsa) ko'rsat-chi, men esa senga imonimni (yaxshi) ishlarim (itoatkorligim) orqali ko'rsataman! Sen Xudoning yagonaligiga ishonasanmi? Yaxshi qilasan! Jinlar ham ishonadilar va dahshatdan titraydilar» (Yoqub 2:17-18, Kengaytirilgan tarjima).

Yoqub bizning zamonaviy ta'limotimizdagi ulkan muvaffaqiyatsizlikni ko'rsatgan. Biz Kalomdan «Rabbiy Iso Masihga ishon va najot topasan...» kabi oyatlarini yulib olamiz (Havoriylar 16:31). Mabodo najot topish uchun Xudoning borligiga va Iso Masih – Uning O'g'li ekaniga ishonish kifoya bo'lsa, demak, yovuz ruhlar najot topar ekanda, negaki ular bunga ishonishadi. Bu be'manilik axir! Yoqub o'z fikrini aniqroq yetkazish uchun jinlar hatto titrashini aytib o'tgan. Boshqacha qilib aytganda jinlar, Xudodan imonga egaman deb, itoatkorlik ishlari bilan tasdiqlamaydiganlardan ko'ra ko'proq qo'rqadilar.

Biz chindan ham Iso Masihning inoyati bilan najot topganimizning yaqqol isboti – uni tasdiqlaydigan hayotimizdir. Mana nima uchun havoriy Yuhanno aytyapti:

«Agar biz Uning amrlariga rioya qilsak, shundan Uni tanib bilganimizni bilamiz. Kimki men Uni tanib bildim deb aytsa-yu, lekin Uning amrlariga

rioya qilmasa, u odam yolg'onchi va unda haqiqat yo'qdir. Kimki Uning So'ziga rioya qilsa, u odamda Xudoning sevgisi haqiqatan kamolga yetgan bo'ladi. Ana shundan biz Unda jo ekanimizni bilamiz. Kimki men Unda jo bo'lmoqdaman deb aytsa, Masih qanday yurgan bo'lsa, u ham shunday yurishi kerak» (1-Yuhanno 2:3-6).

Yuhanno, Iso Masihni bilishimizning asl tasdig'i Uning amrlarini bajarish ekanini aniq-tiniq qilib yozgan. Iso Masihni bilaman deydigan, lekin Uning so'ziga rioya qilmaydigan kishi – Xudoning Kalomini bilishini e'tirof etishiga qaramay, u yolg'onchi va tovlamachi, haqiqatdan yiroqdir. Shuning uchun Yuhanno deydi: «Mening farzandlarim! Buni sizlarga gunoh qilib yurmasligingiz uchun yozmoqdaman. Agar kimdir gunoh qilib qo'ysa, biz Otaning oldida Himoyachi – haq Iso Masihga egamiz. U bizning gunohlarimiz uchun rahm-shafqat keltirish qurbonligi bo'ldi. Faqat bizning emas, balki butun dunyoning gunohlari uchun hamdir» (1-Yuhanno 2:1, 2).

E'tibor bering, u: «Buni sizlarga gunoh qilib yurib.... Himoyachiga egamiz», degan emas. Aslo, maqsad gunoh qilmaslik. Xudo inoyatining kuchiga ega bo'lib, biz Masihga o'xshab borishga intilishimiz («Unga o'xshab yashashimiz») mumkin, negaki biz itoatsiz tabiatning boshqaruvidan xalos bo'ldik. Ammo gunohning tuzog'iga ilinib qolgudek bo'lsak, o'shanda Himoyachiga egamiz.

Imonlining shodligi shundaki, endi biz Xudoyimizga ma'qul tarzda xizmat qila olamiz.

Shuning uchun biz larzaga solinmaydigan shohlikni qabul qilib, inoyatni mahkam tutaylik, toki shu inoyat bilan ehtirom va qo'rquvda Xudoga ma'qul xizmat qilaylik» (Ibroniylarga 12:28).

Mana gap nimada. Inoyat bizga Xudoga ma'qul xizmat qilish uchun kuch beradi.

Nimaga biz to'liq Xushxabarni emas, balki uning yarmini voizlik qilamiz? Ha, najot – bu in'om, uni sotib olish yoki unga loyiq bo'lish imkonsiz. Bu chindan ham shunday. Shu bilan birga, biz odamlarga uni qo'lga kiritishning yagona yo'li – bu hamma narsadan voz kechish, Uni Rabbim deb tan olib, hayotni unga topshirish va shunday qilgach, Uning tabiatiga

mos ravishda yashashga kuch olish ekanini aytishni unutib qo'yamiz. Bu haqda Petrus yozgan:

«Xudoni va Rabbimiz Isoni tanib-bilishingiz uchun sizlarga inoyat va tinchlik ko'paysin. Xudo bizni O'zining shuhrati va ezguligi bilan da'vat qildi. Uning ilohiy kuch-qudratidan Uni tanib-bilishimiz orqali bizning hayotimiz va diyonatimiz uchun zarur bo'lgan hamma narsa bizga ato qilindi. Bu dunyoda hukmronlik qilayotgan hirsning chirishidan qochib qutulib, ilohiy tabiatga sherik bo'lishingiz uchun Xudo sizlarga juda buyuk va qimmatbaho va'dalarni berdi» (2-Petrus 1:2-4).

Diqqat qiling, inoyat bizga Iso Masihni tanib-bilish orqali berilgan va bu inoyat Uning Ilohiy tabiatiga mos ravishda pok hayotda yashash uchun hamma kerakli narsani bag'ishlaydigan Ilohiy kuch sifatida berildi. Shu tarzda Odam orqali dunyoga kirib kelgan insoniyatning Xudo yoqtirmaydigan hirs tufayli ko'payib ketgan chirishdan qayta sotib olinganmiz. Hech bir kishiga so'zi bilan ham, harakati bilan ham bizning ichimizga joylashtirilgan Xudoning tabiatiga ko'ra yashashga nisbatan mensimaslik uyg'otishiga yo'l qo'ymang. Pavlus ravshan qilib aytgan:

«Chunki hamma insonlarga najot beradigan Xudoning inoyati zohir bo'ldi. Bu inoyat esa shuni o'rgatadiki, biz betavfiqlikni va dunyoviy hirlarni rad qilib, bu dunyoda iffatli, haq va xudojo'y hayot kechirishimiz kerak. Chunki biz baxtli umidimizni ro'yobga chiqishini, Najotkorimiz Iso Masihning va buyuk Xudoyimizning shuhrati zohir bo'lishini kutmoqdamiz. Bizni har qanday qonunbuzarlikdan qayta sotib olish uchun Masih O'zini fido qildi, toki yaxshi ishlarga g'ayratli bo'lgan alohida xalqni O'zi uchun poklasin. Bularni bor hokimiyat bilan gapirgin, nasihat qilgin va fosh qilgin. Hech kim seni kamsitmasin» (Titusga 2:11-15).

Rabbiyning inoyati bizni barcha betavfiq va dunyoviy hirlardan voz kechishga, o'zni tiyish va haqlikda yashashga o'rgatadi. Xudoning inoyati hayotimizda yo'l-yo'riq va ularga rioya qilishga qobiliyat beradigan o'qituvchiga o'xshaydi.

Yodingizda bo'lsin, biz bu narsaga boshqalarni o'rgatishimiz zarur. Pavlus davom etib, deydi: «Bu so'z haqiqatdir. Men istaymanki, Xudoga

ishonganlar yaxshi ishlarga astoydil bel bog'lashlari uchun buni (doimo) tasdiqlagin, chunki bu odamlar uchun yaxshi va foydalidir» (Titusga 3:8).

Biz hayotimizdagi Xudo inoyatining kuchi bilan ezgu ishlar qilishimiz lozim. Najot topgunimizcha Eski Ahddagi muqaddaslar singari biz ham unga ega emas edik, inoyat – bu Iso Masih orqali kelgan Xudoning in'omi. Shu bois Iso Masih bizga Eski Ahd davridagi odam biror kishini o'ldirsa, u do'zaxga borishga loyiq qotil hisoblanar edi, deydi. Ammo inoyat ostidagi sen hatto birovni ahmoq desang, kimnidir hukm qilsang, kechirishdan bosh tortsang yoki nafratning biror bir ko'rinishiga ega bo'lsang ham, seni do'zax olovi kutib turibdi (Matto 5:21, 22). Nima uchun? Negaki, biz endi inoyatning kuchi ila ichimizda va tashqi harakatlarimizda Xudoning tabiatiga mos ravishda yashashga qobiliyatlimiz.

Doimo tasdiqlash

Yuqorida Kalom matnida ko'rgan Titusga maktubida (3:8) bu haqda doimo o'rgatish va buni tasdiqlash buyurilgan. Eshitdingizmi? Men minbardan yoki imonlilarning o'zaro suhbatidan buni kamdankam eshitaman, doimo emas. Buning sababi biz Xudo inoyati ila amalga oshirilgan ezgu ishlar qanchalik ahamiyatli ekani to'g'risidagi tushunchadan yiroqlashganimizda. Aslida bizning bilimsizligimiz va imonimiz yetishmasligi natijasida bizdagi kuch sust bo'lib qolib ketishiga zamin yaratdik. Inoyatga yo'l ochadigan imon bizning imonimiz e'tirofi orqali faol bo'lib turishi lozim. Pavlus deydi: «Men ibodat qilamanki, Iso Masihda sizlar ega bo'lgan har qanday ezgulikni chuqur bilishda sening imoningning muloqoti mahsuldor bo'lsin» (Filimonga 6).

Agar biz buni doimo tasdiqlamasak, unda asta-sekin haqiqatdan uzoqlashib boramiz. Ibroniylarga maktubning muallifi bu haqda juda to'g'ri yozgan:

«Shuning uchun biz yiqilmasligimiz uchun eshitganlarimizga o'ta diqqat qilishimiz kerak. Chunki farishtalar orqali aytilgan so'z qat'iy bo'lgan bo'lsa va har bir jinoyat hamda itoatsizlikka adolatli jazo olingan bo'lsa, unda biz bu ulug' najotni mensimaganimizda, jazodan qanday qochib

qutulamiz? Bu najot avvalo Rabbiiy orqali voizlik qilindi, so'ngra, Undan eshitganlar tomonidan bizlarda tasdiqlandi» (Ibroniylarga 2:1-3).

Buni tasdiqlab va bu haqda o'rgatsak, bizni yiqilishdan asraydigan abadiylikning muhim jihatini doimo qarshimizda ko'rib turamiz.

Esimda, yosh bola bo'lganimda baliq tutishni yoqtirardim. Baliq ovi jarayoniga berilib ketib, qayiqni oqim doimo uzoqqa olib ketganini payqamay qolardik. Qirq besh daqiqadan so'ng biz atrofqa qarab, kelib qolgan joyimizni tanimasdik. Bu bizning fikrimiz boshqa narsa bilan, ya'ni bu vaziyatda baliq ovi bilan band bo'lgani uchun sodir bo'lardi.

Xavfli sharsharaga olib ketadigan daryolarda baliq ovlovchi kishilarning ba'zilar uchun bunday vaziyatning oxiri ayanchli tugagan. Sanoqsiz odamlar ularning kemasi baliq ovlashni boshlagan joydan ancha uzoqqa ketib qolgani bois, sharsharalar qarida halok bo'lganlar.

Va bu haqiqat abadiyatning muhim jihatlariga ham taalluqlidir. Agar Xudo biz bu haqda doimo o'rgatishimizni aytayotgan bo'lsa, demak, bu masalada o'ta diqqatli bo'lishimiz zarur. Nimaga biz itoatkorlikning xudojo'y hayotda yashashga imkon yaratadigan inoyatning kuchiga urg'u bermaymiz?

Men birinchi Jamoat shu tarzda yashaganini ko'ryapman. Birinchi Jamoatning bir nechta otalarining yozganlarini o'qib, Kalomga mos, lekin bizning bugungi ta'limotimizga umuman begona narsalarni o'rgatganini sezib qoldim. Jamoat otalari boshidan boshlab, bir necha asr davomida najotimizni isbotlashda ishlar muhim ahamiyatga ega deb o'rgatgan. Keling, bir nechta namunalarni ko'rib chiqamiz.

Dastavval Smirna shahri havoriysi va havoriy Yuhannoning do'sti Polikarpning (69-156) so'zlaridan keltiraman. U keksayib qolganda qamoqqa olingan va o'choqda yondirilgan. U shunday yozadi: «Bizlar ishlar bilan emas, balki inoyat bilan najot topganimizni bilib, ko'plar bu shodlikka (najotga) ega bo'lishni istaydilar». Zamonaviy xushxabar jamoatlari orasida bu so'zlar hech qanday taajjubsiz qabul qilingan bo'lardi, chunki biz yaxshi ishlar sharofati bilan najot topmasligimizga kuchli urg'u beramiz. Polikarp imonlilarga qarata shunday deb yozgan: «Agar biz Uning irodasini bajarsak,

amrlariga rioya qilsak va o'zimizni har qanday nohaqlikdan saqlab, U sevgan narsani biz ham sevsak – Uni o'limdan tiriltirgan, bizni ham tiriltiradi». Bugun minbardan bunday so'zlarni kamdan-kam eshitamiz.

«Agar» so'ziga e'tibor bering. Ertaga tirilishimiz uchun bizga Uning irodasini va amrlarini bajarish buyurilgan. Bu haqda Iso Masih ham aytgan.

Men keltirmoqchi bo'lgan keyingi kishi Rimdagi jamoatni boshqargan havoriy Pavlus va Petruslarning hamkori, rimlik Kliment (30-100). U shunday deydi: «Biz o'z-o'zimizcha, shaxsiy taqvodorligimiz yoki ishlarimiz bilan oqlanmaganmiz. Lekin Qudratli hamma odamni oqlaydigan imonimiz orqali oqlanganmiz». Ushbu gaplar ham bugungi masihiylar orasida iliq qabul qilingan bo'lardi. Biroq Kliment imonlilarga qarata shunday deb yozgan: «Biz ezgu ishlar qilishda chaqqon bo'lishimiz zarur. U har bir kishini ishlari bo'yicha taqdirlaydigan Xudo ekani haqida ogohlantiryapti» (Rimliklarga 2:6)».

Balki Pavlus shu sababdan, sinovlar payti aytgan: «Shuning uchun, podshoh Agrippa, men samoviy vahiya itoatsizlik qilmadim. Lekin avval Damashq va Yerusalim aholisiga, keyin butun Yahudiya yurtiga va majusiylarga voizlik qilib yurdim, toki ular tavba qilib va Xudoga o'girilib, tavbaga loyiq ishlarni qilsinlar» (Havoriylar 26:19, 20). Pavlus ishlarning muhimligiga urg'u bergan bo'lsa, uning hamkori Klimentning ham shunga o'xshash so'zlari lol qoldirmasligi kerak.

Aleksandriyalik Kliment (150-200) ismli insonning so'zlaridan misol keltiraman. U Aleksandriyada, Misrda jamoatlar boshqargan va yangi imonlilar uchun maktablar olib borgan. U imonsizlar haqida shunday deb yozgan: «Ular yaxshi ishlar qilishlariga qaramay, agar ular imonga ega bo'lmasalar, (imonsiz bo'lsa) bu ishlar o'limdan keyin hech qanday foyda bermaydi».

Ushbu so'zlar ham xushxabar jamoatlari tomonidan quvunch bilan qabul qilingan bo'lardi. O'tgan boblarda biz hali aytib o'tdik: imonsiz kishi qancha yaxshi ishlar qilmasin, uning ishlari Xudoning Shohligiga kirishni ta'minlay olmaydi, biz Xudoning inoyati bilan najot topganmiz. Biroq Kliment imonlilarga qarata nima deb yozganiga qarang:

«Har bir haqiqatni tanib-bilgan, ezgu ishlar qilgan kishi abadiy hayotni mukofot qilib oladi... Ayrimlar, Xudo (najot uchun) kuch beradi deb, to'g'ri tushunadi, lekin najotga eltadigan ishlarga katta ahamiyat bermaydi, shuning uchun ular umid qilgan narsaga erishishda muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar».

Ba'zilaringiz o'ylashingiz mumkin: «Menimcha bu yigitlar Yangi Ahdni umuman o'qimaganga o'xshaydi». O'qigan. Josh Makdauell o'zining «Iqrorlikni talab etadigan isbot» kitobida Aleksandriyalik Kliment 2400 ta mulohazalarini (uchtasidan tashqari) Yangi Ahdning kitoblaridan olganini aytib o'tgan. Bu boshqa mualliflarga ham taalluqli. Men bugungi masihiy kitoblar sotiladigan do'konlardagi ko'plab kitoblarda Kalomdan juda kam foydalanilganini aytib qo'yishim shart. Biz boshqa tomonga chiqib ketganimiz sababli, haqiqatdan ham lozim bo'lgan narsani o'rgatmayotganimizdan bo'lishi mumkinmi?

Bizning chala-yarim Xushxabarimiz

Afsuski, biz faqat shunga o'xshash oyatlarni takrorlaymiz: «Shunday qilib, agar sen Isoni Rabbim deb, o'z og'zing bilan e'tirof etsang va Xudo Uni o'liklardan tiriltirganiga o'z yuraging bilan ishonsang, najot topasan» (Rimliklarga 10:9). Odamlarga bor-yo'g'i, sehrli tavba ibodatini qaytarsang kifoya, najot topasan, deymiz.

Lekin nega Iso Masihning ushbu so'zlarini aytmaymiz: «Nega sizlar Meni, yo, Rabbiy, yo, Rabbiy, deb chaqirasizlar-u, ammo aytganlarimni qilmaysizlar?» (Luqo 6:46). Biz ko'rganimizdek, «Rabbiy» so'zi Bosh Xo'jayin, Sohib ma'nolarini bildiradi. Shunday ekan, Iso Masih: «O'zlaringiz xo'jayinlar bo'lishda davom etar ekansiz, Meni Xo'jayin deb atamanglar. Unday bo'ladigan bo'lsa, yaxshisi o'zlaringni aldamaslik uchun Meni «Buyuk Payg'ambar» yoki «Ustoz» denglar» deydi.

Endi keling, ushbu muzokaramiz boshlanishiga sabab bo'lgan Iso Masihning so'zlariga yana bir bor qaraymiz: «Menga: «Yo, Rabbiy! Yo, Rabbiy!» – deganlarning har biri ham Osmon Shohligiga kirmaydi...» (Matto 7:21).

Biz hali Iso Masihni Rabbiiy deb ataganlarning hammasi ham samoga bormasligini aytib o'tdik. Bu oddiy «tavba ibodatini» qaytarish osmonga yo'lni ta'minlamasligini muqarrar tushuntiryapti. Unday bo'lsa, menda savol tug'iladi: «Unda kim Osmon Shohligaga kiradi?» Iso Masih shunday so'zlar bilan javob beradi: «Osmondagi Otamning irodasini bajaradigan kishi kiradi» (Matto 7:21).

Qiziq. Polikarpning so'zlari bilan qariyb bir xil. Iso Masihni faqat Rabbim deb tan olib emas, shuningdek tan olish va Xudoning irodasini bajarish bizni samoga olib borar ekan. Uning irodasini bajarishning yagona yo'li – shaxsiy hayotimizdan voz kechib, o'zimizni bo'ysundirish va Uni o'zimizning Xo'jayinimiz deb qabul qilish orqali, U beradigan inoyatdir. E'tirof etish oson, lekin Iso Masihning hokimiyatiga haqiqatdan ham o'zini to'liq bo'ysundirish eng qiyin qismdir.

Nega men bu haqda bunchalik tirishib gapirayotganimning sababiga quloq soling:

«O'sha kunda ko'pchilik Menga: «Yo, Rabbiiy, yo, Rabbiiy, biz Sening isming bilan bashorat qilmadikmi? Sening isming bilan jinlarni quvib chiqarmadikmi? Sening isming bilan ko'pgina mo'jizalarni yaratmadikmi?» – deyilar. Men esa ularga e'lon qilaman: «Men sizlarni hech qachon bilganim yo'q. Mening oldimdan ketinglar, ey, qonunbuzarlik qiluvchilar!» (Matto 7:22-23).

Saksoninchi yillarning oxirida Xudo menga vahiy ko'rsatdi. Men oxiri ko'rinmaydigan ulkan olomon odamni ko'rdim. Odamlarning son-sanog'i yo'q edi. Men ularning orasida Xudoni tan olmaydiganlar, gunohkorlar yoki boshqa dinlarga ergashuvchilar borligini bilar edim. Lekin ularning hammasi, aksincha masihiylikni e'tirof etar edilar. Bu kishilarning barchasi, Iso Masih ularga: «Xo'jayiningizning quvonchiga, Osmon Shohligaga kiringlar», – deyishini eshitishga ishonchi komil holda Sudga kelgan edilar. Buning o'rniga, ular quyidagi so'zlarni eshittilar: «Men sizlarni hech qachon bilganim yo'q. Mening oldimdan ketinglar, ey, qonunbuzarlik qiluvchilar!» (Matto 7:23).

Men ularning yuzlaridagi dahshatni ko'rdim. Siz ega bo'lmagan

najotga ishonchingiz komil bo'lgan vaziyatni tasavvur eta olasizmi? Siz samo meniki deb yurgan paytingiz, do'xaxning alangasiga abadiyga tashlanishingizni ko'z oldingizga keltirib ko'rolasizmi? Butun mangulik davomida siz va balki sizga voizlik qilgan kishi abadiyatga yuzaki qaragani haqidagi fikrlardan qiynalib o'tishnichi?

Iso Masihning ogohlantirishlari haqida gapirmaydigan xizmatkorning xizmatini oqlab bo'ladimi?

Siz biz nima uchun, Xudoning maktubini faqat ijobiy va foydali tomonlarini emas, balki to'liq aytishimiz shartligini tushunasizmi?

Ha, bizga barakali bo'lish yoqadi va biz bu haqda gapirishimiz hamda bunday hayotdan zavqlanishimiz lozim, ammo Kalomdagi amrlar va ogohlantirishlar haqida og'iz ochmaslik hisobiga emas!

Yodimda bor, anjumanlardan birida men bu haqiqatlar to'g'risida gapirishimning sababini aytdim: «Ertaga, Sud bo'ladigan kun, kimlarningdir qoni qo'llarimdan oqib turgan pallada, haqiqatni aytmaganim uchun ular meni ayblashini istamayman».

Voizlik tugagan zahoti oldimga o'sha jamoatning cho'poni xafa bo'lib, to'g'rirog'i hatto jahli chiqib keldi. U aytdi: «Sening biz xizmatkorlarga, Eski Ahdning ta'limotini singdirishga qanday hadding sig'di. Men Xushxabarni to'liq voizlik qilmaganim uchun, mening qo'llarimda odamlarning qoni bo'lmaydi». Unga Xudoning Kalomidagi faqat ijobiy narsalarni aytish yoqishi va qolgan narsalarni voizlik qilishdan o'zini tiyishi ko'rinib turardi.

Shunda men aytdim: «Hurmatli cho'pon, keling Pavlus Efes jamoatidagi xizmatkorlarga nima deganiga qaraymiz». Men qo'limdagi Muqaddas Kitobni ochdim va undan o'sha joyni o'qishini so'radim: «Shuning uchun bugun sizlarga guvohlik berayapmanki, men hammaning qonidan tozaman, chunki Xudoning bor irodasini sizlarga e'lon qilishdan chekinmadim» (Havoriylar 20:26, 27).

Hayratdan qotib qolgan cho'pon, menga qaraganda uning ko'zlari va og'zi katta ochiq edi. U aytdi: «Necha marta Yangi Ahdni o'qigan bo'lsam, bu narsani hech qachon ko'rmagan ekanman». Shundan so'ng, biz

do'stona suhbatlashdik. Men unga odamlarni nafaqat o'qitish, shuningdek har bir kishi Masihda yetuk bo'lishi uchun ko'maklashib, ogohlantirishimiz zarurligini ham eslatdim (Koloslilarga 1:28). Nima haqda ogohlantirish? Haqiqatdan chetga chiqmaslik, nafaqat o'zini aldaydigan, shuningdek son-sanoqsiz xudojo'y jonlarni yo'ldan ozdiradigan firibgarlar tomonidan voizlik qilinadigan maktublar tomonga uchib ketmaslik haqida.

Pavlus Havoriylar kitobi 20-bobda yozilgani bo'yicha, efesliklar bilan uzoq vaqt mobaynida birga vaqt o'tkazgan. U ularni chin qalbidan sevgan va Xudoning Ruhidan ular bilan endi yerda boshqa ko'rishmasligini bilgan. O'ylab ko'ring, o'z farzandingizdek qadrlı bo'lib qolgan odamlarga oxirgi so'zlaringizni qanchalik e'tibor bilan tanlab aytgan bo'lar edingiz. Uning xayrlashuv so'zlari:

«Shunday qilib, o'zingizga va Muqaddas Ruh sizlarni nazoratchi qilib qo'ygan butun podaga diqqat qilinglar, toki Xudo O'z qoni bilan qo'lga kiritgan Uning jamoatini boqinglar. Chunki shuni bilamanki, men ketganimdan keyin, (sizlarning) orangizga podani ayamaydigan yirtqich bo'rilar kiradilar. Sizlarning (o'zlaringizdan) orangizdan ham shogirdlarni o'zlariga ergashtirish uchun so'zni buzib gapiradigan odamlar ko'tariladilar. Shuning uchun, bedor bo'linglar. Men uch yil davomida kecha-yu kunduz tinmasdan, ko'z yoshlar bilan har biringizga ta'lim berganimni yodda saqlanglar» (Havoriylar 20:28-31, yozma so'zlar muallifnıki).

Ular qanday qilib haqiqatni buzib gapiradilar? Balki so'zlari bilandir, lekin hoynahoy ishlari bilan. E'tibor bering, Pavlus buni shu qadar kuchli sezganki, uch yil davomida kun-u kecha ularni to'xtovsiz ogohlantirgan. Yana bir karra buni doimo tasdiqlashimiz va bular haqda gapirishimiz shartligini ko'ryapmiz.

Sevgi va adolat Xudosi

Hikoyamizni o'qib, Aldangan boshidan kechirgan shok va jon talvasasini tasavvur eta oldingiz. Siz Loundagi qamoqxonaning holatini his etdingiz. 130 yil zulmatda va havosi badbo'y qafasda, chidab bo'lmas issiqda vaqt

o'tkazish haqidagi fikrdan etlaringiz jimirlab ketdi. Agar biz odamlarga Xudoning barcha nasihatlarini yetkazmasak, son-sanoqsiz ayol va erkaklar bundan-da kuchliroq azoblargacha duch keladilar.

Siz Jeylin sevuvi va adolatli bo'lganini unutmangandirsiz. Uning sudida sevgi shu tarzda namoyon bo'ldiki, u Dagonning xulq-atvoriga va tabiatiga ega bo'lgan birorta ham kishini Affabelga kirishiga yo'l qo'ymadi. Mabodo u bunga yo'l qo'yganda, shaharga va uning aholisiga zarar yetkazgan bo'lardi. Sevgi aybsizlarni himoya qildi.

Shu bilan bir qatorda, uning adolatliligi Dagonning fe'lidagi odamlarga o'z itoatsizligi uchun Dagondan ko'ra yengilroq jazo olishiga imkon bermaslikka majburladi. Xuddi shunday Xudoning sevgisi biror bir shaytonning tabiatidagi kishiga Uning mangu shahriga kirishiga yo'l qo'ymaydi. U shayton va uning izdoshlarini olovli ko'l bilan jazolab, uning ta'siri ostidagilarni bu jazodan mustasno qilsa, U adolatsizlik qilgan bo'lardi. Shaytonning tabiatiga ega bo'lganlarning barchasi u bilan bir qatorda abadiy jazoni oladilar. Xudo bir vaqtning o'zida ham sevuvi, ham adolatli va shunday bo'lib qoladi hamda Uning sharafi butun yer-yuziga ma'lum bo'ladi.

❧ MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR ❧

2-BO'LIM: 4, 5-BOBLAR

1. Ushbu bo'limni o'qishdan oldin, siz abadiy sud ta'limoti masihiy uchun asosiy ta'limot deb hisoblaganmisiz?
2. Ko'pchilik masihiylar boshqalarga do'zaxning haqiqatda qandayligi haqida aytmaydilar, chunki ular haqda salbiy munosabat va ayblovga to'la deb o'ylashidan qo'rqadilar. Lekin aslida bu narsalar to'g'risida aytish – achinish hissini ko'rsatishini bildiradi. Imonlilar (alohida imonli yoki jamoat sifatida) bu savolni qanday qilib sevgi bilan o'rta ko'tara olishi mumkin?
3. Siz imon va hosillarning (ishlarning) o'rtasidagi bog'liqlikni qanday tushuntirgan bo'lardingiz? Agar najot – bu sovg'a bo'lsa, unda nega bizning ishlarimiz imonimizga mos?
4. Beshinchi bobda Iso Masihning ortidan ergashish qarori insonning hayotiga qanday ta'sir qilishi masalasini chetlab o'tib, ko'pincha Xushxabardagi va'dalarni voizlik qilishga moyil ekanimizni muhokama qildik. Nega shunchaki ruhiy yordam olib yashash va bizdan hayot tarzimizni o'zgartirishni talab qilmaydigan hayotdan ko'ra, Masihning hokimiyatiga bo'ysunib yashash hayoti farovonliroq?
5. Najot, sud va hayotimizning abadiyatga ta'siri to'g'risida bilib olganlarinigizning barchasi haqida o'ylab ko'ring. Beshinchi bobni o'qib chiqqach, inoyatning tabiati haqidagi tasavvuringiz qay tarzda o'zgardi?



3 - B0'LIM



BUYUK CHEKINISH

Oxirigacha chidagan esa najot topadi.

— Matto 24:13

Endi biz Jur'atsiz va Qo'sh Hayotning voqeasi ochiladigan haqiqatga yetib keldik. Ular qanchadir vaqt Jeylning ortidan bordilar, lekin Jur'atsiz to'g'ri niyatlarini yo'qotdi, Qo'sh Hayot esa oxir oqibat yo'lidan qaytdi. Ularning xotimasi fojiali bo'ldi.

«Biz ishonadigan narsani o'qish» yoki «o'qiganimizga ishonish»

Ushbu bobda muhokama etadigan haqiqat ayrim xushxabar jamoatlari orasida munozarali masala ekanining guvohi bo'ldim. Ammo Kalomni sinchiklab o'rganish natijasida bahslar barham topadi. Shunday qilib, Muqaddas Kalom Jur'atsiz va Qo'sh Hayot kabi kishilar haqida nima deganini o'rganishni boshlashdan avval, sizdan ochiq yurak va ong bilan o'qishni so'rab qolaman.

Xudoning irodasini tanib-bilishning juda katta to'sig'i Kalomni quyidagi tarzda o'qishdir: odamlar o'qiydigan narsasiga ishonishning o'rniga, ishonadigan narsasini o'qiydilar. Biz haqiqatni xira oyna orqali tanlaganimizda, ishonadigan narsalarimizni o'qiydilar. Bunday xiralik boshqalardan bizning yo'nalishimiz ta'limoti yoki Xudoning Kimligi va Uning yo'llari qandayligi haqidagi shaxsiy tasavvurimizdan orttirilgan noaniq bilimdan kelib chiqadi, bu o'ta xavfli, negaki bu bizni yanglishishga olib borishi mumkin. Ayub kitobidan buning misolini topamiz.

Yaqinda, Muqaddas Kitobni o'qishga chog'lanib, uni ochishga ulgurmay, Muqaddas Ruh, menga shunday deganini eshitdim: «Ayub kitobini och va o'ttiz ikkinchi bobdan boshlab o'qi». Men shu zahoti kitobni ochdim va u joyda Eliuyning nutqi boshlanganini ko'rdim.

Voqea nimadan boshlanganini bir oz tanishtirib o'taman. Ayub og'riq va yo'qotishlardan kechirgan fojidan so'ng, uning Xudo yo'llarini tushunish qobiliyati jadal tarzda yomonlashib borardi. Endi u Xudoning donoligini izlashning o'rniga, Unga o'z kechinmalari orqali qarardi (Ayub 1:2-8 ga qarang). Vaqt o'tgan sayin uning mulohazalari o'z-o'zini oqlash tomonga siljib ketdi. Ayubning o'tgan boblarda gapirgan uchta do'sti mustaqil-xudoshunoslar bo'lib, ular yanglishar va Ayubning kulfatini izohlashga urinishar edi. Bu holat vaziyatni faqat yomonlashtirardi. Ayubning beqaror mulohazalari noto'g'ri ekanini isbotlashga qurbi yetmay, uni nuqul ayblardilar.

Eng yoshi Eliuy Ayub va uning uchta do'sti Xudoning donoligi aytib bo'lishini uzoq tingladi, ular nihoyat gapini tugatgach, u dedi: «Mana, men sizlarning so'zlaringizni kutdim, sizlar nima deyishni o'ylayotganlaringizda, sizlarning fikrlaringizga quloq soldim. Men sizlarga diqqat qildim, mana, sizlarning hech biringiz Ayubni fosh qila olmadingiz va uning so'zlariga javob bera olmadingiz. Albatta sizlar: «Biz donolikni topdik: uni odam emas, Xudo qulatadi», – deyishingiz mumkin» (Ayub 32:11-13).

Eliuy ularning uchchallasini ham fosh qilishga o'tdi: «U sening fikrlaring bo'yicha qarimta berishi lozimmi? Sen rad etar ekansan, buni sen tanlashing kerak, men emas; shuning uchun bilganingni so'zlagin» (Ayub 34:33). Oh, u bugungi kunda ko'plar yo'l qo'yadigan xato haqida qanchalik to'g'ri aytdi. Bu jamoatdagi noto'g'ri ta'limotning asosiy ildizlaridan biri, biz Xudoning Kalomi haqiqatni o'rnatishiga imkon berishning o'rniga, o'zimizning kechinmalarimiz va tajribamiz orqali Kalomni izohlaymiz!

Eliuy insoniy mulohaza bilan yoki Xudo Kimligi haqidagi xato fikr, vaziyat va hodisalar ta'sirida shakllangan ta'limotiga asoslanib gapirmadi. U haqiqatni buzmay, sof Xudoning Kalomini voizlik qildi. Uning nutqi yakunida shu so'zlarni o'qiymiz:

«So'ng Rabbiiy Ayubga bo'ron orasidan javob berib dedi: «Kim bu rejada bo'lgan ishni bema'ni so'zlar bilan tundlashtirayotgan? Endi, belingni erkakdek bog'lagin: Men sendan so'rayman, sen esa javob bergin» (Ayub 38:1-3).

Kengaytirilgan tarjimadan bu joy shu tarzda yozilgan: «Kim bu bilimsiz so'zlar bilan donolikni tundlashtirayotgan?» Biz Xudoning Kalomini o'zimizning tajribamiz, boshqalarning fikrlari va xato o'ylarimiz orqali saralaganimizda, aynan mana shu narsa sodir bo'ladi. Biz ta'sir o'tkazayotgan odamlar uchun Uning donoligini erishib bo'lmaydigan qilib, uni xiralashtiramiz. Aslida biz donolikni o'rganishni istaydigan kishilardan uni yashiramiz. Mana nima uchun Xudo Ayubga va uning do'stlariga nisbatan shu qadar achchiqlandi, bugun ham odamlar Uning yo'llarini buzib o'rgatganda, achchiqlanadi. Biz odamlarga haqiqatni bilishga yo'l qo'ymaymiz! So'ngra, to'rt bob davomida Rabbiiy Ayubga O'zining so'zini ochdi. U tugatganida, Ayub qayg'u chekib dedi:

«Men bilaman, Sen hamma narsa qila olasan va Sening niyatingni to'xtatishning imkoni yo'q. «Hech narsani anglamasdan rejada bo'lgan ishni tundlashtirayotgan kim bu?» Men o'zim tushunmagan va bilmagan, men uchun g'aroyib bo'lgan narsalar haqida gapirgan ekanman. O'tinaman, menga quloq solgin va men so'zlayman; men Sendan nimani so'rasam, menga tushuntirgin. Men Sen haqingda qulog'imga chalinganlarini eshitgan edim, endi esa mening ko'zlarim Seni ko'rmoqda. Shuning uchun men o'zimni rad etaman va tuproqda hamda kulda tavba qilaman» (Ayub 42:2-6).

E'tibor bering, Ayub aytgan: «Avvallari men faqat boshqalar aytgan narsalarni bilar edim, endi esa Seni o'z ko'zlarim bilan ko'rdim». Bu so'zlarda buyuk haqiqat mujassam. Kalomda U haqida faqat eshitganda emas, balki Unga qaraganda sharaftan sharaftga o'zgarib borishimiz ta'kidlangan (2-Korinfliklarga 3:18). Iso Masih Xudoning tirik So'zi va Uni bilish hamda Uning yo'llarini anglash, Uni ko'rishni bildiradi.

Mana, insonga ochilgan haqiqat nimani ko'rishga imkon beradi. Biz Xudoning So'zini eshitamiz, lekin ma'rifatga ega bo'lmagunimizcha,

o'zgarish sodir bo'lmaydi. Yuragimizga Xudoning So'zini tushunish kelganida: «Men ko'ryapman, ko'ryapman», deb hayqiramiz. Bunday paytlarda, Uning timsoliga yaqinlashib, vahiy olamiz va o'zgaramiz.

Ushbu ruhiy omil Pavlusni ibodat qilishga ruhlantiradi: «Sizlar uchun Xudoga tinimsiz minnatdorchiliklar bildirib, sizlarni ibodatlarimda eslayman, toki Rabbimiz Iso Masihning Xudosi, shuhratning Otasi, Uni tanib-bilishingiz uchun sizlarga donoligu vahiy Ruhini bersin va fahmlashingizning ko'zlarini yoritsin...» (Efesliklarga 1:16-18). Endi Ayub u bilan sodir bo'lgan fojidan oldin taqvodor hayot kechirgan bo'lishiga qaramay, har qachongidan ham ma'rifatliroq edi. Endi u Xudoni yanada yuqori darajada tanib-bildi.

Xudo Ayubga gapirib bo'lgach, uning do'stlaridan biri Elifazga shunday so'zlar bilan yuzlandi: «Mening g'azabim senga va sening ikkala do'stingga qarshi alangalanmoqda, chunki sizlar Mening qulim Ayub kabi Men haqimda to'g'ri gapirmadingizlar» (Ayub 42:7).

Rabbiy U yoki Uning yo'llari haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lishimizga jiddiy munosabat bildiradi. Bu Uning donoligini tundlashtiradi va adolatini buzib ko'rsatadi. Shu bois Kalomdagi bor donolik bilan tasdiqlanmagan ta'limotlarni voizlik qiladigan odamlarga juda hayron qolaman. Oh, qanchalik qo'rqinchli! Agar biz haqiqatga o'rgatilgan bo'lishni va u bizni tuzatishini istamasak, qanday qilib uni bilishimiz mumkin?

Ayub kitobini o'qishni yakunlaganimdan so'ng, Rabbiy ko'p savollarimga javob bo'lgan yana bir narsani aytdi. U: «O'g'lim, Ayub va uning do'stlari Men haqimda noto'g'ri narsalarni gapirganida jim turganimni sezdingmi? Men kimdir to haqiqatni gapirishni boshlamagunicha, O'z huzurimni namoyon qilmay turaverdim!» – dedi.

Xudoning yuragimda aytilgan so'zlaridan lol qolib, ular ustida fikr yuritishni boshladim. Keyin yana Uning gapini eshitdim: «Shu sababdan ko'pchilik odamlar, jamoatlar va butun yo'nalishlar ularning hayotini o'zgartiradigan Mening huzurimni his etmaydilar. Ular Mening sof so'zimni emas, balki Ayubning so'zlaridan hech farq qilmaydigan o'zlarining saralangan izoh va mulohazalaridan aytadilar. Ular Mening donoligimni be'mani so'zlari bilan loyqalatadilar».

Agar biz Xudoning haqqoniy huzurini va Uning kuchini his etishni istasak, haqiqatni buzmagani holda izlashimiz zarur. Shuning uchun Xudoning hukmiga nisbatan, Kalomni o'rganishda davom etib, Xudo haqidagi xato fikrlarga, noto'g'ri ta'limotlarga, shaxsiy tajribaga yoki vaziyatlarga tayanib, U aniq yozib qo'ygan narsalarni buzishga yo'l qo'ymang. Buning o'rniga, Uning yo'llarida ma'rifatli bo'lish uchun, Uni ochiq turgan Kalomdan izlang.

Barakalarning izidan quvib

Keling, Qo'sh Hayotning taqdiriga yana qaytamiz va o'tgan bobda keltirilgan Iso Masihning so'zlaridan boshlaymiz:

«O'sha kunda ko'pchilik Menga: «Yo, Rabbiy, yo, Rabbiy, biz Sening isming bilan bashorat qilmadikmi? Sening isming bilan jinlarni quvib chiqarmadikmi? Sening isming bilan ko'pgina mo'jizalarni yaratmadikmi?» – deydilar. Men esa ularga e'lon qilaman: «Men sizlarni hech qachon bilganim yo'q. Mening oldimdan ketinglar, ey, qonunbuzarlik qiluvchilar!» (Matto 7:22, 23).

Yunon tilida «qonunbuzarlik» so'zi (anomiya) Xudoning qonuniga (yoki irodasiga) qarshi harakat qilishni bildiradi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, bu Xudoning hokimiyatiga bo'ysunmaslikdir.

Iso Masih qonunbuzarlik so'zidan oldin, qiluvchilar (hayot tarziga aylantirganlar) so'zini ishlatyapti, bu bilan u gap gunohdan qutilish yo'lida kurashayotgan va o'z itoatsizligidan nafratlanadigan yangi imonlilar haqida yoki har zamonda qoqilib turadiganlar haqida emasligini ko'rsatgan. Aksincha, bu yerda Xudoning xohishlariga zid ravishda yashaydigan, ularni mensimaydigan va bunday yashashni oqlaydigan inson haqida aytilgan. Iso Masihning ushbu so'zlari adashgan Aldangan yoki sadoqatsiz Qo'sh Hayot kabilarga tegishli. Iso Masih shunga o'xshash bir dunyo odamlarga murojaat etib, ularning jonlariga butun manguilik davomida la'natga aylanadigan hukmni e'lon qiladi. Rabbiyning tanbehlariga mensimaslik qilmaslik va ularga yuzaki qaramaslik o'ta muhim.

Keling, Kalomdagi ushbu matnda Iso Masih kimga murojaat etganini

diqqat bilan o'rganamiz. Xudoning Shohligiga qabul qilinmaydigan odamlarning bir qismi, Iso Masih nomi bilan jinlarni quvganlar. Ular kimlar? O'sha ayol va erkaklar jinlarni quvishda Iso Masihning nomidan foydalangan, lekin ularni Rabbiiy Iso bilan boshqa hech qanday muloqotga ega bo'lmagan deyish mumkinmi? Bu savolga javob topish uchun biz Havoriylar kitobiga murojaat etamiz.

«Sayyoh yahudiy azayimxonlardan ba'zilari yovuz ruhlarga chalinganlarning ustidan Rabbiiy Isoning nomidan foydalanib: «Pavlus voizlik qilayotgan Iso nomi bilan sizlarga buyuramiz», – der edilar. Yahudiy oliy ruhoniylar Skevaning yetti o'g'li shunday qilar edilar. Ammo yovuz ruh ularga javoban: «Isoni bilaman, Pavlus ham menga ma'lum, ammo sizlar kimsizlar?» – dedi. Shunda yovuz ruhga chalingan odam ularga tashlandi-da, ularning ustidan zo'r kelib, shunday kuch ko'rsatdiki, ular u uydan yalang'och va yarador holda chiqib qochdilar» (Havoriylar 19:13-16).

Bunday ekzorsistlarning Iso Masih nomi bilan jinlarni quvishga qurbi yetmasdi! Mana haqiqat qayerda: jinlarni quvish uchun faqat ismdan foydalanish kamlik qiladi. Bundan tashqari, bu ismning Egasi bilan munosabatga ega bo'lish kerak. Inson Iso Masihning izdoshi va xizmatkori bo'lishi lozim.

Endi siz o'ylarsiz: «Lekin Iso Masih ularga, Men sizlarni hech qachon bilmaganman degan bo'lsa, unda ular qanday qilib Uning nomi bilan jinlarni quvishi va mo'jizalar yaratishi mumkin? Buning imkoni yo'q-ku?»

Shaxsiy manfaatini ko'zlab, Iso Masihni faqat najot uchun qabul qilgan odamlar ko'p. Ular Xudoning kuchi va barakalarining payidan bo'lib, Uning yuragini hech qachon tanib-bilmagan. Pavlus bunday odamlardan ehtiyot bo'lishni aytgan – «xudojo'ylik go'yoki daromad orttirish uchundir deb o'ylaydigan, haqiqatdan yiroq va ongi buzuq bo'lgan odamlarning orasida bahslarni paydo qiladi. Bunday odamlardan uzoqlashgin» (1-Timotiy 6:5).

Ular Iso Masihni o'z manfaati uchun izlagan, shuning uchun ularning xizmati sevgi bilan emas, naf ko'rish istagi bilan yo'nalgan. Biz o'qiganimizdek, Iso Masih ularni tanimaydi: «Kim Xudoni sevsa, U bunday kishini biladi» (1-Korinfliklarga 8:3).

Xudo bunday kishini biladi. Biladi soʻzi shunchaki birortani tanishni bildirmaydi, chunki Xudo barcha haqida hamma narsani biladi, U hamma narsani biluvchi! Biroq bu soʻz yaqinlik maʼnosida ishlatilgan. Muqaddas Kitobning Kengaytirilgan tarjimasida aytilgan: «Agar kim Xudoni chin yurakdan sevsa (muloyim eʼzozlasa, itoatkorlikka shoshilsa va Uning marhamatlarini fahmlab, minnatdor boʻlsa), bunday kishini Xudo biladi (U bilan yaqinligini va oʻrtasidagi sevgini tan oladi hamda u Xudoga tegishli boʻladi)».

Iso Masih Hukm kunida olomonga aytadi: «Men sizlarni hech qachon bilmaganman». Shunday qilib, (darrov itoat qilmasligi, muloyim eʼzoz va minnatdorlik yoʻqligi tufayli, koʻrinib turadigan) Xudoni sevmaydiganlar – Undan najot kutganiga qaramay, Ota yoki Iso Masih bilan yaqin munosabatdagilar deb topilmaydi. Iso Masihni sevishtirish – Unga bor hayotimizni bagʻshida etishni bildiradi. Sen endi oʻzing uchun emas, U uchun yashaysan.

Yahudo bunga misol boʻla oladi. U hayotini Iso Masih bilan bogʻladi. Hammasi xuddi u Isoni sevishtirishni koʻrsatardi, buning isboti, Uning ortidan borishdek buyuk qurbonlikka borgani boʻldi. Yahudo hamma narsani qoldirdi, xizmat jamoasiga qoʻshildi va Rabbiy bilan bitta yoʻldan bordi. Hatto quvgʻin paytida, jamoaning boshqa aʼzolari Uni tashlab ketganida, Yahudo U bilan birga qoldi (Yuhanno 6:66 ga qarang). U jinlarni quvib chiqardi, kasallarni shifoladi va Xushxabarni voizlik qildi (Luqo 9:1 ga qarang).

Biroq boshidanoq Yahudoning niyatlari buzuq edi. U hech qachon, uni boshqargan xudbin xohishlari uchun tavba qilmadi. Uning kimligi ushbu soʻzlarda maʼlum boʻldi: «Menga nima berasizlar, men...» (Matto 26:15). U oʻz manfaati yoʻlida yolgʻon gapirgan va ayyorlik qilgan (Matto 26:25 ga qarang), Iso Masihning gʻaznasidan shaxsiy harajatlari uchun pul oʻgʻirlagan (Yuhanno 12:4-6). Bu roʻyxatni yana uzoq davom ettirish mumkin edi. Yahudo Rabbiyning huzurida uch yarim yil birga vaqt oʻtkazgan boʻlishiga qaramay, Uni hech qachon yaqindan bilmagan. Binobarin, Iso u haqda aytgan: «Iso ularga javoban: – Men sizlarni, oʻn ikki kishini tanlagan emasmanmi? Ammo sizlardan biringiz shayton, – dedi. U buni Shimonning oʻgʻli Yahudo Iskariot haqida aytdi, chunki u oʻn ikki

shogirdidan biri bo'lib, Unga xiyonat qilmoqchi edi» (Yuhanno 6:70-71).

Xizmat haqqi buyuk qurbonliklarga boradigan, odamlarni yovuz ruhlarning ta'siridan ozod qiladigan, kasallarni shifolaydigan, Xushxabarni aytadigan, Isoga najot uchun ishonadigan, Yahudoga o'xshash odamlar ko'p, biroq bunday odamlar Isoni yaqindan bilmaydilar, shuning uchun ularning ishlari Xudoga bo'lgan sevgi bilan emas, o'z foydasini ko'zlash bilan yo'naltirilgan. Bu ta'rif hikoyamizdagi Qo'sh Hayotga a'lo darajada mos keladi. U ega bo'lgan mavqe va kuchini sevgani uchun Jeylinning ortidan borgan. Boshidanoq, Jeylinni sevgani uchun xizmat qilmagan.

Bunday odamlarni hukm va jazo kutyapti. Yahudo haqida Iso aytgan: «O'sha odam uchun uning tug'ilmagani yaxshiroq bo'lar edi» (Matto 26:24). U diniy boshqaruvchilar, Xudoga shaxsiy manfaati va Xudo nomi bilan odamlarning ko'zida e'tibor qozonish uchun xizmat qiladiganlarga murojaat etyapti: «Ey, ulamolaru farziylar, ikkiyuzlamachilar, sizlarning holingizga voy! Chunki sizlar bevalarning uylarini yeb bitiryapsizlar va ikkiyuzlamachilik bilan uzoq ibodat qilyapsizlar. Shuning uchun mahkumligingiz og'irroq bo'ladi» (Matto 23:14). Bu ayol va erkaklar Qo'sh Hayotga o'xshab, do'zaxning eng zulmat va qiynoqli joyiga boradilar.

Najotni yo'qotish

Yuqorida aytilganlarning barchasi ajoyib tarzda Qo'sh Hayotning siymosiga mos keladi. Jur'atsiz haqida nima deymiz? U chindan ham Jeylin bilan muloqotga ega edi, lekin nega oxirigacha bora olmadi? Kalom bu haqda nima deydi? Keling, buni Ezekil payg'ambar kitobidan o'rganib ko'ramiz:

«Agar haq kishi, o'z haqligidan qaytib, betavfiqlik qilsa va betavfiq odam qiladigan barcha jirkanchliklarni qilsa, u yashaydimi? U qilgan uning barcha haq ishlari yodga olinmaydi. U o'zining qilayotgan xoinligi uchun va o'zining qilayotgan gunohlari uchun o'ladi» (Ezekil 18:24).

Bu oyatdagi birlamchi va eng muhim narsa: Xudo, haq kishi bo'lmay turib, o'zi to'g'risida shunday deb o'ylaydigan emas, balki chindan ham haq kishi bo'lgan odam haqida aytgan. Shubhasiz, bu inson yuqorida aytganimizdek, yanglishgan yoki yolg'onchilar turiga kirmaydi.

Xudo haq ishlari yodga olinmaydi deb aytgan. U xuddi hech qachon bo'lmagandek, uni unutib yuboradi. Xudo bizning gunohlarimizni unutib yuboradi deganimizda, U sharq g'arbdan qanchalik uzoqda bo'lsa, ularni ham shu tarzda, unutilish dengiziga uloqtiradi. U shunday deb ta'kidlagan: «Chunki Men ularning nohaqliklariga nisbatan rahm-shafqatli bo'laman va ularning gunohlariyu qonunbuzarliklarini boshqa esga olmayman» (Ibroniylarga 8:12). Biz Isoni Rabbim deb qabul qilganimizda, Xudo bizning gunohlarimizni unutib yuboradi. Shayton bizni aldashga urinadi, ammo Xudo ularni boshqa esga olmayman deydi.

U bizga hech qachon gunoh qilmagan odamdek qaraydi. Nima ham derdik, buning aksi ham xuddi shu qoida bo'yicha qurilgan. Agar Xudo insonning haq ishlarini yodga olmayman desa, U qachonlardir uni bilganini unutib yuboradi, chunki o'rtadagi gunoh hamma munosabatlarni barbod qiladi.

Keling, o'z najotidan tez-tez uzoqlashib turadigan imonli haqida Kalom nima deyishini ko'rib chiqamiz. Havoriy Yoqub yozgan:

«Birodarlarim! Agar sizlardan biror kishi haqiqatdan uzoqlashib ketsa va uni kimdir yana to'g'ri yo'lga qaytarsa, bilsinki, gunohkorni soxta yo'ldan qaytargan kishi uning jonini o'limdan qutqargan va ko'p gunohlarini qoplagan bo'ladi. Omin» (Yoqub 5:19, 20).

Avvalo, ushbu so'zga e'tibor berish zarur: «Birodarlar! Agar sizlardan biror kishi...» Yoqub shunchaki o'zini nomiga masihiy deb hisoblaydiganlar haqida gapirmayapti. U haqiqatdan uzoqlashgan imonlilar haqida aytyapti. Kalomning ushbu matnida bunday birodar gunohkor deb atalgan. Bu endi u najotini yo'qotganini bildirmaydi, balki u hamisha gunohda yashayotgani va itoatkorlikka qaytishi kerakligini bildiradi. Yoqub to'g'ridan-to'g'ri ogohlantiryapti: agar u noto'g'ri yo'ldan borishda davom etsa va Xudoga (tavba bilan) qaytmasa, joni batamom o'ladi (jonini yo'qotadi). Hikmatlar kitobida buning tasdig'i bor: «Aql-idrok yo'lidan ozgan odam o'liklar yig'inidan joy oladi» (Hikmatlar 21:16).

Hikmatlar Xudoning yo'lidan ozgan va haqlikka qaytishni istamaydigan

kishining oxiri – o'liklar diyorida, ya'ni do'zaxdan, so'ngra olovli ko'ldan joy oladi, deb Yoqubning so'zlarini tasdiqlaydi.

Hayot Kitobi

Yangi Ahdda Hayot Kitobi sakkiz marta tilga olingan. Pavlus va Yuhanno bizga bu kitobda ismi yozilganlarning hammasi abadiylikni Iso Masih bilan o'tkazishini ko'rsatgan. Samodan qayta tug'ilgan chog'imiz, bizning ismlarimiz unga yozib qo'yiladi.

To'rtinchi bobdagi Efrosiniyaning guvohligini eslang. Yosh qiz hayotini Isoga bag'ishlaganida, Ota Xudo uning ismini Hayot Kitobiga yozib qo'ydi va dedi: «Oilamizga marhamat!» Pavlus birordarlardan biriga yozgan: «Sendan ham, samimiy hamkorim, so'rayman: u ayollarga yordam ber. Chunki ular men va Kliment bilan, shuningdek, ismlari hayot kitobida yozilgan boshqa hamkorlarim bilan birga Xushxabarni yoyishda kurashgan edilar» (Filippiliklarga 4:3).

Buning boshqa tomoni ham bor: kim Hayot Kitobida yozilmagan bo'lsa, jonlarini yo'qotadilar. Quloq soling, Vahiy kitobida nima deyilgan: «Kimki hayot kitobida yozilmagan bo'lsa olovli ko'lga tashlandi» (Vahiy 20:15).

Yuhanno buni yanada ma'nodor tarzda ta'riflab, Xudoning mangu shahriga «Faqatgina Qo'zining hayot kitobida yozilganlar kiradilar» (Vahiy 21:27), deydi; qolganlar o'liklar diyoriga boradi.

Iso Vahiyda (3-bob) shaharga, yo'qolgan odamlar guruhiga yoki butparastlarga murojaat etmayapti. Yo'q, U chindan ham Unga tegishli bo'lganlarni ogohlantiryapti: «G'olib keladigan oq kiyimlarga burkanadi, uning ismini hayot kitobidan o'chirmayman. Men uning ismini Otam va Uning farishtalari oldida e'tirof etaman» (Vahiy 3:5). Uning so'zlari Kengaytirilgan tarjimada shunday deb yozilgan: «Uning ismini Hayot Kitobidan o'chirib tashlamayman va yo'q qilmayman».

O'chirish so'ziga e'tibor berdingizmi? Ismni Hayot Kitobidan o'chirish uchun avval unga yozish kerak. Faqat Iso Masihga bo'lgan imoni orqali, chinakamiga osmondan qayta tug'ilgan kishilarning ismi u joyda yoziladi. Hech qachon chin dildan Isoni Rabbim deb qabul qilmagan imonsizlarning,

hatto aldangan kishilarning ismlari yozilmaydi, binobarin, ularni o'chirib ham bo'lmaydi. Gap «oila a'zolari» haqida boryapti.

Hushga keltiradigan ochiqlik

Yigirmanchi asrda Xudoga qariyb yetmish yil sodiq bo'lib xizmat qilgan bir xizmatkor yashagan. Uning Masih Tanasiga ko'rsatgan ta'siri mahobatli bo'lib, uning bosib chiqarilgan kitoblari soni 65 millionta, u tashkillashtirgan Muqaddas Kitobni o'rganish maktablarini 20 000 ta talaba bitirgan.

U bu haqda kitoblarining birida yozgan. 1952-yil unga Kalomdan vahiy berib, Iso namoyon bo'lgan. Rabbiiy vahiyda unga tanish bo'lgan bir cho'ponning xotinini ko'rsatgan. O'sha ayol, bundan sal oldin uning qobiliyatlari va chiroyi xizmat yo'lida behuda sarflangani haqidagi yolg'onga ishongan ekan. Vaqt o'tishi bilan u dunyoda erisha olishi mumkin bo'lgan sharaf, mashhurlik va boylik haqidagi fikrlarga berila boshlagan. Nihoyat, u vasvasaga chiday olmay, eridan ajralib, o'zi orzu qilgan baxtni izlab ketgan.

Rabbiiy bu xizmatkorga qat'iy tarzda: «Bu ayol mening qizim edi», deb aytgan, so'ng u ayol uchun boshqa ibodat qilmaslikni buyurgan. Keyingi aytilgan so'zlar to'g'ridan-to'g'ri uning kitobidan olingan:

«Rabbiiy, u bilan nima bo'ladi endi?» – deb so'radim.

«U abadiy yig'i va tish g'ichirlashi bo'lgan joyda manguqlikni o'tkazadi», – deb javob berdi U. Men vahiyda, uning do'zax qa'riga ravona bo'layotganini ko'rdim. Uning dahshatli faryodini eshitdim.

«Bu ayol Sening farzanding edi, Rabbiiy. U Sening Ruhing bilan to'lgan va xizmatlarda ishtirok etgan edi. Shunga qaramay, Sen u uchun ibodat qilma, deyapsan. Men buni tushuna olmayapman!»

Rabbiiy menga quyidagi oyatlarni eslatdi: «Agar kim o'z birodarini o'limga sabab bo'lmagan gunoh qilib yurganini ko'rsa, u uchun ibodat qilsin.

Shunday qilib, agar birodarining gunohi o'limga sabab bo'lmasa, Xudo unga hayot beradi. O'limga olib boradigan gunoh ham bor. Bunday gunoh uchun ibodat qiling, deb aytmayapman» (1-Yuhanno 5:16).

Men aytdim: «Rabbiiy, men doimo bu joyda jismoniy o'lim haqida gap ketyapti, inson gunoh qilganiga qaramay, najotini yo'qotmaydi

deb o'ylardim. Bu joyda jismoniy o'lim haqida yozilmagan, – Rabbiy aniqlik kiritdi. – Sen buni o'zingdan qo'shgansan. Agar beshinchi bobni diqqat bilan o'qib chiqsang, u joyda ruhiy hayot va ruhiy o'lim haqida yozilganini ko'rasan, dedi. Bu yerda o'limga olib boradigan gunoh qilgan imonlining ruhiy o'limi haqida aytilgan, shu bois Men senga o'sha ayol uchun ibodat qilma deb aytdim. Men senga bu ayol uchun ibodat qilma dedim, chunki u o'limga olib boradigan gunoh qildi».

«Rabbiy, bu mening ta'limotimni butkul barbod qiladi. Menga buni yanada chuqurroq tushuntira olasanmi?» – deb so'radim. (Ba'zida, agar bizning ta'limotimiz Xudoning Kalomiga zid bo'lsa, undan voz kechish kerak bo'ladi).

Iso Masih menga Kalomdan quyidagi oyatlarni eslatdi: Ibroniylarga 6:4-6.

«Zero bir marta yoritilgan, samoviy in'omni tatib ko'rgan, Muqaddas Ruhga daxldor bo'lgan, Xudoning ezgu so'zini hamda kelajak olamning qudratlarini tatib ko'rgan va bundan keyin imondan qaytganlarni tavba orqali yana yangilashning imkoni yo'qdir. Chunki bundaylar Xudoning O'g'lini o'zlarida yana xochga mixlab, Uni masxara qiladilar».

Keltirilgan matnda e'tiborimizni qaratishimiz zarur bo'lgan, ayrim narsalarga ta'rif berilgan. Birinchidan, inson samoviy in'omni totdi va undan yeb ko'rdi. Bu Iso Masihni qabul qilganlarga qaratilgan, chunki Uning O'zi Samoviy in'om hisoblanadi. Ikkinchidan, u Muqaddas Ruhga daxldor bo'lgan. Bu Ruhning in'omlarini, Xudoning moylanishini va hokazolarni o'z ichiga oladi. Ushbu matndan, bu yerda samodan tug'ilgan masihiy hamda yetuk imonli haqida so'z borayotganini ko'ramiz.

Bu haqda o'qiganlardan bir nechta kishi oldimga ko'z yoshlari bilan kelib, ular bir kuni Rabbiyga, Unga xizmat qilishni xohlamayman deb aytgani haqida so'zlab berdilar. Keyinchalik ular o'z gunohlariga pushaymon bo'lib, tavba qilgan ekanlar. Ular Kalomdagi mana shu va yana boshqa oyatlarni o'qib, o'ta darajada qo'rqib ketgan. Lekin go'daklar ba'zida bilimsizligi tufayli ahmoqliklar qilib qo'yishadi va Rabbiy buni biladi. Ibroniylarga maktubning muallifi Masihdagi go'daklar emas, lekin yetuk imonlilar haqida yozgan.

Bu xavotirga to'lgan qalblarga xizmat qila turib, ular o'limga olib boradigan gunoh qilganida edi (Kalomda yozilgani bo'yicha), ularda Iso bilan yaqin munosabatlarni yangilash xohishi uyg'onmagan bo'lardi, deb

aytdim. Unga chanqoqligining va yaxshi hosil keltirib, chin dildan tavba qilganining o'zi, Muqaddas Ruh ularni muloqotga chorlayotganidan darak beradi. Agar ular ham Xeygin birodarimizning ko'rgan vahiyidagi ayoldek, abadiyga ketganida, ular Iso bilan yaqin munosabatlar qurish va muqaddas yashashni qayta xohlamagan bo'lardilar.

Birodar ko'rgan vahiyda, Iso o'sha ayol Xudoning haqqoniy qizi bo'lganini aytgan. Bu guvohlikni yozgan xizmatkorning yoshligi ko'pchilik odamlar najotni yo'qotib qo'yish mumkinligiga ishonmaydigan va abadiyat shak-shubhasiz kafolatlangan, deb ishonadigan yo'nalishdagi jamoatda o'tgan. Aynan shu bois, u Isoning so'zlariga shunday javob berdi: «Bu mening barcha ta'limotimni butkul barbod qiladi». Xudoning qizi bo'lgan chog'ida, uning ismi Hayot Kitobida yozilgan. Ammo u oxirigacha bora olmay, dunyoga abadiy qaytib ketdi, shuning uchun uning ismi o'chirib tashlandi. U o'z ixtiyori bilan ketdi. Binobarin, Ibroniylarga maktubning muallifi, bunday odam qayta tiklana olmaydi, deydi. U ikki marotaba o'ldi. Avvaliga bu ayol o'z gunohlarida o'lik edi, abadiy hayotni me'ros qilib olib, yana gunohda o'ldi va abadiyga Xudodan ketdi (Yahudo 12 ga qarang).

Odamlar shunday holgacha yetganlarida, ular hech qachon yana bir bora samodan tug'ilmaydilar. Shuning uchun Ibroniylarga maktubning muallifi deydi: «...Tavba orqali yana yangilashning imkoni yo'q». Odamlarning qayta va qayta samodan tug'ilishiga umid qilishlari, xato.

Menga takroran aytishga ruxsat bering, aynan o'limga olib boradigan gunohni sodir qilgan kishida, hech qachon tavba qilish va qaytadan Isoga o'zini bag'ishlash istagi bo'lmaydi. Bizni Muqaddas Ruhdan boshqa hech kim Isoga torta olmaydi. Oldin chinakam imonli bo'lgan, keyin o'sha birodarning vahiyida ta'riflangan ayol singari imondan qaytib ketgan kishidan Iso ketsa, U yana qaytib kelmaydi. Shu sababdan Muqaddas Ruh uzoq sabr-toqat qiladi, U tezda taslim bo'lmaydi.

Zulmat qorong'uligi

Havoriy Petrus bu haqda yanada oydinroq qilib aytgan:

«Agarda ular Rabbii va Qutqaruvchi Iso Masihni tanib bilish orqali dunyoning haromliklaridan qutulgan bo'lib...» (2-Petrus 2:20).

Birinchidan, keling, Petrus kim haqida aytganini ko'rib chiqamiz. Agar odam Rabbiy va Qutqaruvchi Iso Masihni tanib bilish orqali dunyoning haromliklaridan qutulgan bo'lsa, demak u so'zsiz masihiylikni qabul qilgan. Yuqoridagi ta'rif oldin aytib o'tgan (Xudoni bilaman deb, aslida hayotda buning teskarisini ko'rsatadigan) adashib yurganlar va yolg'onchilarning toifasiga mos kelmaydi. Aksincha gap Rabbiy va Qutqaruvchi Iso Masihni tanib bilish orqali dunyoning haromliklaridan qutulgan odam haqida boryapti. U haqiqatdan ham samodan tug'ilgan kishilar haqida aytganiga, hech qanday shubha yo'q.

O'qishda davom etamiz:

«...o'sha haromliklarga yana o'ralib qolib qayta mag'lub bo'lsalar, unda ularning so'nggi ahvollari avvalgi ahvollaridan battar bo'ladi. Haqlik yo'lini tanib bilgandan keyin, tan olgan muqaddas amrdan yuz o'girgandan ko'ra, bu yo'lni hech bilmaslik ular uchun yaxshiroq bo'lar edi. Lekin ular bilan aniq quyidagi maqolda aytilganidek sodir bo'ladi: «It o'zining qusug'iga va yuvilgan cho'chqa balchiqda ag'nashga qaytadi» (2-Petrus 2:20-22).

Petrus gunoh qulligiga qaytadigan masihiylar haqida aytyapti va ular Iso Masihning najotini hech qachon tanib-bilmagani ular uchun yaxshi bo'lar edi deb, qo'shimcha qilyapti. Ular itoatkorlikda va muqaddaslikda yashashdan ko'ra nuqul rohatda yashashni, hirsni va turmush iftixorini tanlaydilar.

Nimaga hech qachon haqlik yo'lini bilmagani yaxshi bo'lardi? Yahudo shu savolga javob beryapti: «Ularning holiga voy, chunki ular Qa'nning yo'lidan bormoqdalar, Bal'amga o'xshab, manfaatparastlikka berilib adashmoqdalar va Koraxga o'xshab isyon qilib, halok bo'lmoqdalar» (Yahudo 11).

Qa'n, Bal'am va Korax – har biri, bir vaqtlar Xudo bilan munosabatga ega bo'lganlar, ulardan ikkitasi, hatto xizmatkor ham edilar. Qa'nning xatosi Xudoga bo'ysunmaganida, Bal'amning xatosi pulparastligida bo'lgan; Korax esa Xudo tomonidan qo'yilgan hokimiyatga qarshi isyon ko'targan.

Yahudo davom etadi:

«Bunday odamlar sevgi ziyofatlaringizda sizlarga vasvasa bo'ladilar, ular sizlar bilan birga ziyofat qilib, o'zlarini qo'rqmay semirtiradilar. Ular shamol haydaydigan suvsiz bulutlardir. Ular meva tugmagan kuzgi daraxtlar, ikki marta o'lganlar va ildizi bilan yulib tashlanganlardir. Ular dengizning jo'shqin to'lqinlariday o'zlarining sharmandaliklarini atrofga sachratadilar. Ular adashgan yulduzlardir. Ularga abadiy zulmat qorong'iligi tayyorlab qo'yilgan» (Yahudo 12, 13).

Sevgi ziyofati, birinchi jamoat a'zolari birga yig'ilib ovqatlanganini, bu bilan ular Xudoga va bir-birlariga bo'lgan sevgisini namoyon qilishini bildirgan. Sevgi ziyofatlari odatda Rabbiyning kechligini qabul qilish bilan yakunlangan. Endi hushga keltiradigan haqiqat: najotdan qaytganlarning hammasi ham, xizmatkorning vahiyidagi ayolga o'xshab, mahalliy jamoatdan ketib qolmaydilar. Aynan shunday odamlar yangi imonlilar, zaiflar va o'lguday yaranalishga moyil kishilar uchun xavf tug'diradi.

Korax bunday odamga misol bo'la oladi. U Horunning xizmatidagi yordamchi bo'la turib, Muso va Horunga shunday degan: «Sizlarga bas, yetarli! Butun jamoa, hamma muqaddas va Rabbiy ularning (hammasining) orasidadir! Nima uchun sizlar o'zlaringizni Rabbiyning xalqidan yuqori qo'ymoqdasizlar?» (Sonlar 16:3). Uning ta'siridagi 250 ta boshqaruvchi va Isroil jamoasining 14700 ta a'zosi o'lim bilan jazolandi!

Yahudo, shu kabi vasvasa keltiradigan, imondan qaytganlar bizning oramizda bor deydi. Bundaylar qachonlardir ega bo'lgan inoyatni bulg'agan va endi undan mahrum bo'lganini tushunmay, Xudoning qo'rquvini yo'qotib, o'z manfaatlari uchun yashaydilar. Korax shunday degan: «Xudo hammamiz bilan birga». U ham xavfsizlikning soxta hissiga ishongan, biroq ertasi kuni yer yorildi va uni do'zaxga irg'itgancha, tiriklayin yutib yubordi. Bunday odamlar imonlilar bilan umumiy tilda gapiradilar, ammo Iso g'alabakorlarni olib ketish uchun kelganida, ularni topmaydi. U nuqsonsiz jamoatni olib ketish uchun keladi (Efesliklar 5:27 ga qarang).

Yahudo ularni ikki marotaba o'lganlar deb atayapti. Qanday qilib ikki marta o'lish mumkin? Gunohda o'lik bo'la turib, yangi tug'ilish orqali abadiy hayotga erishib, so'ngra tavba qilmagan gunoh uchun fojiali tarzda qayta o'lish mumkinmi? Yodingizda bo'lsa, Yoqub haqiqatdan ozgan va

bunday holda qolib ketgan masihiyning joni o'lishini ta'kidlagan. Yuhanno imonlini o'limga olib boradigan gunoh borligini aytgan. Unisi ham, bunisi ham ikki marta o'lganlarga tegishli.

Yahudoning so'zlariga diqqat qiling: «...Ularga abadiy zulmat qorong'uligi tayyorlab qo'yilgan». Zulmat qorong'uligi eng yomon abadiy jazoni anglatadi. Bu Iso Masih O'zining qayta kelishi va sudi haqidagi so'zlaridan yaqqol ko'rinadi:

«Xo'jayini kelganida, U bedor holda topgan qullar baxtlidir! Sizlarga rostini aytamanki, u bel bog'lab qullarini o'tqazadi va ularga o'zi xizmat qiladi. Lekin agar o'sha qul o'z yuragida: «Xo'jayinim yaqin orada kelmaydi», – deb, xizmatkoru cho'rilarini urishni va yeb-ichib mast bo'lishni boshlasa, unda xo'jayin quli kutmagan bir kunda, o'ylamagan bir soatda kelib, uni tilka-pora qilib, unga imonsizlar bilan bir qismatni beradi. Xo'jayinining irodasini bila turib tayyor bo'lmagan, xo'jayinining irodasi bo'yicha ish tutmagan qul ko'p tayoq yeydi. Bilmay turib, jazoga munosib ish qilgan qul esa ozroq tayoq yeydi. Kimga ko'p berilgan bo'lsa, undan ko'p talab qilinadi. Kimga ko'p ishonib topshirilgan bo'lsa, undan ko'proq talab qilinadi» (Luqo 12:37, 45-48).

Bu oyatlarda shunaqa ko'p narsalar yozilganki, shulardan bir nechtasini ko'rsatishga ruxsat bering. Avvalo, bu odam majusiy yoki gunohkor emas, balki qul bo'lganiga e'tibor bering. U xo'jayinining irodasini bilgan, biroq unga qarshi ish tutgan. Buni Jeylin irodasini bilmaganlar toifasiga kiradigan va kamroq jazo olgan Mustaqilga o'xshatib bo'lmaydi. Bu Aldanganga ham tegishli emas, chunki u o'zini qul deb hisoblasa-da, hech qachon Jeylin istagan chinakam qul bo'lmagan. Iso Masih xo'jayinining o'zi uni qulim deb atagan va xo'jayinining irodasini to'liq bilgan kishi haqida gapiryapti. Bu odam ixtiyoriy ravishda o'z najotidan voz kechdi.

Bu qul boshqa qul va cho'rilarini urganiga diqqat qiling. Bu yerda boshqalar hisobidan o'zi uchun yashaydigan odam haqida aytilgan. U bir kunni o'ylab yashaydi. U yeydi va yotib qolgunicha ichadi, o'zini manfaatlarini ko'zlaydi. Eslab ko'ring, Yahudo, boshqa imonlilar bilan birga ovqatlanib yuradigan, o'zini o'ylaydigan va Xudodan qo'rqmaydigan imondan qaytganlar haqida aytgan edi. Taqvodor ko'rinishga ega bo'lsa-da,

ular faqat o'z manfaatlarini ko'zlaydilar.

Bunday qulga beriladigan jazoga keladigan bo'lsak, e'tibor bering, uni sadoqatsizlar (najotni qabul qilmagan) va bir nechta xivich olgan qullar bor joyga yuborishdi. U Xo'jayining irodasini bilgani uchun, hammadan ko'ra ko'proq kaltak yeydi. Bu uning olovli ko'l yoki zulmat qorong'uligining benihoya og'ir jazosini olishidan darak!

Achchiq kechirimsizlik

Bu ta'rif (Qo'sh Hayot singari) Jur'atsizga ham mos keladi. Jur'atsiz Jeylin – kechirish kerak deb o'rgatganini bilar edi, biroq bunday qilishdan bosh tortdi. U Tuhmatga qarshi xafa bo'lib yurishda davom etdi. Undagi alam buzuqlikka eshik ochdi. Biz ushbu oyatda o'qiyimiz: «Diqqat qilinglar, toki hech kim Xudoning inoyatidan mahrum bo'lib qolmasin, toki biror achchiq ildiz paydo bo'lib, zarar yetkazmasin va u orqali ko'plar harom bo'lmasinlar» (Ibroniylarga 12:15).

Yangi Ahdni o'rganish asosida va ko'p yillik xizmatdagi shaxsiy tajribamda, Xudo bilan yaqin munosabatlarga intilmaydigan odamlar eng katta qopqon – kechirimsizlikka ilinib qolishini ko'rganman. Jur'atsizning holatida ko'rganimizdek, kechirimsizlik turli xil yanglish e'tiqod va xatti-harakatlarga eshik ochadi.

Iso Masih Matto Xushxabarida (18-bob) o'z qullaridan, ularga ishonib topshirilgan pullardan qanday foydalangani haqidagi hisobotni qabul qilgan buyuk shoh to'g'risida masal aytib bergan. Ulardan biri shohga o'n ming talant qarz bo'lgan. Talant – bu pul vositasi emas, balki og'irlik miqdori. Bu miqdordan oltin (2-Shohliklar 12:30), kumush (3-Shohliklar 20:39), boshqa metall yoki molni o'lchashda foydalanishgan. Masalda talant qarzni nazarda tutgani uchun, gap oltin yoki kumush haqida boryapti, deb taxmin qilish mumkin.

Bir talant oltin 75 qadoq (bir qadoq – 409,5 grammga teng og'irlik o'lchovi) og'irlikda bo'lgan. Bir kishi faqat bir talant oltinni ko'tarib keta olgan (4-Shohliklar 5:23). O'n ming talant – bu taxminan 750 000 qadoq yoki 375 tonnaga teng. Shunday qilib, qul shohga 375 tonna oltin qarz bo'lgan. Men bu kitobni yozayotganimda, bir unsiya oltin (28,3 gramm)

taxminan 1200 AQSh dollari turardi. Keling, hisoblab chiqamiz. Bugungi kunda bozorda, o'n ming talant oltin o'n to'rt milliard AQSh dollariga teng kelgan bo'lar edi! Bu odam shohga aynan shuncha qarz bo'lgan! Iso Masih bu masalda, u odamning qarzi shu qadar ko'pligiga va u qarzini qaytara olmaydigan holda ekaniga urg'u beryapti.

Shoh qarzini to'lashi uchun, uni o'zini va butun oilasini qullikka sotishni buyurdi. Qul shohning oyoqlariga yiqildi va shafqat so'rab yolvordi, shoh esa unga shafqat qildi. U uning barcha qarzini kechirdi.

Bu masalda shoh Ota Xudoni bildirishini ko'rish mumkin. Qarzi kechirilgan odam esa Iso Masih orqali kechirimga ega bo'lgan kishini namoyon etadi. Kimgadir zarar yetkazilganda, qarz yuzaga keladi. Siz shunday iborani eshitganmisiz: «U bu uchun to'lagan»? Kechirim – qarzni bekor qilishdir. Inson endi ozod. Ko'rib turganingizdek, bu masaldagi shoh Ota Xudoni, qul esa – Iso Masih orqali Uning kechirimiga ega bo'lgan insonni bildiradi.

Lekin masal hali davom etmoqda: «Bu xizmatkor esa tashqariga chiqib, undan yuz dinor qarz olgan sheriklaridan birini topdi. Uni tutib oldi va yoqasidan bo'g'ib: — Mendan olgan qarzingni to'la, — dedi» (Matto 18:28).

Bir dinor – odatda bir kunlik ish haqqi. Olaylik, bir dinor 100 dollarga teng. Yuz dinor hammasi bo'lib, taxminan 10 000 dollar bo'ladi. Ko'rib turganingizdek, bu kichkina pul emas.

O'qishda davom etamiz: «Shunda uning sherigi uning oyog'iga yiqildi va unga yolvorib: — Menga sabr qil va senga hammasini to'layman, — dedi. U esa xohlamadi, lekin borib, qarzlarini to'lamagunicha sherigini zindonga tashladi» (Matto 18:29, 30). O'n to'rt milliard qarzi kechirilgan odamga boshqa kishi 10 000 dollar qarz bo'lgan, u qarzdorini kechirmagan va uni to'lashga majburlagan. Aytish joizki, bir-birimizga nisbatan xafagarchiligimizni, bizning Xudoning oldidagi qarzimizga qiyoslasak, o'n to'rt milliard va 10 000 dollar degan gap! Siz bilan naqadar yomon munosabatda bo'lishidan qat'iy nazar, buni bizning Xudoga nisbatan bo'lgan qarzimiz bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Balki, siznikidan battarroq vaziyat bo'lmaydigandek tuyulishi mumkin.

Biroq siz Iso Masihga naqadar dahshatli munosabatda bo'lganingizni fahmlamayapsizmi? Aybsiz va pok Qo'zi bizning o'n to'rt milliard qarzimizni to'lash uchun qurbonlikka keltirildi!

Kechira olmaydigan inson o'zining qancha katta qarzi kechirilganini unutib qo'ygan! Iso Masih sizni buyuk o'limdan va abadiy qiynoqdan ozod qilganini anglab yetganingizda, boshqalarni osonlikcha kechira olasiz.

Olovli ko'lda abadiy yashashdan yomonrog'i yo'q. U joydan xalos bo'lish imkonsiz, qurtlar o'lmaydi va olov o'chmaydi. Xudo to O'z O'g'li Iso Masih orqali bizni kechirgunicha, biz u joyga qarab ketayotgan edik! Agar inson kechira olmaydigan bo'lsa, demak u do'zax qanaqaligini hamda Xudoning sevgisi va Uning kechirimini fahmlamayapti. Keling, masalni o'qishda davom etamiz:

«Uning boshqa sheriklari esa buni ko'rib, juda qayg'urdilar va podshohning oldiga kelib, unga bo'lib o'tgan voqealarning hammasini aytib berdilar. Shunda podshoh o'sha xizmatkorni chaqirib olib, unga: «Ey, yovuz xizmatkor! Mendan so'raganing uchun hamma qarzlaringni kechirdim. Xuddi men senga rahm qilganim kabi sen ham o'z sherigingga rahm qilishing kerak emasmidig'» Shunday qilib, uning podshohi g'azablanib, u bor qarzlarini to'lamagunicha, uni qiynovchilarga topshirdi» (Matto 18:31-33).

Iso Masih ushbu masalda imonsizlar haqida gapirmayotganiga diqqatingizni qaratmoqchiman. U shohning qullari yoki samodan tug'ilgan imonlilar to'g'risida so'zlayapti. Bu odam, allaqachon o'z qarzi uchun kechirim (najat) olib bo'ldi va shohning quli deb ataldi. U kechira olmagan odam esa, uning do'sti edi. Binobarin, kechirimli bo'lishdan bosh tortadigan «imonlining» taqdiri uning boshiga tushadi, deb faraz qilish mumkin.

Men bu joyda hayratli narsani ko'ryapman. Odamlar Xushxabardagi boshqa barcha masallarga izoh berishini so'ragan. Biroq Iso bu masalni, hech kim so'ramasa ham izohlab o'tgan. Buning sababi, Iso eshituvchilarga masalning mazmunini yetkazib berishga uringaniga aminman. Bu birinchi navbatda muhim bo'lgan fikr, shuning uchun U ularning hammasi

tushunganiga ishonch hosil qilishni istagan. Mana uning izohi:

«Shunday qilib, uning podshohi g'azablanib, u bor qarzlarini to'lamagunicha, uni qiynovchilarga topshirdi. Shuningdek, agar sizlar yuragingizdan o'z birodaringizning gunohlarini kechirmasangiz, Mening osmondagi Otam ham sizlarga xuddi shunday qiladi» (Matto 18:34, 35).

Men ushbu ikkita oyatdagi uchta muhim narsani ko'rsatmoqchiman. Birinchidan, kechirishga o'jiz bo'lgan qul qiynovchilarga topshirilgan. Ikkinchidan, u endi avvalgi qarzini, 375 tonna oltinni qaytarishi shart va uchinchidan, Xudo har bir birodarini kechirmaydigan «imonli» bilan aynan shunday yo'l tutadi.

Keling, har bir fikrni qisqacha ko'rib chiqamiz. Birinchisi: qiynoq so'zi, aql-bovar qilmaydigan og'riq, jon va ong talvasasi hamda inson o'z tabiiy holatini yo'qotishini anglatadi. Qiynoqqa soluvchi – azob keltiruvchi degani.

Kechirishdan bosh tortadigan imonlilar yovuz ruhlar tomonidan azob chekadilar. Qiynoqqa soluvchilarga dard, tana va ong talvasasini solishga huquq berilgan. Xizmatlarimda tez-tez, chin yuragidan kechirmagan va xafagarchilikni qo'yib yubormagani uchun shifo, yupanch yoki ozodlik ololmay yurgan odamlar uchun ibodat qilishga to'g'ri kelgan. O'z navbatida, bu alam qariyb har safar Xudoga nisbatan xafagarchilik va g'azabga olib keladi. Bunday odamlarning imoni bulg'anadi hamda mabodo tavba qilmasa va kechirmasa, ularning oxiri voy bo'ladi.

Ikkinchi fikr: bu qul o'zining dastlabki qarzini berishi zarur. Endi u imkonsiz ishni qilishga majbur! Bu qarzni Iso Masih Golgofada to'ladi. Siz bundan g'unjayishingiz mumkin, lekin Isoning boshqa joyda aytgan so'zlarini eshitib ko'ring: «Ibodatda turganlaringizda, agar biror kishiga qarshi da'voyingiz bo'lsa, kechiringlar, toki sizning Osmondagi Otangiz ham sizning gunohlaringizni kechirsin» (Mark 11:25).

Iso kim haqida gapiryapti? «Osmondagi Otangiz» so'zlariga e'tibor bering. Xudo gunohkorlarning Otasi emas, U gunohkorlar uchun Xudo va imonlilar uchun Otadir. Imonsizlar ibodat qilmaydilar. Shunday qilib, U Xudoning farzandlari haqida gapirayotgani butunlay ravshan ko'rinib turibdi.

Keling, davom etamiz. «Agarda kechirmasangizlar, sizlarning

Osmondagi Otangiz ham sizlarning gunohlaringizni kechirmaydi» (Mark 11:26). Bundan aniqroq aytib bo'lmaydi. Bu bizni uchinchi fikrga olib keladi. Agar insonni kechirishmasa, u qaytarishga qurbi yetmaydigan qarzni to'lashga majbur. Buning imkoni yo'q, hech kim Xudoga o'z joni yoki birodarining joni uchun narx to'lashga qodir emas (Sanolar 48:8 ga qarang). Iso, Otangiz gunohlaringizni kechirmaydi va abadiy qiynovchilar qo'liga topshiradi, deb aytyapti. Bizga shu kerakmi?

Biz hozir xafagarchilikni yengib o'tayotgan, kechira olishi uchun ibodat qilayotgan kishilar haqida emas, lekin Jur'atsiz kabi, o'jarlik bilan kechirishdan bosh tortayotganlar haqida gapiryapmiz. Eslab ko'ring, hikoyada uning kechirimsizligi shaytonning qolgan barcha harakatlariga eshik ochdi va u asta-sekinlik bilan Jeylindan uzoqlasha boshladi. Bularning bari abadiy halokatga borishga arziydimi? Shu bois Ibroniylarga maktubning muallifi bizga o'zimizni yana tekshirib ko'rishga qistayapti, toki alamning har qanday ko'rinishidan xalos bo'laylik, binorin, ko'plar shu tufayli bulg'andilar.

Isoning, Jamoatning oxirgi kunlari haqidagi so'zlari, bizga endi tushunarli bo'la boshladi. U aytgan: «O'shanda ko'plar vasvasaga tushadilar va bir-birlarini xoinona tutib beradilar, bir-birlaridan nafratlanadilar... Qonunbuzarlikning ko'payishi tufayli ko'plarda sevgi soviydi. Oxirigacha chidagan esa najot topadi» (Matto 24:10, 12, 13).

Buni qarang, bizning kunlarimizda «ayrimlar» yoki «bir nechta» emas, balki ko'pchilik xafa bo'ladilar. Ko'pchilik so'zi katta miqdorni bildiradi. Xafagarchilik yoki kechirimsizlik qonunbuzarlikka olib keladi va ko'p odamlarda sevgi soviydi.

Yunon tilidan sevgi, «agape» so'zi, najot pallasi masihiylarning yuragiga quyiladigan Xudoning sevgisini bildiradi. Iso adashganlar haqida aytgani yo'q, negaki ular hech qachon Xudoning sevgisini haqqoniy tarzda qabul qilmaganlar. Yo'q, u chinakam imonlilar to'g'risida aytyapti: «Oxirigacha chidagan najot topadi». Gunohkorga yoki yolg'onchiga: «Oxirigacha chidab tur va najot topasan», deb bo'lmaydi, axir, ular o'zlarining masofasini hali boshlaganlari yo'q!

Imondan qaytish

Kalom bizni bugungi kundagi imonlilarning orasida imondan qaytganlar bo'lishi haqida ogohlantirgan. Pavlus yozgan: «Hech kim sizlarni hech narsa bilan aldamasin. Chunki imondan qaytish vaqti kelmagunicha... o'sha kun kelmaydi» (2-Fessalonikaliklarga 2:3). U yana bashorat qilib, deydi: «Ruh aniq aytyaptiki, oxirgi zamonlarda ba'zilar aldovchi ruhlarning va jinlarning ta'limotini tinglab, imondan qaytadilar» (1-Timotiylga 4:1).

Nimaga? «Chunki shunday zamon keladiki, odamlar sog'lom ta'limotga dosh bera olmaydilar, lekin ular o'z hirslariga binoan quloqlariga yoqimli so'zlarni gapiradigan ustozlarni o'zlariga to'playdilar. Ular quloqlarini haqiqatdan o'girib, afsonalarga buradilar» (2-Timotiylga 4:3, 4). Qarang, yuqorida keltirilgan oyatda Pavlus ular «imondan qaytadilar» degan. U aytayotgan imon, Iso Masihga bo'lgan haqqoniy imondir. Agar inson, bir kuni chinakamiga ishongan bo'lsagina, imondan qaytishi mumkin.

Masihiylar imondan qaytishi mumkinligi to'g'risidagi aytgan haqiqatni Yangi Ahddagi qariyb barcha mualliflar yozib o'tgan. Endi Jamoat otalarining mulohazalaridan keltirishga ijozat bering, ularning ayrimlari Yangi Ahdni yozgan havoriylarning hamkorlari bo'lganlar. Men ularning qo'lyozmalari Muqaddas Kitobdan o'qiganlarimizga to'g'ridan-to'g'ri muvofiqligini ko'ryapman.

«Haqlikni tadbiq qilamiz, toki oxirida najot topaylik».

— Rimlik Kliment

Hayotda, hatto buyuk yaxshi ishlarni yaratgan, lekin yo'lining oxirida yovuzlikka berilgan kishi, avvalgi barcha mehnatlarining foydasiga erishmaydi, binobarin, u umrining cho'qqisida o'z ulushini yo'qotdi».

— Aleksandriyalik Kliment

«Ba'zilar Xudo hatto eng noloyiq kishiga ham va'da qilganlarini berishga majbur deb o'ylaydilar. Bunday munosabat bilan ular Xudoning saxiyligini qullikka aylantiryaptilar... Keyinchalik inoyatdan qaytib ketganlar kammi? Bu in'omdan mahrum bo'lib qolganlar kammi?»

— Tertullian

«Inson ega bo'lgan haqligidan ajralib qolishi mumkin».

— Origen

«Unga itoatsiz bo'lgan kishilar me'rosdan quruq qoladilar va boshqa Uning o'g'li bo'la olmaydilar».

— Lionlik Iriney

Men Kalomdan aytgan haqiqatlarni eshitib, ba'zilar menga unchalik to'g'ri bo'lmagan savolni berishdi: «Jon, sen arminianmisan?» Lug'atda ushbu so'zga quyidagicha izoh berilgan: «Kalvinchilarning, oldindan belgilangan taqdir va saylanish haqidagi ta'limotini rad etadigan Yoqub Arminiy va uning izdoshlarining ta'limoti bo'yicha, insonning erkin irodasi Xudoning mustaqilligiga mos».

Men bunday so'zlarga shunchaki javob beraman: «Yo'q, men kalvinchi ham, arminian ham emasman, men Muqaddas Kalomga – Xudoning bexato Kalomiga ishonadigan masihiyman».

Yoqub Arminiy men yuqorida so'zlarini keltirgan Yangi Ahdning mualliflaridan va hatto dastlabki xizmatkorlardan ham ancha keyin yashagan. Bu mualliflarni arminianinlar deb atash mumkinmi? Bunday deb atab bo'lmisligi, shundoq ham ayon, negaki ular Arminiydan ancha oldin yashab o'tganlar. Men yozayotgan narsalar, atigi shaxsiy fikrlarim, ta'limotim yoki e'tiqodim emas, balki haqiqat hisoblanadi. Xudo har bir imonlini, yetarli darajada, aniq tarzda ogohlantirgan. Biz mutafakkirlarning ta'limotiga berilishdan ehtiyot bo'lishimiz va Muqaddas Ruh bilan ruhlantirilgan Kalomning mazmunini qabul qilishga ochiq bo'lishimiz zarur, chunki:

«Butun Yozuv Xudodan ruhlangan bo'lib, ta'lim olishga, fosh qilishga, to'g'rilashga va haqlikda tarbiyalashga foydalidir, toki Xudoning odami barkamol bo'lib, har qanday yaxshi ish uchun tayyorlangan bo'lsin»
(2-Timotiya 3:16-17).

Qizig'i shundaki, Iso tomonidan qattiq fosh etilgan soxta boshqaruvchilar odatda maxsus maktab atrofida to'planar va mana shu maktab uslubida ta'lim berar edilar. Ammo agar Yahyo Cho'mdiruvchi, Iso Masih va boshqa haqiqat xabarchilari haqida nimalar deyilganiga qarasak, ularning o'rtasida

umumiylikni ko'ramiz: «Chunki u ulamolar kabi emas, balki hokimiyat Egasidek ta'lim berar edi» (Matto 7:29). Shu bois Pavlus Titusga nasihat beryapti: «Bularni bor hokimiyat bilan gapirgin, nasihat qilgin va fosh qilgin. Hech kim seni kamsitmasin» (Titusga 2:15). U Timotiya ham yozgan: «Men Makedoniyaga ketayotganimda, sen Efesda qolib, ba'zilarga yo'riq berishingni so'ragan edim, toki ular ta'limotdan boshqa narsalarga o'rgatmasinlar» (1-Timoti 1:3). Pavlus yana Timotiya o'rgatib, aytgan:

«So'zni yetkaz va voizlik qilgin, bu ishda qulay fursatmi, fursat emasmi (qulaymi yoki noqulaymi, odamlar ma'qullaydimi, yo'qmi), sabotli bo'lg'in (tayyor bo'l, yonida bo'l), fosh qilgin, taqiqlagin, butun sabr-toqat bilan ta'lim berib nasihat qilgin (sen Kalomning voizi sifatida odamlarga, ularning hayotidagi noto'g'ri narsalarni ko'rsatishing lozim)» (2-Timotiya 4:2, Kengaytirilgan tarjima).

Pavlus o'zi haqida shunday degan: «So'zlashim kerak bo'lganidek, jasorat bilan voizlik qila olayin» (Efesliklarga 6:20). Bu Xudoning barcha haqqoniy da'vatkorlariga xos sifat. Ularning hokimiyati Xudoning So'ziga asoslangan. Ularning shaxsiy kechinmalarini, qandaydir maxsus maktabga mansubligi yoki ko'pchilikning fikri birlashtirmaydi. Ko'pchilik, ba'zida xato qilishi mumkin. Xudo nazarda tutganini gapiradi, gapirganini nazarda tutishini, bilishimiz lozim!

Seni qoqilishlardan asraydi

Odamlar orasida Kalomda ochiq-oydin yozilgan inoyatni yo'qotib qo'yish ta'limotidan lol qoladiganlar ko'p. Ko'pchilik vahima bilan oldimga kelib: «Men bizda abadiy kafolat bor deb o'ylagandim!» — deydilar.

Men javob beraman: «To'ppa-to'g'ri! Bizda mangu kafolat bor! Iso Masih Otasidan olganlarining birortasini ham yo'qotmayman, degan (Yuhanno 18:9 ga qarang), chunki U bizni hech qachon tashlab va qoldirib ketmaydi. Biroq U sizlar Meni tashlab ketmaysizlar va yo'qolib qolmaysizlar demagan. Bunday so'zlardan so'ng, ular har safar taajjulanib qoladilar, shuning uchun ularga deyman: «Agar siz chinakamiga Iso Masihni sevsangiz, ketmaysiz-ku? Siz haqiqatdan ham sevsangiz, Undan voz kechmaysiz!»

Siz Xudoni sevsangiz, Uning amrlari bo'yicha yashashdan qiynalmaysiz! Agarda Xudoga xizmat qilish siz uchun majburiyatga aylangan bo'lsa, demak, siz qonunchilik munosabatlariga yo'l qo'ygansiz, bunday holatda Uning amrlarini saqlab qolishingiz juda qiyin. Biz Xudoga Undan tahsin olish uchun emas, balki Uni sevganimiz uchun xizmat qilamiz!

Yahudo bizga jamoatda farziylik xamirturushi bo'lgan taqdirda ham, qanday qilib sevgini boshidagidek saqlab qolish yo'llarini sanashda davom etadi. U shunday degan: «Abadiy hayot uchun Rabbimiz Iso Masihning rahm-shafqatiga ko'z tutib, o'zingizni Xudoning sevgisida saqlanglar» (Yahudo 21). Biz Rabbiyni har soniyada kutishimiz lozim (yodingizdami, ayblangan qul xo'jayinining qaytib kelishini kutmagan edi!). Biz Unga tashna bo'lishimiz va Uni doimo izlashimiz zarur, toki U O'zini yanada ko'proq ochsin, chunki «Masihga shunday umidga ega bo'lgan (Iso O'zini ochishiga umid qilgan) har bir kishi o'zini poklaydi, chunki U pokdir» (1-Yuhanno 3:3).

Siz Uni izlaganingizda, Uning Ruhi bilan muloqotda bo'lganingizda, ketishni istamaysiz. Shunday qilib, xavotirga o'rin yo'q. Yahudo maktubining yakunida, menga eng yoqadigan va'da bor. Iso Masihning vahiyalarini kutib, o'zini Xudoning sevgisida saqlaydigan kishiga, U deydi:

«Sizlarni yiqilishdan saqlab qolishga, O'zining shuhratining huzurida benuqson va shod-xurram qilib qo'yishga qodir bo'lgan yakkayu yagona, dono Najotkorimiz Xudoga Iso Masih orqali azaldan, hozir va abadulabad shon-shuhrat, ulug'vorlik, saltanat va hokimiyat bo'lsin! Omin» (Yahudo 24, 25).

Men ham sizlarga shu narsani tilayman va sizlar uchun ibodat qilaman!

7-BOB

POYDEVOR

Haq odam abadiy poydevor ustidadir

— Hikmatlar 10:25

Affabel to'g'risidagi hikoyamizga qaytishdan hamda Xudbin va Saxovatning sudi, shuningdek mukofoti nima bo'lganini bilishdan avval, oxirgi uchta bobda aytib o'tganlarimizga nuqta qo'yamiz. To'rtinchi bobda aytilgan oyatni eslang:

«Shuning uchun Masih boshlang'ich ta'limotini qoldirib, barkamollikka shoshilaylik. ...abadiy hukm haqidagi ta'limotning asosini solib o'tirmaylik» (Ibroniylarga 6:1, 2, Kengaytirilgan tarjima).

Abadiy hukm va jazo haqiqatlarini mustahkam poydevorining yetishmasligi Masihda sog'lom hayot qurishga to'siq bo'ladi. Bu holat boshlang'ich sinflarda oddiy bilim hisoblangan, o'qishni bilmay, oliy ma'lumot olishga urinishga o'xshaydi.

Bu nega shunday? Xushxabarni diqqat bilan o'rgansangiz, Iso samodan ko'ra do'zax haqida ko'proq gapirganini ko'rasiz. U bizga poydevor — Xudoning qo'rquvini joylash uchun shunday qilgan. Mana bunga bir misol:

«Shuning uchun sizlar qorong'ilikda aytgan hamma narsa yorug'likda eshitaladi, berk uy ichida quloqqa shivirlagan narsa esa tomlar uzra e'lon qilinadi. Sizlarga, Mening do'stlaringa aytamanki, tanani o'ldirib, keyin boshqa hech narsa qilishga qodir bo'lmaganlardan qo'rqmanglar. Ammo kimdan qo'rqishingiz kerakligini sizlarga aytayin: odamni o'ldirgandan keyin jahannamga tashlashga qodir Bo'lgandan qo'rqinglar. Ha, sizlarga aytamanki, Undan qo'rqinglar!» (Luqo 12:3-5).

Uning soʻzlari kuchli va suyakkacha yetib boradi: abadiy hukm va jazo haqidagi aniq tushunchaga erishish orqali, bu soʻzlar yuraklarimizda Xudoning qoʻrquvini pishiq qilib singdiradi.

Buni tushuntirib berishga ijozat bering. Abadiy doʻzax jazosini faqat Xudo belgilashi mumkin. Bizning yashirincha aytganlarimiz Sudda Uning sharafiging nurida eʼlon qilinadi. Nafaqat soʻzlarimiz, shuningdek niyatlarimiz, munosabatlarimiz va ishlarimiz ham hammaga oshkora boʻladi. Xudoning qoʻrquvi esa Undan hech narsani, hatto eng kuchli sirni ham yashirib boʻlmasligini bizga har on eslatib turadi. Biz hech narsa Uning sudidan qochib qutula olmasligini – Uning sudi adolatli ekanini bilamiz. Agarda biz aniq-ravshan tushunchaga ega boʻlmasak, Xudo qonunbuzarliklarimizni sezmaydi yoki hatto koʻrmaydi deb, berilmaydigan shafqat haqidagi fikrlar bilan oʻzimizni tinchlantirib yuramiz (Aldangan, Jurʼatsiz va Qoʻsh Hayotlar bilan sodir boʻlganidek), natijada osonlikcha adashib qolishimiz mumkin. Biz hech qiyinchiliksiz, mustahkam imondan qonunsizlik tomonga burilib ketadigan, buyuk olomondan tarkib topgan oxirgi zamon odamlarining safiga qoʻshilib qolishimiz mumkin.

Bunday poydevorga ega boʻlmaganlar, odamlar qarshisidagi qoʻrquvdan sirpanib ketadilar va qoʻrqadigan odamlariga butun umr xizmat qilib yuradilar. Agar biz Xudodan qoʻrqsak, hatto bosim ostida ham Unga boʻysunamiz. Mabodo odamlardan qoʻrqsak, ayniqsa bosim ostida, shaxsiy manfaatimizga erishishga intilib yoki tanaviy xohishlarimizga qoqilib, oʻsha odamlarning yoʻlidan boramiz. Doimiy tanaga qoqilib yurish, natijada jiddiy oqibatlariga olib keladi. Demak, biz abadiy hukmlar va jazolarni ongli ravishda tushunmasak, Xudoning qoʻrquviga yetarli darajada ega boʻlmaymiz, negaki Masihning hukmlari aslida Xudo qoʻrquvining bir tomonidir. Pavlus bu haqda shunday degan:

«Chunki hammamiz tanada yashagan paytimizda qilgan yaxshi yoki yomon ishlarga qarab qarimtamizni olish uchun Masihning hukm kursisi oldida hozir boʻlishimiz kerak. Shuning uchun Xudoning qoʻrquvini bilgan holda, bizlar odamlarni ishontirmoqdamiz...»

(2-Korinfliklarga 5:10, 11).

Pavlus, Iso yuqoridagi oyatda aytib o'tgan buyuk oq taxtdagi Sud haqida emas, balki keyingi bobda so'z boradigan, imonlilar ustidan bo'ladigan sud haqida aytgan. E'tibor bering, Masihning hukmini Rabbiyning qo'rquviga tenglashtiryapti (aslida bu buyuk oq taxtga ham tegishli). Darhaqiqat ushbu oyatda hukmni to'g'ridan-to'g'ri «Rabbiyning qo'rquvi» deb nomlayapti. Gap shundaki, Rabbiyning qo'rquvini hukmdan alohida ajratib bo'lmaydi, Rabbiyning qo'rquvi sog'lom hayotning kalitidir.

Payg'ambar Isha'yoning so'zlariga quloq soling: «Sening najot, donolik va bilimga boy bexatar davring keladi. Rabbiydan qo'rqish sening xazinang bo'ladi» (Isha'yo 33:6).

Muqaddas qo'rquv mustahkam poydevorning kaliti hisoblanadi. O'tgan bobdan eslab ko'ring: Iso, Uning ismi bilan mo'jizalar yaratgan birtalay odamlar abadiy jazo olishlari haqida aytgan. U Matto Xushxabarining 7-bobida ularning yiqilishining sababini o'sha zahoti tushuntirayotgan bo'lsa, ajab emas. Ularning poydevori noto'g'ri edi. Ular o'z taqdirini hayot to'fonlariga dosh bera olmaydigan, ongidagi dalillar va yuragidagi imon bilan qurganlar.

«Shunday qilib, kimki Mening bu so'zlarimni eshitib, ularni bajarsa, uni o'z uyini tosh ustida (Xudoning mustahkam poydevori... Rabbiyning qo'rquvida) qurgan farosatli odamga o'xshataman. Yomg'ir yog'ib, sellar toshib, shamollar esib, shu uyga yopirildi, lekin u qulamadi, chunki tosh ustida o'rnatilgan edi. Kimki Mening bu so'zlarimni eshitib, ularni bajarmasa, u uyini qum ustiga qurgan farosatsiz odamga o'xshaydi. Yomg'ir yog'ib, sellar toshib, shamollar esib, shu uyni bosib qo'ydi va u quladi. Uning qulashi esa buyuk bo'ldi» (Matto 7:24-27).

Chidaganlar, oxirigacha yetib borganlar, mahkam poydevor tufayli to'fonlarga dosh berdilar. Bu poydevor bizga barqarorlikni ta'minlaydigan Rabbiyning qo'rquvi hisoblanadi. Rabbiyning qo'rquvi Xudoning boyliklarining xazinasidir, unda Rabbiyning najoti, donoligi va bilimi yashirilgan.

Rabbiyning qoʻrquvi

Rabbiyning qoʻrquvi nima? Xudodan qoʻrqish kerakmi? Aslo yoʻq, agar biz Rabbiydan qoʻrqsak, unda qay tarzda U bilan (U kuchli istayotgan) yaqin munosabatlarni qura olamiz? Xudovand Isroilning oldiga, ular bilan ham, xuddi Muso bilan ega boʻlganidek, munosabatlar qurishga keldi va ularga Oʻzini ochdi. Biroq xalq qoʻrqib, qochib ketdi va Unga yaqinlashishdan voz kechdi. Muso xalqqa dedi: «Qoʻrqmanglar! Xudo sizlarni sinash uchun va sizlar gunoh qilmasliklaring uchun Undan qoʻrqish sizlarning yuzlaringiz qarshisida boʻlishi uchun keldi» (Chiqish 20:20).

Bu soʻzlar bir-biriga ziddek, tuyuladi. Biroq Muso Xudodan qoʻrqish va Rabbiyning Qoʻrquvi oʻrtasidagi farqni koʻrsatyapti. Xudodan qoʻrqadigan odam, Undan qochadi. Odam bogʻda Xudoning ovozi eshitganida nima qilganini eslab koʻring: u Rabbiyning huzuridan yashirinib oldi. Boshqa tomondan, Rabbiyning qoʻrquviga ega boʻlgan kishi Xudodan ajralib qolishdan qoʻrqadi. U itoatsizlik qilishdan qochadi.

Keling, Xudoning qoʻrquvini oʻrganishda davom etamiz. Rabbiyning qoʻrquviga ega boʻlish – Uni hammadan va hamma narsadan koʻra koʻproq hurmat qilish, qadrlash, eʼzozlash va sevishni bildiradi. Bu U sevgan narsani sevish, U nafratlangan narsadan nafratlanish deganidir. Unga ahamiyatli boʻlgan narsa, siz uchun ham ahamiyatli, Unga ahamiyatsiz boʻlgan narsa, siz uchun ham ahamiyatsiz. Agar Undan qoʻrqsak, biz Uning soʻzi qarshisida ehtiromda boʻlamiz, yaʼni hatto bunda maʼno koʻrmagan paytimiz ham, bizga ogʻir yoki foydasi yoʻq payt ham Unga soʻzsiz boʻysunamiz. Xullas, Rabbiyning qoʻrquvi Uning Soʻziga, Uning yoʻllariga va amrlariga itoat etishda namoyon boʻladi.

Kalom Rabbiyning qoʻrquvi donolikning boshi deydi yoki boshqacha qilib aytganda: u donolikning poydevoridir. Biz keyingi boblarda chuqur oʻrganadigan donolik – bu toʻgʻri vaqtda toʻgʻri qaror qilish qobiliyati va bilim. Bosim ostida qaror qiladigan kishiga, donolik yetishmaydi, donolikning bulogʻi esa Rabbiyning qoʻrquvidir.

Kalom bizning hayotimizni uyning qurilishi bilan taqqoslash mumkinligini aytadi: avval poydevor qoʻyiladi, soʻngra uyning qolgan

qismlari quriladi. Biz shunday deb o'qiyimiz: «Uy donolik bilan qurilib, aql bilan mustahkamlanadi» (Hikmatlar 24:3). Biz hayotimizni to'g'ri qaror qilish qobiliyatiga tayangan holda qursak, natijada Sudda aminlik bilan tura olishni beradigan sog'lom hayotni quramiz. Ushbu donolikning boshi yoki uning asosi – Rabbiyning qo'rquvidir.

Bizni ortga chekinishdan asraydi

Masihiylarning yuraklarida Rabbiyning qo'rquvi chuqur ildiz otganda edi, ular Xudodan qaytib ketmagan bo'lardilar. Isoga bo'lgan haqqoniy imonimizdan uzoqlashmagan va og'ib ketmagan bo'lardik. Uning so'zlariga oddiy so'zlar deb yoki yuzaki qaramagan bo'lardik. Biz yurakni yopib qo'yadigan, oxir-oqibat yiqilishga olib boradigan gunoh bilan o'ynashmagan bo'lardik (Ibroniylarga 3:12-13 ga qarang). Biz yashirincha aytilgan narsalar va qilingan ishlar Hukm payti hammaga oshkora bo'lishini doimo esda saqlardik. Xudo Yermiyahga Yangi Ahddagi odamlar haqida mana nima deganini, eshiting:

«Ular Mening xalqim, Men esa ularning Xudosi bo'laman. Men ularga bitta yurak hamda bitta yo'l beraman, toki ularga ezgulik bo'lishi va ulardan keyin keladigan farzandlariga ezgulik bo'lishi uchun ular hamisha Mendan qo'rqsinlar. Men ular bilan abadiy Ahd tuzaman. Shu Ahdga ko'ra ularga ezgulik qilishim uchun Men ulardan yuz o'girmayman. Ular Mendan kechib ketmasliklari uchun, Men O'z qo'rqvimni ularning yuraklariga solaman» (Yermiyah 32:38-40).

E'tibor bering, Rabbiy: «Ular Mendan kechib ketmasliklari uchun Men O'z qo'rqvimni ularning yuraklariga solaman» – degan. Malayziyadagi xizmatda, Xudo qo'rqvining Ruhi kuchli tarzda namoyon bo'lganini eslayman. Men voizlik qilgan bino, butun Sharqiy yarim sharidan kelgan odamlar, muqaddas kitob maktablarining talabalari, cho'ponlar va boshqa xizmatkorlar bilan liq to'la edi. Xizmatning yakunida ko'plar sahna ro'parasida polga yotib, o'zini to'xtata olmay yig'lar edilar.

Muhit Rabbiyning qo'rquvi bilan kuchli to'lgan edi. Men shunda o'yladim: «Jon Biver, bitta noto'g'ri harakat qilsang yoki noto'g'ri so'z

aytsang – o‘ldim, deyaver!» Shunday bo‘lishi mumkin edimi yoki yo‘qmi, bilmayman, ammo Yangi Ahdda xuddi shunday muhitda noto‘g‘ri ish qilgan ayol va erkak o‘lgan edilar. Ularning ustidan bir lahzada sodir bo‘lgan hukmning natijasida: «Butun jamoat va buni eshitganlarning hammasini buyuk qo‘rquv bosdi» (Havoriylar 5:11).

Xizmatdan so‘ng oldimga Hindistonlik er-xotin kelib, dedilar: «Jon, biz ichimizda aql-bovar qilmas poklikni his etyapmiz».

«Men ham», – deb javob berdim.

Keyingi kun ertalab mehmonxonada o‘tirib, Kalomdan bir oyatni ko‘rib qoldim: «Rabbiydan qo‘rquv sofdir – mangu turadi» (Sanolar 18:10).

Muqaddas Ruh shu zahoti yuragimga gapirdi: «Lyusifer samoda Xudoning moylangan, ajoyib va marhamatlangan ulug‘lovchi farishtasi bo‘lgan. Biroq u Mendan qo‘rqmasdi, shu bois u mangu turmadi».

Aytilganlar ustida mulohaza yuritib, shunday so‘zlarni eshitdim: «Mening taxtimni o‘rab turgan va Mening sharafimni ko‘rgan uchdan bir qism farishtalar Mening qarshimda qo‘rquvga ega emasdilar, ular mangu turmadilar». Bu ochiqliklar meni gangitib qo‘ydi va men yana shunday so‘zlarni eshitdim: «Odam va Havva Mening sharafim huzurida yurgan edilar, ular Men bilan muloqotda bo‘lardilar, ammo Mendan qo‘rqmas edilar. Ular Mening huzurimda mangu qolmadilar».

Rabbiyning qo‘rquvi bir joyda turg‘un qolish uchun kuch beradi. U bizni Xudoga itoat etishda saqlaydi. Imonlilar quyidagicha ogohlantirilgan: «Shuning uchun Uning oromiga kirish haqidagi va‘da hali bor ekan, sizlardan biror kishi kechikkan bo‘lib chiqmasin, deb qo‘rqaylik» (Ibroniylarga 4:1). Qiziq, u «sevaylik» emas, «qo‘rqaylik» degan. Xudoning sevgisi emas, balki Uning qo‘rquvi bizni gunohga qaytishdan asraydi.

Mashhur xushxabarchi

Men, besh yillik muddatining oxirgi yilini o‘tayotgan mashhur xushxabarchini ko‘rishga, qamoqxonaga borganimni hech qachon unutmayman. Uning jinoiy ishi jamoatchilikka keng tarqalgan va bir paytlar bu Shohlikning nomiga ko‘p dog‘ keltirgan edi. Nima bo‘lganda ham, u

qamoqdaligining birinchi yili Rabbiy bilan chinakamiga uchrashdi. To'rt yil o'tib, uni ko'rgani kelganimda, uning aytgan birinchi so'zi shu bo'ldi: «Jon, bu qamoq men uchun Xudoning jazosidan ko'ra, Uning shafqati bo'ldi. Agar men oldingidek yashab yurganimda, men do'zaxga abadiy ravona bo'lar edim».

Bu so'zlar bilan u mening diqqatimni butunlay tortdi. Men Xudoga o'zini bag'ishlagan, Masihning haqqoniy xizmatkori bilan gaplashayotganimni tushundim. Bu odam o'z xizmatini, Isoni sevgani uchun boshlaganini bilardim. Uning Xudoga intilishi hammaga ayon bo'lgan. U xizmatining cho'qqisida, Rabbiydan shu qadar uzoqlashib ketishga qanday aqli yetganiga hayronman. Men undan so'radim: «Isoga bo'lgan sevging qachon sovidi?» U menga qarab, shu zahoti javob berdi: «U hech qachon sovugan emas!»

Uning javobi meni dovdiratib qo'ydi va men e'tiroz bildirdim: «Unda oxirgi yetti yil davomida pochtadan foydalanib, sodir etgan firibgarliging va zino – mahkum bo'lishingga sabab bo'lgan ishlaringning bari haqida nima deysan?»

U javob berdi: «Jon, men doimo Isoni sevganman, biroq oxirgi paytlarda U mening hayotimda eng yuqori hokimiyat Egasi bo'lmay qo'ygan edi». Keyin meni karaxt qilib qo'ygan so'zlarni aytdi: «Jon, Amerikada menga o'xshaydigan millionlab masihiylar bor. Ular Isoni o'zlarining Najotkori deb ataydilar va Uni sevadilar, biroq Uni eng buyuk Xo'jayini sifatida hurmat qilmaydilar».

Shu payt ichimda nur porladi. Birdan, biz Rabbiyni sevishimiz mumkin, ammo bu sevgi o'z-o'zicha bizni yiqilishdan asrab qololmasligini tushunib yetdim. Biz Xudodan qo'rqishimiz lozim. Musoning so'zlarini eslang: «Xudo sizlarni sinash uchun va sizlar gunoh qilmasliklaring uchun Undan qo'rqish sizlarning yuzlaringiz qarshisida bo'lishi uchun keldi» (Chiqish 20:20). Lyusifer, uchdan bir qism farishtalar, Odam va oxirgi kun jamoatlaridagi ko'pchilik imondan qaytgan masihiylar qilganidek, biz ham Xudoga bo'ysunishdan bosh tortmaslik va yiqilmay turish uchun kuchni Rabbiyning qo'rquvi beradi.

O'z najotimizni amalga oshirish

Shu sababli Pavlus bizga deydi: «Qo'rquv va titroq bilan (o'zlaringga umid qilmay, jiddiy ehtiyotkorlik bilan, sezgir vijdon bilan, vasvasalarni fahmlab, Xudoni ranjitadigan va Masih nomining obro'sini to'kadigan narsalardan yuz o'girib) o'z najotingizni amalga oshiringlar (o'stiringlar, maqsadlaringizga va komillikka erishinglar)» (Filippiliklarga 2:12, Kengaytirilgan tarjima).

Hukm kuni har bir fikr, so'z va ishimiz hammaga oshkor bo'lishini unutmagan holda, o'z najotimizni ehtiromdagi qo'rquvda va titroqda amalga oshiramiz. Buni anglash, bizga o'zini ko'nikuvchanlik, ong hushyorligi, sezuvchanlik, itoatsizlik vasvasasini yengish va Xudoga noma'qul bo'lgan barcha narsalarning ustidan g'alaba qozonish qobiliyatini beradi.

Qarang, Pavlus, najotimizni sevgi va inoyat bilan amalga oshiramiz demagan. Uning inoyatidan qonunbuzarlikka yiqilmasligimiz uchun Rabbiyning qo'rquvi kuch beradi. Boshqa jihatdan, Xudoning sevgisi, bizni Xudo bilan yaqin munosabatlarimizni buzishga qodir bo'lgan, qonunchilikdan ham asraydi. Xudoga bo'lgan sevgimiz maqsad va niyatlarimizni qo'llab-quvvatlaydi, ularga ishtiyoq va to'g'rilik ato etadi. Sog'lom munosabatlarga ega bo'lish uchun, bizda sevgining buyuk qudrati ham, Rabbiyning qo'rquvi ham bo'lishi zarur. Shu bois Pavlus Xudoni «Samoviy Otamiz va Avva» («Dadajon» degan ma'noni bildiradi) deb atagan», shu bilan birga Xudoyimiz – «yeb bitiradigan olov» hamdir (Ibroniylarga 12:29). U Sevgi, shuningdek U Adolatli va Muqaddas Hukmdor. Undan qo'rqimaslik – demak, yiqilishga uchrash degani. Iso takror va takror: «...oxirigacha chidagan najot topadi» (Matto 10:22) – deb aytgan.

Bizning ta'sirimiz

Abadiy hukm va jazo haqidagi boshlang'ich ta'limotning mustahkam tushunchasiga ega bo'lishimiz kerakligining yana bir muhim sabablaridan biri, bu bizning boshqalarga ko'rsatadigan ta'sirimizdir. Agarda Xudoning qo'rquviga yetarli darajada ega bo'lmasak, biz Xushxabarni boshqalarga so'zlarimiz yoki ishlarimiz bilan buzib yetkazamiz, bu o'z navbatida, ta'sir o'tkazgan kishilarimizning imondan qaytishiga yoki hatto yiqilishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Poydevorga ega bo'lmagan xushxabarchilar,

o'qituvchilar, cho'ponlar Kalomdan faqat hayotni qay tarzda barakali, gullab-yashnagan va baxtiyor qilish qoidalarini o'rgatadilar. Bu qoidalar hayotimizga sog'liq, moddiy farovonlik, tinchlik, munosabatlarning yaxshilanishi va hokazolarni keltirib, boshida mo'ljallangan vazifasini bajaradi. Biroq abadiy hukm haqidagi poydevorsiz, biz xoch va Isoning ortidan borishning bahosi to'g'risida voizlik qilishdan uyalamiz. Do'stlar orttirish uchun hayotimizni ham berishga tayyor bo'lishimiz kerakligi haqidagi muhim narsani aytmagan holda, voizlik qilishni boshlaymiz.

Agar abadiylik tomonidan harakatlanmasak, hayotga abadiylik nuqtai nazaridan qarashning o'rniga, yolg'iz shu hayot dardida umr kechiramiz. Biz odamlarni, imon otalarimiz «poydevorining me'mori va quruvchisi Xudo bo'lmish shaharni kutayotgandek» (Ibroniylarga 11:10) yashash o'rniga, bir kun bilan yashashga o'rgatib qo'yamiz.

Ha, bu hayotda Xudoning qoidalariga itoatli bo'lishning evaziga mukofot bor. Biz ularni yaxshi o'rganganmiz, shuningdek, keling, biz yerda musofirlar ekanimizni ham unutmaylik. Biz hayotda muvaffaqiyatga erishishimiz kerak, ammo muvaffaqiyat bizning madaniyatimiz talablariga emas, Samoning talablariga mos bo'lishi lozim. Bizning haqiqiy uyimiz bu yerda emas. Xudoning ortidan borish yo'lida bu dunyodan voz kechgan muqaddaslar qanday niyatlar bilan yashashini diqqat bilan o'qing:


«Bu kishilarning hammasi va'dalarni olmasdan, ammo uzoqdangina ko'rib, imonda turib vafot etdilar. Ular quvonib, o'zlari haqlarida: «Yer yuzida g'aribu musofirmiz», – deb e'tirof etar edilar. Chunki bunday deydiganlar o'zlariga vatan izlayotganlarini ko'rsatadilar. Agar ular o'zlari chiqqan vatanni fikrlarida tutganlarida edi, qaytib borishga fursatlari bo'lar edi. Biroq ular afzalroq narsani, ya'ni osmondagini orzu qilar edilar. Shuning uchun Xudo ham ularning Xudosi deb atalmoqdan or qilmaydi, chunki U ular uchun shahar tayyorlagan» (Ibroniylarga 11:13-16).

Xudoning shahrini izlagan ushbu muqaddaslarning uyi kitobimizning qolgan qismida aytiladigan Yangi Yerusolim edi. Bu shahar ahli g'alaba qozonganlar deb nomlanadi. Ularning mukofotlari yerdagi eng a'lo mukofotdan ham aql-bovar qilmas darajada ajoyib bo'ladi.

➤ MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR ➤

3-BO‘LIM: 6, 7-BOBLAR

1. Sizningcha, Isoning ortidan borishdan sizni U bilan yaqinlikdan ko‘ra, ko‘proq qanday manfaatlar o‘ziga jalb etishi mumkin? Yuragingizni asrashda sizga nima yordam berishi mumkin?
2. Imonlilar o‘z imonidan qaytishga qaror qilishlari achinarli hol deb o‘ylaysizmi? Bu narsa ichingizda qarshi tuyg‘uni uyg‘otmaydimi? Biz imonli sifatida shunchaki qo‘rquvda emas, balki Rabbiyning qo‘rquvda yashashimiz to‘g‘risidagi haqiqat nurida, o‘z javobingizni mulohaza eting.
3. Matto Xushxabari (18:23-25) da yozilgan shafqatsiz qul haqidagi masal ustida fikr yuriting. Sizningcha, Xudo kechirim masalasiga nega bu qadar jiddiy munosabatda bo‘lyapti?
4. (Muqaddas qo‘rquvning ta‘sisiz) Xudoning shafqatini noto‘g‘ri tushunish, imonlini yolg‘onga olib kelishini o‘z so‘zlaringiz bilan izohlang.
5. Bizning abadiylik to‘g‘risidagi tasavvurlarimiz, nafaqat bizning o‘zimizga daxldor. Biz boshqalarga ham ta‘sir ko‘rsatamiz. Sizningcha, Masihning ortidan borishda bosh narsalardan diqqatni olmagan holda, qanday qilib yerdagi barakalar (jumladan, sog‘liq, muvaffaqiyat, farovon hayot) haqida ham gapirish mumkin?



4 - Bo' LIM

AFFABEL SHOHLIGI: IKKINCHI SUD KUNI

*K...Men yuraklarni va odamlarning ichini Sinovchi ekanimni bilib
oladilar. Sizlarning har biringizni qilgan o'z ishlaringizga yarasha
taqdirlayman.*

— Vahiy 2:23 (Kengaytirilgan tarjima)

Keling, Xudbin va Saxovatlar bilan nimalar sodir bo'lganini bilish uchun Affabel shohligi kinoyasiga qaytamiz. Siz bilan hammaga har xil mukofot tegadigan, imonlilar ustidan bo'ladigan sudning muhim tomonlarini o'rganamiz.

Imonlilarning ustidan bo'ladigan sud

Endelliklar Buyuk zalga kelgan zahoti, ertalab sud bo'lib o'tdi. Hayot zalida Jeylin bilan ilk bora uchrashuvni sabrsizlik bilan kutayotgan, taxminan besh yuz kishi yig'ilishdi. Saxovat ham, Xudbin ham kutib turganlarning orasidan o'zlarining eski va yangi do'stlarini uchratib, ular bilan qizg'in suhbat qurib turganlarida, zalda birdan shoh qo'riqchilari paydo bo'lishdi. Qo'riqchilar boshlig'i guruhga murojaat etganda, bir lahzada gap-so'zlar to'xtatildi.

— Tez orada o'z shohingizni ko'rasizlar. U har doim sizlarni sevib va ushbu birlashuv kunini kutib kelgan. Siz u bilan hech qachon uchrashmagan bo'lsangiz-da, u sizlarni doim ko'rib turgan. U sizning yuraklaringizga qaragan va hosillaringizni sinagan. U sizning yurak, niyat, fikr, his va ishlaringizni biladi, undan hech narsa yashirin qolgan emas. Bilib qo'ying, uning sudi adolatli. Sizlarning hech biringiz chetda qolib yoki ajratib qo'yilmaysizlar.



Qo'riqchilar boshlig'i ularni Buyuk zalga qay tarzda kuzatib qo'yishlari va ichkarida nimalar sodir bo'lishi haqida yo'l-yo'riq berdi. Yo'l-yo'riqlarni tugatib, u e'lon qildi:

– Shoh Jeylinning huzuriga, birinchi bo'lib, Xudbin taklif etiladi. Biz seni uning oldiga kuzatib qo'yishimiz uchun, oldinga chiq.

Xudbin va uning ustidan sud

Xudbin, Endelning hokimi lavozimida bo'lgani bois, uni birinchi bo'lib chaqirishlarini sezib turgan edi. U shohning tashqi yer-mulkiga yetakchilik mansabida bo'lgani uchun oliy himmatga erishishiga ishonchi komil edi. U qadimiy Muqaddas Kalomda, Endelda sodiq bo'lganlar uchun, Affabel shohligida yuqori o'rin va mukofot haqida yozilganini esladi. U Endeldagi o'zining ikki yillik hokim bo'lgan yillarida, jamiyat gullab-yashnaganini ko'rgandi. Shuning uchun u dadillik bilan shoh bilan uchrashishga borardi.

Buyuk zalning eshiklari ochildi va Xudbinni shohning huzuriga kuzatib qo'ydilar. Ulkan binoning ulug'vorligidan qotib qolib, u zal qariyb liq to'la ekanini ko'rdi. Barcha yig'ilganlar tik turardilar. Xudbin, nima uchun bo'sh joylar qolgani haqida o'yladi, biroq tezgina o'zi uchun javob topdi, sababi shohlik fuqarolari o'rindiqlarga ixtiyoriy ravishda o'tirishgan.

Undan katta masofa uzoqlikda Jeylinning taxti qad ko'tarib turar va u Xudbin tasavvur eta olgandan ko'ra ancha yuqori darajada qudratliroq edi. Uning yana bir nechta kichikroq taxtlarga ham ko'zi tushdi va Jeylinning yordamchilari uchun mo'ljallangan bo'lsa kerak, deb to'g'ri topdi. Uning yuragi qotib qoldi – bir nechta taxtlar hali bo'sh edi. Ulardan biri unga belgilanganiga aminlikni his etdi.

Eski do'st

Xudbin taxtga qarab borarkan, Endelning oldingi sobiq, endi esa Affabel fuqarolarining qiyofalari sharaflari tarzda o'zgarganini ko'rib, qoyil qoldi. Taxt tomon ikki qadam qo'yib, zalning eng oxirida o'tirgan eski do'stini tanib qoldi. Uning ismi Ulfatchi edi. U qachonlardir Xudbin tez-tez kirib turadigan



restoranning sohibi bo'lgan. U gapirishga ruxsat olish uchun qo'riqchilar boshlig'iga qaradi va undan bosh tebranishi ko'rinishida ma'qullash javobini oldi.

Xudbin do'stining oldiga bordi va ular quchoqlashdilar.

– Ulfatchi, ishlaring qanday? – deb so'radi Xudbin.

– Men bilan hammasi joyida, – dedi eski do'sti, – lekin endi mening ismim boshqacha. Mamnun. Hukmdor Jeylin menga yangi ism berdi, qolaversa, uning taxti qarshisiga kelgan har bir quliga u yangi ism beradi. Affabel biz orzu etgandan ko'ra ajoyibroq, – dedi Ulfatchi.

– Bu buyuk zal chiroyli, porloq va hashamatli shaharning kirish joyi xolos. Shoh – biz bilgan barcha kishilardan ko'ra eng ulug'vor, samimiy va sevuvchi ekan. Agar Endelda hozir bilgan narsalarni bilganimda edi, boshqacha tarzda hayot kechirgan bo'lardim. Men ko'proq shohga ma'qul ishlarni qilgan bo'lardim. Endeldagi qisqa muddatli umrimni arziydigan tarzda yashab o'tardim. Agar shunday yashaganimda, hozir unga yaqinroq turgan bo'lardim.

– Sen nimani nazarda tutyapsan? – qiziqib so'radi Xudbin. – Sen Endelning ajoyib fuqarosi eding! Sening restoraning eng yaxshi restoranlardan biri edi va sen ko'plab jamiyat loyihalariga homiylik qilganding. Pul yig'ish chog'larida, tez-tez katta qurbonliklar berarding. Sen Jeylin uchun ko'p qurbonliklarga borgansan!

Ulfatchi boshini chayqadi:

– Men bularni maqtov olish uchun qilganman. Bu narsalar xaridorlarni jalb qilishini bilardim. Mening niyatim odamlarni barakalash emas, balki o'z muvaffaqiyatimni mustahkamlash edi. Men Jeylinning so'zlariga quloq solishim kerak edi. U bizga: «Tushlik yoki kechki ziyofat qilganingda, do'stlaringni, aka-ukalaringni, qarindoshlaringni va boy qo'shnilaringni taklif qilma, toki ular ham seni chaqirib, sen o'z mukofotingni olib qolmagin. Lekin ziyofat qilganingda, qashshoq, mayib, shol va ko'rlarni chaqirgin. Ular senga qaytara olmaganlari uchun sen baxtli bo'lasan, chunki sen haq odamlarning tirilishida mukofotingni olasan». Men bunday



tushliklarni jamiyatning foydasini emas, balki o'zimning manfaatimni ko'zlab uyushtirganman. Men Endeldagi obro'li odamlarning orasida bo'lishni istaganman.


– Lekin sen Endeldagi maktab uchun tez-tez qurbonlik berib turarding. Nahotki bu ham senga Jeylinning iltifotini bera olmadi?

– Men chindan ham Endeldagi maktab uchun qurbonliklar qilganman, biroq tadbirkorlikdan tushgan foydaga mos ravishda emas. Aslida men pullarimning arziyasini qismini berganman. Foydaning katta qismini, sinishga uchrashdan qo'rqib, yig'ib qo'yaverganman. Qolaversa, bunga yana «chiroyli hayot»ga ega bo'lish istagi ham qo'shilgan. Mening chinakam niyatim, o'zimni himoya qilish bo'lgan. Bergan bo'lsam, vijdonimni tinchlantirish uchun, mayda-chuyda pullarni, berganman. O'qituvchilar shohlik va muhtojlar uchun qurbonlik qilish muhimligi haqida ko'p gapirganlari bois, nimadir berishga majbur edim. Natijada, barchasini sevgi va achinish yuzasidan emas, balki majburiyat va aybdorlik hissidan bergan ekanman. – Ulfatchi davom etdi: – Men Jeylinning Affabel shohligini sevadigan beva ayol haqidagi misolini unutib qo'yibman. Yodingdami, u aytgan edi: «Sizlarga rostini aytaman: bu qashshoq beva qutiga pul tashlaganlarning hammasidan ko'ra ko'proq tashladi. Chunki hamma o'zining to'kisligidan tashladi, u esa o'z yetishmovchiligida, o'zidagi borini, hatto bor yeguligini tashladi».

Xudbin o'z uyida uyushtirgan tashrif va tushliklar haqida esladi: u yerda hech qachon kambag'allar yoki hatto o'zidan ozroq puli kamlar ham bo'lmagan. So'ng yer supermarket qurishga topshirilishiga qarshi bo'lganlarga, ma'naviy tovon sifatida besh ming dollar qurbonlik qilganini esladi. O'shanda u ancha katta pul bergandek tuyulgandi, endi esa kam berganidan uyaldi. Buning uchun Jeylinning oldida qanday o'zini oqlasa bo'ladi?

Ulfatchining so'zlari uning xotiralarini buzdi.

– Men Jeylinga va uning xalqiga chinakamiga bag'ishlanganimda edi, men ko'proq vaqtimni maktabda xizmat qilishda o'tkazgan bo'lardim. Agar hamma o'z qismini bajarganda edi, yuk yengil bo'lardi, lekin hamma yukni bir necha kishi ko'tarib borardi. Agar hamma Jeylinning



irodasini bajarganida, hech kim keragidan ortiq kuch sarflamagan bo'lardi. O'ziga bor og'irlikni yuklaganlar, bu yerda yuqori darajada mukofotlandilar. Xulosa shundayki, Jeylinning shohligiga yetarli darajada bag'ishlanmaganim bois, bor-yo'g'i vijdonimni tinchlantirish uchun o'sha arziyas qurbonliklarni berganman.

Hayotim oynaijahonda boshidan oxirigacha ko'rsatilganda, men uning sharafi uchun yashashdan ko'ra shaxsiy qulaylik, xavfsizlik va nufuzim uchun yashaganim hammaga ayon bo'ldi. Endi men bu shaharning eng kichik fuqarosiman. Shu holatimga qaramay, shohning menga bo'lgan sevgisi va eziguligi uchun minnatdorman. Aslida menga berilganlarining birortasiga ham loyiq emas edim. Sening o'zing yaqinda Jeylinning sevgisi va saxiyligi har qanday tushunchadan yuqori ekaniga amin bo'lasan. Men hayotimning oxirigacha uning cheksiz mehribonligi uchun qarzдор bo'lib qolaman.

– Eng kichik fuqaro! – hayratda hayqirdi Xudbin. – Sen bu yerdagi odamlar tabaqalarga bo'lingan, demoqchimisani?

Ulfatchi jilmayib, dedi:

– Ha, qandaydir ma'noda shunday. Bu haqda bizga Endelda aytilgan edi, biroq biz buni jiddiy qabul qilmaganmiz. Ichimizda baribir, bu narsani bilardik: sen hatto shu zalga kirishingda ham, bu haqda uylading. Men sening fikrlaringni eshitdim, sen taxtni egallashni kutyapsan. Sen buni maktabdagi mashg'ulotlarda o'tilgan qadimiy Kalomdan bilasan. Biroq sen Endelda yashaganingda bunga ishonmaganingni bugun tan olishingga shubham bor.

Bizning Endelda kechirgan qisqa vaqtimizda Jeylinga sodiq bo'lgan boshqaruvchilar va fuqarolar ushbu jamiyatda yanada qiziqarliroq o'rinlarni egalladilar. Ular shaharning eng chiroyli joylarida yashayaptilar va shoh bilan ko'rishish sharafiga sazovorlar. Endelda bizdek o'zi uchun yashaganlarga shaharning tashqi tomonidan joy berilgan. Bu bino ichida qanday saf tortganimizdan ham ko'rinib turibdi. Zalning orqa qatorlarida o'tirganlar – adirlarda yashovchilardir. Ularga eng faol mehnat belgilangan. Biz shohlikda eng ahamiyatsiz o'rinni egallaganmiz. O'rta qatorda o'tirganlar tog'da yashaydilar va ko'proq ijodkorlik lavozimida faoliyat yuritadilar, birinchi qatorda



va taxtlarda o'tirganlar esa shohlik markazida yashaydilar. U joyda shohning o'zi ham yashaydi va ularga shohning yonida yashash hamda mehnat qilish imtiyozlari berilgan. Bular shohlikdagi buyuk odamlar hisoblanadi. Do'stim Xudbin, Jeylin – adolatli va sevuvchi hukmdor ekaniga shubhalanma. Senga bugun beriladigan narsalarning hammasi haqiqiy mukofot hisoblanadi. U shafqatli bo'lmaganda edi, hech kim shu shohlikdagi eng ahamiyatsiz ko'ringan joyiga ham kelolmagan bo'lardi, – deb so'zlarini tugatdi Mamnun.

U bularni aytgach, o'z joyiga qaytib bordi. Qo'riqchilarning boshlig'i Xudbinga yo'lida davom etishga ishora qildi.

Mashhur o'qituvchi

Xudbin oldinga qarab yana bir necha qadam qo'ygan ediki, yana bir tanish qiyofani ko'rib qoldi. Bu odam u hurmat qiladigan Rag'batchi edi. U maktab o'qituvchisi bo'lib, Xudbin uni atoqli inson deb bilardi. U doimo o'z fikrlarini batafsil ifodalar, bilimlarini boshqalar bilan bo'lishar va Xudbinni o'z nutqlari bilan ruhlantirardi. Bu ajoyib o'qituvchi, dars berganida talabalar ilhom va o'sishni his etardilar. Boshqa o'qituvchilar ham o'quvchilarni kayfiyatini ko'tarardi, lekin vaqti-vaqti bilan ular o'ta darajada jiddiy tuyular, ularning so'zlari og'ir tanbehni sezishga majbur qilardi. Rag'batchining darslarida hech qachon bunday narsalar sodir bo'lmagan. Shuning uchun u Xudbinning eng sevimli o'qituvchisi edi.

Xudbin qo'riqchilar boshlig'idan sobiq o'qituvchisi bilan gaplashish uchun qayta ruxsat so'radi. Qo'riqchi ruxsat tariqasida yana boshini chayqadi. Xudbin Rag'batchining oldiga keldi va ular bir-birlari bilan iliq salomlashdilar.

Xudbin unga savol berishdan o'zini tiyib tura olmas edi:

– Nega sen bu eng orqa qatorda o'tiribsan?

– Bu mening holatim va mening joyim. Men Affabeldagi eng kichik fuqaroman. Men adirda yashayman va suvchi bo'lib ishlayman.

– Nima? – qichqirib yubordi Xudbin. – Sen maktabda eng zo'r o'qituvchilardan biri eding! Nega sen eng kichik fuqaro bo'lib qolding? Sen taxtda o'tirganlarning orasida bo'lishing kerak.



– Bu buyuk yig’inda birinchi o’ringa va Jeylinning boshqaruvchilari orasida bo’lishga erishmaganimning bir nechta sabablari bor! Uzoq gapirib o’tirmasdan, o’zimning ahmoqligim to’g’risida qisqa qilib so’zlab beraman. Yodingdami, Jeylinga bag’ishlangan odamlar o’zlarini quruvchilar bilan tenglashtirardilar? Maktabda bizga har yili shu haqda o’rgatishardi. Endeldagi o’qituvchilarning eng muhim majburiyatlaridan biri o’quvchilarning hayotini qurishdan iborat edi. Biz buni so’zlar orqali, shaxsiy hayot tarzimiz va ishlarimiz bilan amalga oshirardik. Menga ham yo’riqchi sifatida shunday buyuk imtiyoz va mas’uliyat berilgan edi. Men talabalarga Jeylinning qoidalarini va yo’llarini o’rgatdim. Shunga qaramay, ko’p narsalarda yaxshi o’qituvchi bo’la olmadim.

Mening ta’limotim bir tomonlama bo’lgan. Men Jeylin xizmatining, faqat ijobiy jihatlariga urg’u berganman. Men aksariyat talabalarni uzoq muddatli oqibatlarini o’ylamay, faqat muvaffaqiyatga intilishga ruhlantirganman. Ularning haqiqiy maqsadi Jeylinga ma’qul bo’lish ekanini o’rgatmaganman. Men ularga faqat hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun, qanday qilib shohlik qoidalaridan foydalanish kerakligi haqida ta’lim berganman. Binobarin, men ularni jamiyatimizdagi qopqon va to’rlar haqida hech qachon ogohlantirmaganman.

Qadimiy Kalomda, men Jeylinning hamma qonunlarini o’rgatishim shartligi yozilgan. «Har bir odamni Jeylinga barkamol taqdim qilish uchun har bir odamni o’qitib, barcha donoliklarni o’rgatish zarur» edi. Men ta’lim berganman, biroq odamni o’qitish va ogohlantirish uchun jon kuydirmaganman. G’oyat ijobiy ustoz bo’lib, sog’lom ogohlantirishlarni bermaganman, ko’plarni hayotini qurganman, biroq Jeylinga ko’p sharaf olib kelmaganman. – U boshini egdi. – Ularning ko’pchiligi endi mahkum bo’ldilar. Xudbinning yuzidagi esankirashni sezib, o’qituvchi yana qaytardi:

– Ha, ular halok bo’ldilar. Ularning ko’plari mening bir tomonlama ta’limotim sharofati bilan endi la’natlangan Loun yerida yashayaptilar. Men talabalarga ularga kerak bo’lgan narsani emas – faqat ular istagan narsani berdim. Men shuhratimni yo’qotishni istamasdim. Mana nima uchun noto’g’ri ta’limot berganman. Men talabalarning zaif va rasvo jihatlariga barham bermadim, ularning xudbin istaklarini ma’qullaydigan bilimlarni berdim, xolos.



Qadimiy Kalomda ustozlarga berilgan ogohlantirish yodingdami: «Ular tinchlik bo'lmaganida «Tinchlik», – deb, Mening xalqimni adashtirganlari va u devor qurayotganida, bular uni loy bilan suvayotganlari uchun Men ularni shunday jazolayman. Devorni loy bilan suvayotganlarga uni qulab tushishini aytgin. Sharros yomg'ir quyadi va sizlar, toshli do'llar, yog'asizlar hamda bo'ronli shamol uni vayron qilib tashlaydi». Ko'pchilik talabalar hayotlarini o'tkinchi narsalar bilan qurdilar va uni himoya qildilar, biroq men yuragimning tubida, bu devorlar mustahkam emasligini bilib turib, ularni ogohlantirmadim. Men hammasi joyida bo'lmasa ham, ularga hammasi joyida deb aytdim. Men ularning tanlagan yo'llarini ma'qullab, ularni yanada kuchli yanglishtirdim.

Men hozir Loundagi o'quvchilar uchun qayg'udaman. Ularning atigi bir nechtesi Affabelda qoldilar. – Orqasiga qarab qo'yib, ovozini pasaytirib, pichirlab davom etdi: – biroq ularning ko'pchiligi orqa qatorlarda o'tirishibdi. Ular o'z hayotlarini behuda sarfladilar va ularning hamma erishgan narsalari to'g'ri shu Hukm taxti qarshida yonib ketdi.

– Shu taxt odida yonib ketdi? – Xudbin qayta so'radi.

– Ha, – javob berdi o'qituvchi. Nahotki qadimiy Kalomda yozilgan so'zlar, yodingda yo'q: «Bu poydevor ustida kimdir oltindan, kimdir kumush va qimmatli toshlardan, kimdir esa yog'ochu xashak yoki somondan qurmoqdaki, har bir kishining ishi oshkor bo'ladi, chunki o'sha kun buni ko'rsatadi. Bu olovda fosh bo'ladi va olov har kimning ishi qanday ekanligini sinaydi. Agar kimning qurgani oxirigacha tursa, u mukofot oladi. Kimning qilgan ishi yonib ketsa, u ziyon ko'radi. Biroq o'zi najot topadi, lekin olov ichidan qutulgandek bo'ladi».

Qadimiy havoriy aytgan poydevor – bu ikkalamiz ham yaxshi bilib turganimizdek, inson uchun Uning shohligiga borishning yagona yo'li bo'lmish, Jeylinning hokimiyatiga bo'ysunishdir. Biz chin dildan unga bag'ishlangan bo'lsak, mana shu poydevorda qurishimiz lozim.

Hayotimdagi qadriyatlarni qadimiy Kalom bilan o'lchaganda, Jeylinning haqlik talablarini oqlamadim va men ta'lim bergan odamlarga ta'sir o'tkazishda muvaffaqiyatsizlikka uchradim. Men o'z nufuzimdan talabalarni



Affabel shohligiga tayyorlash uchun foydalanmadim va ko'rib turganingdek, o'z mukofotimni qo'ldan boy berdim. Buyuk ustoz Pavlusning, ta'sir o'tkazishi kerak bo'lgan odamlar haqida aytgan so'zlarini esla: «Zero bizning umidimiz, quvonchimiz va maqto'v to'jimiz kim ekan? Rabbimiz Iso Masihning kelishida, Uning huzurida bo'ladigan sizlar emasmi? Chunki sizlar bizning shuhratimiz va quvonchimizsiz».

Men endi ta'lim berishni boshlaganimda, Jeylinning haqiqatlarini yaxshi bilardim, ammo o'zimning qat'iyatsizligim, boshqalarga ma'qul kelish istagi va nihoyat, mag'rurligim meni boshqarishiga yo'l qo'yib berdim. Oradan ko'p vaqt o'tmay, men o'z yo'nalishimdan boshqa tomonga burilib ketdim. Boshida voizlik qilganim bo'yicha yashardim. Lekin haqiqatdan uzoqlashgan sari, Jeylinning shaxsiy hayotimga oid ogohlantirishlarini ko'zdan qochirdim. Men o'zimni aldab yashadim. Bu shohlikda mashhurlik va shuhratga bo'lgan nazar Endeldagidan butunlay farq qiladi. U yerdagi ulug' sanalgan narsalar, bu yerda ahamiyatsiz deb hisoblanadi.

Xudbin o'ta jiddiylilik bilan so'radi:

– Mening do'stim Ilhomchi Jeylin har bir kishiga yangi ism beradi, dedi. Sening isming hozir nima?

Ustoz jilmaydi:

– Mening ismim Mo'min.

So'ng u boshini xam qilib, o'z joyiga yo'l oldi. Xudbin qo'riqchilar boshlig'iga burilib qaradi va u eshitganlarining bari haqiqat ekanini bildirib, boshini tebratdi.

Xudbin taxt tomon yurdi. Endi unda boshidagi dadillikdan hech narsa qolmaganini sezdi. U o'z hayotini eslardi. U qanday niyatlar bilan yashagan edi? U Jeylinning sharafiga uchun shaharni boshqarganmi yoki o'z xudbin shuhratparastligidan kelib chiqib, hayot kechirganmi? U o'z hayotini qay tarzda yashab o'tdi? Hayoti Jeylinning so'zlariga mosmidi, yoki u ham o'zini aldab yashadimi? U boshqalarga o'rnak bo'lganmi yoki shaxsiy muvaffaqiyati yo'lida ulardan foydalanganmi?



Hokim

Xudbin Buyuk zalning o'rta qismi orqali o'tdi va u joyda o'tirgan kishilar, agar aytilish joiz bo'lsa, basavlatroq ko'rinishardi. Har birining nigohida sevgi va samimiyat bor edi. Ularning ko'zlaridagi nur va yuzlaridagi mehribonlik ifodasidan, u o'zida ozroq yupanch sezdi. Bu unga bag'oyat dalda bo'ldi, negaki oldinda kutib turgan narsalar haqidagi o'ylar uni butkul ikkilantirib qo'ygandi.

U taxtga yaqinlashguncha, oradan butun manguilik o'tib ketgandek tuyuldi. Har yangi qadamida, Endeldagi hayotining jihatlarini yanada ravshanlashib boraverdi. Hokimligida erishgan yutug'i tufayli, unga boshqaruvchilik lavozimini taklif etishlariga hali ham umidvor edi.

Xudbin endi shohona kiyingan, boshlarida tojlari bor boshqaruvchilar orasida turardi. Har biri qo'lida saltanat hassasini ushlab turardilar. Ular haqiqatan bu buyuk shaharning faxriy fuqarolari edi. Xudbin bu odamlar naqadar sharafta to'lib turganini ko'rib, lol qoldi.

Ularning orasida shahar kengashi a'zosining kotibasini ko'rib qoldi. «Nega u taxtda o'tiribdi?» – deb hayron bo'ldi Xudbin. U hech qanday katta narsa qilgani yo'q. Qiz undan bir yil ilgari maktabni tamomlagandi. Uni yaxshi tanimasdi, chunki qiz doimo o'zini vazmin tutardi.

Qiz bir qadam oldinga chiqdi, qo'riqchilar boshlig'i unga ta'zim qildi. U iliq tabassum bilan ko'rishib, Xudbinni quchib qo'ydi.

– Xudbin, xush kelibsan. Mening ismim Sabrli. Jeylin, uning oldiga borishindan avval, men sen bilan gaplashishimni so'radi. Men Affabeldagi uning hokimlaridan biriman.

– Hokim? Sen qanday hokim bo'lishing mumkin? Endelda sen hech narsa qilganing yo'q. – Uning so'zlari qo'pol va noo'rin chiqqanini anglab, hijolat tortdi.

Sabrli to'g'ri tushunib, boshini irg'adi.

– Hijolat bo'lma. Shaharning ushbu Buyuk zalida yolg'onga o'rin yo'q. Sen ichingdagini gapirding. Endeldagilar shu qadar o'z obro' va siymosi uchun qayg'urardilarki, o'zlari sezmagan holda, beixtiyor yolg'on



gapirardilar. Bu yerda soʻzlar juda muhim ahamiyatga ega, qolaversa, niyat va maqsadlar yanada qimmatliroq, modomiki ular koʻrinib turadi. Buni oʻzing bilib olasan, binobarin har bir soʻzing uchun hukm qilinasan.

– Har bir soʻzim uchun? – Xudbin hayqirib yubordi. – Sen har bir suhbatdagi, har bitta soʻzni nazarda tutyapsanmi?

– Ha, – javob berdi Sabrli, – har bitta soʻzing uchun. Hukmdor Jeylinning qadimiy Kalomidagi gaplari yodingdami: «Lekin sizlarga aytamanki, odamlar aytadigan har qanday behuda soʻzlari uchun hukm kunida javob beradilar. Chunki oʻz soʻzlaring bilan oqlanasan, oʻz soʻzlaring bilan hukm qilinasan». Behuda soʻzlar bu Jeylinning tabiatiga zid boʻlgan foydasiz, bekorchi va ahmoq soʻzlardir.

– Men doimo yirik yolgʻon yoki ezgu ishlarimiz va ulkan yutuqlarimiz qatorida aytilgan haqiqat soʻzlarimiz uchun hisobot beramiz, deb oʻylardim. – Bir lahza jim turib, davom etdi: – Meni nima kutyapti?

Sabrli javob berdi:

– Qadimiy Kalom aniq-ravshan qilib aytgan: «Odam oʻz ogʻzining hosilidan ezgulikka toʻyadi va odamga qoʻllarining ishiga qarab qarimta beriladi». Shunday qilib, sen nafaqat ishlaring uchun, qolaversa, har bitta soʻzing uchun ham sud qilinasan. Bularga yaxshi va hatto ogʻzingdan bexosdan chiqib ketgan, behuda gaplaring ham kiradi. Lekin faqat soʻzlaring va ishlaring emas, shuningdek ularning ortida turgan niyatlaring ham oʻrganiladi. Yana ongingdagi fikrlar uchun ham sud boʻlasan. Yodingda boʻlsin, Jeylinning sudi adolatli «yurak va ongni sinaydi»; uning oʻzi shunday degan: «Men, Jeylin har bir odamning yoʻliga yarasha va uning ishlarining hosillariga yarasha unga qarimtasini berish uchun yurakning ichiga sinchiklab qarayman va ichini tekshiraman». Nafaqat har bir harakat va soʻz sinovdan oʻtadi, shuningdek ularning ortida turgan maqsadlar ham.

Mana nima uchun meni taxtda koʻrganingda gangib qolding. Sen meni Endelda ahamiyatga ega boʻlgan yutuqlaringma koʻra muhokama qilding. Jeylinning sudi boshqacha, sen buni hozir koʻrishni boshlayapsan va tez orada toʻla-toʻkislikda koʻrasan. Aziz birodarim, sen Endeldagi hayoting uchun adolatli mukofot olasan.



Xudbin hech qachon bu qadar keskin, shu bilan birga, nihoyatda sevgi bilan aytilgan, unga umuman notanish bo'lgan haqiqatni eshitmagan edi. Endi u Jeylinning sevuvi va shafqatli hukmdor ekanini biladi. U buni hozirning o'zida, Jeylinning hokimidan qisman sezdi. Bu sevgi bilan amalga oshirilgan tuzatish edi. U birdan, sevgi odamlarga yoqishdan iborat emas, sevgi – bu haqiqat ekanini anglab yetdi.

Sabrli davom etdi: «Shohing seni kutmoqda». Shunday deb, u orqaga yurdi, qo'riqchilar boshlig'i esa Xudbin taxtga yaqinlashishi kerakligini ko'rsatib, bosh chayqadi. Ular Xudbinni pastda, boshqaruvchilarning taxti yonida kutib turadilar.

Xudbin Jeylinning qarshisida

Xudbin ulug'vor taxt qarshisidagi maydonga zinalardan unga o'rgatganidek, ehtiyotkorlik bilan ko'tarildi. So'ngra u tepaga qarab, shohni ko'rdi. Bu zalda hech kim Jeylin kabi ajoyib, ulug'vor va sharaqli emas edi. Uning ziyosi odamni o'ziga maftun qilar va hayratlantirardi. Xudbin hech qachon bunday odamni uchratmagandi. U shu zahoti, uning donoligi va kuchiga qarshi tura olmasligini tushundi.

Ilk bora Jeylinning ko'zlariga qarab, shoh Xudbin tasavvuriga sig'mas darajada, g'oyat muloyim va benihoya dahshatga soluvchi ekanini ko'rdi. Uning nigohi Xudbinni teshib o'tardi, u o'zini yalong'och sezib, shohning ko'zidan hech narsani yashirib bo'lmasligini tushunardi. Xudbin suddagi iltifotga bo'lgan har qanday umidini yo'qotdi, lekin bu uni boshqa qiziqitmasdi. U hozir hamma narsadan ko'ra haqiqatni istardi.

– Mening shohligimga xush kelibsan, Xudbin, – dedi Jeylin. – Men bu fursatni kutgandim. Sen Endelda mening xalqimga hokimlik qilding. Sen Affabelda boshqaruvchi bo'lishga va taxtlardan biriga o'tirishga sazovormisan?

U odatda o'ziga ishonadigan, hech hayajonlanmaydigan odam edi, hozir esa uning tili aylanmay qoldi. Oldinlari u sardor bo'lishdek buyuk vazifani bajarishga qodirman, deb hisoblardi, biroq oxirgi gap-so'zlardan so'ng, bu fikr ham yolg'on bo'lishi mumkin deb o'yladi.



Jeylin yaqinroq taxtlarda o'tirgan boshqaruvchilardan biriga murojaat etdi:

– Xudbin, shohlikning foydasiga ta'sir o'tkazgan odamlarning soni qancha?

Bor-yo'g'i bir nechta ism aytiladi. Bu narsani eshitib, Xudbin qotib qoldi va sukunat holatida turardi. Shoh o'sha boshqaruvchiga yana savol berdi:

– Sabrli qancha odamga ta'sir qildi?

– Besh mingtadan ziyodroq kishilarga, shohim, – deb javob berdi u.

– Qanaqasiga? – g'uldiradi Xudbin. – U oddiy kotiba, men bo'lsam hokim edim. Qanday qilib, biz ta'sir o'tkazgan odamlar sonining farqi bu qadar katta?

Jeylin jiddiy tarzda dedi:

– Men qancha odamga, shunchaki ta'sir o'tkazding deb emas, shohlikning foydasiga qancha odamga ta'sir o'tkazding deb so'radim! – Uning ohangi ozroq yumshadi, lekin qat'iyligicha qoldi. – Hatto endi Mo'min ismi ostida tanishgan, sobiq o'qituvching Ilhomchi ham sendan ko'proq odamlarga ta'sir qilgan. Biroq ularning kamchiligi maqsadga erishdilar. Shu bois u shahardagi boshqaruvchilar orasidan joy olmadi. Men aytayotgan ta'sir, agar u mening so'zlarim va mening shohligimga mos bo'lsa, Hukm vaqti bardosh beradi. – Jeylin bir to'xtab, davom etdi: – Men senga Sabrli qay tarzda besh mingdan ortiqroq odamga ta'sir qilganini ko'rsatmoqchiman. U maktabga saxiylik bilan qurbonlik berar va boshqa yordamlarni ko'rsatardi. Maktabdan yordam olganlarning barisi uning hisobiga o'tkazildi.

– Lekin men ham maktabga qurbonlik qilganman.

– Sening qurbonliklaring vijdoningni tinchlantirish, shaxsiy shuhratga erishish va uni tiklash uchun qilingan. Sabrli esa odamlarni va shohlikni sevgani uchun qurbonlik bergan. Sabrli Beshafqat ismli odamni xizmatga olib keldi. Hozir u Hayot zalida turibdi, o'z navbatida oldimga keladi. Unga Xushxabarchi degan ism beriladi, negaki u mening yo'llarimni buyuk xabarchisi bo'ldi. U bir o'zi minglab odamlar hayotiga



ta'sir etdi. Uning ta'siri ostidagi odamlar ham Sabrlining hisobiga qo'shildi, chunki u Beshafqatni xizmatga olib kelgan, ta'lim bergan va uni maktabda qo'llab-quvvatlagan.

Xudbin Beshafqat haqida hali Endelda eshitgan edi. U Beshafqatni o'z e'tiqodida o'taketgan va ashaddiy deb hisoblardi. Beshafqat shahar gazetalarida tez-tez maqolalar yozib turar va ushbu maqolalarda, fuqarolarda shohlikka nisbatan yetarli darajada bag'ishlanish yo'qligi haqidagi o'z fikrlari bilan bo'lishardi. U maktabni kengaytirishda qo'llab-quvvatlashlarini so'rab, ko'pchilik endelliklarga qo'ng'iroq qilar va shahar kengashining a'zolariga elektron pochtdan xat yuborardi. Xudbin yer maktab emas, supermarket qurishga topshirilishi uchun ovoz berganida, Beshafqat o'z noroziligini oshkora ko'rsatdi. Binobarin, Xudbin Beshafqatni unchalik yoqtirmasdi. U Beshafqat nima uchun kurashgan bo'lsa, ularning barini Jeylinning qonuni bo'yicha qilgani va Affabelning foydasini ko'zlaganini fahmlab, uyalib turardi. Qanday qilib u bunchalik ko'r bo'lgan ekan?

Jeylin Sabrli qay tarzda Endelda shohlik yo'lida odamlarga ta'sir o'tkazgani to'g'risida so'zlashda davom etdi. U qizning birga qo'shganda ulkan natijalarga olib kelgan oddiy ishlarini sanab o'tdi. Sabrli hamma bilan chin yurakdan, do'stona munosabatda bo'lardi. U muhtojlarga saxiylik ko'rsatardi. U haqiqat yo'lida matonatli edi.

Sabrli haqida aytib bo'lgach, Jeylin Xudbinning hayotini batafsil ko'rib chiqdi. Sabrli ogohlantirganidek, har bir so'z, har bir maqsad va harakat baholandi.

Xudbin shohning nomi uchun qilgan bir talay yaxshi ishlarini ko'rdi, lekin baribir xudbin niyatlari orqasidan quvib, shaxsiy xavfsizligini o'ylab va obro'sini yo'qotib qo'yishdan qayg'urib amalga oshirgan qanchadan-qancha ishlaridan g'amga botdi. Uning hayoti ko'zdan kechirilib bo'lgan zahoti, u mahkum ekanini sezdi.

– Men hayotimning oxirigacha jazoga loyiqman, – deb xitob qildi u. – Men Lounga sazovorman. Tasarrufimda menga berilgan mas'uliyatga ega bo'la turib, juda ko'p narsani sarfladim, lekin juda kam narsani qaytara oldim!



U alamdanda yonar, yuzlaridan duv-duv yosh to'kilardi. Ushbu Buyuk zalga dadillikda kirgan bo'lsa, endi esa cho'pga suyanib turardi. Uning oxirgi umidi bo'lmish shafqatga ko'z tikardi. U shohning Lounga surgunlik jazosi haqidagi hukmini eshitishga ko'nib turardi.

Bir lahzalik sukunatdan so'ng, shoh nihoyat dedi:

– Xudbin, sen mening qulimsan, naqadar ko'p narsalarni behuda sarflagan bo'lsangda, sen menga ishonib va mening shohligimga bo'ysunib kelding. Men seni sevaman va umringning oxirigacha mening shohligimda yashashga taklif etaman.

Xudbin tosh bo'lib, qotib qoldi. U ko'zlarini ko'tardi va yana ko'z yoshlari daryo bo'la boshladi, lekin endi qayg'udanmas, xursandchiligidan yig'lardi. Uni buyuk shohning shafqati, mehribonligi uchun minnatdorlik to'ldirardi. Bir zumda Jeylinning tabiati haqida barcha eshitganlari, kutilmaganda butkul tushunarli bo'lib qoldi. Bor-yo'g'i bir soniya oldin u ilgari xayoliga ham keltirmagan hijolat va alamni his etib turgandi. U surgun va jazodan boshqa hech narsaga sazovor emas – u mahkum bo'lishi kerak edi, uning hayoti buning ochiq-oydin isboti edi. Mana endi shoh, o'zining ulug'vor shahrida uni qutlaganida, eshitish mumkin bo'lgan eng muloyim va yaxshi so'zlarni eshityapti. Naqadar buyuk shafqat! Qanday ajoyib sevgi!

Xudbin uning qariyb barcha ishlari yonib ketayotganini ko'rar, ammo quloqlarida ushbu so'zlar yangrardi: «Men seni sevaman va o'z shahrimda qutlayman». U do'sti Mamnun to'g'ri aytganini tushundi. Shohning har bir harakati, har qanday kutilgan narsadan-da yuqori ekan.

Shoh yana dedi:

– Xudbin, endi sen boshqa bunday ism bilan atalmaysan. Mana men senga yangi ism beraman. Mening shohligimda sen Qanoatli deb atalasan. Men senga adirda uy hozirlab qo'ydim, u yerda sen manzara tasviri rassomchiligi bilan shug'ullanasan. Sen bu shaharda boshqaruvchi bo'lmasangda, menga tashqi o'lkalarni yuritishda ko'maklashasan.

– Sen bilan tashqi o'lkalarni yuritish? – qayta so'radi Xudbin.

– Bu shaharda yashaydiganlarning barisi boshqaruvchilar hisoblanadi,



– deb javob berdi Jeylin. – Mening o'lkalarim boshqa sayyoralargacha cho'zilgan shohligimda yana ko'plab shaharlar bor. Bu shaharlarning aholisi Affabel fuqarolari singari, Endelda bunday tayyorgarlikdan va suddan o'tmaganlar. Sen Affabelda boshqaruvchilik qilmasang-da, menga dunyo miqyosida tashqi ishlarni yuritishda yordam berasan. Sening to'g'ridan-to'g'ri vazifang, Bendjilla qit'asidagi yigirmata shahardagi rassomlarni manzara chizishga o'rgatish, xizmat qilish va ularni boshqarish bo'ladi.

Qanoatli boshini egib, zor yig'lardi. Shohning ezguligi aql-bovar qilmas darajada buyuk edi.

Shoh stol yoniga borib, u yerdan nimanidir oldi va uning oldiga qaytib keldi. Qanoatli turgan joyga tushib, dedi:

– Endi bu mevani ol va yegin.

Qanoatli shohning qo'lidan mevani oldi va uni yedi. Meva u hech qachon tatib ko'rmagan ta'mga ega edi. U ongni va yurakni yorug' qilgandek tuyuldi. Uning fikrlari buyuk muhabbatga va xizmat qilish istagiga to'lib-toshdi. U mevani yegunicha, ilgarigi alami va yovuz fikrlari uni tark etdi. U o'zini yangilangan, baxtiyor, umid va imonga to'la his etdi. Bir zumda, o'qituvchilari oldin aytgan hayot daraxtining mevasidan yeganini anglab etdi. Qanoatlining yuzida keng tabassum yorishdi, Jeylin esa bajonidil uni kuzatib turardi.

So'ngra Jeylin dedi:

– Orqangga burilib, oilangga qara.

Qanoatli shu zahoti qayrildi. U hanuz u yerdagilarning barchasi uning hayotidagi ikir-chikirlarni ko'rgani va eshitganidan hijolat chekayotgandi. U zaldagilarga burilganida, minbarlar olqishlar va xursandchilik hayqirig'i bilan jarangladi, musiqa yangradi va shohlikning aholisi raqsga tusha boshladi. Qanoatli bu muhtaram kishilar unga shu qadar sevgi va samimiy munosabatda bo'lganiga zo'rg'a ishonardi. Bu narsa uni Endeldagi barcha xatolaridan butunlay shifoladi. Endi u butkul toza.

Orqasiga qayrilib, Jeylinning yuzida eng sharaflı tabassumni ko'rdi. So'ng u shohning ko'ziga e'tibor berdi. Ular Qanoatliga buyuk sevgi va iliqlik bilan qarardi, u oldin bunaqasini hech qachon uchratmagan. Endi u Sabrli va



boshqalar singari, Jeylinning fikrlarini eshita olardi: mamnunlik, iqrorlik va kuchli darajada sevadigan odamlari uchun ko'pdan-ko'p farovon yillarni istashi haqidagi fikrlarni. Qanoatli tiz cho'kdi va shohga ta'zim qildi. Shoh uni oyog'iga turg'izdi va qattiq quchib, tabassum bilan dedi:

– Xush kelibsan, do'stim.

Keyin Qanoatlini zalning oxirgi qatorlaridan biriga kuzatib qo'yishdi, u o'sha joydan unga tanish endelliklar ustidan bo'ladigan sudni kuzatishi mumkin edi. Endi har bir ko'z yoshi artildi. Hech qanday qayg'u, alam yoki azob qolmadi, hamma eski narsalar o'tib ketdi.

Saxovat va uning ustidan sud

Tong davom etardi va mana Saxovatdan bo'lak, hamma Sud zaliga navbat bilan chaqirilib bo'lindilar. U bir o'zi qolgan edi. Lekin u zerikishga ulgurmas, chunki kutish zalida buyuk shahar mualliflari tomonidan yozilgan bir talay kitoblar borligini ko'rdi. Qo'riqchilar boshlig'i Saxovatni olib ketish uchun kelganida, u «Affabel yilnomasining ikkinchi kitobi» ni o'qiyotgan edi.

– Saxovat, seni shohing kutyapti.

Uning yuragi sevinib ketdi. U hozir butun umr ko'rishni istagan va naqadar kuchli sevgan shaxsni ko'radi. U bu fursatni ko'p yillar kutgan edi va mana hozir bu fursat keldi. Qo'riqchi tabassum qildi va ular birgalikda zalga kirdilar.

Zalning eshiklari ochilishi bilan, u ko'rganlaridan lol qoldi. Shunga qaramay, uni kirish joyidan uzoqda qad ko'tarib turgan, Jeylinning taxti ko'proq o'ziga jalb etardi. Shu damdan boshlab, u faqat shohga qarardi. Saxovat zaldagi Affabelning shohona fuqarolariga ko'z yugurtirdi. «Oh, qanday sharaflı odamlar! – deb o'yladi u. – Nahotki men ham qachondir ularning biriga aylansam?»

O'tib ketayotib, u hamma unga ta'zim qilayotganini ko'rib qoldi. Nima uchun bu ulug'vor erkak va ayollar unga ta'zim qilyaptilar? U taxtga yaqinlashgani sari, bu ajoyib odamlarning kiyimlari nur taratardi. Qanday qilib, bu odamlar unga ta'zim qilishi mumkin?



Ularning orasida bir nechta Endeldan bo'lgan tanishlarini ko'rdi. Ularning tabassumi hayrat va sevgini aks ettirardi. U to'xtab, har birini quchoqlagisi keldi, ammo u hozir buning vaqti emasligini sezdi. U Toshbag'irni ko'rib, o'zini yo'qotib qo'ydi. Yugurib borib, uni qattiq quchoqladi. U ham quvonchda turardi.

Toshbag'ir unga ta'zim qilib, dedi:

– Yangi uyingga xush kelibsan.

– Toshbag'ir, nega sen menga sajda qilyapsan? – deb so'radi Saxovat. – Men Xudo emasman, menga sajda qilma.

– Sajda qilish va hurmat bildirishning farqi bor, – javob berdi, fuqaro Yarashgan. – Yolg'iz hukmdor sajda qilishlariga loyiq, lekin bu shohlikda, Endelda yaxshi xizmat qilgan kishilarga hurmat bildirishadi. Bundan tashqari oramizdagi boshqaruvchilarni ham e'zozlaymiz. Endelda hurmat qilishning ahamiyatini tushunmagan ekanmiz. Saxovat sen Endelda menga xizmat qilgan eding. Agar sen shohga itoat etmaganingda, men bu yerdan emas, la'natlangan Loun yeridan maskan topardim. Avvalambor, men shohdan qarzdorman, biroq sendan ham minnatdorman. Men umrimning oxirigacha senga bajonidil xizmatda bo'laman va hurmat qilaman. Saxovat, mening ismim endi Toshbag'ir emas. Hukmdor Jeylin menga yangi – Yarashgan deb ism berdi. Menimcha, shohning eng shafqat ko'rsatgan insoni, men bo'lsam kerak.

– Yarashgan, qanday ajoyib ism! – dedi Saxovat. Aziz birodarim, sen menga xizmat qilishingga loyiq tarzda, men senga Endelda xizmat qilganim yo'q. Men buni seni sevganim, hayoting va kelajakdagi taqdiring uchun qayg'urganimdan qildim.

– Men senga xizmatda bo'lishim va e'zozlashimning sababi, sening men uchun qilgan ibodatlarining. Shoh seni o'z himmati bilan mukofotlaydi. Sen Jeylinga bo'lgan sevging bois mehnatda bo'lding hamda hech narsani tahsin va mukofot uchun qilmading. Jeylin uning sevgisi bilan boshqalarga xizmat qilganlarga marhamatli. Endelda bo'lgan vaqtda, nafaqat uning maqsadini anglash, qolaversa, uning yuragidan ham joy olish muhim edi. Sen bu ikkala vazifaning ham uddasidan chiqding, aziz singlim, yuragingdagi niyatlar menga ham o'tdi. Mana nima uchun Endelda



qolgan oxirgi bir hafta davomida, bor qalbim bilan ko'plarga xizmat qilishga intildim. Binobarin, mehnatim qisqa muddatli bo'lmasin, mo'l-ko'l mukofotlandim.

Saxovat jilmaydi.

– Yarashgan, men sen uchun juda ham xursandman. Men umrimning oxirigacha senga xizmat qilaman.

– Saxovat, sen hozirdan Affabelda uzoq yashagan kishiga o'xshab gapiryapsan, – javob berdi Yarashgan. – Chindan ham biz bu buyuk shaharda bir-birimizga xizmat qilish uchun yashaymiz. Aslida bizning ustimizdan qo'yilgan boshqaruvchilarning o'zlari eng katta xizmatkorlar hisoblanadi. Bizga eng qiyin vazifa berilgan va biz bundan zavqlanamiz. Bu yerda hamma narsa Endeldagidan umuman boshqacha. Boshqaruvchilar ularga xizmat qilishlarini o'ylamaydilar, aksincha, boshqalarga xizmat qilish imkoniyati berilganidan quvonadilar. Har bitta fuqaro uchun eng katta shodlik, avvalo shohga, ikkinchidan, o'zimizning hamfuqarolarga, ayniqsa, Endelda bizga ta'sir qilganlarga, nihoyat, tashqi o'lkadagilarga xizmat qilishdir, tez orada sen ham ular haqida bilib olasan. Aziz singlim, – yakunida dedi Yarashgan, – men sen bilan faxrlanaman. Shohingning oldiga bor. U seni ko'rishni va unga qilgan xizmatlaring uchun taqdirlashni istaydi.

Shu bilan ular yana bir marta quchoqlashdilar va Saxovat qo'riqchining yoniga qaytib, taxt tomonga yo'l oldi.

Saxovat Jeylinning qarshisida

Saxovat taxtga yaqinlashib, Jeylinning yuzini aniq ko'ra oldi. U kichik taxtlar yonidan o'ta turib, u joydagilarning ta'zim qilib turganini sezmay qoldi, chunki u shohdan ko'zlarini uzmasdi. Uning basavlat ziyosi Saxovatni asir etdi.

Zinalardan maydonga ko'tarilib, shohning qarshisida yuz tuban yiqildi. Jeylin pastga tushib, uni oyoqqa ko'tardi. U sevgi bilan dedi:

– Saxovat, mening aziz qizim, shohlikka xush kelibsan. Men seni shaxsan ko'rish fursatini kutgan edim.



– Xukmdor, aslida men bu fursatni uzoq kutdim, – deb javob berdi Saxovat.
– Sen mening shohimsan. Endi hayotimning oxirigacha senga yanada ko‘proq xizmat qilish uchun, huzuringda bo‘laman deb, umid qilaman.

– Shunda Podshoh dedi: «Kel va senga dunyo yaratilishidan tayyorlab qo‘yilgan Shohlikni meros qilib ol. Chunki Men och edim, sen Menga ovqat berding. Men chanqagan edim, sen Menga suv berding. Men musofir edim, sen Meni qabul qilding. Men yalang‘och edim, sen Meni kiyintirding. Men kasal edim, sen Mendan xabar olding. Men qamoqxonada edim, sen Mening oldimga kelding.

Saxovat hayratdan xitob qildi:

– Yo, Rabbiy! Qachon men Seni och qolganingni ko‘rib, Seni to‘ydirdim, yoki chanqaganingni ko‘rib, Senga suv berdim? Qachon men Seni musofir ekaningni ko‘rib, Seni qabul qildim, yoki yalang‘ochligingni ko‘rib, kiyintirdim? Qachon men Sening kasal yoki qamoqxonada ekaningni ko‘rib, Sening yoningga keldim?

– Shunda Podshoh unga javob berib: «Senga rostini aytaman, Mening shu kichik birodarlarimdan biriga nimaiki qilgan bo‘lsang, shuni Menga qilding!» – dedi.

Uning xalqiga qilgan xizmati va uning qonunlariga itoat etgani, xuddi Jeylinga sodiq bo‘lib xizmat qilganini bildirishini aytdi. Uning butun hayoti ko‘rsatildi; har bir so‘z, harakat, fikr va yuragining niyatlari hammaga havola bo‘ldi. Hammasi ochiq-oydin edi: xizmati, maktab uchun qurbonliklari, hamfuqarolariga ko‘rsatgan sevgisi, beg‘am va odobdan tashqari ishlarda ishtirok etishdan bosh tortgani. Jeylinga bo‘lgan sevgisi tufayli quvg‘inlarga chidagani, restoran orqali boshqalarga qilgan xizmatining mehnati, adashgan jonlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatgani, yo‘qolganlar uchun yig‘i va ibodat soatlari, Jeylinning qonuniga bo‘ysunish yo‘lidagi qat‘iyati, Jeylinning jonkuyar izdoshi ekani uchun nufuzli odamlar orasidan chiqarib tashlangani, hamfuqarolarini yomonlashga va g‘iybatlarga qo‘shilmagani... Ro‘yxat uzundan-uzoq edi.

Saxovat, uning hayoti boshqalarga qay darajada ta‘sir etganini ko‘rib, lol qoldi. Jeylinning sharafi uchun qilgan ishlarining ko‘p qismi oldindan o‘ylab



qo'yilmagan va rejalashtirilmagan edi. U shunchaki, qadimiy kalomdan o'rgangan hayot tarziga batartib rioya qilib kelardi.

Uning bir nechta ishlari yonib ketdi. Saxovat qo'ldan boy berilgan imkoniyat va yo'l qo'yilgan xatolar uchun afsuslandi. Shunga qaramay, hayotining atigi kichik bir qismini yo'qotdi, xolos.

Saxovatga berilgan mukofot

Shoh uning oxirgi fikr, so'z va ishlariga qarab, uning yonida o'tirgan kichikroq hokimga murojaat qildi va undan so'radi:

– Saxovat shohlikning foydasiga qancha odamga ta'sir qildi?

Hokim javob berdi:

– Hukmdorim, 5183 ta odamga, aholining oltidan bir qismidan sal ko'prog'iga.

Saxovat hayratda qoldi:

– Nahotki shuncha ko'p bo'lsa?

Jeylin dedi:

– Qadimiy kalomni esla, men «ekkaningizni mo'l qilaman va haqligingizning hosillarini ko'paytiraman», deb va'da berganman. Saxovat, mening shohligim ko'payish qoidasi bo'yicha ish yuritadi.

So'ngra, shoh u jamiyatda rahbar qilib tayinlanmagan bo'lsa-da, qay tarzda bir talay kishilarga ta'sir qilib, itoatkorlik harakatlari ko'payganini ikir-chikirlarigacha batafsil ko'rsatdi. Tarqalish doirasining ta'siri hayratomuz edi. Jeylin qo'shib qo'ydi:

– «Saxovatli inson tarqatib yubordi, kambag'allarga bo'lishib berdi; uning haq ishlari, ezguligi, mehribonligi va saxiyligi abadiy turadi!» Menga bo'ysunib yashagan insonning hayoti tarqaluvchi doira ta'siriga ega, bu haqda mening sudim qarshisida turmaguncha, birorta ham kishining aqliga kelmaydi. Aksariyat kishilar mayda narsalarda itoat qilmaydilar, lekin ko'pincha ahamiyatsizdek tuyulgan narsalar bu shohlikda ulug'vor hosillar keltiradi. Kalit, sening har qanday vaziyatda namoyon qilgan itoatkorligingdir.

Shundan so'ng, Jeylin xitob qildi:



– Saxovat, mening yonimda turgan, chap tomoningdagi bo'sh taxtni ko'ryapsanmi?

U javob berdi:

– Ha, hukmdorim.

– Sen o'sha joyda o'tirasan va butun umr men bilan birgalikda boshqaruvchilik qilasan.

Saxovat butkul dovdirab qoldi:

– Hukmdorim, men boshqaruvchilikka loyiq emasman. Men shunchaki restoranning sohibasi edim. Mendan ham iste'dodli odamlar bor. Men sendek ulug'vor shoh bilan qanday qilib birgalikda boshqaruvchilik qilishim mumkin? Xudbin yaxshi rahbar edi. Balki u bu joyga o'tirar? Iltimos, menga sen va xalqingga xizmat qilishim uchun boshqa ish ber.

– Xudbin Buyuk zalning oxirgi qatorlaridan birida va u adir deb nomlanadigan shahar tumanlarida manzara chizuvchi rassomlik bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, u shohlikning tashqi o'lkalaridagi boshqa rassomlarga yordam beradi, – deb javob berdi Jeylin. – Menga va mening xalqimga bo'lgan sevging tufayli, sen boshqaruvchilar orasida bo'lasan. Sabr-toqating, sodiqliging va ko'nikuvchanliging senga mana shunday sharafni berdi. Nahotki qadimiy kalomda yozilgan so'zlarimni bilmasang: «Chunki o'zini yuksaltirgan har bir kishi pasaytiriladi (e'zozlangan va mukofotlangan kishidan past bo'ladi), o'zini pasaytirgan (o'zi haqida kamtarona o'ylaydigan va o'zini shunga yarasha tutadigan) esa yuksaltiriladi (mansabi ko'tariladi)»? Sen nafaqat men bilan birgalikda hukmronlik qilasan, qolaversa, sen uchun shohlikning markazida, mening qasrim yonida, Buyuk dengiz qirg'og'ida hashamatli uy tayyorlab qo'yganman. Sening qanchalik suv va to'lqinlar shovqinini yoqtirishingni bilib, xohishingni amalga oshirdim. Men barcha sadoqatli qullarimning xohishlarini amalga oshiraman.

Saxovat bir so'z ayta olmay, turardi.

Shoh qo'shimcha qildi:

– Sen shaharning o'nta tumaniga hokimlik qilasan. Affabel shahrining bir yuz yigirmata tumanini boshqaradigan yana boshqa o'n bitta hokimlar



bor. Sen men va hozir taxtlarda o'tirgan yetmish yettita hokimlar bilan birgalikda yelkama-yelka ishlaysan. Ularga ta'lim, ishlab chiqarish, o'yin-kulgu, san'at va boshqa sohalarni boshqarish topshirilgan. Yetmish yettita hokim, men va Otam, Affabeldagi hayotni kuzatib boramiz va tashkillashtiramiz. Sen meni va odamlar bilan bog'lab turadigan bo'g'in va ishongan maslahatchilarimdan biri bo'lasan.

Sen men bilan nafaqat bu shaharda, shuningdek, yetmish yettida hokim singari, shohlikning tashqi o'lkalari ustidan ham rahbarlik qilasan. Men senga Bendjilla qit'asidagi yigirmata shahar ustidan hokimiyat beraman. Sen ushbu qit'aning bosh vaziri bo'lasan. Bu shaharlardagi barcha boshqaruvchilar va mahalliy xalq senga bo'ysunadilar. Sen esa faqat menga bo'ysunasan.

Qanoatli Jeylinning ushbu so'zlarini eshitib, sinfdoshi uchun quvonib, joyidan turib ketdi. Unda ham shohlikning foydasiga minglab odamlarga ta'sir etish imkoniyati bo'lgani, lekin u bu imkoniyatdan foydalanmaganidan afsuslanib, quvonchi uzoqqa cho'zilmadi. U to'g'ridan-to'g'ri Jeylin bilan ishlash imtiyoziga ega hokimlardan biri bo'lishi mumkin edi. Unga Affabelda yashashga ruxsat berganlaridan ham minnatdor edi, shunday bo'lsa-da, Endeldagi qisqa muddatli vaqtini bekorga o'tkazib yuborganini va bu qolgan butun 130 yillik hayotiga ta'sir qilganini tushunib turardi.

Shoh qo'riqchilar boshlig'iga murojaat etdi:

– Menga g'olibning tojini va hukmronning hassasini olib kelinglar.

U toj va hassani olib, tojni Saxovatning boshiga taqib qo'ydi.

– Ma'qul! – deb hayqirdi shoh. – Sen yaxshi qul ekansan. Kichik ishda sodiq bo'lganing uchun, o'nta tuman va yigirmata shahar ustidan hokim bo'lgin.

Keyin Jeylin unga shunday so'zlar bilan hassani tutdi:

– Bundan keyin sening isming Saxovat bo'lmaydi, men senga yangi ism beraman, sening isming – Sevikli G'oliba. Holbuki, Endel aholisini ogohlantirgan edim: «G'olib keladiganga va Mening so'zlarimga oxirigacha rioya qiladiganga majusiylar ustidan hokimiyat beraman. Xuddi Men



Otamdan hokimiyatni olganimdek, u ham ularga temir tayoq bilan cho'ponlik qiladi».

Jeylin oxirgi meva turgan stolning yoniga bordi. U mevani Sevikli G'olibaga olib bordi va dedi:

– Aziz do'stim va hamkorim, hayot daraxtining mevasidan yeyishing mumkin.

Mevani tatib ko'rib, Sevikli G'oliba bu dunyodagi eng mazali mevani tatib ko'rgan har bir kishi kabi, u ham qudratli poklanishni his etdi. Unga notanish bo'lgan katta sevgi va xizmat qilish murodi aql-bovar etmas darajada o'sib ketdi. U eskidan qolgan barcha alamdanda va johil fikrlardan poklandi. Butun borlig'i yangilandi. U yangi kuch kelayotganini tuydi hamda baxtiyorlik va imonga to'ldi. Sevikli G'oliba Jeylinga qaradi va tabassum qildi. So'ngra hech qanday sababsiz, birgalikda shodlikda kuldilar. Bu butun umr davom etadigan do'stlikning boshlanishi edi.

Jeylin uni taxtga kuzatib qo'ydi va dedi:

– Sevikli G'oliba, orqangga qayrilib, oilangga qara.

U ortiga qayrilganida, unga gulduros olqishlar yog'ildi. Zal quvonchli shovqin-surona va raqslar bilan to'lib ketdi. Bu birorta ham boshqa bayramga o'xshamasdi. Atrofga shod-xurramlik va tantana tarqaldi. Sevikli G'olibaning yuzida tabassum porlar va u bunday sevgini ko'rib, hayajonda qoldi. Shoh uni yelkasidan quchib, xitob qildi:

– Sodiq va yaxshi qul, xo'jayiningning quvonchiga sherik bo'l. Mana shu joyda bizning shoh, uning qullari va mashhur Affabel shohligi haqidagi hikoyamiz o'z nihoyasiga yetdi.

Nasihati va ogohlantirish so'zlari

Yuqoridagi boblarda muqaddaslar ustidan sud qanday bo'lishining atigi kichik bir shu'lasini ko'rdik, xolos. Men buni to'liq yetkazib bera olmayman, biroq Masih Sudining sharafiga, bu hikoyada ta'riflangandan juda ko'p karra o'zib ketadi. Shunday bo'lsa-da, kinoyada Xudo Shohligining ko'p haqiqatlari o'z aksini topgan.



Hikoyadagi tafsilotlar, ularning haqiqat ekaniga da'vo tariqasida yozilmagan, balki ular haqiqatga urg'u beradi va uning ma'nosini chuqurlashtiradi. Iso Masih masal aytganda, haqiqatga unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan tafsilotlarga diqqatingizni qaratib o'tirmaysiz, faqat U masal orqali yetkazayotgan fikrni ko'rasiz.

Men ham Masihning mangu Shohligiga aloqador bo'lgan muhim narsalarni ajratib ko'rsatishga harakat qildim. Kitobni o'qib tugatgach, kinoyani yana qayta o'qisangiz, o'tgan va keyingi boblarda Kalomdan keltirilgan ta'limotning o'ta chuqur ma'nosini ko'rishingiz mumkin.

9-BOB

SAMO

*Men esa haqlikda Sening yuzingga qarayman,
uyg'onganimdan Sening siymoyingga to'yaman.*

— Sanolar 16:15

Keling, endi haq kishilarning oxirati haqida gapiramiz. Imonsizlar uchun do'zax deb nomlanuvchi vaqtincha saqlab turiladigan joy va u yerdan oxirgi manzil bo'lgan olovli ko'l mavjud bo'lganidek, haqlar uchun ham ikkita maskan bor. Hozirda uyni ko'plar samo deb ataydilar, ammo aniqroq aytadigan bo'lsak, Kalom uni samoviy Yerusalim deb ataydi. Haq kishilarning oxirgi maskani ham Yerusalim deyiladi, u faqat yerda bo'ladi. Bu shahar, yakuniy suddan so'ng, samodan yerga tushadi. Uning nomi – Yangi Yerusalimdir (Vahiy 21:2 ga qarang).

Ko'kdagi Yerusalim

«Lekin sizlar Sion tog'iga, barhayot Xudoning shahri – samoviy Yerusalimga, farishtalarning tumonatiga, quvnoq yig'inga, osmonda yozilgan to'ng'ichlar jamoatiga, hammani hukm qiluvchi Xudoga va barkamollikka erishgan haqlarning ruhlariga, Yangi Ahdning vositachisi – Isoga hamda Hobilning qonidan ko'ra a'loroq gapirayotgan purkash qoniga yaqinlashdingizlar» (Ibroniylarga 12:22-24).

Samoviy Yerusalim yoki ko'kdagi Yerusalim (Galatiyaliklarga 4:26) – bu bizning hikoyamizda taqdim etilgan Affabel shahridir. U Sion tog'ida joylashgan. Unda Ota va O'g'il, milliardlab farishtalar bilan birga yashaydilar. U yerda tantana qilayotgan yig'in va osmonda yozilgan Eski Ahddagi to'ng'ichlar jamoati hamda Masihdagi ketgan haq kishilar bor.

Undan tashqari bu shaharda «komillikka erishgan haqlarning ruhlari» maskan qurgan. Agar muallif Eski va Yangi Ahddagi o'z mukofotlari ortidan ketgan muqaddaslar haqida allaqachon aytib o'tgan bo'lsa, unda bu odamlar kimlar?

Yodingizdami, biz yuqoridan tug'ilganda, butunlay yangi ijodga aylandik, bizning ruhimiz Masih singari mukammal va biz Unda topilganmiz, dedik. Muallif Kalomning ushbu matnida tana va jon emas, balki faqat ruh haqida aytgan. Shaxsan men, bu oyat Isoga shu joyda, yerda xizmat qilgan muqaddaslarga oid deb ishonaman. Mana bu haqda o'ylab ko'ring: «Shunday ekan, inoyat taxtiga jasorat bilan yaqinlashaylik» (Ibroniylarga 4:16). Inoyat taxti Xudo shahrining qoq o'rtasida joylashgan, taklif esa bizga, yerda yashayotganlarga tegishli. Masihiylar hali yerda yashayotgan bo'lsada, ular ibodatlari orqali tez-tez taxt zaliga tashrif buyurib turishlari bois, ularni u joyda yaxshi tanishadi, deyish mumkinmi?

Har birimizda idrok, iroda va hissiyotdan tarkib topgan jonimiz bor, hozirda esa tanada yashaydigan odamlarmiz. Iso Xudoga sajda qilishning yagona yo'li, bu «ruhda va haqiqatda» sajda qilish (Yuhanno 4:24), degan. Pavlus buni alohida ajratib ko'rsatyapti: «Men O'g'lining Xushxabarida ruhim bilan xizmat qilayotgan Xudo sizlarni tinimsiz eslayotganimga guvohdir» (Rimliklarga 1:9). Ruhimiz Xudoning suratida yaratilgani va biz qayta tug'ilganimiz sababli, endi har qanday vaqt biz ehtiyoj sezganimizda yoki Unga sajda qilishni istaganimizda, Isoning qoni va Muqaddas Ruhning kuchi orqali Xudoning taxt zaliga borishimiz uchun yo'l ochiq.

Samoga tashrif buyurish

Shu damda ko'kdagi Yerusalim uchinchi osmonda joylashgan. Bu joy, havoriy Pavlus o'z o'limidan avval bo'lib qaytgan, chindan bor joy. U shunday deb yozgan:

«Rabbiydan olgan ko'rinishlar va vahiy-larga kelaman: Masihdagi bir odamni bilamanki, o'n to'rt yil ilgari – tanadami yoki tanadan tashqaridami bilmayman, buni Xudo biladi – u odam uchinchi osmonga olib chiqilgan edi. Bunday odamni bilaman – tanadami yoki tanadan

tashqaridami, bilmayman, buni Xudo biladi – u jannatga olib chiqilgan edi va insonga aytib berish mumkin bo‘lmagan, til bilan ifodalab bo‘lmaydigan so‘zlarni eshitdi» (2-Korinfliklarga 12:1-4).

Muqaddas Kitob izohchilari, Pavlus o‘zi haqida gapiryapti deb, bir to‘xtamga kelganlar. Ha, aytgancha, Yangi tirik tarjimada shunday deyilgan: «Men o‘n to‘rt yil ilgari uchinchi osmonga ko‘tarilganman». E‘tibor bering, Pavlus tanada bo‘lgan yoki bo‘lmaganini bilmagan. Bu narsani samo chindan ham bor va u jismoniy mavjud joyligi bilan tushuntirish mumkin. Men samo – bu odamlar ruhlar kabi bug‘lanib yuradigan, ko‘rinmas fazo, deb hisoblaydigan odamlarning fikriga duch kelganman. Yo‘q, bu jismoniy joy. U yerda ko‘chalar, daraxtlar, hayvonlar, binolar, suv va boshqalar mavjud.

Men Pavlus singari, samoda bo‘lib, qaytgan bir necha kishi bilan shaxsan tanishman, lekin sizga shulardan menga eng yoqadigan bir voqeani aytib bermoqchiman. Mening, cho‘pon Greg degan do‘stim bor. U 1979-yil oktyabrda o‘zining birinchi xizmatidan uyga qaytganida, xotini zinada o‘tirib, to‘xtovsiz faryod qilayotganini ko‘rdi. U shu onda – qandaydir jiddiy narsa sodir bo‘lganini tushundi. Tez orada, unga ma‘lum bo‘lishicha, o‘n yoshli o‘g‘li Justin vannaxonaga televizorni olib kirib, bir paytning o‘zida ham futbol matchini ko‘rib, ham cho‘milayotgan bo‘lgan. To‘satdan televizor suv to‘la vannaga tushib ketgan va bolani elektr toki urgan. Greg o‘g‘lini yurak urishi to‘xtagan, tanasi ko‘karib ketgan, muzlab qolgan, miyasining faoliyati to‘xtaganini ko‘rsatib turgan ko‘zlari katta ochiq holda topgan. Greg Los-Anjelesdagi politsiya vazirligida politsiya muovini lavozimida ishlab, birinchi yordam kurslarida o‘qigan va ko‘plarning o‘limiga guvoh bo‘lgan. Agar u hozir shunchaki politsiya xodimi bo‘lganida, o‘limni ro‘yxatga olar va tergovchini chaqirgan bo‘lardi.

Lekin Greg ibodat kuchini biladigan imonli edi. U ibodat qilishni va o‘g‘liga sun‘iy nafas yuborishni boshladi. Bir necha daqiqa o‘tgach, birinchi yordam ko‘rsatishni shifokorlarga topshirib, o‘zi ibodat qilishda davom etdi. Ularning Jastinni hayotga qaytarish uchun qirq besh daqiqalik urinishlari behuda kechdi. Kardiogramma grafik tasviri, faqat bitta to‘g‘ri chiziqni ko‘rsatardi. Shifokorlar hamma urinishlarni to‘xtatib, dinning ishqibozi qachon tinchlanarkan deb, Gregni kutib o‘tiradilar.

Nihoyat Greg shunday deb ibodat qilishni boshladi: «Ota, menda boshqa imon qolmadi. Imonim tugadi, ammo Sening So'zing, yana boshqa imon borligi haqida aytgan» (u 1-Korinfliklarga 12:9 da yozilgan imonni nazarda tutgan).

Greg, o'sha payti, uning boshiga qo'l xuddi tushib kelganini sezgan. U shu zahoti kuch va hokimiyatni tuydi hamda o'g'liga: «Iso Masih nomi bilan, sen o'lmayсан va yashaysan!», –deb baqirgan.

Kutilmaganda EKG apparatidan ovoz chiqdi va ekranda tovushlar paydo bo'ldi. Shifokorlar hayratdan sakrab tushdilar. Ular Justin bilan zinadan pastga tushganlarida, uning yuzlari qizarib, ko'zlari o'z holatiga kelgan, tanasi esa – iliq holatiga qaytgandi.

Greg lol qoldi. Uning o'g'li yana tirik va sog'lom edi. U Xudo amalga oshirgan mo'jizaviy guvohlikni do'stlariga aytishga tayyor edi. O'sha onda u o'g'lining hayoti uchun kurash endi boshlanganini anglamasdi. Shifokorlar bola koma holatida yotganini aytdilar. Uni ko'rikdan o'tkazganda, kateter orqali buyrak to'qimalari oqib chiqayotganini payqashdi, tibbiyot tili bilan emas, oddiy qilib aytganda – uning tanasi eriy boshladi. Ular, bola yashab ketgan taqdirda ham, nochor nogiron bo'lib qolishini aytdilar. Keyinchalik, shifokorlar o'z hukmini chiqardilar: bolaning ongi 0,01 darajali aql darajasi bilan, uch oylik go'dakning fahmlashiga o'xshab qolgan.

Otasining yetti oylik chekinmay qilgan ibodatlaridan so'ng, Justin komadan chiqdi. Bu narsa sodir bo'lganida, otasi uning oldida edi, shuning uchun unga savollar berar va shu zahoti o'g'lidani javob olardi. Justin a'lo baholar bilan, to'liq o'rta ta'lim maktabini, oliygohni, Muqaddas Kitob maktablarini tugalladi. U hatto sinfida yetakchilik qilgan. Bugun u uylangan va ikki nafar farzandlari bor.

«Dadajon, men Isoni ko'rdim»

Shifoxonadan chiqqach, Greg o'g'lining yuzi porlayotganini sezib qoldi. U o'g'lidani so'radi: «Justin, senga nima bo'lyapti?»

Bola javob berdi: «Dadajon, men Isoni ko'rdim, Televizor vannaga tushib ketganida, men hech qanday og'riqni sezmadim. Ulkan farishta,

meni o'ng qo'limdan ushlab, tanamdan chiqarib ketdi. Biz tunnel orqali juda katta tezlikda uchib ketdik. Samoning ko'chalariga qo'nishdan avval, quyosh tezligida uchdik».

U otasiga ko'chalar oltin yugurtirilgan emas, balki oltinning o'zidan yasalganini, u metallning orasini ko'ra olganini aytib berdi. Yerda oltinni samodagidek bu qadar tozalash imkonsiz, lekin yerda ko'pincha zarhallik berish maqsadida oynalarga oltin suvi yugurtiriladi (dastlabki fazoga uchuvchilarning qalqoni va qalpoqlari, tayyoralar bo'lmalari, binolar va boshqa joylarda shunday uslubdan foydalanilgan). Shunday qilib, sof oltin aslida suvdek tiniq, shaffof bo'ladi.

Jastin birinchi bo'lib, uni o'tib ketgan qarindoshlari qarshi olganini aytib berdi. U har birlarining ismlarini aytdi, hatto hayotda hech qachon ko'rmagan va bilmagan qarindoshlarini ham sanab o'tdi, lekin ularni ota-onasi bilardi. Samoda uchrashgan odamlarning orasida Fillis ismli ayol ham bor edi. U qo'shni ayol bo'lib, Jastin bilan mudhish hodisa ro'y berishidan bir oy oldin, onasi u ayolni najotga olib kelgan va ular uning sog'lig'i uchun birgalikda ibodat qilganlar. Ayol Isoni qabul qilgach, ikki haftadan so'ng olamdan o'tgan.

Ular samoda suhbatlashib turganlarida, to'satdan oyoq tovushlari eshitildi va yig'ilib turgan odamlar yo'l ochishdi. Bolaning qarshisida Iso turardi.

U Jastinni unga samoni ko'rsatish uchun yetakladi. U joyda ko'plab ko'chalar va binolar bo'lib, ular ulkan shaharni tashkil qilardi. Gullar, o'tlar va hatto toshlar ham tirik va ular ohangdosh musiqa taratib turardilar. Ular o'z kuylari bilan xuddi Xudoni ulug'lagandek bo'lardi. Mabodo, u gul yoki o'tni bosib ketsa, ular ezilmas va sinmas, balki birdan qad rostlashardi. Jastin u joydagi ranglar yerdagiga qaraganda ancha to'yingan va ravshan ekanini ko'rdi. U joyda Jastin hech qachon uchratmagan ranglar ham bor edi. Unga otasi, onasi va ikki akasining qasrini ko'rish imtiyozini berildi.

Shundan so'ng, kutilmagan hodisa ro'y berdi. Iso unga, Jastin sen yerga qaytishing zarur dedi. Uning samodan ketkisi kelmas, biroq Iso uni parda oldiga olib borib va pardani surganda, Jastin otasi uni orqaga chaqirayotganini ko'rdi. Iso dedi: «U sening otang va uning seni orqaga chaqirishi uchun haqqi bor».

O'sha paytdan buyon, Jastin otasiga doimo, agar qachondir yana o'lib qolsa, uni orqaga chaqirmasligini aytib keladi. Do'stimning aytganlarini eshitib, bu hikoyamizning eng kulguli joyi deb o'yladim. Samo yerdan ancha yaxshiroq, u yerga borganlar orqaga qaytishni istamaydilar. Pavlus Filippiliklar jamoatiga yozganda, xuddi shunga o'xshagan ichki kurashni kechirgan: «Yerdagi hayotdan yiroqlashib (bu dunyodan qutulib), Masih bilan birga bo'lishni xohlayman, chunki bu bag'oyat yaxshi bo'lar edi» (Filippiliklarga 1:23, Kengaytirilgan tarjima). Shunchaki yaxshiroq emas, bag'oyat yaxshi, bag'oyat yaxshi! U o'sha shaharni ko'rdi va u joyga qaytishni istar, lekin Shohlikning foydasi yo'lida yerda qolishga qaror qildi.

Keyinroq, Jastin otasiga, u osmonda o'n yoshli bola emas, balki katta odam bo'lganini aytdi. Ko'plar, shu jumladan Jastin ham, biz samodagi yangi tanamizda o'ttiz uch yoshda bo'lishimizga ishonadilar. Iso ham xochga mixlanganda shu yoshda bo'lgan, garchi Kalomda yozilganidek: «Sevganlarim, biz endi Xudoning farzandlarimiz, lekin kelajakda nima bo'lishimiz hali to'liq ochilmagan. Faqat shuni bilamizki, Iso Masih zohir bo'lganida, biz U kabi bo'lamiz, chunki U qanday bo'lsa, Uni shunday holda ko'ramiz» (1-Yuhanno 3:2).

Bu men aytib bera oladigan, chindan ham sodir bo'lgan voqealarning yuzdan biri, xolos. Shunday bo'lsa-da, mana shu Kalomga mos keladigan bitta voqea ham samo haqiqatdanam borligini tasdiqlaydi. Bu yerdan ketgan Isoning sodiq qullari o'sha shaharga kiradilar.

Ruh, jon va tananing najot topishi

Hali aytganimizdek, inson Iso Masihni Rabbim deb qabul qilgan lahzadan boshlab, uning ruhi butkul yangi ijodga aylanadi. Ko'z yumib ochguncha, odamning ruhi Isoga o'xshash bo'lib qoladi. Bu havoriy Yuhanno tomonidan tasdiqlangan: «Chunki... bu dunyoda, Unga o'xshab» (1-Yuhanno 4:17). Bu oyatda ravshan ko'rinib turibdiki, Yuhanno o'z mukofoti ortidan ketganlar emas, yerdagi imonlilar haqida aytgan. Chindan ham, Xudoning Ruhi orqali yuqoridan tug'ilgan inson, u ruhida hozir va shu yerda komildir.

Ruhimiz qutqarilgach, jonimizning najot topish jarayoni boshlanadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, jon ong, iroda va hissiyotlardan tashkil topgan. Jonimiz Xudoning So'zi va unga itoat etishimiz orqali najot topadi yoki o'zgaradi. Havoriy Yoqub buni tasdiqlab, deydi: «Shunday qilib, sevikli birodarlarim, ...barcha ifloslikni va haddan ortiq yovuzlikni bir chetga yig'ishtirib qo'yinglar. Sizlarning ichingizga ekilayotgan va jonlaringizga najot berishga qodir bo'lgan Xudoning So'zini muloyimlik bilan qabul qilinglar. O'z-o'zini aldaydigan So'zning faqat tinglovchilari emas, balki bajaruvchilari bo'linglar» (Yoqub 1:19,21,22). Alohida qayd etish joizki, Yoqub birodarlarga ularning joni najot topishi to'g'risida gapiryapti. U Xudo Kalomini eshitish va unga itoat qilishga urg'u beryapti.

Jon – bu inson najotining darajasini aniqlashga zamin yaratadigan yagona qismi hisoblanadi. Biz Xudoning So'zini eshitish va unga bo'ysunish bilan o'zaro harakat qilamiz va bu najot topishimiz jarayonini tezlashtiradi yoki aksincha, Xudoning aytganlariga beparvo bo'lsak, uni sekinlashtiradi. Jonning o'zgarishi, imonlining oxirati yaxshi bo'lishida, hal etuvchi narsa hisoblanadi.

Nihoyat, vujudimizda najot topishi zarur bo'lgan yana bir qism qolyapti: bizning tanamiz. Pavlus bu haqda yozganlarini diqqat bilan o'qing:

«Zero biz bilamizki, bizning yerdagi uyimiz, shu kulbamiz xarob bo'lganida, biz osmonda Xudodan binoga, ya'ni qo'l bilan qurilmagan abadiy uyga egamiz. Biz samoviy maskanimizga burkanishni xohlab, oh-nola chekib yuribmiz: faqatgina bizlar kiyingan holda ham yalang'och bo'lib chiqmaylik. Biz bu kulbada bo'lib, mashaqqat ostida oh-nola qilmoqdamiz. Chunki biz kiyimsiz bo'lib qolishni emas, balki burkanishni istaymiz, toki o'limli bo'lgan narsa hayot tomonidan yutib yuborilsin. Zotan Xudo bizni aynan shu uchun yaratdi va bizga Ruhning garovini ato qildi. Shuning uchun biz doimo dadilmiz, chunki bilamizki, hali bu tanada yashar ekanmiz, Rabbimizdan yiroqdamiz. Chunki biz ko'rinarli narsalar bilan emas, balki imon bilan yuribmiz. Ha, biz dadil bo'lib, bu tanadan yiroqlashishni va Rabbiyda jo bo'lishni xohlaymiz» (2-Korinfliklarga 5:1-8).

Bu so'zlar bizga buyuk umidvorlik hadya etadi va hatto jonimizni poklaydi. Pavlus shunchaki yo'l-yo'lakay aytib o'tmayapti, lekin bizning

abadiy tanamiz bo'lishini doimo takrorlayapti. Boshqa joyda u shunday deydi: «Chunki bu chiriydigan narsa chirimaydiganga, bu o'ladigan narsa o'lmaydiganga burkanishi kerak» (1-Korinfliklarga 15:53). Bizning tanamiz Isoning tanasidan umuman farq qilmaydigan bo'ladi, binobarin, Kalom deydi: «Agar biz U bilan Uning o'limining o'xshashligida birlashgan bo'lsak, unda albatta, Uning tirilishida ham U bilan birlashgan bo'lamiz» (Rimliklarga 6:5) va «Sevganlarim, biz endi Xudoning farzandlarimiz, lekin kelajakda nima bo'lishimiz hali to'liq ochilmagan. Faqat shuni bilamizki, Iso Masih zohir bo'lganida, biz U kabi bo'lamiz, chunki U qanday bo'lsa, Uni shunday holda ko'ramiz» (1-Yuhanno 3:2).

Keling, Iso tirilgach, Uning tanasi qanday bo'lganini diqqat bilan o'rganamiz. Bir kun kelib, tanamizning najotiga erishganimizda, U ega bo'lgan sifatlarning barchasi bizda ham bo'ladi. Keling, to'g'ri, U tirilgan kunning tongida, qabrda nima sodir bo'lganidan boshlaymiz. Maryam qabrni bo'sh holda topganda, Rabbiyning tanasini olib ketishgan deb o'ylab, yig'lashni boshladi.

«U shu so'zlarni aytgach, ortga o'girilib, narida turgan Isoni ko'rdi, ammo Uning Iso ekanligini tanimadi. Iso unga: — Ayol, nima uchun yig'layapsan? Kimni izlayapsan? — dedi. Maryam esa Uni bog'bon deb o'ylab, Unga: — Hazrat, agar sen Uni bu yerdan olib chiqqan bo'lsang, Uni qayerga qo'yganingni aytgin, men Uni olib ketaman, — dedi» (Yuhanno 20:14,15).

Iso Masih oddiy odamdan hech qanday farq qilmasdi. U konofilmdan kelgan yot odamga o'xshamasdi. Maryam uni tanimadi, chunki Isoni tirik deb, o'ylashga haddi ham sig'masdi. U Isoni, vahshiylarcha o'ldirilganini, xochdan tushirilganini va ko'milganini o'z ko'zlari bilan ko'rgan edi. Iso uni ismini aytmaguncha, u chindan ham Rabbiy unga murojaat etayotganiga ishonmadi. Shu asnoda, Uning tanasi bizning tanamizga o'xshash ekanini tushunamiz.

Isoning tanasi oddiy odamning tanasidan farq qilmagan, ammo biz o'zimizdan so'rashimiz lozim: Maryam Uning ruhini ko'rdimi yoki U tom ma'noda tanada edimi? Bu savolga sal o'tib, U O'z shogirdlariga namoyon

bo'lgan matndan javob topamiz: «Lekin Iso ularga dedi: «Nega buncha bezovta bo'lyapsizlar? Nima uchun bunday fikrlar yuraklaringizga kirmoqda? Qo'llaring va oyoqlaring qaranglar, bu – Men O'zimman, Meni ushlab ko'ringlar, chunki Menda ko'rganlaringizdek ruhning etu suyagi bo'lmaydi!» (Luqo 24:38-39).

Uning tanasi va suyaklari bor edi! Bizlarda ham, tana va suyaklar bo'ladi. Biroq, qarang, U qon haqida hech narsa aytmadi. Sababi shundaki, Xudoning shafqat taxti Uning qoni bilan purkalgan. Hozir Isoning tomirlarida Xudoning sharafiga oqib turganiga, aminman.

Iso jismoniy ovqat tanavvul qila olardi. Kalomda shunday deyilgan: «Ular quvonchdan hali ishonmay, hayron turganlarida, Iso ulardan: «Bu yerda biron ovqat bormi?» – deb so'radi. Shogirdlar esa Unga bir bo'lak qovurilgan baliq va mumkatakli asal berdilar. Iso buni oldi va ularning oldida yedi» (Luqo 24:41-43).

Birgalikda ovqat qabul qilish, kamdan-kam uchraydigan holat bo'lmagan, Xushxabarlarda yana ikkita shunday voqea yozilgan. Bir marta Emmausga ketish yo'lida uchrashgan kishining uyida, boshqasi – U dengiz qirg'og'ida o'n bitta shogirdlari uchun nonushta tayyorlagan paytda. Binobarin, biz yangi tanamizda ovqatlana olamiz.

Iso ham yangi tanasida biz kabi gapirgan, kuylagan, yurgan, buyumlarni qo'lga olgan va hokazo, qolaversa, U devor orasidan o'ta olgan va bir zumda yo'q bo'lib qolish qobiliyatiga ega bo'lgan!

Siz so'rashingiz mumkin: «Uning tanasi va suyaklari bo'la turib, devor orasidan o'tgan va g'oyib bo'la olganmi? Eh, ha, Yuhanning yozganlariga qarang. «O'sha kuni kechqurun, haftaning birinchi kunida, shogirdlar yig'ilgan uyning eshigi yahudiylardan qo'rqanliklari tufayli berk bo'lganida, Iso kelib ularning o'rtasida turdi-da, ularga: «Sizlarga tinchlik bo'lsin», — dedi» (Yuhanno 20:19).

O'sha kecha Iso Fomadan Uning qo'llari va belidagi yaralarga qo'lib solib, ko'rishini so'radi. Shunday qilib, Uning tanasi va suyaklari bo'lganini aniq-ravshan ko'ryapmiz. Agar eshiklar qulflangan bo'lsa, Iso qanday qilib ularning o'rtasida paydo bo'lib qoldi? U devorlar orasidan o'tdi va shogirdlarga ko'rindi, shuningdek, U osonlikcha g'oyib bo'la olardi, bu haqda

ham yozilgan. U Emmausga ketish yo'lidagi uchrashgan odamlar bilan non sindirib o'tirganida, «ularning ko'zlari ochilib, Uni tanib qoldilar. Lekin Iso ularga ko'rinmay qoldi» (Luqo 24:31).

Yangi tanamizda, biz ham g'oyib bo'lish va har xil joylarda paydo bo'lish qobiliyatiga ega bo'lamiz. Shu bois biz yangi samo va yangi yerdagi bepoyon masofalarni tez bosib o'ta oladigan bo'lamiz. Biz bu qobiliyatga muhtojmiz, holbuki, Xudoning shahri – uzunligi va eni 1400 kilometrni tashkil qiladi, boshqa quyosh tizimlarigacha bo'lgan masofalar haqida gapirmasa ham bo'ladi. Bizda ham havoga ko'tarilish qobiliyati bo'ladi. Eslab ko'ring, Iso shogirdlari bilan qirq kun birga bo'lgach, osmonga ko'tarildi. Jastin otasiga u samoda yurgani, uchgani yoki bir zumda boshqa joyda paydo bo'lib qolish qobiliyatiga ega bo'lgani haqidagi tafsilotlarni so'zlab berdi.

Masihning ming yillik shohligi

Biz Xudo shahrining ko'chishi haqidagi mavzuga qaytishimiz lozim, biroq, keling, undan avval sodir bo'ladigan voqealar to'g'risida aytib o'tamiz. Jamoat davri nihoyasida, yetti yillik qayg'u keladi. Dajjol, qonunbuzarning yuzi ochiladi va u ko'plarni yo'ldan ozdiradi. U gerdayib ketadi va o'zini hamma narsaning xo'jayini bo'lgan Xudodan ustun qo'yadi, muqaddaslarni quvg'in qiladi va aksariyat davlatlarni Xudoga qarshilik isyon zulmatiga boshlaydi.

O'sha mavsumda Rabbiiy O'z muqaddaslarini olib ketish uchun keladi. Ba'zilar bu narsa yetti yillik qayg'u boshlanishidan ilgari deb, boshqalar – o'rtasida, qolganlar – oxirida deb ishonadilar. Men ushbu kitobda bu mavzuni muhokama qilmayman. Muhimi, biz bu kunga tayyor bo'lishimizdir.

Pavlus Yangi Ahdda bir necha marta samoga ko'tarilish mavzusiga to'xtalib o'tgan. Shunday oyatlardan birida shunday deb aytilgan:

«Chunki Rabbiyning O'zi buyuk nido paytida, bosh farishtaning sadosi va Xudoning karnayi ovozi bilan osmondan tushadi, shunda Masihda o'lganlar bizdan oldin tiriladilar. Keyin esa biz, tirik qolganlar ular bilan Rabbiyni havoda kutib olish uchun bulutlarda olib ketilamiz. Shunday qilib, hamisha Rabbiy bilan birga bo'lamiz. Shuning uchun ana shu so'zlar bilan bir-biringizni yupatinglar» (1-Fessalonikaliklarga 4:16-18).

Bu Masihning ikkinchi marotaba kelishi emas, negaki U yerga tushmaydi, balki O'z muqaddaslari bilan bulutlarda uchrashadi. Isoning qayta kelishi yetti yillik qayg'uning oxirida sodir bo'ladi, o'shanda Iso millionlab muqaddaslardan tashkil topgan samoviy jangchilarga sardor bo'lib, oq otda keladi (Yahudo 14 ga qarang).

Soxta payg'ambar bo'lgan Dajjol, jahon miqyosidagi rahbarlar va barcha xalqlarning qurolli kuchlari bilan birgalikda Rabbiy va Uning qurolli kuchlariga qarshi jang uchun yig'iladilar. Iso jang kuni ularni O'z qilichi bilan qirib tashlaydi va osmonda uchuvchi qushlar ularning murdalarini cho'qiydilar. Bu jangni odatda Armageddon deb ataydilar, binobarin, jang Yerusolimdan janubiy-sharqidagi Karmil tog'i bo'ylab cho'zilgan Megiddo vodiysida bo'lib o'tadi (Vahiy 16:16; 19:11-21).

Butun dunyo bo'ylab, dajjolga sodiq bo'lishga va'da bermagan odamlar bo'ladi, ular bu jangda Rabbiyga qarshi kurashmaydilar. Aksariyat xudoshunoslar, o'sha odamlar, odatda Masihning ming yillik shohligi deb ataladigan kelgusi asrda yashash uchun tirik qoladilar deb ishonishadilar. Ular yashaydilar va Masihning jahon bo'ylab hukmronligiga bo'ysunadilar. Ularning tanalari tabiiy bo'ladi, ular yerdagi aholi sonini ko'paytirishda davom eta olishi mumkin.

Aniqrog'i, yerda ikki toifadagi odamlar yashaydi – Armageddon jangidan omon qolganlar va Iso bilan qaytib kelgan muqaddaslar. Muqaddaslarning Shoh Isoga o'xshab, tanasi yangi bo'ladi. Ular Masih bilan birga yerda hukm suradilar. Bu ikki toifadagi kishilar, Iso tirilganidan so'ng, shogirdlari bilan muloqotda bo'lganidek, bir-birlari bilan xuddi shunday muloqotda bo'lishini tasavvur etish qiyin emas. Yangi tanadagi muqaddaslar oddiy tanadagi odamlar bilan gaplashadilar, yuradilar, oziqlanadilar va suhbatlashadilar.

Kalom umumiy tinchlik keladi deydi, chunki shayton va uning izdoshlari ming yil davomida bog'lab qo'yiladi. Barcha xalqlardan buyuk olomon Xudoga imon keltirishi tufayli urushlar, sotqinlik, nafrat, buzuqlik, jinoyat, kasalliklar bo'lmaydi. Mikah payg'ambar shunday degan:

«Oxirgi kunlarda shunday bo'ladi: «Rabbiy uyining tog'i tog'larning boshi qilib qo'yiladi va tepaliklar ustidan yuksaladi. Xalqlar unga oqib keladilar. O'shanda ko'p xalqlar kelib, shunday deydilar: «Kelinglar, Rabbiyning tog'iga, Yoqubning Xudosining uyiga chiqamiz. U bizlarga O'z yo'llarini o'rgatadi va Uning yo'llaridan yuramiz. Zero qonun Siondan va Rabbiyning So'zi Yerusalimdan chiqadi». U ko'p xalqlarni hukm qiladi va uzoq mamlakatlardagi ko'p qabilalarni fosh qiladi. Shunda ular bolg'alab, qilichlaridan omoch va nayzalaridan o'roq yasaydilar. Xalq xalqqa qarshi qilich ko'tarmaydi va boshqa jang qilishni o'rganmaydilar. Lekin har bir kishi o'zining tok novdasi tagida va o'z anjir daraxtining tagida o'tiradi, hech kim ularni cho'chitmaydi, chunki buni Qo'shinlar Xudovandining og'zi aytdi» (Mikah 4:1-4).

Dunyo bo'ylab farovon va xavfsiz pul tarmog'i yo'lga qo'yiladi, barcha xalqlar Xudoning qonuni bo'yicha yashashni boshlaydilar. Bu ajoyib vaqt bo'ladi!

Buyuk oq taxt Sudi

Keyin shayton ming yillik qamoqdan chiqadi. Unga odamlarni aldashga ruxsat beriladi. Bu yangi tanadagi muqaddaslarga emas, balki Armageddon jangidan omon qolgan kishilarga yoki ming yillik shohlik davrida tug'ilganlarga tegishli.

Isyonkorlar birga yig'ilib, Yerusalimni qurshab oladilar va shunda Xudo ularni yutib yuborishi uchun osmondan olov tashlaydi. Shayton, asrlardan asrlargacha, kecha-yu kunduz qiynoqda umr kechirishi uchun «olovli ko'l»ga tashlanadi va u keyin hech qachon ozodlikka chiqmaydi (Vahiy 20:7-10 ga qarang).

Shundan so'ng, birdan buyuk oq taxt Sudi boshlanadi. Do'zax Odamdan to mana shu oxirgi janggacha to'plangan o'liklarni beradi. Eski Ahd davridagi barcha Yahveh bilan ahdlashmagan yoki Isoning hokimiyatiga bo'ysunmagan odamlar oxirgi zamonda, Shohning qarshisida turib, o'z hayotlari uchun Mustaqil, Aldangan, Jur'atsiz va Qo'sh Hayot kabi hisobot beradilar. Ular shayton va uning izdoshlari bilan birgalikda olovli ko'lga abadiyga tashlanadilar.

Yangi samo va yangi yer

Dastlabki yer va osmonni olov yutib yuboradi (2-Petrus 3:10-13 ga qarang) va yangi osmon va yangi yer namoyon bo'ladi. Havoriy Yuhanno yozgan: «So'ngra men yangi osmon va yangi yerni ko'rdim, zero oldingi osmon va oldingi yer o'tib ketdi, endi dengiz ham yo'qdir» (Vahiy 21:1).

So'ng havoriy Yuhanno, yangi yerda mangu o'rnashishi uchun samodan tushib kelayotgan yangi Yerusolimni ta'riflaydi. Oyatda xotin yoki kelin va Qo'zi haqida aytilgan. Qo'zi Odam Atodan tortib, Isoning qayta kelishigacha, Uning sharafiga qabul qilingan, Rabbiiy sotib olgan odamlarning uyidir. Yuhanno yangi Yerusolimga batafsil ta'rif bergan.

«Shunda u meni ruhda buyuk va baland toqqa ko'tarib, menga osmondan, Xudodan tushib kelayotgan buyuk shaharni, muqaddas Yerusolimni ko'rsatdi. U Xudoning shuhratiga egadir. Uning yog'dusi juda qimmatbaho toshga, billur olmosga o'xshaydi. U katta va baland devorga ega bo'lib, unda o'n ikkita darvoza va darvozalar ustida o'n ikkita farishta bor. Darvozalarda esa Isroil o'g'illarining o'n ikki qabilasining ismlari yozilgan. Sharqda uchta darvoza, shimolda uchta darvoza, janubda uchta darvoza va g'arbda uchta darvoza bor. Shaharning devori o'n ikki poydevorga ega va ularda Qo'zining o'n ikki havoriysining ismlari yozilgan. Men bilan gaplashgan farishta shaharni, uning darvozalarini va devorlarini o'lchash uchun oltin tayoqqa ega edi. Shahar to'rtburchak shaklida joylashgan. Uning bo'yi eni bilan tengdir. Farishta shaharni tayoq bilan o'lchadi va u o'n ikki ming stadios chiqdi. Uning bo'yi, eni va balandligi bir-biriga tengdir. Uning devorini ham o'lchadi. U inson o'lchovida bir yuz qirq to'rt tirsak chiqdi. Farishtaning o'lchovi esa insonning o'lchoviga tengdir. Uning devori olmosdan qurilgan edi, shaharning o'zi esa tiniq shishaga o'xshash sof oltin edi. Shahar devorining poydevorlari har xil qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Birinchi poydevor – olmos, ikkinchisi – zangori yoqut, uchinchisi – aqiq, to'rtinchisi – zumrad, beshinchisi – targ'il aqiq, oltinchisi – la'l, ettinchisi – zabarjad, sakkizinchisi – firuza, to'qqizinchisi – topaz, o'ninchisi – yashil aqiq, o'n birinchisi – lojuvard, o'n ikkinchisi – safsar yoqut edi. O'n ikkita darvoza esa – o'n ikkita marvariddir. Har

bir darvoza bir marvariddan iborat edi. Shaharning ko'chalari tiniq shishadek sof oltin edi» (Vahiy 21:10-21).

Shahar naqadar jozibador! Bu biz yerda hech qachon ko'rmagan mo''jiza. Undan boylik, ziyo va nur taralib turadi. Boshqa chirish bo'lmaydi, chunki u to'la-to'kis pok bo'ladi.

Yuhanno ta'riflashda davom etadi:

«U menga hayot suvining toza daryosini ko'rsatdi. U billurdek shaffof bo'lib, Xudo va Qo'zining taxtidan chiqib kelar edi. Uning ko'chasi o'rtasida va daryoning ikki tomonida o'n ikki marta hosil beradigan hayot daraxti bor edi. U har oy o'z mevasini berar edi. Daraxtning barglari xalqlarning shifolanishi uchun edi. Boshqa hech qanday la'nat bo'lmaydi, lekin shaharda Xudo va Qo'zining taxti bo'ladi. Uning qullari esa Unga xizmat qiladilar. Ular Uning yuzini ko'radilar va Uning nomi ularning peshanalarida bo'ladi. U yerda tun bo'lmaydi. Ular chiroqqa ham, quyoshning nuriga ham muhtoj bo'lmaydilar, chunki Rabbiiy Xudo ularni yoritadi, ular esa abadulabad hukmronlik qiladilar» (Vahiy 22:1-5).

E'tibor bering, Kalomda biz Uning yuzini ko'rishimiz aniq aytilgan. Muso naqadar istagan va unga rad etilgan narsa bizga ruxsat beriladi. Bu qanchalar ajoyib!

Yana hayot daraxtining barglari xalqlarni shifolash uchun belgilanganiga e'tibor bering. Bu narsa bir nechta qiziq savollarni tug'diradi. Bu qaysi xalqlar, axir shaharda faqat muqaddaslar yashaydiku? Ular kimlarning ustidan abudulabad hukmronlik qiladilar? O'sha vaqtda oddiy tanadagi odamlar bo'ladimi? Isha'yo bunga javob beryapti:

«Chunki, mana, Men yangi yer va yangi osmonni yaratyapman, avvalgisi endi esga olinmaydi va yurakka ham kelmaydi. Sizlar Men yaratayotganlarim haqida toabad shodlanib quvonasizlar: chunki, mana, Men Yerusalimni shodlik bilan va uning xalqini quvonch bilan yaratyapman. Men Yerusalim haqida quvonaman va O'z xalqim haqida shodlanaman; unda boshqa faryod va yig'i tovushi eshitilmaydi» (Isha'yo 65:17-19).

Isha'yo endi yangi Yerusalimdan tashqaridagi odamlarga murojaat etyapti:

«U yerda boshqa o'smir va o'z kunlarini to'liq yashab o'tmagan qariya bo'lmaydi. Chunki yuz yashar odam yosh yigit bo'lib vafot etadi, lekin yuz yashar gunohkor la'natlanadigan bo'ladi. Uylar qurib, o'zlari ularda yashaydigan bo'ladilar; uzumzorlar o'tqazib, o'zlari uning hosilidan yeydilar. Ular boshqalar yashashi uchun qurmaydilar, boshqalar yeyishi uchun ekmaydilar. Chunki Mening xalqimning kunlari daraxt kunlari kabi bo'ladi va Mening tanlanganlarim o'z qo'llarining ishidan uzoq vaqt foydalanadilar. Ular behudaga mehnat qilmaydigan va qayg'u uchun bola tug'maydigan bo'ladilar, chunki ular va ular bilan birga ularning avlodi Rabbiiy duo qilgan zurriyot bo'ladi. Va shunday bo'ladi: ular hali chaqirmaslaridan oldin Men javob beraman; ular hali gapirayotgan bo'ladilar – Men ularni allaqachon eshitaman. Bo'ri va qo'zichoq birga o'tlaydilar, sher buqa kabi pichan yeydigan bo'ladi, ilon uchun esa tuproq ozuqa bo'ladi: ular Mening butun muqaddas tog'imda yovuzlik qilmaydigan va shikast yetkazmaydigan bo'ladilar», – deydi Rabbiiy» (Isha'yo 65:20-25).

Ko'pchilik bu oyatlarni Masihning ming yillik shohligidagi hukmronligi davriga yo'yib, noto'g'ri o'ylaydilar, biroq bu joyda yangi osmon va yangi yer paydo bo'lgan vaqt haqida yaqqol yozilgan. Yuhanno va Isha'yoning maktublarini sinchiklab o'qib, shahar tashqarisida yashaydigan odamlar ham bo'lishini ko'ramiz. Ular mangu umumjahon osoyishtaligi va farovonligi vaqtida o'zlariga uylar qurishadi. Bu muqaddas shaharda yashaydigan, muqaddaslarga tegishli deb bo'lmaydi, binobarin ular Isoning O'zi qurib bergan uylarda yashaydilar (Yuhanno 14:2-4).

U joyda yana o'sha odamlardan tug'ilgan bolalar ham bor. Bu ham yangi tanaga ega bo'ladigan muqaddaslar haqida emas, chunki Iso yangi tanada biz oila qurmasligimiz va bolalar tug'masligimizni aniq aytgan. Iso shunday degan: «Chunki tirilishda uylanmaydilar ham, erga ham tegmaydilar, ammo samoda Xudoning farishtalari kabi bo'ladilar» (Matto 22:30). Bu Justin samodan qaytgani tasdiqlagan yana bir omil.

Bu xalqlar yangi yerlarga ishlov berib, ularni o'zlashtiradilar. Odam Ato

gunohidan oldin, yerda ko'payib, uni to'ldirishi kerak edi-yu, bu amalga oshmadi, ular esa bu vazifani amalga oshiradilar.

Bularni qay tarzda mantiqan tushuntirish mumkin? Muzokara uchun bitta mavzu, bu ming yillik shohlik boshlanishi bilan oddiy insonning umri uzoqroq davom etishidir, binobarin, dushmanimiz, o'lim yanchib tashlanadi va yakson qilinadi (1- Korinfliklarga 15:26 ga qarang). Iso ruhiy va jismoniy o'lim la'natini barbod etadi. Shu boisdan inson butun ming yillik davri mobaynida o'lmay, yashay olishi mumkin.

Shayton qo'yib yuborilganda, Xudoga qarshi isyon ko'tarmaganlarga ming yillik shohlik yakunida bu in'om abadiyga qoldiriladi. Sanochi shunday deb yozadi: «Xalqlar Seni abadulabad ulug'laydilar» (Sanolar 44:18). Bu imkoniyat qayerdan kelganini tushunishning bir yo'li – bu xalqlarni Odam va Havvaga o'xshagan deb hisoblash kerak. Odam o'lim uchun emas, balki abadiy hayot uchun yaratilgan edi. Gunohga yiqilishdan so'ng abadiy hayot in'omi qo'ldan boy berildi va inson o'zining, qolaversa, butun avlodlarining hayotiga o'lim la'natini orttirdi.

Yangi Yerusalimda faqat Masih qayta sotib olgan yangi tanadagi muqaddaslar yashay oladilar, shuningdek, Kalomda oddiy tanadagi odamlar ham shaharga kira olishi, mevadan yeyishi va Rabbiyga sajda qila olishi mumkinligini ko'ramiz. Bu Yuhannoning so'zlarida aks etgan:

«Najot topgan xalqlar uning nurida yuradilar. Yer yuzidagi podshohlar o'z shuhratu izzat-ikromini unga olib keladilar. Uning darvozalari kun bo'yi qulflanmaydi, tun esa u yerda bo'lmaydi. Ushbu shaharga xalqlarning shuhratu izzat-ikromini olib keladilar» (Vahiy 21:24-26).

Inson boshida gunoh vasvasasiga berildi. Gunohning oqibatida jismoniy va ruhiy o'lim kirib keldi hamda bu o'z navbatida abadiy o'limga sabab bo'ldi. Bunga qaramay, bu Xudoning inson uchun yerdagi dastlabki abadiy rejasidan voz kechishga majbur eta olmadi.

Xudo insoniyatning itoatsizligi tufayli O'z rejasining kasodga uchraganiga ko'nishi mumkinmi? Yo'q. Buning o'rniga insonning mag'lubiyatini marhamatga aylantirdi, halok bo'lgan va oxir-oqibat yangi yerda insoniyat ustidan shohlik qiladigan Masih tomonidan sotib

olingan insoniyatdan sharaflı samoviy xalq yig'di. Bu bizga Isoning sodiq ish yurituvchiga qaratilgan so'zlarini yaxshiroq anglashga yordam beradi: «Ma'qul, sen yaxshi qul ekansan. Kichik ishda sodiq bo'lganing uchun o'nta shahar ustidan hokim bo'lgın» (Luqo 19:17). Bu shaharlar yangi yerdagi abadiy eraning ming yillik shohligida bo'lishi mumkinmi?

Gunohga yiqilish sodir bo'lmaganda, Xudoda, Unga yer-yuzi va borliq bo'yicha abadulabad ish yuritadigan shonli toifadagi odamlar paydo bo'lmasdi. U buni O'zining mangu donoligi bilan oldindan bilgan, binobarin Iso «Dunyo yaratilishidanoq so'yilgan Qo'zi» deb nomlangan (Vahiy 13:8).

Ming yillik shohlikning boshidan va yangi yerdagi mangu eradagi insonlar abadiy yashashi, yer-yuzini to'ldirishi haqidagi Xudoning dastlabki rejasi, amalga oshadi. Isoning So'zlari hech mubolag'asiz bajo bo'ladi: «Sening Shohliging kelsin! Osmonda bo'lgani kabi yerda ham Sening irodang bajo bo'lsin!» (Matto 6:10). Jastinning guvohligi bo'yicha yerda, xuddi samodagidek bo'ladi. Ajib yangi gullar, tirik o'tlar va Xudoning sharafini kuylaydigan toshlar, takomillashgan inshootlar, tirik suv va boshqalar. Chindan ham mukammal dunyo!

Isha'yo o'zining payg'ambarlik kitobini yangi yer davri haqidagi ushbu so'zlar bilan tugatgan:

«Zero Men yaratadigan yangi osmon va yangi yer doimo Mening ko'z oldimda bo'ladiganiday, xuddi shunday, sizlarning zurriyotingiz va sizlarning ismingiz doimo Mening ko'z oldimda bo'ladi, – deydi Rabbiy. O'shanda har yangi oy chiqqanida, har shabbat kunida bor bashar sajda qilish uchun Mening huzurimga keladigan bo'ladi, – deydi Rabbiy. – Ular chiqib, Mendan qaytgan odamlarning jasadlarini ko'radilar: zero ularning qurti o'lmaydi va ularning olovi so'nmaydi. O'sha jasadlar bor bashar uchun jirkanch bo'ladi « (Isha'yo 66:22-24).

Odamni hushini uchiradigan narsa shundaki, butun abadiyat davomida, biz shahar chetiga borib, shayton, uning farishtalari va Rabbiyga qarshi bosh ko'targan odamlarning dahshatli oxiratini ko'ra olishimiz mumkin. Balki bu ham Xudoning bir hikmati, toki gunoh va isyonning oqibati doimo mavjudotning ko'z oldida ko'rinib tursin. Mana nima haqda o'ylab ko'ring:

shayton vasvasa qiluvchining yordamisiz Xudoga qarshi bosh ko'tardi va Xudo jazo haqida eslatmani mangu qoldirgan bo'lsa, demak, u Lyusifer va uning farishtalari yiqilgan dahshatli gunohdan ogohlantirish bo'lib xizmat qilishi zarur.

Ilgari aytilganidek, yangi tanadagi muqaddaslar Xudoning shahri bo'lmish, yangi Yerusalimda maskan quradilar. Ming yillik shohlik boshlanishidan avval, Masih Sudi vaqti, ular o'z mukofotlarini va Mangu Shohning qarshisida abadiy xizmat o'rinlarini oladilar, bu haqda keyingi bobda batafsil o'rganib chiqamiz.

MASIH SUDI

Ammo sen nima uchun birodaringni hukm qilyapsan? Yoki sen nima uchun birodaringni kamsityapsan? Zero hammamiz ham Xudoning hukm kursisi oldida hozir bo'lamiz-ku. Shunday qilib, bizning har birimiz Xudoga o'zi uchun hisobot beradi.

— Rimliklarga 14:10, 12

Barchamiz Masih sudi qarshida turamiz. Pavlus kimga murojaat etyapti, imonlilargami yoki imonsizlargami? Kalomdagi ushbu matnning ma'nosini, butun kitob davomida o'rgansak, u imonlilarga murojaat etayotganiga hech qanday shubhaga o'rin qolmaydi. Pavlus bizni masihiylik mag'zi yoki birodarga behurmatlik ko'rsatishning jiddiyligi va shunday yo'l tutganlar, ertaga javob berishlari haqida o'rgatyapti.

Xullas, sud qarshida nafaqat imonsizlar, qolaversa barcha masihiylar ham Xudoning oldida, yerdagi butun hayoti uchun hisobot beradilar. Bu o'tgan bobda o'rgangan Pavlusning korinfliklarga yozgan maktubini yana bir marta ta'kidlaydi:

«Ha, biz dadil bo'lib, bu tanadan yiroqlashishni va Rabbiyda jo bo'lishni xohlaymiz. Shuning uchun jo bo'libmi, yoki hali jo bo'lmasdanmi, Unga ma'qul bo'lish uchun jonbozlik qilmoqdamiz. Chunki hammamiz tanada yashagan paytimizda qilgan yaxshi yoki yomon ishlarga qarab qarimtamizni olish uchun Masihning hukm kursisi oldida hozir bo'lishimiz kerak. Shuning uchun Xudoning qo'rquvini bilgan holda, bizlar odamlarni ishontirmoqdamiz. Xudoga esa biz ayonmiz va umid qilamanki, sizlarning vijdongingizga ham ayonmiz» (2-Korinfliklarga 5:8-11).

Pavlus gunohkorlar ustidan emas, balki masihiylar ustidan bo'ladigan sud haqida aytgani shak-shubhasiz. Uning: «Tanadan chiqishni va Rabbiyda

jo bo'lishni istaymiz», iborasi bu maktub kimga tegishli ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi. Hech bir imonsiz o'z tanasini qoldirib ketgach, Xudo bilan birga bo'lmaydi, ularning barchasi do'zaxga tushadilar, ularning abadiy boradigan joylari esa – olovli ko'l.

Ilgari aytganimizdek, betavfiqlar imonsizlarning sudidan ancha keyinroq bo'ladigan, buyuk oq taxt deb ataladigan Sudda turadilar.

Keling, o'tgan bobda aytganlarimizni qisqacha takrorlab o'tamiz. Iso Masih yerga samoviy jangchilar bilan qaytadi, dajjolni yengadi, shaytonni qamoqqa soladi va ming yil Yerusalimdan turib, butun dunyo bo'ylab O'z hukmronligini o'rnatadi. Shundan so'ng shayton yer qa'ridan ozodlikka chiqariladi va unga qisqa vaqt yerdagi xalqlarni yo'ldan ozdirishga ruxsat beriladi. Isyonkorlarni osmondan kelgan olov yutib yuboradi va shayton abadiyga olovli ko'lga tashlanadi. So'ngra barcha imonsizlar va betavfiqlar, buyuk oq taxt Sudi oldida turish uchun do'zaxdan tiriladilar. Iso bu voqeani mahkumlik uchun tirilish, deb aytgan (Yuhanno 5:29). Hayot Kitobida ismlari yozilmaganlarning barchasi olovli ko'lga tashlanadilar.

Boshqa tomondan, imonlilar ustidan sud buyuk oq taxt Sudidan ancha oldin bo'lib o'tadi. Kalomda aniq vaqt aytilmagan, biroq bu jamoat bulutlarda ko'tarilib ketishi va Masihning ming yillik shohligi boshlanishidan avval bo'lishini bilamiz. Demak, ikki sudni bir-biridan taxminan ming yil ajratib turadi. (Affabel kinoyasida bu narsa keltirilmagan).

Ikkinchi Korinfliklarga maktubda (5:10) Rimliklarga maktubdagi so'zlarning aks sadosi yozilgan: «Chunki hammamiz Masihning hukm kursisi oldida hozir bo'lishimiz kerak». «Hukm» so'zi Rimliklarga maktubda ham va Korinfliklarga maktubda ham – yunon tilidagi «bema» so'zi bilan yozilgan. Strongning «Simfoniyasi» ushbu so'zga quyidagicha izoh beryapti: «zina, supa, minbar». «UBS Commentary» da esa shunday izoh keltirilgan: «Rim imperiyasidagi shahar sudidagi hukmdorning o'rindig'i hukm deb atalgan. Pavlus bu so'zni Masihning sudini ta'riflashda ishlatgan». Ushbu izohga asoslanib, imonlilar ustidan bo'ladigan sudni Masih hukmi deb ataymiz.

Masih hukmi tom ma'noda, Xudoning oliy sudi hisoblanadi. Kalom

Ota butun sudni O'g'liga topshirgan, deydi (Yuhanno 5:22). Iso Masih nafaqat bizning Najotkorimiz, shuningdek, Hukmdorimiz hamdir va U tez orada O'zinikilarni sud qiladi. «Sud» so'zining eng oddiy ta'rif – bu tergov natijalariga asoslanib, ijobiy yoki salbiy qaror chiqarishdir.

Jamoatda yerdagi qisqa muddat ichida amalga oshirgan qilmishlari uchun hisobot berishlariga to'g'ri kelishini anglamaydigan odamlarning soni ancha. Ko'plar najot topgan kundan boshlab, kelgusidagi sud bekor qilingan deb, xato o'ylaydilar. Bu haqiqatning bir qismi xolos: Isoning qoni bizni Uning Shohligiga kirishimizga to'siq bo'ladigan gunohlardan poklaydi, biroq u imonli bo'lib, yaxshi yoki yomon yashaganimiz uchun bo'ladigan suddan ozod etmaydi.

Mangu qarorlar

Masih Hukmida Uning bizga nisbatan qabul qiladigan qarorlari yoki hukmi, abadiyga bo'ladi, u keyin bekor qilinmaydi va o'zgartirilmaydi.

Bir zumga to'xtang va birinchi bobdagi mangu tushunchasini fikran o'zlashtirishga uringan mulohazalarimizni eslab ko'ring. Yoqub bizning yerdagi o'tkinchi hayotimiz bug'dek yo'q bo'lib ketadi, deydi (Yoqub 4:14). Bu yerdagi saksondan to yuz yoshgacha bo'lgan hayotimizni timsolan taqqoslashdir. Yoqub bugun bizga tushunarli matematika bo'yicha ma'lumotga ega bo'lganda edi, u aniqroq tenglashtirish keltirgan bo'lardi. Men matematikani o'rganganimda, har qanday kattalik cheksizlikka bo'linganda, nolga tengligini boshidan eslab qolganman.

80 yil : cheksizlik (mangu) = 0

100 yil : cheksizlik (mangu) = 0

Har qanday cheklangan son, cheksizlikka tenglashtirilganda yoki bo'linganda, nulg teng. Yerd qancha uzoq yashaganingizning ahamiyati yo'q. Siz hatto bir yuz ellik yil yashay olsangiz ham, abadiylik bilan o'lgachanda yerdagi hayotingiz nolga tengdir. Bu Isoga imon keltirgandan so'ng qilgan nolga teng ishlarimiz manguylikni qanday o'tkazishimizni

aniqlaydi, degani. Yodingizda bo'lsin: Isoning xochiga va Uning najot beruvchi inoyatiga bo'lgan munosabatimiz, manguликni qayerda o'tkazishimizni belgilaydi, biroq Uning mangu Shohligida qanday umr kechirishimizni najot topganimizdan keyingi hayotimiz belgilaydi.

Esingizdami, hikoyamizdagi Xudbin va uning tanishlari Endeldagi qisqa muddatli vaqtini noto'g'ri o'tkazganidan pushaymon bo'ldilar? Besh yillik sinov muddatining ko'p qismi Jeylinning irodasiga to'liq bag'ishlanib yashashning o'rniga, shaxsiy zavq-shavq bilan o'tib ketdi. Ular qolgan butun hayoti davomida, qo'ldan boy bergan narsadan ancha tubanda yashashga majburlar, chunki ularning har biri Jeylin bilan yonma-yon yashash va ishlash, hatto u bilan birga uning shahrida hukmronlik qilish imkoniyatiga ega edilar. Ular maktab yakunida berilgan vaqtni kayf-u safo bilan o'tkazdimi yoki yo'qmi – har holda, endi ularning kelajagi abadiyga belgilandi. Ularning keyingi 130 yil umri, qisqa besh yillik sinov davridagi hayotining to'g'ridan-to'g'ri natijasi bo'ldi. Bu haqda o'ylab ko'ring: 5 yilning oldida 130 yil! Bu juda ko'p. Yerdagi hayotning, hech bo'lmaganda, eng qisqa marrasiga ham juda kam kishilar yetib boradilar. Agar Xudbin va boshqalar Endeldagi vaqtida bu haqda mulohaza etib ko'rganlarida edi, balki o'tgan yillarini boshqacha tarzda yashardilar.

Hikoyamizdagi misol naqadar ko'zni ochadigan bo'lmasin, bular mulohaza qilayotgan mavzumizning oldida hech narsa emas. Keling, boshqacha voqeani ko'rib chiqamiz. Quyidagilarni tasavvur etishga urinib ko'ring: sizda bir kun bor va ushbu yigirma to'rt soatni qanday o'tkazishingiz, keyingi ming yillik hayotingizni belgilaydi. Ming yilni tasavvur etishga harakat qilib ko'ring. Bu sana Qo'shma shtatlar vujudga kelgan fursatdan, Xristofor Kolumb yangi yerni kashf etish uchun yelkanlarini ko'targan sanadan ancha uzoqroqqa cho'ziladi. Ming yil – bu juda uzoq vaqt. Sovrinlar, jamiyatdagi o'rin, yashash joy va qolgan barcha narsalar atigi bir kunni qanday yashaganingizga qarab aniqlanadi.

Siz buni bilgach, bor jon-jahd bilan urinmagan bo'lardingizmi? Shu bir kunni qanday yashab o'tardingiz? O'sha kun hozirgi hayot tarzingizdan farq qilarmidi? Rabbiyga itoat etish birinchi o'rinni egallamasmidi? Osmon Shohligining foydasiga odamlarning hayotiga ta'sir o'tkazish uchun barcha

imkoniyatlarni ishlatmasmidingiz? Odamlar bilan boshqacha munosabatda bo'lmasmidingiz? Savollar ro'yxatini cheksiz davom ettirish mumkin. Baribir bu misol ham biz mulohaza yuritayotgan mavzuning oldida hech narsa emas, chunki bir kunni 365 ming kunga bo'lsak (ming yilda shuncha kun bor), natijasi nolga teng bo'lmaydi.

Keling davom etamiz. Olaylik, siz yashab o'tgan bir kun, keyingi million yillik hayotingizni belgilaydi! Buni bir lahza ko'z oldingizga keltirishga urinib ko'ring. Insoniyat yerda bor-yo'g'i olti ming yil atrofida umr kechiryapti. Demak, million yil insoniyatning yerdagi hayotidan yana 150 marta ko'proq davom etadi. Buni faraz qilish mushkul. Shunday bo'lsa-da bu ham biz mulohaza yuritayotgan mavzuning qarshisida hech narsa emas, negaki bir kunni 365 million kunga (million yilda aynan shuncha kun bor) bo'lganda ham, bu nolga teng emas. Milliard yoki trillion yilni olsak ham, baribir ma'lum bir raqam kelib chiqadi.

Yerda qancha uzoq vaqt yashashimizning ahamiyati yo'q, bizning vaqtimiz manguilik bilan taqqoslanganda, nolga teng. Balki havoriy Pavlus aynan shu sababdan, mumkin qadar ko'proq mukofot olishimiz uchun harakat qilib yashashga undayotgandir? Uning Korinfliklarga maktubida, musobaqa qatnashchisi sovrin olishga harakat qiladi deydi, so'ngra shunday so'zlarni yozadi:

«Nahotki bilmasangizlar, masofaga yugurayotganlarning hammasi yuguradi-yu, ammo bir kishi mukofot oladi. Sizlar ham mukofot olish uchun yuguringlar. Musobaqada kurashadigan har bir odam o'zini hamma narsadan tiyadi. Ular buni chiriydigan toj olish uchun, biz esa chirimaydigan toj olish uchun qilamiz. Shuning uchun men ham maqsadsiz yugurayotganday yugurmayapman, havoni urayotganday mushtlamayapman, lekin o'z tanamni bo'ysundirib, o'zimga qul qilyapman, toki boshqalarga voizlik qilib, o'zim noloyiq deb topilmayin» (1-Korinfliklarga (9:24-27)).

Pavlusning so'zlariga qaraganda, bizning yashashdan maqsadimiz bor: hech qachon chirimaydigan, abadiy sovrinni qo'lga kiritish. Bu hayotda shunday yugurish kerakki, toki g'alabaga erishaylik. G'alaba qozonish uchun bizga tartib-intizom, o'zini nazorat qilish va maqsad zarur.

Men ko'p yillar davomida sport bilan jiddiy shug'ullandim. Qo'shma Shtatlarning tennis uyushmasi uchun o'ynaganimda, yurior Devis kubogida va NCAA da tennis bo'yicha birinchi qismda qatnashganimda, tennis bilan juda ko'p shug'ullanganman. Men murabbiyim va boshqa sportchilar bilan tennis maydonchasida ba'zida yuz martalab bir xil zarbani devorga urib, bir kunda olti soatlab vaqt o'tkazganman. Tennis maydonida og'ir fikrlash faolyati to'g'risida kitoblar o'qiganman. Maydondagi darslardan tashqari mashq apparatlarida vaznni ko'tarish, yugurish, arg'amchida sakrashda, qo'l, ko'z va boshqa ko'p narsalarning harakatlarini muvofiqlashishini yaxshilash maqsadida jonglyorliklar bilan shug'ullanganman. Men shu qadar kuchli maqsadga berilgan edimki, hatto onam menga krovatingni tumanimizning tennis maydoni yoniga olib borib qo'yaman deb, do'q qilardilar. Men ularni nima uchun qilganman? G'alaba qozonish uchun. Chempion bo'lish uchun. Hammadan zo'r bo'lish uchun. G'olibga tayinlangan sovringa erishish uchun.

Osmon Shohligida esa bir oz boshqacha. Biz bir-birimiz bilan emas, balki faqat o'zimiz bilan bellashamiz va bizning maqsadimiz, hamma ishlarimizda Isoga ma'qul bo'lishdir (2-Korinfliklarga 5:9). Kalomni diqqat bilan o'qisak, odamlar bilan qanday munosabatda bo'lishimiz, vaqtimizni nimaga sarflashimiz, abadiylik bo'sag'asida odamlarning joniga qanday ta'sir o'tkazishimiz, Uning Shohligiga kirish uchun boshqalarga qanday yo'l berishimiz, atrofdagilarni qanday kechirishimizni va boshqa narsalar haqidagi Isoning istaklari yozilgan oyatlarni topamiz. Keyinroq ularni yanada chuqurroq mulohaza qilamiz. Yuqorida aytilganlarga xulosa qilib: g'olib bo'lish uchun yashaylik!

Turli xil mukofotlar

Kalom imonlilar qo'lga kiritadigan sovrin va o'rinlar bir-biridan juda katta farq qilishini ochadi. Sovrinlar hamma narsa yonib ketishidan tortib, to butun mangulik davomida Masih bilan yonma-yon hukmronlik qilishgacha (1-Korinfliklarga 3:15; Vahiy 3:21 larga qarang) o'zaro farq qiladi. Ko'plar hayoti borasida gap ketganda, yo'qotish va yonib ketish so'zlaridan seskanib ketadilar; samoda umuman bunday narsa sodir bo'lishiga ko'zlari yetmaydi.

Biroq Kalomda bu haqda uzil-kesil yozilgan. Muqaddas Kitobdan misol keltirishdan avval, Kalomda insoniyat hayoti aksariyat hollarda bino va ba'zi joylarda Jamoat ma'bad yoki bino bilan taqqoslanganini oldindan aytib o'tishga ruxsat eting. Ushbu o'xshatmalarda shaxsiy hayotimiz boshqalarning hayot jarayoniga va jamoatga ta'sir ko'rsatadigan quruvchilar ma'nosida tasvirlanganmiz. Men ham kitobning qolgan qismida ko'p marta ushbu qiyosdan foydalanaman. Pavlus aniq-ravshan qilib quyidagilarni ta'kidlagan:

«...Sizlar ... Xudoning imoratisizlar ...Lekin har kim qanday qurayotganiga e'tibor bersin. Chunki hech kim qo'yilgan poydevordan, ya'ni Iso Masihdan boshqa poydevorni qo'ya olmaydi. Bu poydevor ustida kimdir oltindan, kimdir kumush va qimmatli toshlardan, kimdir esa yog'ochu xashak yoki somondan qurmoqdaki, har bir kishining ishi oshkor bo'ladi, chunki o'sha kun buni ko'rsatadi. Bu olovda fosh bo'ladi va olov har kimning ishi qanday ekanligini sinaydi. Agar kimning qurgani oxirigacha tursa, u mukofot oladi. Kimning qilgan ishi yonib ketsa, u ziyon ko'radi. Biroq o'zi najot topadi, lekin olov ichidan qutulgandek bo'ladi» (1-Korinfliklarga 3:9-15).

Biz har doim qurilishdagi ikkita muhim yo'nalishdan birini tanlagan holda, qanday qurish kerakligini o'zimiz belgilaymiz. Birinchi yo'nalish – o'tkinchi narsalarga moyillik, tanaga ma'qul bo'lish (taxta, xashak, somondan qurish). Boshqasi – bu yuqoridan tug'ilgan ruhimiz va Xudoning So'zi xohishlari bo'yicha yashash (oltin, kumush va qimmatbaho toshlardan qurish). Biz qanday qurishimiz va yashashimiz, ishlarimiz Uning olovi huzurida sinalganda, qanday natijaga erishganimizni belgilaydi.

Nafaqat ishlarimiz, shuningdek fikrlarimiz, niyat va maqsadlarimiz ham sinovdan o'tadi. Mana nima uchun imonli Xudoning So'zini eshitishi va uni yuragida saqlashi o'ta muhim, negaki u «yurak o'ylari va maqsadlarini hukm qiladi, elakdan o'tkazadi, tahlillashtiradi va yoritadi» (Ibroniylarga 4:12, Kengaytirilgan tarjima). Bizning yuragimizga Uning So'zidan boshqa hech narsa bunchalik chuqur kirib bora olmaydi.

Agar insoniy mulohazalarga, mantiqiy xulosalarga yoki bilimlarga quloq tutsak, yuragimiz va ongimiz bilan o'tkinchi narsalarga intilamiz, boz ustiga xuddi Xudbin Adolat zaliga bormagunicha bu haqda

anglamagandek, ko'p hollarda bu narsa bizning ham xayolimizga kelmaydi. Binobarin, Iso ogohlantiryapti:

«Chunki oshkora bo'lmaydigan hech qanday sir yo'q, ma'lum va ayon bo'lmaydigan hech yashirin narsa ham yo'q. Shuning uchun sizlar qanday tinglayotganingizga e'tibor beringlar: chunki kimda bor bo'lsa, unga beriladi. Kimda yo'q bo'lsa, undan hatto ega bo'lishni xayol qilgani ham tortib olinadi» (Luqo 8:17, 18).

Iso: biz eshitgan va diqqat qaratgan narsalar, yuragimizga tushadi, so'ng ular fikr va niyatlarimizni shakllantiradi, fikr va niyatlarimiz o'z navbatida hayotimizni qanday qurilishini belgilaydi, deydi. Xudoning So'zini e'tibor bilan eshitishimiz lozim, zero u hayot nuridir. Uning So'zisiz tungi qorong'ulikda yo'ldan adashgan inson kabi, hoynahoy, biz ham yo'limizdan adashamiz. Qanchadir vaqt to'g'ri yo'nalishdan borishimiz mumkin, ammo oxir-oqibat, baribir yo'ldan ozib ketamiz.

To'g'ri yo'ldan yiroqlashgan zahoti qurilishimiz osonlikcha qandaydir vaqtinchalik narsalarga og'ib ketadi, lekin Xudo So'zining nuri porlagan on bu narsalar yana ko'rinib qoladi. Pavlus deydi: «Fosh qilinadigan hamma narsa nur tomonidan ayon qilinadi, chunki ayon qiladigan hamma narsa nurdur» (Efesliklarga 5:13).

Biz yo'limizdan adashganimizda, voqealar ikkita yo'nalishda davom etishi mumkin. Birinchisi, ikkita yo'ldan eng yaxshisi, voizliklarda Xudoning Kalomini tinglash, kitob o'qish jarayonida yoki do'stlarimizning so'zlari orqali tanbeh eshitamiz. Mana nima uchun So'z bilan mutanosib ravishda oziqlanish hayot uchun zarur. Biz dono bo'lsak, tezgina tavba qilamiz va o'z fikrlarimiz, niyat va istaklarimiz uchun kechirim so'raymiz. Lekin vijdonimiz qayta-qayta sodir qilingan xatolardan o'tmas bo'lib qolgan bo'lsa, haqiqatni eshitish qiyin bo'ladi, bordi-yu vijdon qattiq holga kelgan bo'lsa, haqiqatni eshitish qariyb imkonsiz. Binobarin Kalom pok vijdonni saqlash imkoni borligi haqida aytgan (Hikmatlar 4:23; 2-Timotiyya 1:3). Vijdonimizni soflikda saqlasak, yuragimizda, Xudo So'zining faoliyatini his etish oson bo'ladi.

Boshqa noma'qul yo'l: maqsadlarimiz Sudda ochiladi. Agar shu narsa

sodir bo'lsa, bizga tegishli sovrinni yo'qotamiz. Xullas, siz o'zingizdan so'rashingiz zarur: «Xudo Kalomi fosh qilganda, yurakni yopish bizga nima beradi?» Har gal tanbehni qabul qilishdan bosh tortganimizda, yuragimiz qattiqlashib boraveradi, biz esa chuqurroq adashib boramiz. O'zimizning asl holatimizni fahmlamay, buni Sudda Uning sharafi nurida ko'rib qolamiz.

Abadiy kelajakka tayyorgarlik

Hayotimizdagi hech bir narsa Sudning nazaridan chetda qolmaydi. Hamma narsa ravshan va yaqqol tarzda ochiladi. Mana nima uchun Pavlus Sud taxtini «Rabbiyning qo'rquvi» deb atagan. Sudda bizning niyatlarimiz, xohishlarimiz, fikrlarimiz, so'zlarimiz, ishlarimiz va boshqalar o'rganib chiqiladi. Pavlusning Korinfliklarga yozgan birinchi maktubida qurilish va sud haqidagi so'zlarini Message tarjimasida o'qiganda, juda kuchli eshitiladi:

«Boshqa so'zlar bilan aytganda, siz Xudoning uyisiz... Qurilish manbalarini tanlayotib, e'tiborli bo'linglar. Qurilish yakunida tekshiruv o'tkaziladi. Agar siz arzon yoki yomon manbalardan foydalangan bo'lsangiz, bu yuzaga chiqadi. Tekshiruv puxta va jiddiy o'tadi. Hech narsa ko'zdan chetda qolmaydi. Agar sizning ishingiz tekshiruvdan yaxshi o'tsa – bu ajoyib; bordi-yu bunday bo'lmasa, sizning qurilishdagi qisimingiz buzib tashlanadi. Lekin siz buzilmaysiz, siz qiyinchilik bilan tirik qolasiz».

Sizlarni bilmadim-u, lekin men Masih Hukmidan zo'rg'a tirik qolgan odamning o'rnida bo'lishni istamayman. Hozir manguilikdagi o'z taqdirimiz haqida gapiryapmiz. O'sha kuni qanchadan-qancha imonlilar hayratda tosh bo'lib qotib qolishini faraz qilyapsizmi? Tayyorgarlik ko'rgan atigi bitta qahramonimizdan tashqari qolgan barcha qahramonlarimiz uchun hamma sodir bo'lgan narsalar butunlay kutilmagan holat edi. Ular boshidan bilishi kerak bo'lgan dastlabki ta'limotlarni jiddiy qabul qilmagan edilar.

Men har doim kelajakdagi hayotiga tayyorlagarlik ko'radigan bu dunyoning dono kishilari bilan uchrashib qolaman. Hammasi maktabdan to muvaffaqiyatli mansabning eshiklari ochilguncha, g'ayrat bilan o'qiydilar.

Mansabda ko'tarilishni boshlagach, ular uy sotib olishga intiladilar. Kelajak uchun bir qancha pul yig'ib qo'yadilar. Ayrimlari mablag'ining bir qismini daromad keltiradigan sohaga sarflaydilar. Bularning barchasi kelgusiga tayyorgarlik uchun qilinadi, chunki odamlar, ayniqsa nafaqa yoshida, muhtojlikda yashashni istamaydilar. Agar ular ham bugun ko'pchilik manguilikka qanday tayyorlansa, qarilik chog'iga ham shunday tayyorlansalar edi, kelajakda muammoga uchrashdan tashqari ko'p masihiylardan farqli o'laroq, shunday yashayotganidan juda xavotirlangan va qo'rqqan bo'lardilar.

Keling faraz qilib ko'raylik. Nafaqaga chiqayotgan keksa kishini ko'z oldingizga keltirib ko'ring. Birinchidan, davlat nafaqa jamg'armasi kasodga uchradi va bu odamga endi har oy nafaqa to'lay olmaydi. Ikkinchidan, uning barcha mablag'i saqlanib turgan bank yopildi va u bankdan bir tiyin ham ololmaydi. U shu kecha tutun o'rtasida uyg'onib ketdi, uning uyini olov qurshab olgan edi. U hech narsani olishga ulgurmay, ko'chaga otilib chiqdi. Hamma yiqqan mulki yonib ketayotganini bitta tungi kuylakda kuzatib turardi.

Bu kun o'sha odamning hayotidagi mudhish kun. Masih Hukmida ba'zi masihiylar bilan nimalar sodir bo'lishi haqida aytib, Pavlus aynan shu suratni chizyapti. Keling, uning so'zlarini yana bir marta o'qiymiz: «Kimning qilgan ishi yonib ketsa, u ziyon ko'radi. Biroq o'zi najot topadi, lekin olov ichidan qutulgandek bo'ladi» (1-Korinfliklarga 3:15). Shohlikning dono imonlilari, biz «qarilik chog'idagi ta'minot» uchungina mehnat qilmayotganimizni tushunadilar. Biz abadiylikka tayyorlanyapmiz!

Dono deb oxirati haqida qayg'uradigan, yerdagi hayoti kelajakdagi taqdirini belgilashini bilgan holda, yashashdan maqsadlarga ega bo'lgan kishilarni aityapman. Bu ularga shunchaki hamma ishlari yonib, barbod bo'lib ketishini bilib, Osmon Shohligiga oyog'i tegibgina o'tishdan asraydi va Unga kirish uchun sharaflı yo'l ochadi. Qarang, Petrus bu haqda shunday degan:

«Shuning uchun birodarlar, o'z da'vatingizni va tanlovingizni mustahkam qilish uchun yanada astoydil harakat qilinglar: agar shunday qilsangiz, hech qachon qoqinmaysizlar. Shu tariqa, Rabbimiz va

Najotkorimiz Iso Masihning abadiy Shohligiga kirish yo'li sizlarga keng ochiladi» (2-Petrus 1:10, 11).

Kirish yo'li keng ochiq! Bu Xo'jayinning: «Barakalla, yaxshi va sodiq qul! Sen oz narsada sodiq bo'lding, seni ko'p narsa ustidan qo'yaman. Endi, xo'jayiningning quvonchiga kirgin» (Matto 25:21), degan so'zlarini eshitishni bildiradi.

Bir qancha vaqt avval Rabbiiy menga ochiqlik bergan edi. Men Xudoning shahri bo'ylab saf tortib yurib ketayotgan shohlikning g'oliblarini ko'rdim. Ular oltindan bo'lgan ko'chalardan borar va ko'chaning ikki tomonida minglab ayol va erkaklar turib, ularni olqishlardi. Shoh Iso shaharning har burchagidan ko'rinadigan minbarda qad ko'tarib turardi. Sadoqatli jangchilar zinalardan chiqib, Isoga hadyalar uzatar, buni ko'rib, olomon o'yin-kulgu qilardi. Ochiqlikda Rabbiiy jangchilarga «Yaxshi» dedi.

So'ngra Rabbiiy mening yuragimga gapirdi. «Menga o'rim-terim hosillaridan olib kelayotgan mana shu askarlardan biri bo'lishni istaysanmi yoki chetda turganlarning qatorida bo'lishnimi?» Men o'z da'vatimni bajarishga va nima uchun tanlangan bo'lsam, shu narsani amalga oshirish uchun har qachongidan ham mustahkamroq kirishishga qaror qildim. Rabbim hayotimni ko'rib chiqayotganda, menga berilgan imkoniyat qo'ldan boy berilgani tufayli, Uning yuzidagi qayg'u alomatini emas, balki hech ikkilanishsiz zavqli tabassumni ko'rishni istayman.

Shunda men o'z davrimning har bitta Xudoni sevadigan kishisiga bu haqda aytishga qaror qildim, toki ular ham men bilan birga Uning maftunkor huzuriga hadyalar bilan kira olsinlar va Otamizning sharaflari tabassumini ko'rishga muyassar bo'lsinlar. Samoga kirish yo'li keng ochiq bo'ladimi yoki yo'qmi, buni yerdagi xizmatimiz orqali o'zimiz belgilaymiz. Keyingi boblarda aynan shu haqda gap ketadi.

Davomida

Keyingi boblarda hayotimiz, hukm qilinishimiz yoki mukofotlanishimizga javob beradigan, muhim sohalarini muhokama etamiz. Hamma mavzuni batafsil o'rganib chiqqan olmasakda, eng

muhimlarini ko'zdan kechiramiz. Kelgusida, abadiylikda ahamiyatga ega bo'ladigan hayotni qura olishingizda, yaxshi poydevor qo'ya olamiz.

Yakunida, shoshilmasdan, Petrusning so'zlarini o'qib chiqing va ushbu bobda o'qiganlaringizga yana bir bora diqqat qiling. Bu oyatda hamma aytilganlarni jonlantirishga qodir muhim so'zlar va iboralarni ko'rasiz. Uning so'zlari bizni, tez orada aytadigan mavzularimizga ham tayyorlaydi:

«Xudoga ma'qul hayotga olib boradigan hamma narsa, Xudoga bizni jalb qilganni shaxsan va yaqindan tanib-bilish orqali mo'jizaviy tarzda berilgan... Shuning uchun, imoningizga ya'ni xulq-atvor, ruhiy fahm, aniq intizom, ishtiyoqli sabr-toqat, ehtiromli istak, iliq do'stonalik va boshqalarni quradigan, himmatli sevgini qo'shib, sizga berilgan narsada qurishda bir daqiqani ham yo'qotmanglar. Bunday sifatlarga ega bo'lib va ularni ko'paytirib, siz Rabbimiz Isoni tanib-bilishda voyaga yetgan sari, bir kun ham mukofotsiz qolmaysiz... Shunday ekan, do'stlar, o'z da'vatingizni va tanlovingizni mustahkam qilish uchun yanada astoydil harakat qilinglar; buni keyinga qoldirmanglar, hozir qilinglar, shunday qilsangiz, hech qachon qoqinmaysiz, zero shu tariqa Rabbimiz va Najotkorimiz Iso Masihning abadiy Shohligiga kirish yo'li sizlarga keng ochiladi. Shuning uchun bu haqda bilsangiz va hozirgi haqiqat bilan tasdiqlayotgan bo'lsangizda, eslatib turishdan to'xtamayman. Bu foniy tanada ekanman, sizlarga esalatib turishni adolatli deb bilaman» (2-Petrus 1:3, 5-8, 10-13, The Message).

❦ MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR ❧

4-BO'LIM: 8-10-BOBLAR

1. Sudda Affabel fuqarolari yangi ism olganlari, balki kinoyaning eng kuchli joyi bo'lishi mumkin. Masihga kelguncha, siz kim bo'lganingiz va nimalar qilganingiz hamda Iso qay tarzda hayotingizni o'zgartirgani haqida fikr yuriting. Nima deb o'ylaysiz, sizga beriladigan yangi ism siz haqda nimalarni ochib berishi mumkin?
2. Siz qanday fikrdasiz, imonlilar samoga borganida, yerdagi noto'g'ri hayot tarzi tufayli katta yo'qotishga uchrashiga qaramay, u joy Xudo ko'z yoshlarni artadigan, quvonch maskani bo'lishi mumkinmi?
3. Saxovat tengdoshlarining orasida nimasi bilan ajralib turganini o'z so'zlaringiz bilan aytib bering. Uning hayotidan qanday dars olishimiz mumkin?
4. Samo haqidagi Kalomdan olingan ta'riflardan birortasi sizni hayratlantirdimi? Agar ha bo'lsa, unda nima hayratlantirdi?
5. O'ninchi bobda shunday fikrlar keltirilgan: «Isoning qoni Uning Shohligiga kirishimizga to'siq bo'ladigan gunohlardan poklaydi, biroq u imonli bo'lganimizda, yomon yoki yaxshi yashaganimiz uchun sud qilinishdan ozod qilmaydi». Bu borada sizning dastlabki munosabatingiz qanday edi? Endi bu bo'limni o'qib chiqqach, nima deb o'ylaysiz?



5 - B0'LIM



XUDONING UYI

...Sizlar Xudoning Ruhi orqali... barpo etilmoqdasizlar

— Efesliklarga 2:22

Imonlilar ustidan bo'ladigan sudni ikki toifaga ajratamiz. Birinchisi – in'om va da'vatimizga mos ravishda Xudoning Shohligi qurilishidagi bizning ishtirokimiz sud qilinadi. Ikkinchisi – alohida odamlarning hayotini va shaxsiy hayotimizni qay tarzda qurganimiz borasida bo'ladigan sud. Boshqalarni qurishga – ularga o'tkazgan ta'sirimiz kiradi; shaxsiy hayotimizga – Xudoning inoyatini qanday qabul qilganimiz, tabiatimizni Masihga o'xshash etib rivojlantirganimiz kiradi. Bu to'g'ridan-to'g'ri, Xudoning So'ziga bo'lgan imonimiz, itoatimiz va munosabatimizga bog'liq. Sudda bizning ishlarimiz, harakatlarimiz, so'zlarimiz, fikrlarimiz va niyatlarimiz sinchiklab o'rganiladi. Bu bobda avval Uning Shohligidagi quruvchilik rolimiz ustidan bo'ladigan sudni, so'ng shaxsiy hayotimiz qurilishini ko'rib chiqamiz.

«Men uchun nima qilasan?»

Shohlikdagi qurish qobiliyatimiz batamom Muqaddas Ruhga bo'ysunishimizga bog'liq, binobarin, Iso Masihning inoyatisiz, o'zimiz hech qanday qimmatga ega bo'lgan narsani amalga oshira olmaymiz. Bizga shunday deyilgan: «Agar uyni Rabbiy qurmasa, uni qurayotganlar behuda mehnat qiladilar. Agar Rabbiy shaharni qo'riqlamasa, soqchi behudaga bedor turadi» (Sanolar 126:1). Muqaddas Ruhsiz qurishimiz mumkin, biroq manguqlikning qarshisida bizning mehnatlarimiz behudaga chiqadi, ular sud kuni olovda yonib ketadilar. Buni tushunish hayotiy muhim.

Xudo Eski Ahddagi Unga xizmat bilan band bo'lgan kishilarga murojaat etgan:

«Osmon – Mening taxtimdir, yer esa Mening oyoqlarimning poyandozidir. Qayerda sizlar Men uchun uy qurasizlar va Mening orom topadigan joyim qayerda? Chunki bularning hammasini Mening qo'lim yaratdi, shuning uchun bularning hammasi paydo bo'ldi, – deydi Rabbiy, – Lekin mana, Men kimga nazar tashlayman: kamtarin va ruhi ezilgan hamda Mening So'zim oldida titraydigan odamga» (Isha'yo 66:1, 2).

Oddiy qilib aytganda, Rabbiy deydi: «Men – Xudoman. Meni kimligimni yaxshi bilasizlarmi? Siz Men uchun nimadir qila olaman deb, o'ylayapsizlarmi?» Xudo uchun nimadir yarata olaman degan fikrni, chumolining odamga qarab: «Biz sen uchun uy qurib beramiz», degan so'zlari bilan taqqoslash mumkin. Qanchalik ahmoqlik! Biz ulug'vor, tengi yo'q va ajoyib Xudoyimiz uchun, o'z kuchimiz bilan hech narsa qila olmaymiz. U bizning yordamimizga muhtoj emas.

Boshqa tomondan, Xudo qanday odam ma'qul bo'la olishi va Unga itoat qila olishi mumkinligini aytgan: ko'nikuvchan, tavba qiladigan, Xudodan qo'rqadigan va Unga bo'ysunadigan odamlar. Aynan shunday kishilar Unga uy qurishlari mumkin. Ular qanday qilib, shunday buyuk Xudoga xizmat qilishga qodir? «Qudrat bilan emas va kuch bilan emas, ammo Ruhim bilan», – deydi Qo'shinlar Xudovandi» (Zakariyah 4:6). Muqaddas Ruh bilan itoatda hamkorlikda ishlayotgan kishi natijaga erishadi. Faqat shu tarzda quruvchining zahmati behuda ketmaydi.

Hamkor

Mana, hayratomuz haqiqat mujassamlangan haqiqat: ulug'vor va qudratli shaxs sanalmish Rabbiy o'z xohishi bilan yerdagi butun hokimiyatni insonga berib, O'z harakatlarini chegaraladi. Bu narsa Xudo chegaralangan bo'lishi mumkinligiga olib keldi. Siz taajjublanishingiz mumkin, lekin butun Kalom bo'ylab buning misolini ko'rish mumkin. Ibrohimning avlodlari «Xudoni vasvasaga soldilar va Isroilning Muqaddasini haqoratladilar (chegaraladilar)» (Sanolar 77:41). Iso yana O'z xalqining

rahbarlariga shunday deydi: «Sizlarning o'zlaringiz o'rnatgan o'z udumlaringiz bilan Xudoning So'zini bekor qilasizlar (yo'qqa va befoyda chiqarasizlar)» (Mark 7:13, Kengaytirilgan tarjima). U bilan hamkorlik qila turib, eng muhimi, odamlarni Masihning timsoli va suratiga o'xshash bo'lishga yetaklashdan iborat bo'lgan Uning istagini amalga oshirishga mas'ulmiz. Shu bois hammamiz hamkorlar, deb nomlanamiz.

«Chunki biz Xudoning hamkorlarimiz (hamkasblarimiz), sizlar esa Xudoning ekinzori, Xudoning imoratisizlar» (1-Korinfliklarga 3:9, Kengaytirilgan tarjima).

Yangi Ahdda, qariyb har safar, Shohlikning ishchilari haqida aytilganda, ular ekinzor yoki qurilishdagi ishchilar bilan taqqoslangan. Nima uchun ekinzor? Chunki yer Xudo Shohligi hozirda unib-o'sayotgan ekinzorni ask ettiradi. Muqaddaslar yerda qay tarzda Shohlikni qurayotganini ko'rib, butun samo quvonadi. Nima uchun bino? Chunki Xudo doimiy yashash joy qidiraypti, bizlar esa Unga turar joy barpo etadigan tirik toshlarmiz.

Petrus yozgan: «O'zlaringiz ham tirik toshlar kabi o'zingizdan ruhiy bino, muqaddas ruhoniylar barpo etinglar, toki Iso Masih orqali Xudoga ma'qul bo'lgan ruhiy qurbonliklar keltiringlar» (1-Petrus 2:5). Xullas, yerdagi vaqtimizning mazmuni odamlarning najot topishi, ta'lim olishi va ularga xizmatda o'z aksini topgan Uning sharaflari ma'badi yoki uyini qurishdan iborat. Bizning vazifamiz – sof tirik toshlar bo'lish, shuningdek, tirik toshlar bir-biriga mos kelib va qo'shilib, Xudoning uyini qurishi uchun boshqalarni qurishda ishtirok etishdir. Shu asnod, barchamiz shaxsiy hayotimiz va Shohlik qurilishi uchun hisobot beramiz.

Uyning qurilishi

Men quruvchi bo'lganimda, uy qurishni boshlashdan avval, bino tuzilishining reja va rasmini o'ylab chiqqan bo'lardim. Uy qanday qurilishi zarurligi va kerakli materiallarni iker-chikirini ko'rsatadigan chizmalarni tayyorlab chiqardim. Ammo bu hali hammasi emas. Har bir quruvchi ishning eng muhim qismi bu pudratchilar xizmati, quruvchilar, santexniklar, elektriklar, tunikachilar va boshqa mutaxassislarining ishini o'z vaqtida

tashkillashtirishdir. Aynan o'shalar ishning to'g'ridan-to'g'ri bajaruvchilaridir. Mabodo ish to'g'ri rejalashtirilmasa, tartibsizlikka uchrashingiz tayin. Jumladan, elektr simlarini tortishdan va devorlarni sovuq o'tmaydigan qilib, yopishdan avval, gipsokartonning taxlanishini tuzib qo'yish zarur.

Pudratchilar o'z ishini yaxshi bajarmasa yoki o'z vaqtida ishni topshirmasa, buyurtmachi ishni bajarish uchun boshqalarni topadi. Bunday holda yangi pudratchilar tezlik bilan ishga tushishi, balki oldingi ishchilarning yomon ishini tuzatishi shart bo'ladi. Bir qism pudratchilar o'z ishini hali bajarmagan bo'lsa ham, qurulish boshlig'i buyurtmani tugatish uchun hamma yo'llarni qidiradi.

Men yana bir voqeani kuzatganman: quruvchilar boshlig'i shaxsiy uyini qurish bilan shug'ullangan holatni. U pudratchilarni mumkin qadar puxtalik bilan tanlaydi va eng zo'r materiallarni saylab oladi hamda pudratchilar o'z ishini to'g'ri amalga oshirishlari uchun ularning barcha shartlarini bajaradi. U butun qurilish jarayonini diqqat bilan kuzatib boradi. Xudovand O'z uyining Quruvchisi, biroq Uning uyi – odamlardan tashkil topgan butun shahar hisoblanadi!

Yerdagi maxsus uylarga ko'pincha nom beradilar. Jumladan, Angliya qirolchasining uyi Bakingemlik qasr deb nomlanadi. Qo'shma Shtatlardagi prezidentning uyi Oq uy deyiladi. Boshqa uylar balki sizga tanish emasdir. Fillis Kelvert ismli aktrisaning uyi Adir ustidagi uy deb nomlanadi. Aktyor va rejissyor Charlz Ivan Vensning uyi Ouk Lodj, romanchi Charlz Dayerning uyi Old Mob va hokazo. Xudo esa O'zining uyini bizdan ancha ilgari nomlagan. Hali qurilishda davom etayotgan abadiy uyni U Sion deb atadi. Kalomda aytilgan:

«Chunki Rabbiiy Sionni tanladi, O'ziga maskan uchun uni istadi. Bu Mening toabad oromim, bunda o'rnashaman, chunki Men uni istadim»
(Sanolar 131:13, 14).

Agar siz o'z uyingiz rejasini tuzish baxtiga erishgan bo'lsangiz, qanchalik hayajon va sabrsizlik bilan qurilish tugashini kutgansiz. Siz o'z uyingizda dam olishni istaysiz, chunki u joyda quvonch va osoyishtalik bor.

Biz Liza bilan 1990-yilning o'rtalarida uy qurishga muyassar bo'ldik. Biz Florida shtatining Orlando shahrida yashardik va bizning xizmatimizni

yoqtirib qolgan bir yuqori malakali xususiy uylar quruvchi Robert bizga uy qurib berish taklifi bilan murojaat qildi. O'sha vaqtda biz shunaqa kichik uyda yashardikki, uning xizmati bizning hamyonimizga to'g'ri kelmas edi. Biz mablag' qismini muhokama qilayotganimizda, u dedi: «Men sizlarga Xudoning narxida uy qurib beraman». Uyimizni qurib bo'lgach, u bizdan bir tiyin ham olmadi.

Ungacha bizning ikkita uyimiz bor edi. Ikkalasi ham kichik va oddiy bo'lib, boshqacha aytganda, ularning loyihasida hech qanday ahamiyatli jihati yo'q edi. Robert suhbatimizdan bir necha kundan so'ng kelib, birgalikda oshxona stoli atrofida o'tirib, bitta qog'oz chiqardi va ilhom bilan shunday deganini unutmayman: «Orzuingizdagi uyni chizinglar!»

Biz qotib qoldik. Biz buning imkoni bor deb o'ylamagan ham edik. Rafiqam birdan ishga tushib, chizishni boshladi. U bunday imkoniyatni ko'p yillar davomida kutib kelgandi. So'ngra men ham berilib, unga yordam berishni boshladim. Biz orzuyimizdagi uy qanday ko'rinishini o'ylaganimizda, yanada quvonchga to'lib borardik. Biz o'zimizni hech narsada chegaralamadik. Rasmni chizib bo'lgach, uni arxitektor va bezakchilarga berdik. Bir necha kundan so'ng, Bob bizga chizmalarni ko'rsatdi va biz sabrsizlik bilan qurilish boshlanishini kutishni boshladik.

Robertning hamkor pudratchilari ishini boshlagandan oxirigacha biz har kuni bir marta, ba'zida ikki marta qurilish bo'layotgan yerga borib turardik. Biz uyni bitishini betoqatlik bilan kutardik. Yangilikni va yangi uyimizga ko'cha oladigan kunni kutib, o'sha bir necha oylar bir necha yillarga, kunlar esa – haftalarga cho'zilib ketgandek tuyulardi. Biz qog'ozga tushurgan orzuyimiz, ko'z oldimizda jonlanishi haqidagi fikrdan hayratlanardik.

Bu manzara Xudo O'z orzusidagi uyga nisbatan his qilayotgan quvonchga o'xshaydi, biroq U bu uyni bir necha oydan-da ancha ko'p vaqt davomida kutmoqda. U dunyoning yaratilishidan boshlab, shu paytgacha, O'z uyi bitishini sabrsizlik bilan kutmoqda. Kalomda shunday deyilgan: «Chunki Rabbii Sionni quradi» (Sanolar 101:17) va «Xudo go'zallikning mukammalligi bo'lgan Siondan porlaydi» (Sanolar 49:2).

U O'z uyi ustida bir necha ming yillardan buyon mehnat qilmoqda. Xudo O'z rejasi mag'lubiyatga uchrashishini bilib turib, uni yerga

joylashtirgan odamlarga ochdi, lekin Uning rejasida insoniyatning mag'lubiyati yo'q edi. Hammasini oldindan bilib turib, U qayta sotib olingan odamlardan Sion qurishni rejalashtirdi.

Qurilishni poydevor va burchak toshi bo'lmish, Sotib oluvchi – Iso Masihdan boshlash lozim edi. «Mana, Men Sionga tosh qo'ymoqdaman – sinalgan tosh, asosiy burchak toshi, mustahkam o'rnatilgan, qimmatbaho tosh, unga ishonadigan uyatda qolmaydi» (Isha'yo 28:16). Ota O'z uyini dunyoning yaralishidan oldin o'ylab topgan va rejalashtirgani bois, Iso «dunyo yaratilishidanoq so'yilgan Qo'zi» (Vahiy 13:8) deb atalgan, Petrus esa deydi: «Masih dunyo yaratilishidan oldin tayinlangan» (1-Petrus 1:20).

Iso nafaqat burchak toshi, qolaversa, bosh Quruvchi hamdir. Iso o'z vazifasini bajardi va buni a'lo darajada bajardi. Xochga mixlanishidan oldin Otasiga murojaat etib, shunday so'zlarni aytdi: «Men Seni yer yuzida ulug'ladim, Sen Menga bajarishim uchun bergan ishni amalga oshirdim» (Yuhanno 17:4).

Ota Xudo Iso uchun maxsus vaqt belgiladi (Galatiyaliklarga 4:4 ga qarang); so'ngra U qolgan barcha «pudratchilar» uchun vaqt belgiladi. Bu «pudratchilar» – siz va men. Shu bilan bir qatorda, yuqorida aytib o'tganimizdek, bizga nafaqat «pudratchilar», shuningdek, Uning uyi uchun qurilish materiallari bo'lish ham nasib etgan. Pavlus shunday deb yozgan: «O'zining huzurida muqaddas va benuqson bo'lishimiz uchun Xudo dunyo yaratilishidan avval bizni Masihda sevgi bilan tanladi» (Efesliklarga 1:4). Bu joyda bizlar uy qurilishi uchun material ekanimiz yozilgan: biz tirik toshlarmiz.

Bundan tashqari Xudo bizni o'z hamkorlari sifatida tanlagan, negaki quyida o'qiymiz: «Zero biz Xudo azaldanoq tayyorlagan yaxshi ishlarni bajarishimiz uchun Iso Masihda yaratilgan Uning ijodimiz» (Efesliklarga 2:10). E'tibor bering, U biz bajarishimiz kerak bo'lgan vazifani oldindan rejalashtirib qo'ygan. Kalomning hech qayerida, dunyoning yaratilishidanoq bizga vazifa berilgan deyilmagan, garchi bu shunday bo'lishi ham mumkin. Biz buni aniq bilmaymiz, chunki «dunyoga asos solingan vaqtdanoq Uning ishlari tamom bo'lgan» (Ibroniylarga 4:3). Quruvchilik vazifamizga kelsak, u haqda – bizga, tug'ilishimizdan avval

berilgani yozilganini ko'ramiz, xolos. Dovud yozgan: «Sening ko'zlaring homilaligimda meni ko'rgan edi, Sening kitobingga – men uchun belgilangan barcha kunlar, hali ularning birortasi bo'lmaganida yozilgan edi» (Sanolar 138:16).

Hayotimiz uchun tayinlangan ishlar onamizning qornida shakllanishimizdan oldin belgilab qo'yilgan. Bu haqiqat Xudoning So'zida Yermiyahning so'zlari orqali o'z aksini topgan: «Men seni ona qornida shakllantirishimdan oldin tanib bildim. Sen ona qornidan chiqishingdan oldin Men seni muqaddaslab, seni xalqlarga payg'ambar qilib tayinladim» (Yermiyah 1:5) Havoriy Pavlus shunday degan: «Lekin Xudo meni onamning qornidayoq tanlab, O'z inoyati bilan meni da'vat etib, majusiylar orasida Uning Xushxabarini voizlik qilishim uchun O'z O'g'lini menga zohir qilishni ma'qul ko'rdi...» (Galatyaliklarga 1:15, 16). Yermiyah va Pavlusning guvohligi biz tug'ilishimizdan avval, Xudoning aniq belgilangan ishlari uchun ajratilganimiz haqidagi Dovudning so'zlarini tasdiqlaydi xolos.

Shu asnoda ajoyib haqiqat ochiladi: Xudovand dunyoga kelmasingizdan ancha ilgari siz haqda kitob yozgan, unda ilk kuningiz boshlanmasdanoq, butun umringiz qayd etilgan! Savol mana nimada: biz uchun rejalashtirilgan hayotni bajo keltiramizmi yoki yo'qmi? Sulaymon shunday deb yozgan:

«Men angladimki, Xudo qilayotgan hamma narsa abadiy turadi. Unga hech nimani qo'shib bo'lmaydi va undan hech nimani olib bo'lmaydi; odamlar Xudodan qo'rqishlari uchun U shunday qilgan. Nima bo'lgan bo'lsa, hozir ham bor va nima bo'ladigan bo'lsa, u allaqachon bo'lgan, zero Xudo o'tmishni qaytaradi» (Voiz 3:14, 15).

Kalomdagi bu so'zlarda naqadar ma'no ko'p! Birinchidan, buni Xudo rejalashtirgan. Uning rejasida yozilganlardan hech narsani bekor qilib bo'lmaydi va inson unga nimanidir qo'sha olmaydi. Biroq Sulaymon davom etib, barcha sodir bo'layotganlar avval Xudoning fikrlarida edi, deydi. Kelajakda sodir bo'ladigan narsalar ham Uning fikrlarida mujassam. Ammo biz ulardan amalga oshirilganlari bo'yicha hisobot beramiz! Biz uchun mo'ljallangan hayotni amalga oshirdikmi? Yoki biz hamma narsani

chalkashtirib, vazifamizni qo'ldan boy berdikmi? Biz bajarishimiz lozim bo'lgan ishni U endi boshqalarga topshirishi kerakmi?

Men endi muhim gapni aytishim zarur. Har bir kishi hayotida Xudo tomonidan berilgan da'vatga ega. Har birimiz Xudoning rejasidagi kerakli qism hisoblanamiz. Shuningdek, yana shu narsani bilingki:

Sizning da'vatingizga keladigan bo'lsak, siz qilgan ishlaringiz bo'yicha emas, nimaga da'vat etilgan bo'lsangiz, shu da'vat bo'yicha sud bo'lasiz!

Misol keltirmoqchiman. Iso sudda shunga o'xshash gapni aytishi mumkin:

– Xushxabarchi Anderson, oldinga chiq va Menga olib kelish topshirilgan barcha jonlar bo'yicha hisobot ber.

Bu odam Isoning yoniga borib, ozroq titroq va hayajon bilan, deyishi mumkin:

– Rabbii, Sen «hisobchi Anderson» demoqchi eding, to'g'rimi? Men firma sohasida hisobchi bo'lib ishlaganman. Bu mening kasbim. Men jamoatlar va saxovat tashkilotlariga yordam berganman. Sening Shohligingga ko'p jonlarni esa jamoat xizmatchilari olib keldilar. Sen meni kim bilandir adashtirmadingmi?

Rabbii taxminan shunday deb javob beradi:

– Yo'q, sen tug'ilmasingdan avval, seni Men uchun Osiyoda mingta jonni qo'lga kiritishga da'vat etganman, ular qayerdaligi haqida hisobot ber. Agar sen menga itoatkor bo'lganingda, Mening Shohligimga olib kelishing mumkin bo'lgan hosillar uchun mukofotga erisharding. Endi esa sening ishlaring yonib ketadi, negaki ular itoatsizlik bilan amalga oshirilgan.

So'ngra voqea shunday davom etishi mumkin. Iso deydi:

– Hisobchi Jons, oldinga chiq, iltimos, o'z da'vating bo'yicha hisobot ber.

Bu odam ham hayajon va qo'rquvda oldinga chiqib, deydi:

– Rabbii, Sen «cho'pon Jons» demoqchimiding? Men 900 kishilik jamoatning cho'poni bo'lganman. Men bu jamoatni nuldin boshlab ko'targanman.

Shunda Rabbiy unga shunday javob berishi mumkin:

– Men seni moliyaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanishga va Mening ko'p jamoat va xizmatkorlarimga Men bergan vazifani samarali amalga oshirishda yordam bera oladigan ulkan korxona yaratishga chaqirgan edim. Agar Meni chindan ham izlaganingda, senga buni ko'rsatardim. O'shanda bu xizmatkorlar ta'sir ko'rsatgan minglab odamlar sening hisobingga o'tgan bo'lardi. Endi esa o'z ishlaring uchun mukofotsiz qolasan, chunki ularni itoatsizlikda bajargansan. Seni shaharni boshqa tomonidagi jamoatning bosh tashkilotchisi bo'lishingni istagandim. Agar itoatkor bo'lganingda, Men chorlagan joyda Tanada muhim vazifani o'taganing uchun o'sha jamoatdagi yetti mingta jon ham sening hisobingga o'tardi. O'sha jamoatda bo'lmaganing uchun mukofotingdan quruq qolasan.

Misol keltirishga ijozat bering. Mening bir do'stim bor, u AQShning janubiy-sharqiy tomonida, bir tez o'sayotgan jamoatning cho'poni. U jamoatni 1991-yil yigirma ikkita kishi bilan boshlagan, endilikda ularning soni to'rt mingtaga yetdi. Bu jamoat – odamlarning ruhiy ochligi bois, voizlik qilish uchun eng yengil joy. Bu jamoatda minglab odamlar najot topdi va ta'lim oldilar.

Bu jamoat kuchli ibodat, kuchli voizlik va tirishqoq mehnat tufayli shiddat bilan o'smoqda. Ular yaqinda ko'proq odamga mo'ljallangan, ko'rkam jamoat binosini qurdilar. Bir necha yil o'tib, do'stim yig'inlardan birida oppoq sochli xushqomat, yoshi katta kishini ko'rib qoldi. So'ngra u har xizmatdan so'ng ko'z yosh to'kib o'tirganini sezib qoldi. Cho'pon bu yoshlar quvonch yoshlari emasligini his etdi.

Nihoyat u odam cho'ponning yordamchisiga kelib, Xudo unga 1981-yilda mana shu shaharda jamoatga asos solishni buyurganini aytib berdi. Bir necha kundan so'ng tushida, cho'ponlik qilishi kerak bo'lgan jamoatning binosini ko'rdi. Tush shu qadar o'ngda bo'lgandek edi, hatto u malakali arxitektordan tushidagi binoni chizib berishini iltimos qildi. So'ngra u bir nechta qarshiliklarga duch keldi va jamoat tashkil qilish fikridan voz kechdi. Qanchadir vaqt har xil shaharlarga borib xizmat qilib yurdi, keyin yana tadbirkorlik sohasiga qaytib ketdi.

U odam 1981-yil chizilgan binoning rasmi tushirilgan qog'ozni

ehtiyotkorlik bilan ochdi. Cho'ponning yordamchisi chizmaga qarab, qotib qoldi. Rasmda do'stim bir necha yil avval qurgan, hozir ular ichida turgan binoning o'ziginasi chizilgan edi. Do'stim u odamni yupatishga urindi, biroq u yupanmasdi. Xudo bu odam butun umr mahkumlikda yashashini emas, balki hoynahoy, ulg'ayishi va hayotining oxirigacha Rabbiyga samarali xizmat qilish yo'lini topishini istar edi.

Men bir necha yil oldin, bir katta anjumanda shu mavzu haqida voizlik qilgan edim. Xizmatdan so'ng jamoatning cho'poni hayajonlanib va dovdirab, jamoamizning a'zolaridan biriga kelib dedi: «U voizligida aytgan narsalar, chindan ham shunday emasku, to'g'rimi?»

Jamoam a'zosi javob berdi: «U aytgan gaplar, albatta, chindan ham shunday, lekin seni qanday muammo qiynayapti?»

Ellikdan sal oshgan cho'pon dedi: «Yoshligimda, Fillippinada yashashim va u yerdagi odamlarga xizmat qilishim kerakligi haqida aniq-tiniq vahiy ko'rgan edim. Vahiy shu qadar ravshan ediki, men bir kuni u joyga ketishimga samimiy ishondim. Lekin bu narsa amalga oshmadi, mana o'ttiz yildan ziyod vaqtdan beri shu jamoatda cho'ponlik qilaman».

Shunda bizning xizmatkorimiz undan muloyim so'radi: «Endi nima qilmoqchisiz?»

Cho'pon javob berish uchun so'z topa olmadi va turib ketdi.

Bir yil o'tib, jamoam a'zosi o'sha cho'pondan xabar eshitdi. U jamoatni o'zining yordamchisiga topshirib, o'zi Filippinaga ko'chib ketibdi va u yerdagilarni juda sevib qolibdi. U shunday so'zlarni aytibdi: «Umrimde ilk bora, nima uchun dunyoga kelgan bo'lsam, shu narsa bilan shug'ullanayotgandek o'zimni his etyapman».

Sizlarga bu haqiqatning isboti sifatida, yana bir voqeani aytib beraman. Yaqinda bir do'stim, dengiz harbiy kuchlarining maxsus tayinlangan kishilari bilan tanishish uchun kechlik tashkillashtirdi. Men kitobni yozayotgan chog'da, u o'sha yerda xizmat o'tayapti va uning xavfsizligi uchun uning ismini o'zgartirib – Pavlus deyman. O'sha kuni ikki soat davomida hayratlanib, uning guvohligini tingladim.

Pavlus ikki yil Muqaddas Kitob maktabida o'qigan, uni tugatganda

yigirmadan oshgan bo'lgan va birdan o'z jamoatining yoshlar bo'limida xizmat qila boshlagan. Bir yildan so'ng uning jamoatdagi bir qiz bilan jinsiy aloqada bo'lganlikda ayblashgan. Pavlus dedi: «Jon, men u bilan yotganim yo'q. U hatto menga yoqmasdi ham! Lekin rahbarlar nafaqat menga ishonmadilar, qolaversa, boshqalarni ham shunga ishontirdilar va men hamma narsamni yo'qotdim. Ular mening obro'yimni bulg'ashdi va (mendan so'ramay) jamoatdan ketishimni so'rashdi».

So'ngra Pavlus dedi: «Men Xudoni har qachongidan ham ko'proq izlashni boshladim. Bir kuni ibodatda Xudo menga yaqqol gapirdi: «Men seni xizmatkor bo'lishga da'vat etmaganman. Seni harbiy xodim bo'lishga chaqirganman».

Pavlus uni harbiylar safiga qabul qilishini so'rab, AQSh qo'shini, dengiz floti va havo kuchlariga murojaat etdi, ammo unga kafil bo'ladigan odam topilmadi. Uni qabul qilishi mumkin bo'lgan faqat dengiz harbiy floti qolgan edi. Unga o'sha joyda o'z nomzodini taklif etishi uchun o'rinlar ro'yxatini ko'rsatishganda, Pavlus o'ta kuchli xafa bo'ldi, negaki ularning birortasi ham, uning yuragiga o'tirmadi va ular Xudoning da'vatiga javob sifatida ko'rinmadi. Shu bilan birga, yangilarni qabul qiluvchi ofiser uni flotga kirishini juda istayotgan edi va unga bir nechta maxsus dasturlarni ko'rsatdi. U «dengiz mushuklari» degan iborani aytganida, do'stim, bu aynan u uchun kerak soha ekanini bildi va shartnoma tuzdi.

Ofiser yigitni bu yo'ldan qaytarishga urindi, chunki DHK (Dengiz harbiy kuchlari) maxsus tayinlanganlarini tayyorlash dasturini juda kam kishilar muvaffaqiyatli o'tar edilar. Boz ustiga, u Pavlusga bu soha dunyodagi eng og'ir harbiy tayyorgarlik hisoblangani tufayli ungacha bo'lganlarning birortasi dasturni oxirigacha tugata olmaganini aytdi! Lekin Pavlus Xudo tomonidan tayyorlangan safar tomon birinchi qadam qo'yish uchun o'zida yo'q xursandchilik bilan qarorida qat'iy edi.

Biroq uning oldida bir nechta jiddiy qarshiliklar turardi. Birinchidan, Pavlus suzishni bilmasdi. U bu haqda ibodat qildi va natijada suzishni o'rganib oldi. Ikkinchidan, yoshligidan uning qulog'ida eshitish moslamasi bor edi va u quloq naylarini ochish bo'yicha ko'plab jarrohlik yo'llaridan o'tgan edi. Shuning uchun u katta bo'lgach, qulog'iga hatto bir tomchi suv

kirsa ham, chidab bo'lmaz og'riqni his etar va odatda keyin unda kuchli quloq yuqumli kasalligi boshlanardi. Ammo Pavlus agar u da'vatiga o'z kuchi bilan erisha olsa, demak, u Xudodan emasligiga qattiq ishonardi.

U suzishni o'rganishni boshladi va jon-jahdi bilan quloqlari tuzalib ketishini so'rab, ibodat qildi. Har kungi mashg'ulotlar unga chidab bo'lmaz og'riq olib kelardi. Lekin bir kuni, to'rt oylik mashg'ulotlar davomida har kunlik jon azobidan so'ng, Pavlus nafaqat suza oladigan bo'ldi, shuningdek, u katta chuqurlikka sho'ng'ir va hech qanday og'riqni sezmasdi! U shifo topdi va dengiz mushuklari jamoasi bilan safarga ketishga tayyor edi.

Pavlus tayyorgarlik dasturidan o'tayotib, aql-bovar qilmas qiyinchilik va sinovni boshidan kechirdi, lekin u hammasiga dosh berdi va u chiniqqan harbiy yigitlar to'dasiga yuborildi. O'n to'rt yil davomida u DHK maxsus tayinlanganlar safida xizmat qildi, shu orada uning topshiriqlarida ro'y bergan ajoyib ilohiy mo'jizalar shu qadar ko'p to'planib ketgandiki, ularni tinglab, mening terim jimirlab ketdi.

O'sha kecha da'vati voizlik qilish bo'lmazada, lekin Xudoning buyuk kishisi bilan o'tirganimni to'la-to'kis tushundim. U harbiy qo'shinlardagi odamlarni Xudoga olib kelishga va u yerda o'z davlatiga xizmat qilishga chaqirilgan edi. Bugun Pavlus shunchaki maxsus tayinlangan jamoada xizmat o'tamaydi, qolaversa, dengiz harbiy floti maxsus tayinlangan guruhda yo'riqchi ham hisoblanadi. U o'zi uchun belgilangan yaxshi ishning boshidan tutish uchun Xudo uning yo'nalishini to'g'ri yo'lga burishiga imkon berdi.

Pavlusdan farqli o'laroq o'z taqdirini qo'ldan boy bergan kishilar haqidagi voqealarni yetarli darajada ko'p eshitganman. Men shunday misollarni o'z ko'zim bilan ham ko'rganman. Yigirma yil xizmatim davomida dunyo bo'ylab turli xil jamoatlarda aslida cho'ponning yordamchisi bo'lishga chaqirilgan, lekin cho'ponlik qilayotgan to'liq xizmatga chaqirilgan, lekin o'zi tadbirkor, tadbirkorlik bilan shug'ullanishi kerak, lekin cho'pon bo'lib xizmat qilayotgan masihiylarni ko'rganman. Ishbilarmonlik sohasida o'z o'rnini bilmaydigan, o'z ishini boshlashdan qo'rqib, birovlar uchun ishlaydigan kishilarga duch kelganman. Yana o'ziga-o'zi rahbar bo'lishni istaydigan bevafo odamlarni ham bilaman.

Xudoning irodasiga qarshi oila qurgan, natijada o'z da'vatlaridan ajralib qolgan kishilarni ko'rganman. Boshqalarini orttirgan do'stlari ularni da'vatidan tortib ketgan. Men sport, pulsevarlik, hokimiyat yoki yana boshqa narsalarga qiziqqan, ularning barini deb, Xudo uyining qurilish rejasidagi o'z vazifasini bajara olmagan kishilarni uchratganman. Bu ro'yxatni cheksiz davom ettirish mumkin.

Bu achinarli fikrlar, lekin Xudo biz uchun rejalashtirgan yo'ldan birortamiz ham yiroqlashmasligimiz uchun yaxshi xabar bor. Xudo bizning hayotimiz haqidagi hikoyaning Muallifi sanaladi va U buni amalga oshirishimiz uchun bizni yetaklay olishi mumkin. Biz o'zimizga savol berishimiz zarur: men pudratchi sifatida nimaga da'vat etilganman? Bu muhim mavzuni keyingi bobda muhokama etamiz. Shuningdek, siz dastlabki yo'lingizdan adashgan bo'lsangiz, qanday qilib orqaga qaytish to'g'risida bir nechta maslahatlarni bilib olasiz.

XUDO TOMONIDAN DA'VAT ETILGANLAR

Chunki Xudoning in'omlari va da'vati

qaytarib olinmasdir.

— Rimliklarga 11:29

Ko'plarga bir qarashda ezgu va ilohiy bo'lib ko'ringan narsalarga qiziqib, Xudoning rejasidan ozib ketish mumkinligi haqidagi fikr dahshatli bo'lib tuyuladi. Bu holatni tushunsa bo'ladi! Yodingizda bo'lsin, biz yiqilish va jazo qo'rquviga emas, balki Xudoning qo'rquviga ega bo'lish uchun chaqirilganmiz. Rabbiyning qo'rquvi bizni ushbu so'zlarni Ta'kidlaganning donoligida saqlaydi: «Agarda sen o'ngga og'ib ketsang yoki chapga og'ib ketsang, quloqlaring sening orqangda: «Mana yo'l, undan bor», – deb aytayotgan so'zni eshitadigan bo'ladi» (Isha'yo 30:21). Keling, Xudo uyi qurilishida o'z o'rnimizni, qay tarzda bilib olishimiz mumkinligi haqidagi mavzuga qaytamiz.

Birinchisi: siz Xudoni samimiy izlayapsizmi?

Sizdan, o'z taqdiringizni amalga oshiryapsizmi deb so'rashsa, balki siz shunday deb javob berasiz: «Men uni amalga oshirishni istayman, lekin nimaga da'vat etilganimni bilmayman!» Buning bir necha sabablari bo'lishi mumkin. Birinchidan: siz Xudoni samimiy izlayapsizmi? Xudoni shubha-gumonda yoki shunchaki qiziqish uchun emas, balki samimiy imonda izlaydiganlar taqdirilanishi aytilgan (Ibroniylarga 11:6). Agar inson Xudoni chin yurakdan javob olishni kutib izlasa, unga nima uchun bu dunyoga kelgani ochiladi.

Men Perdyu oliygohidagi talabalardan iborat birodarlar orasida najot topganimda, shu zahoti hayotim uchun Xudoning rejasini izlay boshladim. Muhandislikka o'qib, har yarim yilda IBM (EVM ishlab chiqaradigan korxona) da ishlardim. O'z da'vatimni bilishga majburlagan, Xudoga itoatkor bo'lish istagidan bo'lak, yana bir narsa sabab bo'ldi. Najot topgach, bir necha oydan so'ng, shirkatdagi bir xodimnikida o'zlarining o'ttiz sakkiz yillik mehnat muddatini nishonlayotgan sakkiz-to'qqiz nafar muhandislar orasiga tushib qoldim. Ular shoshilmay suhbat qurayotganda, birdan o'sha xodim aytib qoldi: «Men har kuni, o'ttiz sakkiz yil davomida bu ishdan nafratlanib kelganman». U yerdagi mendan boshqa hamma yoki unga qo'shilar, yoki qiqirlab kulardi. Men esa esankirab qoldim.

Men bu tajribali mutaxassislarning orasida yangi bo'lib, nega boshqalar hech narsa demaganini ko'rib so'radim: «Unda nega o'ttiz sakkiz yil davomida shu ish bilan shug'ullandinglar?»

U menga qaradi va dedi: «Bu shunchaki ish».

Birdan men ham o'z mashg'ulotimdan unchalik ham mamnun emasligimni his etdim. Mening otam muhandis bo'lgan va u menga bu yaxshi hamda doimiy daromad olib keladigan kasb deb aytardilar. O'sha muhandislar bilan uchrashuv, meni hamma narsaga boshqa ko'z bilan qarashga majburladi. Men shunday deb o'yladim: «Pul ham, doimiylik ham, hech narsa meni nima uchun dunyoga kelgan bo'lsam, shu narsadan ushlab qololmaydi». O'sha yerni o'zida o'z da'vatimni izlashga qaror qildim, unga yaqinlashish uchun nimalar qilish kerakligi to'g'risida mulohaza yuritishni boshladim.

Xudo bilan hayotning boshidanoq, Uni izlasang, U da'vatingni umumiy suratini berishini bilib oldim. Boshqa so'zlar bilan aytganda, U boshidanoq, senga oxirini ko'rsatadi. Xudo Yusufga u buyuk boshqaruvchi bo'lishi, hatto ota-onasi va aka-ukalari ham unga xizmat qilishini ko'rsatganida, u hali yosh bola edi. Vahiy ko'p yillar o'tib, amalga oshdi. Muso hech qursa, belgilangan fursatdan qirq yil oldin Isroilga yo'lboshi bo'lishini bilardi. Dovud hali qo'y boqib yurganida, uning shoh bo'lishi ma'lum bo'lgan edi. Faqat yillar o'tib, u Isroilning hukmdori bo'ldi. Ro'yxatni davom ettirish mumkin.

Mening rejamda oliygohda ilmiy darajaga ega bo'lish, keyinchalik

Garvardda o'qishni davom ettirish va Amerika ish boshqaruvchiligi tarmog'ida oliy saviyaga erishish niyatim bor edi. Men uylanishni, yiliga bir necha marta ta'tilga chiqishni va barcha daromadimdan o'n foizini Xudoga berishni rejalashtirgan edim. Men Xudoga xizmat qilishni shunday tasavvur etgan edim.

Xudoni qancha ko'p izlasam, men shuncha xizmatga berila boshladim. Bu menga unchalik ham yoqmasdi, biroq Xudoga itoat etsamgina, hayotda baxt va quvonch topishni tushunishga yetarli darajada aqlim yetardi. Bir kuni hech narsaga qaramay, Unga bo'ysunaman deb, va'da berdim. Shunda U mening da'vatimning suratini butunligicha ko'rsata boshladi.

Saksoninchi yillarning boshidanoq, Xudo menga Uning So'ziga bo'ysunsam, ko'p xalqlarga ta'sir ko'rsatishimni ochdi. Bu mening tushunchamga sig'mas edi va buni amalga oshirishning yo'llarini ko'rmaganimni aytmasa ham bo'ladi, chunki men kichik shahardan kelgan, birorta ham milliy yoki xalqaro xizmatkorni bilmaydigan yigitcha edim.

Yusuf, Muso yoki Dovudning voqeasida bo'lganidek, Xudo ularga da'vatini amalga oshishi uchun birorta ham qadamni aniqlashtirmay, yakuniy suratni ko'rsatdi. Bu yo'l da'vatimizga o'z o'y-mulohazalarimiz bilan emas, balki imon bilan yondoshishimizga zamin yaratadi. Biz U aytgan narsani izlashimiz va unga bo'ysunishimiz lozim, shunda maqsadga erishamiz. Odatda, keyingi qadam maqsadga emas, balki orqaga olib boradigandek tuyuladi. Sardor bo'lish orzusini qo'lga kiritishi bilan o'n yilga qullikka tushish unchalik mantiqqa to'g'ri kelmaydigan ish. Mana nima uchun bizga shunday deb aytilgan: «Bor yuraging bilan Rabbiyga ishon va o'z aqlingga tayanma. Barcha yo'llaringda Uni tanib-bil va U sening qadamlaringni yo'naltiradi» (Hikmatlar 3:5-6).

O'sha voqeadan bir necha oy o'tib, oliygohdagi oxirgi bosqichda o'qiyotgan yilim, barcha talabalar Minnatdorchilik kuni bayramini nishonlash vaqtida to'rt kunlik ta'tilga ketganlarida, men talabalar yotoqxonasida qoldim. Shu kunlar Xudoning irodasini va hayotim uchun Undan yo'nalish izlab, ro'za tutdim va ibodat qildim. Ikki oylardan so'ng xizmatimga olib boradigan yo'nalishga umuman zid bo'lib ko'ringan keyingi qadam haqida javob oldim. Men uchun Muqaddas Kitob maktabiga borib

o'qish mantiqqa to'g'ri bo'lardi, ammo Rabbiiy, muhandislik lavozimida ishga olishi uchun suhbatga borish lozimligini ko'rsatdi. Mana Xudo nima uchun biz o'z tushunchamizga tayanmasligimiz kerakligini aytgan.

Oliygohimizda ko'plab shirkatlar vakillari bilan tanish edim, lekin qariyb darrov Texas shtati, Dallas shahridagi «Rokvell» uyushmasida ishlayman deb, qaror qildim. Bu bema'ni qadam edi, chunki men Dallasda birorta ham Muqaddas Kitob maktabini bilmasdim. Men ishlash uchun boshqa o'ttizta turli xil shaharlardan takliflarga ega edim. Ularning ayrimlarida Muqaddas Kitob maktabi ham bor edi, boz ustiga boshqa shirkatlarning maoshi «Rokvell» nikidan ko'proq edi. Biroq men shunchaki Xudoga itoat etdim.

Dallasga yetib kelib, jamoatga kirishim bilan, Rabbiiy bu joyda chuqur o'rnashishim kerakligini aytdi. Men aynan o'sha jamoatda, hozir turgan joyimgacha olib kelgan xizmatimda ulg'aydim.

Ikkinchisi: mahalliy jamoatda chuqur o'rnashdingizmi?

Ko'pchilik o'z hayotida Xudoning irodasini topolmasligining ikkinchi sababiga yaqinlashdik. Ular mahalliy jamoatga chuqur o'rnashmaydilar. Bizga Xudoning Kalomi shunday deydi: «Rabbiiyning uyida ekilganlar Xudoyimizning hovlilarida gullaydilar» (Sanolar 91:14).

Bu hayotda mahalliy jamoat hisoblanmish, Xudoning uyida o'rnashgan kishi Uning hovlilarida gullaydilar. Xudo hovlilarining bitta sohasi Masih hukmidir. Shundan kelib chiqib, agarda mahalliy jamoatda mustahkam ildiz otsak, biz hozir ham va sudda ham gullaymiz. Bu Xudoning rejasi.

Jamoatni odamlar emas, balki Rabbiiy tashkillashtirgan va o'ylab topgan. Iso shunday deydi: «Men senga aytaman: sen – Petrus, Men mana shu tosh ustida O'z jamoatimni quraman va do'xazning darvozalari uni yenga olmaydi» (Matto 16:18). «Quraman» so'ziga e'tibor bering. Iso Jamoatda jismonan bo'lmay turib, qanday qilib uni qurishi mumkin? Javob: O'z Tanasi bo'lmish biz orqali. Shu bois ham bizlar hamkor (pudratchi) deb atalamiz. Inoyat, qobiliyatlar va in'omlar Undan keladi hamda aynan U bizga notabiiy kuch beradi, lekin Uning ishi amalga oshishida foydalanish uchun itoatkor idishlar zarur. Masala mana nimada: biz U bilan birgalikda

Uning Jamoatini ko'taramizmi yoki biz xizmat ostida yashiringan, shaxsiy maqsadlarimizning ortidan quvib yuramizmi?

Isong umumjahon Jamoati mahalliy jamoatlarga bo'lingan. Ko'plab misollardan birini, Vahiyda U yettita mahalliy jamoatga yo'llagan murojaatida ko'rishimiz mumkin: Efes, Smirna, Pergam, Fiadir, Sardis, Filadelfiya va Laodikiyaga.

Bundan tashqari Jamoat Masihning Tanasi bilan qiyoslangan. Umumjahon Jamoat mahalliy jamoatlarga bo'linganidek, Masihning Tanasi ham mahalliy tanalarga bo'lingan.

O'z odamlarini faqat Rabbiiy taqsimlaydi. Pavlus shunday deb yozgan: «Lekin Xudo a'zolarining har birini tanada O'zi xohlaganidek joylashtirdi» (1-Korinfliklarga 12:18). Balki qaysi jamoatga borishimizni bizning o'zimiz emas, balki U tanlaydi degan gap sizni hayratlantirgandir.

Bu haqda bir soniya o'ylab ko'ring. Juda ko'plar xuddi o'ziga kiyim-kechak yoki restoran tanlagandek, Xudo ularni qaysi jamoatda ko'rishini so'rashning o'rniga, o'zlari jamoat tanlaydilar. Agar sen Uning Tanasida o'z joyingda emas, balki boshqa joyda bo'lsang, o'z taqdiringni qay tarzda topasan? Inson tanasining har bir qismi Xudo tomonidan o'ylab chiqilgan. Qo'l tizzaga ulangan bo'lsa edi, u uchun bu juda og'ir bo'lardi. Shunday ekan biz boshqa shaharga ko'chmoqchi yoki boshqa jamoatga o'tmoqchi bo'lsak, bu borada Xudoning rejasini izlashimiz darkor. Mahalliy jamoatda har birimizning o'rnimiz bor. Biz quyidagilarni o'qiymiz:

«Shunday qilib, sizlar – Masihning tanasisizlar, har biringiz alohida a'zosizlar. Xudo esa ba'zilarini jamoatda birinchidan... qo'ygan» (1-Korinfliklarga 12:27, 28).

Shundan so'ng Pavlus mahalliy jamoatdagi bosh vazifalarni sanab o'tgan. U xizmatlar ro'yxatini oxirigacha yozmagan bo'lsa-da, Yangi Ahdning boshqa oyatlaridan bilamizki, biz jismoniy tanamizning har qanday a'zosidan kamroq ahamiyatga ega emasmiz. Mabodo biz xuddi jismoniy a'zolarimizdan biri yoki bir nechtesi (masalan oyoq, ko'z yoki buyrak) o'z faoliyatini yuritmagandek yoki o'zi alohida ishlashga qaror qilgandek Masihning Tanasida o'z faoliyatimizni yuritmasak, mahalliy jamoat ham azob tortadi.

Eng ayanchlisi shundaki, mahalliy jamoatlarning faoliyati jiddiy buzilishlarga yuz tutgani tufayli, bizning jamoatlarimizda Iso Masihning xizmati ko'p jihatdan ro'yobga chiqmayapti. Nega ular oqsayaptilar? Odatda buning sababi boshqaruvchilarning samarasizligida emas, balki mustaqil yashaydigan imonlilarda. Mening oyog'im, ko'zim yoki tanamning yana boshqa qandaydir qismi o'zi xohlagan ishni qilishga qaror qilganini faraz qila olasizmi? Jamoatlarimizning bunday ahvoliga qaramay, Xudo Amerikada hali ham nimadir qilayotgani ajablanarli.

Nega birinchi Jamoat shu qadar shiddatli tarzda o'sdi? Keling, bu narsani o'rganib chiqamiz:

«Shunday qilib, ular doimo havoriylarning ta'limotida, muloqotda, non sindirishda va ibodatlarda bo'lar edilar. ...Hamma imonlilar birga bo'lib, hamma narsalari umumiy edi. Mol-mulklarini sotib hammaga, har kimning muhtojligiga qarab taqsimlar edilar. Har kuni yakdillik bilan ma'badda yig'ilib turishar, uylarda esa non sindirib, xursandchilik va soddadillik bilan ovqatlanar edilar. Ular Xudoni sharaflar va butun xalqdan iltifot topar edilar. Rabbiiy esa najot topganlarni har kuni jamoatga qo'shar edi» (Havoriylar 2:42-47).

U yerdagi imonlilar mahalliy jamoatga ekilgan va o'rnashganini ko'ryapsizmi? Ular birgalikda sajda qilar, hammasi bir xil voizlikni tinglar, bitta umumiy maqsadga ega va bitta hayotda yashar edilar. Mana shunday tartib jamoatning sog'lom o'sishiga ta'sir ko'rsatgan. Odamlar o'zlarining mahalliy jamoatlari orqali Rabbiyga xizmat qilganlar hamda ularning uydagi hayoti ham shu qatarga kirgan.

Mahalliy jamoat bilan yashash dastlabki masihiylar hayotining muhim qismi bo'lgan. Keyinchalik bevalarga ovqat yetmay qolaverganda, ayrim muammolar boshlandi. Shunda havoriylar, Xudoning So'zini qoldirib, ularning ovqat tarqatishi yaxshi emas, dedilar. «Shuning uchun, birodarlar, yaxshi ta'rifga ega bo'lgan hamda Muqaddas Ruh va donolikka to'lgan yetti kishini oralaringizdan tanlab olinglar: ularni bu ishga tayinlaymiz» (Havoriylar 6:3).

E'tibor bering, boshqaruvchilar: «Bizga ko'ngillilar kerak, kimdir bu ayollarga xizmat qilish uchun vaqtini ajrata oladimi?» demadi. Yo'q,

imonlilarning barchasi xizmatga bag'ishlangan edilar, chunki ular mahalliy jamoatga o'rnashgan bo'lganlar. Men shaxsan, ularning har biri, uni xizmat uchun tanlashiga umidvor bo'lishgan, deb ishonaman. Yetti kishi tanlab olindi va shunda:

«Ularni havoriylarning oldida qo'ydilar, havoriylar esa ibodat qilib, ularning boshlariga qo'llarini qo'ydilar. Shu orada, Xudoning So'zi o'sib borar va shogirdlarning soni Yerusalimda juda ko'payib borar edi. Ruhoniylardan ham juda ko'pchiligi imonga bo'ysundilar» (Havoriylar 6:6, 7).

Bu yetti kishiga minbarga chiqib xizmat qilish, uy guruhini boshqarish, elchilik safariga borishi uchun emas, balki jamoatdagi bevalarga xizmat ko'rsatish uchun qo'l qo'yilgan edi. Buni qarang-a!

E'tibor bering, ular Tanada bizga ahamiyatsiz bo'lib tuyuladigan ishiga kirishgan zahoti Xudoning So'zi o'sib borar va shogirdlarning soni Yerusalimda juda ko'payib ketdi. Bu joyda hayratomuz haqiqatning guvohi bo'lamiz. Havoriylar kitobida (1-5) Yerusalimdagi jamoatning o'sishini ta'riflash uchun bir necha marta «qo'shilar, ko'payib borar» so'zlari ishlatilgan. Mana bir nechta misollar keltiraman (yozma harflar bilan yozilgan so'zlar muallifga tegishli):

«...O'sha kuni havoriylarga uch mingga yaqin jon qo'shildi»
(Havoriylar 2:41).

«...Rabbiy esa najot topganlarni har kuni jamoatga qo'shar edi»
(Havoriylar 2:47).

«Imon keltirganlar (ko'pchilik erkaklaru ayollar) esa Rabbiyga borgan sari ko'proq qo'shilar edilar» (Havoriylar 5:14).

Shu vaqtgacha mahalliy jamoatdagi xizmat ishlarini faqat havoriylar bajargani va yolg'iz Petrus voiz bo'lgani aytilgan. Biroq qandaydir vaqt o'tgach, imonlilar har biri ikkita asosiy sohada mas'ul ekanini tushunib yetdilar. Birinchisi – boshqalarga Xushxabarni voizlik qilish va ikkinchisi – mahalliy jamoatda o'z vazifasini bajarishdir.

Havoriylar kitobida (5:42-6:1) har bir imonli Isoning tirilishi haqidagi

ajoyib voqea haqida boshqalarga aytishi zarurligi yozilgan: «Ular har kuni ma'badda hamda uylarda Iso Masih haqida ta'lim berish va Xushxabarni voizlik qilishdan tinmas edilar. Shogirdlarning soni ko'payib borayotgan o'sha kunlarda...». Ko'rinib turibdiki, o'sha zamonlarda radio, oynaijahon yoki internet tarmoqlari bo'lmagan, shunday ekan Petrus har bir uyga o'zi borib, voizlik qilishga imkoni yo'q edi. Shunda hamma imonlilar o'z qo'shnilariga Iso Masih Xushxabarini voizlik qilishgan. Qarang, jamoatga shunchaki bitta-ikkita kishi qo'shilmagan, balki ular ko'payib ketgan. Ko'payish taraqqiyotini birinchi marotaba Havoriylar kitobida ko'ramiz.

Ammo voqea shu bilan tugamaydi. Imonlilar jamoatda o'z xizmat o'rnini egallagan zahoti, shogirdlarning soni shunchaki ko'payganini emas, balki juda ko'payib ketganining guvohi bo'lamiz. Juda ko'payib ketish – bu qiymatlarning ko'payishidir!

Qo'shish va ko'payishning (qiymat bo'yicha ko'payish) farqini tushuntirishga ruxsat bering. Har oy Rabbiyga 10 mingta odamni olib keladigan cho'ponni faraz qilamiz. Uning xizmati o'ta darajada samarali deb hisoblasak bo'ladi, shunday emasmi? U butun dunyoni qamrab olishi uchun unga qancha vaqt kerak bo'ladi? Javob sizni lol qildiradi: 50 ming yil. Faqat mana shu vaqt mobaynida boshqa biror kishi tug'ilmasligi va biror kishi o'lmashligi sharti bilan! Bu insoniyat yerda mavjudlik vaqtining sakkiz marta ko'prog'i. Buning imkoni yo'q!

Endi buyuk ko'payishga misol keltiraman. Olaylik, siz Rabbiyga ikki kishini olib keldingiz va ular jamoatda qolishdi. So'ng ularning har qaysisi bir necha oy davomida Rabbiyga ikkitadan kishi olib kelishdi. Yana bir necha oy davomida bu to'rt kishi ham xuddi shunday qilishdi, keyingi oylar bu sakkiz kishi Rabbiyga ikkitadan kishi olib kelishdi va ular jamoatda o'rnashib qoldilar. Agar buni davom ettirsak, yerdagi butun aholiga Xushxabarni yetkazish uchun qancha vaqt ketishini bilasizmi? Javob – o'ttiz uch oy! Ha, ha, uch yildan kamroq vaqt! Mana bu buyuk ko'payishga kiradi.

Muqaddas Kitobda o'qiganimizning ma'nosini endi tushundingizmi?

«Bu ikki yil davom etgani uchun Asiyada yashovchilarning barchasi: yahudiylar ham, yunonlar ham Rabbiy Isoning so'zini eshitdilar»
(Havoriylar 19:10).

Barcha yashovchilar. Agar Kalomda barcha deyilgan bo'lsa, demak, bu u yerda yashaydigan har bir kishini anglatadi. Gap hatto bitta shahar ham emas, balki butun mintaqa haqida boryapti. Ularda yo'ldosh aloqa, oynaijahon, radio, mashina va hatto velosiped ham bo'lmagan. U joyda shunchaki haqiqiy qiymatlar ko'payishi ro'y bergan.

Buyuk ko'payish uchun masihiylardan iborat bo'lgan sog'lom Tana zarur. Sog'lom Tana mahalliy jamoatda o'rnashgan, unda xizmat qiladigan (jumladan, bevalarga xizmat ko'rsatish, tashkillashtiruvchilik, mashinalar qo'yiladigan joyda qorovullik, qamoqxonalarga borish va bolalar xizmati, hamma xizmatlarni sanab o'tishning imkoni yo'q) imonlilardan tashkil topgan bo'ladi. Ular ish va yashash joylaridagi odamlarni Rabbiyga olib kelganlar va ularga mahalliy jamoatda o'rnashishga yordam berganlar. Yodingizdami, Iso bizga nafaqat barcha xalqlardan bo'lgan odamlarni najotga olib kelishni, qolaversa, ularni shogird qilib tayyorlashni ham buyurgan. Biz imonga olib keladigan odamlarni ular jamoatda ildiz otishiga ko'maklashishimiz zarur, toki ular Rabbiyning amrlariga o'rgatilgan bo'lsinlar (Matto 28:20). Odamlar Masihda o'sishi uchun mahalliy jamoat va unga berilidigan in'omlar zarur.

Xudoning irodasini tanib-bilishning kaliti – mahalliy jamoatning a'zosi bo'lishdir. Biz u yerda gullaymiz. Filipp bevalarga ovqat tarqatadigan yetti kishidan biri bo'lganini payqadingizmi? Keyinchalik Havoriylar kitobida u xushxabarchi deb nomlangan. Uning xizmati ko'p shaharlarga yetib borgan. «Ertasi kuni Pavlus va bizlar, unga hamroh bo'lganlar Kesariyaga keldik. Yetti jamoa xizmatchisidan biri bo'lmish xushxabarchi Filippning uyiga kirib, unikida qoldik» (Havoriylar 21:8).

U buyuk xushxabarchi bo'lib ketganida ham, Rabbiy uni boshqa shaharga uchirib olib borib qo'ygan bo'lsa ham, hamma uni yettita xizmatkorlardan biri sifatida bilishgan. Mahalliy jamoatdagi xizmat u hayotida o'z da'vatini topishi uchun hal etuvchi vazifani bajardi. Men odamlarga shunday deyman: «Sen balki hayotda qandaydir buyuk ish qilish da'vatiga egadirsan, biroq bu da'vat mahalliy jamotda o'rnashish orqali tug'ilmasa, u amalga oshmaydi». Sanochining so'zlarini qaytarishga ijozat bering: «Rabbiyning uyida ekilganlar Xudoyimizning hovlilarida gullaydilar»

(Sanolar 91:14). «Ekilganlar» soʻzi ustidan fikr yuritib koʻring. Shohlikning qoidalarini tushunish uchun, biz ekish va oʻrib olish qonunini bilishimiz zarur. Iso Masih Oʻz shogirdlariga urugʻ, yer va oʻrim-terim qoidalarini bilmay turib, hikmatlarni tushunmaysizlar degan (Mark 4:13). Qisqa qilib aytganda, Xudo Shohligi bu:

«...bir odamning urugʻni yerga tashlagani kabidir. U uxlaydi, kechasi-yu kunduzi turadi va qanday qilib urugʻ unib-oʻsib chiqqanini u bilmaydi. Zero yer oʻz-oʻzidan hosil keltiradi: oldin koʻkat, keyin boshqoq, undan keyin boshqoqda toʻla don. Lekin hosil yetilganida, shu zahoti oʻroq soladi, chunki oʻrim vaqti keldi» (Mark 4:26-29).

Menda bir hovuch mevali daraxtlarning donlari bor va men umuman ularning farqiga bormayman deylik. Bu urugʻ qaysi daraxtning hosilidan ekanini bilishning yagona yoʻli – uni ekib koʻrish. Shunday qilib, vaqt oʻtgach, har bir urugʻning tabiatini koʻra olaman.

Xudo har birimizning daʼvatimizni oldindan belgilab qoʻygan va shu daʼvatni amalga oshirish uchun ichimizga inʼomlar joylagan: «Zero biz Xudo azaldanoq tayyorlagan yaxshi ishlarni bajarishimiz uchun Iso Masihda yaratilgan Uning ijodimiz» (Efesliklarga 2:10). Chunki Xudoning inʼomlari va daʼvati qaytarib olinmasdir» (Rimliklarga 11:29). Isoning soʻzlari boʻyicha mening daʼvatim va inʼomlarim xuddi urugʻlardek boʻlib turibdi. Men oʻzimni jamotga «eksam», shunda Xudodan berilgan taqdirim ochiladi. Agar aksincha boʻlsa, inʼomlarimdan foydalanib, hayotda Yaratuvchidan berilgan maqsadni chetlab oʻtib, oʻzimning boshqa maqsadlarimga erishishim mumkin. Dunyoviy qadriyatlar bilan oʻlchanadigan muvaffaqiyatga ilinib qolmang. Oʻz inʼomlaringizni ishga solib, Xudoning irodasiga zid boʻlgan ishlaringizda muvaffaqiyatga erishishingiz mumkin, biroq hayotingiz Yaratuvchining rejasi boʻyicha oʻtmaydi.

Men bir nechta misol keltirmoqchiman. Dunyoda odamlarni yigʻlatishga qodir ajoyib ovoz sohiblari anchagina. Bu inʼom ularga Xudoni sharaflash, odamlarni Uning yurak va istaklari tomon undash uchun berilgan. Ular najot topmasalar va jamoat aʼzosiga aylanmasalar, hech qachon oʻz daʼvatini bajara olmaydilar.

Isoga o'z yuragini topshirgan, biroq jamoatga doimiy qatnamaydigan odamlar bor. Ular Shohlikdagi oliy da'vatini amalga oshirmayaptilar, negaki ular jamoatda emas. Albatta, balki ularning da'vati jamoatdan tashqaridagi odamlarga ta'sir ko'rsatishdir, balki ular buni qandaydir darajada bajarayotgandirlar, ammo ular jamoatga ekilganda edi, ularning haqqoniy taqdiri boshqacha bo'lar edi.

Inson maxsus in'omlarga ega bo'lishi va ulardan imkon qadar foydalanishi mumkin, biroq urug' ekilmasa, daraxt qandayligini (uning shakli, barglari va qudrati) bilib bo'lmaganidek, inson jamoatga tegishli bo'lmaguncha, Xudodan berilgan haqqoniy taqdirini bilolmaydi.

Odamlar jamoatda birinchi qiyinchilikka uchragan zahoti, boshqa jamoatga o'tib ketishni boshlaganda, boshqa muammo yuzaga keladi. Bugun ayollar va erkaklar o'z jamoatlarida ayniqsa boshqaruvchilarning biror kamchiligini ko'rsalar, osonlikcha uni tashlab ketadilar. Bunga sabab jamoat boshqarish uslubi bo'lishi mumkin. Balki qurbonlik yig'ish yoki pullarni sarflash yo'li bo'lishi ham mumkin. Agar ularga cho'ponning voizligi yoqmasa ham, ular jamoatdan ketadilar. Jumladan, cho'ponni har doim ham topib bo'lmaganda yoki u takallufsiz voizlik qilganda, ular birdan jamoatdan ketib qoladilar. Yoki jamoat a'zolari yetarlicha e'tiborli bo'lishmasa ham, shunday qiladilar. Ro'yxatni davom ettirish va yana davom ettirish mumkin. Qiyinchiliklarga duch kelganda, ulardan umid bilan o'tishning o'rniga, ular ziddiyatlar yo'q bo'lib ko'ringan joyga qochadilar.

Keling, haqiqat ko'ziga qaraymiz: aslida Iso – yakka-yu yagona komil cho'pon yoki jamoat a'zosi. Nega biz g'arb jamiyatimizda muammolarni qabul qilib va ularni yengib o'tishning o'rniga, qiyinchiliklardan qochamiz? Biz shunchaki bekam-ko'st cho'pon va jamoat a'zolarini qidirib, jamoatdan jamoatga o'tib yuramiz.

Yodingizda bo'lsin, shayton bizga ozor berishni va bizni Xudo qo'ygan joydan irg'itib yuborishni istaydi. U bizni, ayollarni va erkaklarni, ildizimiz bilan sug'urib tashlashni xohlaydi. Agar shayton bizni yulib tashlasa – u g'alaba qozondi deyavering. Agar sen hatto katta kelishmovchilik chog'ida ham, joyingdan qimirlamasang, uning rejaralarini buzgan bo'lasan va Xudoning rejasini amalga oshirasan.

Yana bir bor: «Rabbiyning uyida ekilganlar Xudoyimizning hovlilarida gullaydilar». Agar o'simlikni har uch haftada bir joydan boshqa joyga ekaverishsa, uning ahvoli nima bo'ladi? Uning tomir tizimi zaiflashadi hamda u to'g'ri rivojlanish va gullash qobiliyatini yo'qotadi. Agar uni bir joydan ikkinchi joyga o'tkazish davom ettirilsa, o'simlik nobud bo'ladi.

Ko'p odamlar bir jamoatdan boshqa jamoatga o'tib yuradilar, shu bilan birga xizmatini rivojlantirishni istaydilar. Mabodo ularni Xudo tomonidan belgilangan joyga qo'yishmasa, yuraklarida birdan xafagarchilik kelib chiqadi. Ularga nimadir yoqmasa, ular xafa bo'ladilar va jamoat boshqaruvchilarini ayblab, ketib qoladilar. O'z xulq-atvoridagi nuqsonlarni ko'rishga ojiz odamlar Xudo bosim orqali ularni tozalayotganini fahmlay olmaydilar. Bu nafaqat xizmat sohasiga, shuningdek, ish, oila va boshqa munosabatlar sohasiga ham tegishli).

Keling, Xudo tomonidan berilgan o'simlik va daraxtlar timsolidan o'rnak olaylik. Yerga ekilgan mevali daraxt, yomg'ir, shamol va jazirama issiqning ta'sirida qolishi lozim. Agar ko'chat gapira olganda edi, u shunday degan bo'lardi: «Iltimos, meni bu yerdan olinglar! Jazirama issiq va shamol yo'q joyga ekinglar!»

Bog'bon daraxtga quloq solsa, unga haqiqiy zarar yetkazib qo'yadi. Yerdan chuqur ildiz otgan daraxtgina issiqlikka va yomg'ir bilan shamolga chiday oladi. Ular duch keladigan qiyinchiliklar natijada ular mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi. Atrofdagi og'ir sharoitlar ularni hayotda chuqurroq izlanishga majbur etadi. Daraxt bir kuni shu holatga yetadiki, hatto kuchli shamol ham, uning meva solish qobiliyatiga ta'sir qila olmaydi. Shuni yodda tutib, Xudo boshimizdan kechirishimizga yo'l qo'ygan narsalarga qarshilik qilishning hojati yo'q, axir bu vaziyatlar bizni da'vatimizda mustahkamlashga qodir.

Uchinchisi: tashvishingiz ko'pmi?

Odamlar o'z da'vatini topolmasligi va bajara olmasligining oxirgi sababi – bu ularning doimiy tashvishlar orasida yashashidir. Tashvishlar ularga musobaqani muvaffaqiyatli tugatishga yo'l qo'ymaydi.

Pavlus o'zi haqida deydi: «...o'z jonimni qadrlamayman, faqatgina

masofamni va Rabbiy Isodan olgan xizmatni, ya'ni Xudo inoyatining Xushxabarini voizlik qilishni quvunch bilan yakunlayin» (Havoriylar 20:24). U hayotidagi o'z vazifasini jiddiy anglab yetgan. U topshiriqqa ega va topshiriq esa hali bajarilmaganini biladi. U qanday qilib bu haqda bilgan? Sababi, u Isoni bilgan, Xudoni izlaydigan, jamoatda va sabr-toqatda ildiz otganlarning hammasi o'z vazifasini nima ekanini bilib olishi mumkin, Petrus (2-Petrus 1:14) ham o'z vazifasini bilgan. Xudoning irodasi yo'lida hayotidan ham kechadigan har qanday kishiga, Rabbiy bu bilimni ochadi. Oxirgi kalitimiz ham aynan mana shunda – Xudoning rejasini to'liq bajarish uchun o'zimizni bag'ishlab, biz o'z da'vatimizni nafaqat bilib olamiz, qolaversa, uni amalga oshiramiz.

Buning misolini Xushxabarlarda ko'rishimiz mumkin. Bir kuni Iso bir shahardan boshqa shaharga bordi: «Bundan keyin ular o'z yo'llarida ketayotganlarida, kimdir Isoga: – Hazratim! Sen qayerga bormasang ham, men Senga ergashaman, – dedi» (Luqo 9:57).

Bu odam intilish, samimiyluk va hayratga to'lgan edi. U Isoning ortidan umrining oxirigacha borishni istardi. Lekin Isoda inson g'ayratining ortida turgan yurakdagi asl sabab va niyatlarini ko'ra olish qobiliyati bor. Bu odamning hayotida taqdirini amalga oshirishda to'siq bo'ladigan tashvishi bor edi, shuning uchun U dedi: «Tulkilarning uyalar, osmondagi qushlarning inlari bor. Lekin Inson O'g'lining bosh qo'yadigan joyi yo'q» (Luqo 9:58).

Hoynahoy bu dunyoviy boyliklardan zavq-shavq topib yashaydigan inson bo'lgan. Uning ishi yaxshi, kattagina uyi va qariligida farovon hayotda yashash uchun rejasini bo'lgani ko'rinib turibdi. Iso yerdagi barqarorlikka o'chlikni ushbu so'zlar bilan barbod qildi: Uning bosh qo'yadigan joyi yo'q.

Bu g'ayratli yigit va olomon ichidagi boshqa ko'pchilik, sekin orqaga tisarilgani, so'ng umuman ko'zdan g'oyib bo'lganini tasavvur etyapman. Hoynahoy bu yigit shunday degan: «Iso, men Sening xizmatlaringda tashkillashtiruvchilik qilaman, ulug'lov xizmatida gitara chalaman yoki jamoatdagi yoshi katta kishilarga mashinalarini qo'yishga yordam beraman». U uchun Isoning ortidan borish jozibasini o'z nurini yo'qotdi, yuragida Unga xizmat qilishdek ezgu niyat tezgina g'oyib bo'ldi. U ham boshqa ko'pchilik singari

Isodan uzoqroqqa ketdi, unda hali ham xizmatlarni qo'llab-quvvatlash istagi bor-u, lekin endi o'zini to'liq bag'ishlash niyati yo'q.

So'ngra Iso boshqa kishiga qarab, dedi:

«Mening ortimdan ergash! U esa javoban: – Hazrat! Oldin borib, otamni ko'mib kelishga ijozat ber, – dedi. Iso unga: – O'liklarga o'z o'liklarini ko'mishlarini qo'yib ber. Sen esa borib, Xudoning Shohligini voizlik qilgin, – dedi» (Luqo 9:59-60).

Mana buni chuqur fikr desa bo'ladi! Kimgadir Iso biroz qo'pol va tuyg'usiz bo'lib ko'rinishi mumkin. Lekin o'sha zamondagi madaniy odatlar boshqacha bo'lganini bilishimiz kerak. Olimlar, Iso yashagan davrlarda, odatga ko'ra insonning otasi olamdan o'tsa va to'ng'ich o'g'il o'z burchi bo'yicha otasini ko'msa, u ikki hissa merosga egalik qilgan, qolgan boshqa farzandlar esa faqat bir hissaga ega bo'lganlar deydi. Mabodo katta o'g'il otasini ko'mish burchini bajarmasa, uning ikki hissa merosi ikkinchi o'g'ilga o'tgan.

Bu inson pulni o'ylagani aniq. Menimcha u bekam-ko'st hayot kechirishni sevgan va natijada bu xohishi Isoning ortidan borishga to'siq bo'lgan. U Xudoning rejasiga emas, balki pulga asoslanib qaror chiqargan. Men yuz foiz aminmanki, u Rabbiyning bu o'gitlarini eshitib, qochib ketgan. U taxminan shunday deb javob bergan: «Iso men Sening anjumanlaringda xizmat qilib yuribman. Men xorda kuylashim yoki baraban chalishim mumkin. Bu mening qo'limdan keladi. Men buni Sen uchun butunlay bepul qilaman». Ko'plar singari unda ham Isoning ortidan borish ishtiyoqi so'ndi.

E'tibor bering, u odam Isoning ortidan bormayman demadi. Lekin «ijozat ber, oldin borib» degan so'zlarida, uning yuragidagi asl holat ochiladi. U o'zi xohlagan merosni olishiga amin bo'lishni istadi.

Biz hayotimizda Xudoning rejasini topishni va uni amalga oshirishni istasak, hech narsa Xudodan yuqori o'rinni egallamasligi lozim. Men o'zi uchun birinchi darajada bo'lgan ishlarini amalga oshirish niyatida, itoatkorlikni qoldirgan bir talay imonlilarni bilaman. Afsuski, ular o'z da'vatini qo'ldan boy berdilar; endi ularning o'rniga boshqa kishi turishi va ularning vazifasini bajarishi lozim. Ular Sudda o'zlarini qanday oqlaydilar?

Xushxabardagi voqeaga qaytamiz. Olomon tobora kamayib borardi, ammo birdan yana bir ko'ngilli paydo bo'ldi.

«Keyin yana boshqasi: – Hazratim! Men Senga ergashaman. Faqat oldin borib, uydagilar bilan xayrlashishimga ijozat ber, – dedi. Iso esa unga: – Qo'llari bilan omochni tutib, orqasiga qaragan hech kim Xudoning Shohligiga loyiq emasdir, – dedi» (Luqo 9:61, 62).

Yana «oldin borib» so'zi turibdi. Bu odam oilasi, do'stlari bilan iliq va yaqin munosabatlarga ega ekani yoki Galiliyalik Insonga ergashish qarorini avval uyda qolgan yoqtirgan qizi bilan muhokama qilishni istagani ko'rinib turibdi. Uning yaqinlari bilan munosabati Isoga qay darajada xizmat qilishini belgilaydigan omil bo'ldi. Binobarin Rabbiiy to'g'ridan-to'g'ri, bunday kishi Shohlikda xizmat qilishga yaramasligini aytdi.

Bu odam ham boshqa ko'plar kabi orqaga chekinganini tasavvur etish mumkin. Men hatto uning ovozini ham eshitishim mumkin: «Iso men ommaviy axborot sohasi bo'yicha mutaxassisman, Sening xizmatingda maslahatchi bo'lib ishlashim va Sen uchun yaxshi ishchilarni topishim mumkin. Bundan tashqari shahrimizda bo'ladigan keyingi anjumaning uchun yaxshi anjuman-markazi topishda yordamim tegadi. Shahrimizga yana kelganingda, xizmatlaringni olib boradigan tashkillashtiruvchilarga bosh-qosh bo'laman, agar kerak bo'lsa. Bu sohada menga umid qilishing mumkin!»

Hoynahoy, shu payt Iso g'ayratli izdoshlarning ulkan olomoni yetmish kishigacha qisqarib ketganining guvohi bo'lgan. Ehtimol, ular ungacha ming kishini tashkil qilgandir, lekin U xalqni, o'z taqdirini amalga oshirishiga to'siq bo'ladigan uchta asosiy yukni, ochiqchasiga ko'rsatishni boshladi: xavfsizlik, pul va munosabatlar. (Bundan tashqari aysh-ishrat yoki Xudoning maqsadlariga to'g'ri kelmaydigan narsalarga ega bo'lishni istash kabi boshqa sohalar ham mavjud).

Aksariyat kishilar Xushxabarni o'qiganda, matn ikkiga bo'lingani bois Luqoning quyidagi muhim so'zlariga e'tibor bermay o'tib ketadilar. Dastavval Luqo bitta uzun xat yozgani, keyinchalik kerakli oyatni topishga qulay bo'lishi uchun jamoat uni boblarga bo'lib chiqqanini xabar qilishga ijozat bering. Luqo nima deganiga quloq soling:

«Shundan so'ng, Rabbiy boshqa yetmishta shogirdni ham tanladi va O'zi bormoqchi bo'lgan har bir shaharga, har bir joyga ularni O'zidan oldin ikkitadan yuborib, ularga dedi: «Haqiqatan ham hosil ko'p, biroq ishchilar oz. «O'z yig'im terimingga ishchilarni yubor», – deb hosil Egasiga ibodat qilinglar» (Luqo 10:1-2).

Bu oyatlar naqadar ko'p ma'noga ega. Dastavval «shundan so'ng» degan so'zlarga e'tibor bering. Biz o'zimizdan «nimadan so'ng?» deb so'rashimiz lozim. Javob: buyuk olomon, ko'p o'tmay, «Uning ortidan borish yo'lida nimadan ajralishimning ahamiyati yo'q. Men Unga ergashishni istayman va shunday qilaman!» degan va o'sha yerda qolgan kichik to'daga aylanib qolgandan so'ng. Ular Isoning xavfsizlik, pul va munosabatlar haqida aytganlarini eshitdilar va Xudodagi o'z taqdirini amalga oshirishdan ularni hech narsa ushlab qolmasligini qaror qildilar.

Shundan so'ng, Iso jamoaning yangi a'zolarini tanladi, menimcha qolgan odamlarning soni shuncha bo'lgan. Tanlangan va tayinlangan so'zlari Yangi Ahdda sinonimlar sifatida ishlatiladi. Tayinlangan odam – tanlangan, tanlangan odam esa – tayinlangan hisoblanadi. Iso Matto Xushxabarida bu haqda ikki marta aytgan. Agar u bir xil gapni bitta Xushxabarning turli xil joyida takroran aytgan bo'lsa, biz unga jiddiy e'tibor berishimiz zarur. Mana ushbu oyatlar: «chunki chaqirilganlar ko'p, ammo tanlanganlar ozdir» (Matto 20:16; 22:14).

Da'vat etilganlar ko'p. Qanchalik ko'p? Aniqrog'ini aytsak, har bir kishi da'vat etilgan. Har bir imonli hayotida da'vatga va uni amalga oshirish uchun in'omlarga ega. Ammo faqat bir nechta tanlanganlar bu da'vatni bajarishidan, siz lol bo'lib qolishingiz mumkin. Nega tanlanganlar kam? Negaki o'z da'vatini amalga oshirish yo'lida juda kam kishi shaxsiy istaklari, xavfsizligi, pulga bo'lgan sevgisi, odamlar bilan munosabatlari va shunga o'xshash narsalardan voz kechadi.

Isoning so'zlariga qarang: «Hosil ko'p, ammo ishchilar oz» (Matto 9:37). Bizning avlod Xudo uchun zabt etilmagan bo'lsa, bunda Xudo aybdor emas, axir U «barcha insonlar haqiqatni bilib olishlarini va najot topishlarini xohlaydi» (1-Timotiyya 2:4). Aslida Uning Sudi qarshida turib, bizning avlod qo'ldan boy berilgani uchun biz hisobot beramiz. Biz o'z da'vatimizni

amalga oshirsak, mahkum bo'lmaymiz, lekin tashvishlar bizni ushlab turishiga yo'l qo'ysak, Sudda ko'zlarimiz moshdek ochiladi.

Siz: «Men ham, hamma qatori yo'l tutyapman» – dersiz. Mabodo buyragingiz: «Men kichik bir a'zoman, hech kim mening faoliyatimni ko'rmaydi va sezmaydi, shuning uchun menga belgilangan vazifani qo'yib, shaxsiy ishlarim bilan shug'ullansammikin» desa, nima bo'ladi? Siz buyrak faoliyatisiz tana jiddiy xavf ostida qolishini yaxshi bilasiz. O'pkalar, oyoqlar, tovonlar yoki boshqa a'zolar ham shunday deyishsa, nima bo'ladi? Tananing har bir a'zosi muhim bo'lganidek, jamoatning har bir a'zosi ham shunday muhim.

Endi hushga keltiradigan xabarni aytaman. Iso Xudo uyining qurilishidagi ishchilar sifatida, atigi ayrimlarga o'z taqdirini bajaradilar degan. Har bir imonli qurish da'vatiga ega, lekin faqat ayrimlar uni amalga oshiradilar. Ertaga Sudda turadigan imonlilarning aksariyati ziyon ko'radilar va sharaflari mukofotdan quruq qoladilar.

Bu fojiali xabar ekanini bilaman. Shu bilan birga yaxshi xabar ham bor: da'vatimizni amalga oshirishni hozir boshlashimiz mumkin. Tiz cho'king va Xudodan sizni Uning irodasiga bo'ysunishdan ushlab turgan narsalar uchun kechirim so'rang, so'ng qadamba-qadam oldinga harakat qiling. Yigirmanchi asrning buyuk xushxabarchisi Smit Vigglsvort o'z xizmatini ellik yoshida boshlagan. Sizga ham hali kech emas.

Yodingizda bo'lsin: buning kaliti, birinchidan, Xudoni izlash; ikkinchidan, Xudo ko'rsatgan mahalliy jamoatga tegishli bo'lish, u joydagi sizning ustingizdan qo'yilgan boshqaruvchilarga itoat qilish va bo'ysunish; uchinchidan, har qanday tashvishdan o'zingizni xalos etish. Xudo sizni ushlab turgan narsani ko'rsatganda, joningiz yoki tanangizdagi tashvishlarni Uning qilichi chopib tashlashini so'rang. Uning to'kin-sochin inoyati sizga ochiq.

To'liq mukofot

Keyingi bobga o'tishdan avval, yakuniy so'zni aytaman. Ko'plar haligacha Xudoning uyini qurishni boshlamadilar, boshqalar esa boshlab, tamomlamadilar. Ular bir kuni so'nadigan shuhratga berildilar. Ular bu dunyoning boyligi, obro', hokimiyati va zavq-shavqiga intildilar, odamlarning maqtovini izladilar. Bularning bari vaqtinchalik bo'lgan

narsalardir. O'zingizni aldamang, sizni yo'ldan urishiga yo'l qo'ymang, Xudoning irodasidan chetga chiqmang. Diqqatingizni bir joyga jamlang. Siz Masihda vazifaga egasiz. Siz ishingizni yakunlashingiz zarur.

Mavsumiy va hatto butun hayotining mehnati kasodga uchraydigan odamlar bo'ladi. Uning mehnati yakson bo'ladi va shuning uchun bu inson Xudoning abadiy uyiga tegishli bo'lmaydi. Buni tasavvur etyapsizmi?

Aniqlik kiritish uchun, uyimizning qurilishi tarixidan misol keltirishga ijozat bering. U yerga har kuni borganim sabab, quruvchilar meni yaxshi bilishardi. Ular meni «voiz» deb atardilar.

Har safar qurilish joyiga yetib kelganimda, uyning ichidan og'ir rokning ovozi eshitilib turardi. Meni ko'rib, quruvchilarning biri o'zining bumboksini o'chirish uchun pastga yugurib ketardi. Ichimda ulardagi Xudoning ishlariga bo'lgan hurmatini ko'rib, xursand bo'lardim. So'ng biz birgalikda biroz suhbatlashardik. Bu yigitlar bilan ba'zida gapimiz qizib ketar, gohida ularga xizmat qilishning ajoyib imkoniyati tug'ilib qolardi.

Bir kuni quruvchilar menga o'zlari ishtirok etgan go'zal uylar haqida so'zlab berishgani yodimda. O'z ishlari haqida gapirganlarida, ularning yuzlari porlab ketdi. Ular bunday shuhratli ishda qatnashish imkoniyatidan mamnunlik va quvonch olgani ko'rinib turardi. Uyning sohibi oldida ham va u uyni ko'rganlar oldida ham bunday foydali ishdan hech qanday hijolat sezmaytiz, faqat mamnuniatni his etasiz.

Keling, yanada fikrlab ko'ramiz, Vashingtondagi Oq uyni qurgan quruvchi nimalarni his etganini faraz qilib ko'ring. Tasavvur eting, qachondir uning bolalari maktabdan qaytgach, ular maktab o'quvchilari bilan davlatdagi eng mashhur uylaridan birini tomosha qilishga borganlarini hayrat bilan aytib beradilar.

Otasi naqadar zavq bilan o'sha uyning qurilishida ishtirok etganini farzandiga so'zlab berishini faraz qiling. Ota farzandining butun sinfi bilan birgalikda Pensilvaniya-avenyu, 1600 ekskursiyasiga borgandagi tuyg'ularini faraz qiling. Hamma sinfdoshlari uning otasi Qo'shma Shtatlar prezidenti yashaydigan va ishlaydigan uyni qurishda yordam berganini bilganida, farzandining yuzidagi faxr va quvonchni ko'rish, naqadar yoqimlik bo'lishini faraz qiling.

Biz ham taxminan shunday holatni boshimizdan kechiramiz. Biroq biz o'sha quruvchidan farqli o'laroq, bir kuni buzib tashlanib, o'rniga yangisi quriladigan uyning ustida mehnat qilmayapmiz. Biz abadiy butun borliqning diqqat markazida bo'ladigan uy ustida ishlayapmiz. Xuddi shunday! Mikah payg'ambarning yozganlarini eslang: «O'shanda ko'p xalqlar kelib, shunday deydilar: «Kelinglar, Rabbiyning tog'iga, Yoqubning Xudosiining uyiga chiqamiz. U bizlarga O'z yo'llarini o'rgatadi va Uning yo'llaridan yuramiz. Zero qonun Siondan va Rabbiyning So'zi Yerusalimdan chiqadi» (Mikah 4:2).

Butun dunyoning ishlari mana shu uyda hal etiladi. Borliqni idora qiladigan donolik va qonunlar shu uydin chiqadi. Uning betakrorligi shundaki, o'n trillion yildan keyin ham, u xuddi qurib bitirilgan kundagidek, go'zal bo'lib turaveradi.

Xushxabarning ajoyib bir xizmatchisi umrining oxirigacha sodiq qoldi, oltmish yil davomida samarali xizmat qildi va qariyb yangi ming yillikning ostonasida o'z mukofotiga qarab yo'l oldi. U ketgach, bir yildan so'ng, men Yaqin Sharqdagi bir katta jamoatda bo'ldim, u joydagi sajda xizmatining rahbari Xudo unga naqadar go'zal ochiqlik bergani haqida so'zlab berdi. Ochiqlikda u samoga borgan va u joyda o'sha buyuk xizmatchini uchratgan. Xizmatchi yuzida keng tabassum bilan o'sha yosh hamdu-sano rahbariga degan: «Bu yerda men o'ylaganimdan ham yaxshiroq ekan».

Ular ko'p haqiqatlar va voqealar haqida gaplashganlar, so'ng o'sha xizmatchi orqasiga qayrilib, unga Sion ishidagi o'z hissasini ko'rsatgan. Uning hissasi boshni aylantiradigan darajada katta bo'lgan. Bu sadoqatli xizmatchining o'tkazgan ta'siri u orzu qilgandan ko'ra ancha uzunroq va kengroq bo'lib, endi buni o'sha joyda tomosha qilish mumkin edi. Menga o'zlari qurgan uylari haqida so'zlab bergan quruvchilar kabi, u ham boshqalarga o'z ishini ko'rsata olardi. Qanday ajoyib mangu mukofot-a!

Butun mangu davomida nafaqat o'z avlodlaringizga, qolaversa, Sion deb nomlanadigan Xudoning sharaflari uyiga keladigan barcha xalqlarga Uning qurilishidagi o'z qisminingizni ko'rsata olishingizni tasavvur eta olasizmi?

Endi boshqa jihatni ko'rib chiqamiz. Siz o'z yo'lingizni yaxshi tugatmaganingiz tufayli, mehnatlaringizdan birorta ham iz qolmasligini

ko'z oldingizga keltirib ko'ring. Sizning ajdod va avlodlaringiz siz amalga oshirgan ishlarni ko'rishga kelganda, sizda esa ularga ko'rsatadigan hech narsa bo'lmasligini tasavvur eta olasizmi? Butun xalqlar sizning ishlaringizni ko'rishga kelsalar-u, sizning qurilishingizning bir qismi yonib ketgan va uning o'rniga boshqa narsa qurilgani uchun, ularga hech narsa ko'rsata olmasligingizni faraz qilib ko'ring. Pavlus shunday deb yozgan:

«Agar qurilish sinovdan o'tsa, bu yaxshi; o'tmasa, sizning qurganlaringiz yo'q qilinadi va o'rniga boshqasi quriladi» (1-Korinfliklarga 3:14, 15, The Message).

Bu chindan ham abadiy yo'qotish. Afsuski, bu haqiqat. Biroq, aziz do'stim, men sizga bunday qisimatni tilamayman. Xudo ham sizga buni tilamaydi. Siz bilan bu narsa sodir bo'lmaydi deb, hozir qat'iy qaror qilishingiz mumkin. Xudo sizga Sionni qurish uchun inoyat bermoqda. Havoriy Yuhanno yozgan:


«O'zlaringizga e'tibor beringlar, toki bizlar qilgan mehnatimizni yo'qotmaylik, balki to'liq mukofotni olaylik» (2-Yuhanno 1:8).

Rabbiyning O'zi, har bir farzandi Uning uyi qurilishidagi ishtiroki uchun to'liq mukofot olish imkonini rejalashtirib qo'ygan. Sizning mehnatingiz so'nmas, eskirmas va almashtirishga muhtoj bo'lmasligi mumkin. Xudoning inoyatiga tayansangiz va yaxshilab qursangiz, sizning hissangizni milliardlab farishtalar va odamlar abadulabad ko'rib, Xudoga tasannolar aytadilar.

❧ MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR ❧

5-BO‘LIM: 11, 12-BOBLAR

1. Xudovand biz U uchun nimadir qilishimizga muhtoj emasligini, shu bilan birga, biz U bilan birga mehnat qilishimizni istashini bilamiz. Bu narsa Uni qanday tavsiflaydi? Uning Shohligini? Biznichi?
2. 136:16-Sanoda Xudo biz tug‘ilmasidan avval, hayotimizning har bir soniyasi ta’riflangan kitob yozib qo‘ygani aytilgan. Bizning o‘ziga xos taqdirimizga Xudo nimalarni belgilab qo‘ygani, qay tarzda bilib olishimiz mumkin?
3. Ehtimol va hoynahoy, o‘z da’vatimizni amalga oshirishning o‘rniga, hayotimizni bizga yaxshidek tuyulgan ishlar bilan shug‘ullanib, o‘tkazish juda oson. Hayotingizda qo‘rquv yoki umidsizlik orqali kirishga yo‘l qo‘ygan va Xudo yangilashini istaydigan sohalar bormi?
4. O‘n ikkinchi bobda Xudoning irodasini bajarib yashashning uchta kalitini muhokama qildik: Uni samimiy izlash, o‘zimizni Uning uyida o‘rnashtirish va tashvishdan xalos bo‘lish. Bularning qaysi biri siz uchun shaxsiy imkoniyatlar sohasini taqdim etadi? Qay tarzda bularni o‘zingizda o‘stirishingiz mumkin?
5. Abadiylikda biz to‘liq, qisman mukofotga sazovor bo‘lishimiz yoki umuman mukofotdan quruq qolishimiz mumkin. Siz uchun to‘liq mukofot bu nima?



6 - BO'LIM

KO'PAYISH

O'ruvchi mukofot oladi va abadiy hayotga hosil to'playdi. Shunday ekan, ekuvchi ham, o'ruvchi ham birgalikda quvonadilar. Bu vaziyatda: «Biri ekadi, boshqasi o'rib oladi», – degan so'z to'g'ridir

— Yuhanno 4:36, 37

Ekuvchining va sug'oruvchining ikkalasi ham birdir, lekin har biri o'zining mehnatiga yarasha o'z mukofotini oladi.

— 1-Korinfliklarga 3:8

Xudo uyining qurilishi bilan shug'ullanib, Shohlikda sodiq xizmat qilgan kishi, ajoyib abadiy mukofotga ega bo'ladi. Har birimiz o'z mehnatimizga munosib ravishda alohida mukofotlanamiz. Har bittamiz o'zimizga tegishli mas'uliyatga egamiz: turli xil da'vatlar, odamlarning hayotiga abadiyat ta'sirini o'tkazishdek, bitta natijani keltirib chiqaradi.

Ko'pchilik samoda eng yuqori darajadagi mukofotlarni olish uchun, faqat minglab insonlarning hayotiga ta'sir ko'rsatgan xizmatkorlar turadilar deb o'ylaydi. Ammo haqiqat bunday emas. Xudo inson qoliplari bilan emas, balki itoatkorlikning haq ishlari bilan o'lchaydi. Agar shunday bo'lmaganda edi, xizmatning markazi yutuqlarga erishish bo'lib qolardi. Oxirgi bobda Xudo da'vatimiz bo'yicha qilingan ishlarimizga qarab hukm qilishi va mukofotlashini ko'rdik.

Inoyat orqali keladigan kuch

Miloddan keyingi 56-yil o'z faoliyatining yakunidan taxminan o'n yillar avval, Pavlus o'zi haqida «havoriylar orasida eng kichigi» (1-Korinfliklarga 15:9)

ekanini yozgan. Jamoat tarixini o'rganadigan odamlar uchun bu so'zlar g'alati tuyulishi mumkin. Pavlus o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan butun dunyoga ta'sir ko'rsatdi va o'z zamondoshlaridan ancha ko'proq ishlarni amalga oshirdi. U havoriylarning orasida eng buyugi ekaniga hech qanday shubha yo'q. Unda qanday qilib buning aksini gapirmoqda? Ehtimol, u mubolag'a qilayotgandir? Bunday bo'lishi mumkin emas, Muqaddas Kitobning yozilishida yolg'on ishlatilishning imkoni yo'q. Muqaddas Ruh faqat bir sababga ko'ra ushbu misralarga yo'l qo'ygan – Pavlus o'zini chindan ham shunday deb hisoblagan.

Javobni uning maktubidagi quyidagi so'zlarida topamiz: «Lekin Xudoning inoyati bilan kim bo'lsam, o'shaman. Menga bergan Uning inoyati esa behuda bo'lmadi, chunki men ularning hammasidan ko'ra ko'proq mehnat qildim; biroq mehnat qilgan men emas, balki men bilan bo'lgan Xudoning inoyatidir» (1-Korinfliklar 15:10).

Qiziq, Pavlus o'z yutuqlarini boshqa havoriylarnikidan ko'proq deb tan olgan, shu bilan birga o'zini eng kichik deb hisoblagan. Bunday ziddiyatning yechimi «Xudoning inoyati bilan kim bo'lsam, o'shaman» degan so'zlarda o'z aksini topgan. Pavlus o'zini, Xudo u orqali amalga oshirgan barcha ishlardan ajrata olgan. U Xudoning da'vatiga nimadir qo'sha olmasligini yoki bir so'z bilan aytganda «inoyat» deb ataluvchi unga berilgan imkoniyatdan o'zib ketadigan narsani amalga oshira olmasligini to'liq anglagan. Imonlilarning da'vati haqida gap ketganda, uning bu so'zlari hammaga tegishlidir.

Buni xizmatimdagi shaxsiy tajribamdan izohlab berishga ruxsat bering. Men yozgan kitoblar dunyoning to'qsondan ortiq tillariga tarjima qilingan. Bosib chiqarilgan kitoblarning soni millionlarga yetadi, bu kitoblar orqali odamlarning hayoti qay tarzda o'zgargani haqidagi guvohliklar esa behisobdir.

Odamlar tez-tez mening oldimga kelib, kitob yozishimdagi sirlarni so'raydilar. Maktabda ingliz tilidan qanday o'qiganim va Xudoning inoyati hayotimda namoyon bo'lishidan oldin, qanday yozuvchi bo'lganimni eslasam, kulgim keladi. Ingliz tilida ikki sahifa yozish uchun menga bir necha soat kerak bo'lar edi. Endi esa, kitob yozayotganimda, so'zlar mendan shunchaki oqib chiqadi. Bu kitoblarni haqiqitan kim yozayotganini men hammadan ham yaxshiroq bilaman. Aslida, ularni birinchi bo'lib men o'qiyman.

Bir kuni meni oynaijahondan uzatiladigan mashhur suhbatga taklif etishdi, u yerda kitoblarimning mavzusi haqida gap bordi. Suhbat jarayonida olib boruvchi kitoblarimdagi mavzular haqida gapirishning o'rniga, hammaning nigohini men va mening yutuqlarimga qaratdi. Men o'zimni noqulay sezishni boshladim va gapni yana dastlabki mavzuga qaytarish uchun ichimda Muqaddas Ruhning yordamini izlashni boshladim.

Bir necha soniyadan so'ng, Muqaddas Ruhdan olgan izohni aytish uchun yaxshi fursat tug'ilib qoldi. Men Sulaymonning so'zlarini keltirdim: «Men angladimki, Xudo qilayotgan hamma narsa abadiy turadi. Unga hech nimani qo'shib bo'lmaydi va undan hech nimani olib bo'lmaydi; odamlar Xudodan qo'rqishlari uchun U shunday qilgan. Nima bo'lgan bo'lsa, hozir ham bor va nima bo'ladigan bo'lsa, u allaqachon bo'lgan, zero Xudo o'tmishni qaytaradi» (Voiz 3:14, 15).

Shundan so'ng dedim: «Xudodan olgan da'vatini bajarayotgan, mehnat qilayotgan xizmatkor va cho'ponlarning son-sanog'i yo'q. Ulardan ayrimlari qishloq joylarida uch yuz kishilik jamoatlarni boshqaradilar. Kimdir rivojlanayotgan davlatlardagi halok bo'layotgan va hech kimga kerak bo'lmagan odamlarga xizmat qiladilar, ular o'z hayotlarini elchilar dalasiga bag'ishlagan. Yana kimdir jamiyat uchun ahamiyatsiz hisoblangan odamlarga kundalik yordam ko'rsatib, shaharlarda mehnat qilyapti. Boshqalar o'z ish joylarida sodiq xizmat ko'rsatmoqdalar. Bu ro'yxatning oxiri yo'q. Hoynahoy bu dasturda o'sha xizmatkorlarning birortasini ham ko'rsatishmaydi, biroq ularning ko'pchiligi samoda oldingi qatorlarda turadilar, chunki ular o'z da'vatlariga itoatkor bo'ldilar va o'z ishlarini pok niyatlar bilan amalga oshirdilar».

Men o'z nutqimda davom etdim: «Menga kelsak, Xudo meni, men orqali ko'p odamlarning hayotiga kirib borishni istaydigan, aniq belgilangan ishni bajarishga chaqirgan. Aynan shuning uchun siz meni shu ko'rsatuvga taklif etdingiz. Biroq men o'zimdan U chorlagan topshiriqdan bo'lak, boshqa hech narsani qo'sha olmayman. O'z kuchim bilan hech narsani kengaytirishga ham, oldinga surishga ham qodirmasman. Mening qo'limdan keladigan yagona narsa hammasini buzib qo'yish xolos, lekin men bunday qilishdan juda qo'rqaman!»

Studiyadagi muhit birdan o'zgardi. Xalqaro ahamiyatga ega xizmatni boshqaradigan ko'rsatuv olib boruvchisi men hozirgina aytgan so'zlarni shu zahoti anglab yetdi va suhbatning oxirigacha odamlarga xizmat qilish mavzusiga diqqatni qaratdi.

Bu haqiqat hammaga tegishli. Agar siz rafiq, ona, jamoatingizning bolalar bog'chasida tarbiyachi yoki yashirin xonada shifoatchi sifatida xizmat qilishga chaqirilgan bo'lsangiz va o'z da'vatingizni sadoqat bilan bajarsangiz, itoatkorligingiz uchun saxiy tarzda mukofotlanasiz. Agar siz jamoatingizning qamoqxonalardagi xizmatiga, ishbilarmonlik dunyosiga ta'sir ko'rsatishga yoki xizmat ishiga katta-katta qurbonlik qilishga chorlangan bo'lsangiz va buni Rabbiiy uchun qilgandek, chin yurakdan bajarsangiz, Iso uchun minglab odamlarni zabt etgan Xushxabarchinikidek mukofotga erishasiz.

Bu ro'yxatni cheksiz davom ettirish mumkin. Shaxsan men samodagi birinchi qatorlarda Rabbiiydan kutganimizdan ko'ra ulug'vorroq mukofotlarni oladigan kishilar onalar, ishbilarmonlar va oddiy ishchilar bo'ladi, deb ishonaman.

Xudoning yerdagi harbiy qo'shini

Iso Masihning jamoati – Xudoning yerdagi harbiy qo'shini. Biz har birimiz bizga berilgan topshiriqni bajarish uchun kerakli o'ringa va in'omlarga egamiz. Ko'p yillar oldin Rabbiiy rafiqamni uyqudan uyg'otib, Ruh orqali buyuk harbiy qo'shinni ko'rsatgan. Soat tonggi to'rtlar edi, lekin u meni shu zahoti uyg'otib, ko'rgan vahiyini aytib berdi.

«Jon bu har bir kishi o'z o'rnini, mansabini va mas'uliyatini bilgan odamlardan iborat harbiy qo'shin edi. Ular butunlay bir tekisda qadam qo'yar va har bitta safda bo'sh joylar bor edi, o'sha joylarga boshqa odamlar kelib, turardilar. Men va seni xizmatimizning ikki xil joyida olg'a borayotganimizni ko'rdim. Harakatlanayotgan yo'nalishini bilish uchun hech kim boshqasiga qaramasdi; hamma mutlaqo yakdillikda harakat qilardi, negaki ularning nigohlari Rabbiiyga qaragan edi».

So'ngra u tobora diqqatimni tortgan narsani qo'shib qo'ydi. «Hech kim boshqaning joyiga hasad qilmas va erishishga intilmas edi. Har

biri Rabbii u uchun tayyorlab qo'ygan joyda xizmat qilishdan mamnun edi». Tushunyapsizmi? Bu harbiy qo'shindagi birorta kishi boshqaning o'rniga hasad qilmagan. Hamma o'z joyida xizmat qilishdan baxtiyor va mamnun bo'lgan.

Buni ongimizda saqlagan holda, keling, uy haqidagi misolimizni eslaymiz: «Uy donolik bilan quriladi» (Hikmatlar 24:3). Biz qurishda foydalana oladiga ikki xil donolik mavjud. Biri yuqoridan, boshqasi esa yuqoridan bo'lmagan donolik.

«Orangizda kim dono va aqli bo'lsa, u buni xatti-harakatlarida yaxshi xulq hamda dono muloyimlik bilan amalda ko'rsatsin. Agarda yuragingizda sizlar achchiq hasadga va raqobatga ega bo'lsangiz, unda maqtanmanglar va haqiqatga qarshi yolg'on gapirmanglar. Bu yuqoridan tushayotgan donolik emas, balki dunyoviy, shaytoniy, jonga oid donolikdir. Chunki qayerda hasadgo'ylik va raqobat bo'lsa, o'sha yerda tartibsizlik va har xil yomonlik bo'ladi» (Yoqub 3:13-16).

Qilayotgan ishimiz qanchalik yaxshi ko'rinmasin, agar u hasad yoki shaxsiy shuhratparastlikdan kelib chiqib, amalga oshirilsa, ishimiz hech qanday ahamiyatga ega bo'lmaydi. Demak, biz tanaviy, shaytoniy sabablarga ko'ra qurganimiz uchun, hech qanday mukofotga ega bo'lmashimiz tayin.

Vebstor Lug'ati «hasad» so'ziga quyidagicha ta'rif bergan: «Norozilik hissi yoki boshqaning muvaffaqiyati, mulki va ravnaqiga o'chlik». Agar biz Xudodan berilgan da'vatga dunyoviy ko'z bilan qarasak, unda hasaddan qochib qutulib bo'lmaydi. Pavlusning da'vatiga hasad qilgan voizlar ham bo'lgan. U shunday deb yozgan: «Biroq ba'zilar hasad va raqobat bilan, boshqalar esa ezgu niyat bilan Masihni voizlik qilmoqdalar. Ba'zilar mening kishanbandligimdagi qiyinchiligimni orttirishni o'ylab, nopok yurakdan raqobat bilan, boshqalar esa sevgi bilan Masihni voizlik qilmoqdalar. Chunki ular mening Xushxabarni himoya qilishga tayin qilinganligimni biladilar» (Filippiliklarga 1:15-17).

Bu xizmatkorlar Xudo ularning hayotida joylashtirgan da'vatdan mamnun bo'lishning o'rniga, Pavlusning ravnaqiga ko'z olaytirganlar. Bu

hasad ularning shaxsiy shuhratparastligidan kelib chiqqan. Shuhratparastlik – bu nimanidir otashin va kuchli tarzda istashdir. Agar istaklarimiz tanaviy bo'lsa, diqqat markazimiz odamlarning foydasini ko'zlashda emas, balki o'zimizga qaratilgan bo'ladi. Bunday niyatlar tartibsizlik va janjallarga sabab bo'ladi va turli-tuman yovuzliklarga eshik ochadi.

Xudoning donoligi esa, aksincha, xudbin manfaatlardan oziqlanmaydi, balki Osmon Shohligiga intiladi. Bunday qurilish Rabbiyning xohishlariga mos keladi. Bunday donolik haqida quyidagilar yozilgan: «Ammo yuqoridan kelayotgan donolik esa, birinchidan pok, keyin tinchliksevar, kamtar, itoatli, mehr-shafqatli, yaxshi hosillarga to'la, beg'araz va riyosizdir» (Yoqub 3:17).

Xudoning donoligi, birinchidan pokdir. Boshqa so'zlar bilan aytganda, u ikkiyuzlamachi, xudojo'ylikni niqob qilgan, ichida hasad yoki xudbin niyatlarga ega emas. Uning istagi – Xo'jayniga sodiq bo'lish, Uning topshirig'ini quvunch bilan bajarishdir. Uning maqsadi buyuk bo'lish emas, balki o'z da'vatiga sodiq qolishdir. U Osmon Shohligining yutuqlaridan shodlanadi va unga bu yutuqlar biz orqali amalga oshyaptimi yoki boshqalar orqalimi, ahamiyati yo'q.

Xudoning donoligi o'z manfaatini emas, balki doimo boshqalarning foydasini ko'zlaydi. U tinchliksevar, kamtar, sabr-toqatli va tanqidchi emas. U uchun eng muhim istak, boshqalarning diyonatli hayot kechirishi va o'z taqdirini amalga oshirishini ko'rish hisoblanadi. Xizmatni sevadigan, lekin odamlarga zo'rg'a chidaydigan kishilar bor, odamlarni sevadigan, xizmatga esa ularga yordam berishda qurol deb qaraydigan kishilar ham bor. Ikkinchi toifadagi kishilar ilohiy donoliklik bilan boshqariladiganlardir.

Samoviy donolikning boshqa qirradi bo'ysunishda namoyon bo'ladi. O'z da'vatimizdan mamnun bo'lganimizda, Xudoning boshqaruviga va hokimiyatiga bo'ysunamiz. Arxitektori, Rassomi va Bosh Quruvchisi yagona bo'lgan, Xudo uyi qurilishining suratini to'liqlikda ko'rishni boshlaymiz. U Jamoatidagi har bir odamni O'z hokimiyat va qobiliyatlari bilan ta'minlaydi. Ustidan qo'yilgan hokimiyatga bo'ysungan kishilar, Sudda saxiylik bilan taqdirlanadilar. Jamoatga bo'linish olib keladigan cho'ponning yordamchilari, uyda erining hokimiyatiga qarshi chiqadigan xotinlar, ish beruvchidan maosh olib turib, ko'tarilishni ko'zlab, shaxsiy ishini quradigan

xizmatchilar, ishchilar va boshqalar – isyonda yurib, balki buyuk natijalarga erishgan bo'lsalar ham, Sudda katta zarar ko'radilar.

Samaralar sizni adashtirishiga yo'l qo'ymang. Xudoning hokimiyatiga qarshi borib, shu bilan bir vaqtda katta yutuqlarga erishish ham mumkin. Muso haqida eslab ko'ring. Rabbiy unga, mo'jizaviy ravishda suv chiqishi uchun qoyaga buyurishini aytdi. U bo'ysunmadi va buning o'rniga qoyaga jahl bilan urdi. Suv cho'ldagi uch millionta kishi qonadigan darajada mo'l-serob bo'lib oqib chiqdi. Ehtimol ular suvga qonib, bir-biriga shunday deyishgan: «Buni qara-ya, Xudo haqiqatdan ham Musoni eshitdi. Bu naqadar kuchli!»

Hamma suvga qonib bo'lgach, Xudo Musoni chetga chaqirdi va u o'z itoatsizligi tufayli va'da qilingan yerga endi kirmasligini aytdi. Muso chindan ham ajoyib natijalarga erishgandi. Biroq natijaning ko'rsatkichi muvaffaqiyat emas, balki itoatkorlikdir. Ilohiy donolik, Xudoni barchadan va hamma narsadan ustun qo'yadigan Rabbiyning qo'rquvidan boshlanadi. Xudoning qo'rquviga ega bo'lgan kishi Unga to'liq bo'ysunadi.

Keling, rafiqamning ko'rgan vahiyiga qaytamiz. O'sha tongda u menga dedi: «Jon, barcha harbiylarning yuz ko'rinishi butunlay bir-biriga o'xshash edi». Boshqa so'zlar bilan aytganda, bu Xudoda alohida yulduzlar yo'qligidan darak beruvchi, bir-biridan farq qilmaydigan qo'shinligini bildiradi. Bu tushuncha bizni, jamoatda boshqa kishini joyiga ko'z olaytirish niyatidan yoki yuqori mansabga erishish maqsadida, hokimiyatga qarshi isyon ko'tarishdan saqlaydi. Biz jamoatda o'rnashsakkina, hayotimizga yuqoridan ko'tarilish keladi.

Turli xil darajalar

Xushxabarlarda ikkita bir-biriga o'xshash masallarni uchratamiz, ularning har birida, Hukm haqida turli xil haqiqatlar o'z aksini topgan. Bu talant va mina haqidagi masallardir. Birinchisi – talantlar haqida masal – hamma imonliga har xil darajadagi da'vat va in'omlar berilishiga urg'u bergan:

«Zero bu xuddi o'zga yurtga ketishidan oldin o'z qullarini chaqirib, ularga o'z mol-mulkini topshirgan odamga o'xshaydi. U qullarning har

birining kuchiga yarasha biriga besh, biriga ikki, yana biriga bir talant berib, shu zahotiyiq jo'nab ketdi» (Matto 25:14, 15).

Uzoq mamlakatga jo'nab ketayotgan xo'jayin – bu Iso, xizmatkorlar esa bizning timsolimiz. Talant – bu pul birligi, ammo masalda talant boshqa narsani kasb etadi.

Masalning bitta ma'nosi, shaxsan men, bu bizning da'vat va in'omlarimizning darajasi deb ishonaman. Ma'lum bir odamlarga – butun xalqlarni o'z ichiga oladigan, boshqalarga – shahar darajasidagi, uchinchilarga – jamoatdagi uy guruhi darajasidagi xizmatlar berilgan. Bunga o'z kitoblari bilan millionlab, boshqalari – minglab, qolganlari – yuzlab odamlarni zabt etgan mualliflar ham misol bo'la oladi. Yana bir misol, bir kishi boshqarish in'omi bilan xizmatini yirik jamoat darajasiga yetkazsa, boshqasi esa faqat o'rtacha yoki kichik sonli jamoatlarni eplay oladi. Tadbirkorlik bilan shug'ullanib, ishbilarmonlik qobiliyati Xudo Shohligiga yuz minglab odamlarni jalb qilish darajasidagi korxonalar ko'tarishga qobiliyati etadigan kishilar bor. Boshqalari esa millionlab qurbonlik qilsa, uchinchilari bir necha korxonani yo'lga qo'yib, Shohlik faoliyati uchun million va milliardlab beradiganlar ham bor.

Masalga qaytamiz. Bu masaldagi ikkita muhim jihatga e'tibor bering. birinchi jihati har bir xizmatkorga nimadir ishonib topshirildi. Bu jamoatda, da'vatga va uni amalga oshirish uchun in'omlarga ega bo'lmagan kishi yo'qligini bildiradi. Ikkinchidan, har bir xizmatkorga uning qobiliyatlariga qarab, turli darajadagi mas'uliyatlar topshirildi. Ammo bizning qobiliyatlarimiz Xudodan berilganini yodimizdan chiqarmasligimiz zarur. O'zimiz bizga berilgan narsalardan tashqari, hech qanday qimmatli narsaga ega emasmiz, binobarin Kalomda yozilgan: «Kim seni boshqadan farqlayapti? Sen olmagan qanday narsalarga egasan? Agar olgan bo'lsang, nima uchun olmaganday maqtanyapsan?» (1-Korinfliklarga 4:7).

Bu masalda besh darajali da'vat va in'om olgan inson o'z kuchini ikki hissa ko'paytirdi. Ikki talant olgan kishi ham shunday qildi. Xudo bizga U istagan natijalarga erishishimiz uchun in'omlar berishiga qaramay, biz ham mehnat qilish uchun bel bog'lashimiz lozim.

Lekin bir darajali da'vat va in'omli kishi, hoynahoy, undagi bor narsalar

umuman ahamiyatsiz deb o'ylagan bo'lishi mumkin. U o'z xo'jayinini adolatsiz, mantiqsiz va qattiqqo'l inson deb hisoblagan. U quyidagicha o'ylagan bo'lishi mumkin: «Nega menga boshqalardan kam berishdi? Nima uchun boshqalarga shahar yoki hatto millatlarga ta'sir ko'rsatish darajasi topshirildi? Nega voizlik qilish, kuylash yoki kitob yozish qobiliyati menga emas, ularga berildi? Nimaga boshqalardek qurbonlik berishim uchun, mening ham korxonam ko'tarilmayapti?» Ro'yxatni davom ettirish mumkin. O'sha odam o'z talantini yashirib qo'ydi va da'vatini bajarmadi, o'z in'omini na o'zi uchun, na Shohlik uchun hech qanday foyda keltirmaydigan sohalarga sarfladi.

Uzoq vaqt o'tib, o'z xizmatkorlaridan hisobot olish maqsadida, xo'jayin qaytib keldi. Ulardan o'z talantlarini ikki hissa ko'paytirgan ikkitasi quyidagi so'zlar bilan taqdirlandi: «Barakalla, yaxshi va sodiq qul! Sen oz narsada sodiq bo'lding, seni ko'p narsa ustidan qo'yaman. Endi, xo'jayiningning quvonchiga kirgin» (Matto 25:21). Besh darajali in'omga ega bo'lgan, ikki darajali in'omga ega bo'lgandan ko'proq mukofotga ega bo'lmadi, chunki ularning ikkisi ham sodiq va quntli edilar. Bu so'zlar Xudo bizga ishonib topshirgan narsa sodiq bo'lishni talab qilayotgani haqidagi fikrni tasdiqlaydi.

Bitta talant olgan kishi shafqatsizlarcha tanbeh eshitdi va xo'jayin unga topshirilgan talantni undan olib boshqaga berishlarini buyurdi. Sodiq xizmatkorlar yanada ko'prog'iga erishgan bir paytda, talantini ko'mib qo'ygan katta zarar ko'rdi.

Ushbu masalni tinglab, 1992-yil Xudo menga kitob yozishni buyurganini eslayman. Ibodat vaqti yuragimga aytilgan narsani eshitganimda, unga ishonmay, qariyb kulib yubordim. Men ingliz tilidan nafratlanardim! Agar maktab yillarim kimdir menga, kitob yozasan deganda, uning yuziga qarab qotib kulgan bo'lardim.

Lekin o'n oy o'tib, ikki haftaning ichida yonimga ikki ayol birin-ketin bir xil bashorat bilan keldilar: «Jon, mabodo Xudo senga berayotgan vahiy larni yozmasang, U bu ishni boshqa kishiga beradi, sen esa Xudoning irodasini rad etganing uchun mahkum bo'lasan». Men titrab, birinchi imon qadamini qo'ydim, qolgan narsalar haqida boshqa safar gaplashamiz. Men itoat etmaganimda edi, bu kitoblarni boshqa kishi yozgan bo'lardi, men esa menga topshirilgan talantlarni yo'qotardim.

Bizga berilgan talantlarning ko'payishi

Biz o'z da'vat yoki in'omlarimizga hech narsa qo'sha olmasligimizni muhokama etdik. Endi, keling, har bir imonlga berilgan narsalarning ko'payishiga diqqatimizni qaratamiz. Bu haqiqat birinchi masalga o'xshash boshqa masalda ochib berilgan:

«Bir zoti baland odam o'ziga saltanat olish uchun uzoq mamlakatga jo'nab ketayotgan ekan. U o'zining o'nta qulini chaqirdi va ularga o'n mina pul berib: «Men qaytib kelgunimcha, pulni ishga solinglar», — dedi» (Luqo 19:12, 13).

Mina ham talant singari pul birligidir. Lekin bu masalda har bir kishiga bir xil miqdorda pul berildi, har biri bir minadan olishdi. Mina talant kabi da'vat yoki in'omlar darajasini bildirmaydi. U Xudo So'zining haqiqati, imonimizning asosi, yuragimizga quyilgan Xudoning sevgisi va har birimizga berilgan ahdning barakalarini o'zida aks ettiradi. Hammamizga bir xil narsa berilgan va hech kim boshqadan ko'ra ko'proq olmagan.

Bu masal har bir imonli Masihda nimalarga ega ekani haqidagi masal. Yozuv shunday deydi: «Hech kim insoniy narsa bilan maqtanmasin, chunki hammasi sizlarnikidir» (1-Korinfliklarga 3:21) va yana: «Rabbimiz Iso Masihning Otasi — Xudo muborak bo'lsin! U samoda bizga barcha ruhiy barakalarni Masihda ato etgan» (Efesliklarga 1:3). Ushbu barakalar Masihdadir, lekin ularni faqat imonimiz oladi va uni yerda namoyon qiladi, itoatkorligimiz, ibodat va qurbonliklarimiz esa ularni ko'payishga majbur etadi. Mana nima uchun Isoni tasvirlaydigan bu zoti baland inson, o'z xizmatkorlariga, ya'ni bizlarga dedi: «Men qaytib kelgunimcha, pulni ishga solinglar». Bizga berilgan narsalarni olib, Xudoning sharafi uchun ko'paytirishimiz zarur.

Natijalarni o'rganib chiqamiz:

«Shundan so'ng u saltanatni olib, o'z vataniga qaytib kelganida, bergan pulidan kim qancha daromad qilganini bilish uchun, o'sha qullarini yoniga chaqirishni buyurdi. Birinchisi kelib: — Xo'jayin, sizning minangiz o'n mina daromad keltirdi, — dedi. Xo'jayin unga: — Ma'qul, sen yaxshi

qul ekansan. Kichik ishda sodiq bo'lganing uchun o'nta shahar ustidan hokim bo'lg'in, — dedi. Ikkinchisi kelib: — Xo'jayin, sizning minangiz besh mina daromad keltirdi, — dedi. U esa unga dedi: — Sen ham beshta shahar ustidan bo'lg'in. Uchinchisi ham kelib: — Xo'jayin, mana sizning minangiz. Men uni ro'molchaga tugib asradim» (Luqo 19:15-20).

Xo'jayin uchinchi xizmatkorni yaxshilab koyidi, uning minasini esa o'z minasini o'n hissa ko'paytirganga berdi. Xo'jayin dedi: «Sizlarga aytamanki, kimda bor bo'lsa, unga yana beriladi. Kimda yo'q bo'lsa, undan hatto bori ham tortib olinadi» (26-oyat).

Bu masalda Iso o'nta xizmatkordan atigi uchtasiga murojaat etyapti. Qaytaraman, bu masaldagi muhim farq shundaki, har bir xizmatkor bir xil miqdordagi pul bilan boshlagan, ammo biri o'z pulini o'n hissi, boshqasi — besh hissaga ko'paytirdi, uchinchisi esa umuman hech narsa orttirmadi.

Mukofotlar ham har birining natijasiga qarab, bir-biridan farq qilganini ko'ramiz. Boshqarish uchun qo'lga kiritilgan shaharlar sonini to'g'ridan-to'g'ri ularning muvaffaqiyati belgiladi.

Bizga topshirilgan narsalarni ko'paytirganimizga qarab, ming yillik shohlikdagi yangi yer va yangi osmonda qanday hokimiyatga ega bo'lishimiz aniqlanadi. Sodiqqlar Masih bilan hukmronlik qiladilar, biroq hammaning hokimiyati har xil darajada bo'ladi. Bu yerdagi urinishlarimiz abadiylikda U bilan kechadigan hukmronligimizning me'yorini belgilaydi. Qarang, bu masal hammamiz bir xil narsadan boshlashimizni ko'rsatadi, ularning har birida mina bor edi. Shunday qilib, jamoatda tirishqoqlik bilan xizmat qiladigan sadoqatli xotin va ona yuz minglab odamlarni qo'lga kiritgan xushxabarchi bilan bir xil imkoniyatlarga ega.

Bu masal har bir kishi o'z minasini ko'p hissa orttira olishga qurbi yetishi haqida aytadi. Bizning shaxsiy hayotimizga kelsak, Xudo Shohligini, o'zimiz xohlagandek, ko'p yoki kam qurishga qodirmiz: buni biz tanlaymiz. Aslida, ma'lum ma'noda oladigan bo'lsak, bizda hech qanday chegara yo'q. Siz bu fikrga qo'shilmasligingiz mumkin, lekin buni misol bilan izohlashimga ruxsat eting. Men ko'p narsa berishim mumkin, biroq faqat ayrimlar bu ruhiy qonun uchun yuraklarini ochadilar. Keling, avval havoriy Petrusning so'zlarini o'qiymiz:

«Xudoni va Rabbimiz Isoni tanib-bilishingiz uchun sizlarga inoyat ...ko'paysin. ...Uning ilohiy kuch-qudratidan Uni tanib-bilishimiz orqali bizning hayotimiz va diyonatimiz uchun zarur bo'lgan hamma narsa bizga ato qilindi» (2-Petrus 1:2, 3).

Inoyat hayotimizda ko'payish qobiliyatiga ega. Yoqub shunday deydi: «Lekin U yanada ko'proq inoyat ato qiladi» (Yoqub 4:6). Faqat inoyat orqali Shohlikda qimmatga ega bo'lgan narsani qila olishga qodirmiz. Bu qobiliyat Xudoni yaqindan tanib-bilish orqali ko'payib boradi. Mana nima uchun har bir imonli U bilan muloqotda vaqt o'tkazishi zarur. Biz ibodat qilishimiz, Kalomni o'qishimiz, Ruh bilan ruhlantirilgan kitoblarni o'qishimiz va Muqaddas Ruhga quloq solishimiz muhim. Biz shunday qilsak, hayotimizda yanada ko'proq harakat qilishga qobiliyat beradigan inoyat ko'payadi.

Men Uni va Uning yo'llarini qancha yaqindan bilib borsam, shuncha samarador bo'lib borishimni anglab yetdim. Uchi o'tmas bolta bilan bitta daraxtni chopish uchun bir kun ketadi. Lekin uni o'tkirlasam, bir kunda beshta daraxtni chopib tashlashim mumkin. Inoyat hayotimizda ko'payganda, xuddi shu narsa sodir bo'ladi. Biz yanada samaraliroq mehnat qilishni boshlaymiz.

Bir necha yillar oldin Dallasdagi besoqolbozlar namoyishi vaqtida, ko'chada o'tkazilgan bir xushxabar xizmatini eslayman. Men ikki soat davomida bu adashgan jonlarga Iso haqida gapirdim, ular esa menga o'zga sayyoralikka qaragandek, shunchaki qarab turardilar. Men so'zlarni aytgan zahotim, o'zimga qaytib kelardi va o'z boshimni devorga urayotgandek his etardim. Bu xuddi urug'ni betonga sepayotgandek ko'rinardi.

Shundan so'ng Rabbii menga shivirladi: «Menga qara, Men senga nima qilishing kerakligini ko'rsataman». Keyingi o'ttiz daqiqa U meni odamlarning oldiga olib bordi va aytishim joiz bo'lgan kerakli so'zlarni berdi. Mening so'zlarim endi yurakka borib tegardi va uch kishi hayotini Iso Masihga bag'ishladi. Muqaddas Ruhga nigohimni qaratganimda va yuragimda U aytgan so'zlarga diqqat qilganimda, mening urinishlarimning natijasi ko'paydi.

Men buni hayotimning barcha sohalarida ko'rganman. Xudoning So'zida o'sib borgan sari, qisqa vaqt ichida ko'proq narsa qilish qobiliyati paydo bo'la boshladi. Mening soatlar, kunlar va hatto oylarimni asrab

qolgan haqiqat yo'llarini topdim. Ibodatlarim yanada kuchliroq, Xudoning huzuri yanada yaqqolroq, odamlarning hayotiga ta'sir o'tkazish qobiliyatim yanada oydinroq bo'la boshladi. Yozuv shunday deb va'da bergan:

«Donolikning boshi – Rabbiydan qo'rqishdir, Muqaddasni tanib-bilish – aqlidir. Chunki men orqali hayot kunlaring ko'payadi va umringga yillar qo'shiladi» (Hikmatlar 9:10, 11).

Ikkita narsa va'da berilgan: uzoq umr ko'rish, ya'ni hayotimiz uzayadi va kunlarimizning ko'payishi, ya'ni ilgarigi shuncha vaqtning ichida ko'proq narsaga ulgurish. Boshqa joyda kunlarning ko'payishi, kunlarning uzayishi deb yozilgan. «Chunki ular senga uzun kunlar, uzoq umr va tinchlik qo'shib beradi» (Hikmatlar 3:2). Muallif Xudoning So'ziga itoat etish haqida aytgan. E'tibor bering, nafaqat uzoq umr, qolaversa, uzun kunlar ham berilyapti. Bu vaqtimizning ko'payishidir.

Qurbonlik orqali ko'payish

Xudoni yaqindan tanib-bilgan har bir kishi, kundan kunga xursand va saxiy bo'lib boradi, negaki Xudo eng saxiy marhamatlovchi hisoblanadi. Uning eng qimmatli hadyasi bo'lmish – O'zining yagona O'g'lini berdi. Isodan ko'ra qimmatliroq in'om yo'q edi. Rabbiy hech qachon ahamiyatsiz va keraksiz sovg'a bermaydi. Isoni berarkan, ko'p o'g'illar va qizlar Uning oilasiga kirishini anglatadigan hosil ko'payishini kutgan.

Imon bilan bergan qurbonliklarimiz – Ota O'g'lini berganidek, odamlarning hayotiga abadiy ta'sir ko'rsatib, biz ega bo'lgan narsalarni ko'paytirishning yana bir yo'li. Iso shunday deb ta'kidlagan: «Men ham sizlarga aytamanki, o'zingizga nohaq boylikdan do'st orttiringlar, toki bu boylik tugagach, sizlarni abadiy makonlarga qabul qilsinlar» (Luqo 16:9). To'g'ri ishlatilgan pullarimiz, ular sarflangandan anchadan so'ng, samodagi va Yangi Yerusalimdagi hayotimizning sifatini belgilashi mumkin. «Yozilganidek: «(Qurbonlik beradigan kishi) sarflab, kambag'allarga berdi; uning haqligi abadiy turadi» (2-Korinfliklarga 9:9, Kengaytirilgan tarjima).

Kambag'al kishi deb nafaqat moddiy jihatdan, shuningdek ruhiy kambag'al bo'lganni ham aytish mumkin. Odam millionlab dollarlarga

ega, biroq ruhiy qashshoq bo'lishi mumkin. Misollardan biri – Zakhey ismli kishi. Iso O'z vazifasini ta'riflab, dedi: «Rabbiyning Ruhi Mening ustimda, chunki qashshoqlarga xushxabarni e'lon qilish uchun, U Meni moylab yubordi» (Luqo 4:18). Sal o'tib, U shaharga chiqdi, eng boy kishini topdi va katta olomon qarshisida unga shunday so'zlar bilan murojaat etdi: «Bugun Men sening uyingda bo'lishim lozim». Zakhey shahardagi eng badavlat odam bo'lsa-da, lekin u aftidan, eng qashshoq bo'lgan. Boshqa so'z bilan aytganda, u Xudoga boshqalardan ko'ra ko'proq muhtojligini bilgan. Iso xizmat qilgan ko'pchilik boylar Xudoning So'ziga muhtoj bo'lishgan.

Xizmatchilar Isoning ishlarini amalga oshirishga, kambag'allarga Xudoning So'zini e'lon qilishga va ularga ta'lim berishga yuborilgan. Pullarimizni Xudoning faoliyati uchun berib, kambag'allarga ekamiz va bizning qilgan ishlarimiz mangu turadi. Pullaringiz ko'p yoki kamligining ahamiyati yo'q. Xudo ekuvchiga berishga va'da bergan urug'ingiz bo'lsa, siz Uning Qurilishidagi urinishlaringizni ko'paytira olasiz.

In'omingizning ko'payishi qanday sodir bo'ladi? Olma urug'ini faraz qilib ko'ring. Uni ekib, olma hosilini yig'ib olasiz. Ammo eng muhimi, yetilgan olmalarning ichidagi urug'lar ekilgan urug'lardan yanada ko'proq bo'ladi. Agar o'sha barcha urug'larni eksangiz, yanada ko'proq olma yig'ib olasiz va bu cheksiz davom etishi mumkin. Pullarimiz bilan ham xuddi shu narsa sodir bo'ladi. Pavlus Korinfliklarga qurbonlik haqida nima deganiga, qarang:

«Shuni aytib qo'yayki, xasislik bilan ekadigan xasislik bilan o'rib oladi: saxiylik bilan ekadigan esa saxiylik bilan o'rib oladi. Har kim qayg'u yoki majburiyat bilan emas, balki yurak xohishi bilan bersin, chunki Xudo quvonib beruvchini sevadi» (2-Korinfliklarga 9:6, 7).

Hosilimizning ko'payishi to'g'ridan-to'g'ri qancha ekanimizga mutanosib. Bu Xudoning emas, bizning qarorimiz ekaniga e'tibor bering. Agar biz imon va sevgi bilan saxiy bo'lishga qaror qilsak, bag'ishlovlarimiz ko'payadi: «Urug' ekuvchiga urug', ozuqa uchun esa non beradigan Xudo sizlarning ekaningizni ham mo'l qiladi va haqligingizning hosillarini ko'paytiradi» (2-Korinfliklarga 9:10).

Rabbiy ekilgan narsani, olma urug'i misolida ko'rganimizdek,

ko'paytiradi. Agar urug'larni eksak, bir necha karra ko'proq hosil o'rib olamiz. Bu jarayon boshqalarni duo qilish qobiliyatimiz yanada ko'payganini ko'rmagunimizcha, davom etaveradi.

Xudo qurbonliklarimiz orqali haqligimizning hosillarini orttiradi. Aynan mana shu narsa ko'proq quvontiradi. Bu oyatda biz o'z qurbonliklarimiz bilan ta'sir ko'rsatgan odamlarning hayoti evaziga ko'payadigan abadiy mukofotlar haqida aytilgan. Mohiyatan, yuqorida keltirilgan masalga o'xshab, qurbonlik qilib, biz o'z minalarimizni ko'paytiramiz.

Hamkorlik

Bizning, ayniqsa, bizga qaytara olmaydigan odamlarga qilgan qurbonliklarimiz bu hayotda ham, Sudda ham mukofot keltiradi. Shohlik qurilishidagi say-harakatlarimizga kelsak, biz buni xushxabardagi hamkorlik orqali amalga oshirishimiz mumkin. Pavlus uning xizmatini moliyaviy qo'llab-quvvatlagan Filippidagi imonlilarga nima deganiga, qarang:

«Biroq mening qayg'ularimda ishtirok etib, sizlar yaxshi ish qildingizlar. Filippiliklar, sizlar bilasizlarki, men Xushxabarni voizlik qilishni boshlab Makedoniyadan chiqqanimda, sizlardan boshqa hech qaysi jamoat menga ehson va mehmondo'stlik bilan xizmat qilmagan (menga hamkorlik qilmagan) edi. Sizlar Salonika shahriga ham bir-ikki marta mening muhtojliklarimni qondirish uchun menga yordam yuborgan edingizlar» (Filippiliklarga 4:14-16, Kengaytirilgan tarjima).

E'tibor bering, Pavlus Filippidagi imonlilarni o'z xizmatining hamkorlari deb atagan. Hamkorlik – bu shaxslar yoki guruhlar orasidagi, aniq maqsadga erishish yo'lida o'zaro xizmat ko'rsatish va mas'uliyat olish munosabatlaridir. Xudodan berilgan sog'lom hamkorlik, hamkorlikka kirgan tomonlarga, shaxslarga ular yakka holda uddalay oladigan ishdan ko'prog'ini amalga oshirishga imkon beradi.

Iso bizga butun dunyo bo'ylab borishni va barcha xalqlardan shogirdlar orttirishni buyurganini yuqorida aytib o'tdim. Biroq, agar hamma imonlilar topshiriqni bajarish maqsadida elchilik dalasiga chiqsalar, kim bu faoliyatni moliyaviy ta'minlaydi? (Bu ham Xudo hammaga har xil in'om va da'vatlarni

berishining yana bir sababi). Rabbiiy hech qachon, xizmatchilar kerakli moddiy yordamni farishtalar yoki samodan pul yogʻilishi orqali olishini rejalashtirmagan. U Oʻz Tanasiga qurbonlik qilish imtiyozini bergan va bu hamkorlikni yuzaga keltiradi.

Xalqlarni qoʻlga kiritish uchun Xudo xizmat inʼomlarini bergan va ularni tayinlagan. Yuqorida aytganimizdek, bu maqsadni amalga oshirish uchun U maxsus inʼomlar, qobiliyatlar va moylanish beradi. Bu vazifa jamoatdagi hammaga emas, balki faqat ayrimlarga beriladi (Efesliklarga 4:11). Jamoatning qolgan aʼzolariga U boshqa zaruriy sohalarni buyuradi va ishonib topshiradi. Bu oʻz doirangizdagi odamlar ustida ishlash va ularga erishishdir. Agar siz kun boʻyi ishda boʻlsangiz, qay tarzda ommani najotga olib kelasiz? Javob hamkorlikda mujassamlashgan.

Siz hayotni oʻzgartiradigan mahsulotga ega boʻlsangiz-u, lekin uni bir oyda atigi ikki dona ishlab chiqarishga imkoningiz yetsa, unda mahsulotingizni butun shahar, davlat yoki dunyo miqyosida tarqatib boʻlmaydi. Biroq oyiga minglab nusxa ishlab chiqarish va tarqatishga qodir kerakli jihozlarga ega korxona boʻlsa, siz u bilan hamkorlikka kirishardingiz. Shunday qilib, siz oʻz mahsulotingiz (shaxsiy guvohlik) bilan ikki kishini emas, balki ming kishini taʼminlaysiz. Oddiy hamkorlik yoʻli bilan oʻz talantlaringizni samarali ravishda koʻpaytirasiz.

Aynan mana shu oddiy qoida Pavlusning filippiliklarga bergan taʼrifiga mos keladi. U davom etadi: «Men hadyani izlamayapman, lekin sizlarning hisobingizga koʻpayadigan hosilni izlayapman» (Filippiliklarga 4:17).

«Sizlarning hisobingizga koʻpayadigan hosil» iborasiga eʼtibor qiling. Filippidagi imonlilar koʻp jonlarni zabt etish va ularga taʼlim berishdagi oʻz kuchlarini, Pavlusning xizmatiga moddiy yordam yuborish orqali koʻpaytirdilar. Vaqtincha boʻlgan narsalardan foydalanib, ular uni abadiy narsalarga aylantirar va koʻpaytirar edilar.

Siz shu turdagi hamkorlikka kirishsangiz, sizning hisobingizga yigʻiladigan hosilning barakasiga ega boʻlasiz. Bu sizning samoviy hisobingiz. Masih Hukmi qarshisida turganda, nafaqat ish joyda, qoʻshnilarga, maktabda va boshqa joylarda koʻrsatgan shaxsiy xizmatigingiz uchun, qolaversa, oʻz hissangizni qoʻshgan boshqa xizmatchilarning

xizmatidagi minglab va millionlab erishgan jonlari uchun ham taqdirlanasiz. Shu bois Kalom bizga deydi: «Saxiylik bilan ber, binobarin sening in’omlaring kelgusida o’zingga qaytadi. Ko’plar bilan o’z in’omlaringni bo’lish» (Voiz 11:1, 2, inglizchadan tarjima).

Xudo tomonidan tayinlangan xizmatlarni (shu jumladan mahalliy jamoatingiz topshirgan xizmatlarni) birin-ketin bajaraversangiz, shunday qilib odamlarni najotga olib kelishga hissangizni qo’shasiz. Boshqa xizmatkorlarning ishlarida, o’z ulushingizga ega bo’lasiz, negaki siz hamkorsiz. Eng quvonchlisi shundaki: qancha ko’p hissa qo’shsangiz, mukofotingiz ham shuncha ortib boraveradi. Bilish muhimki, Xudo sizning in’omingizni qurbonligingiz miqdoriga qarab emas, balki uni sodiqlik bilan berganingizga qarab baholaydi. Ota Xudo yurakdan chiqqan samimiy hadyalarga qaraydi. U qurbonlikning miqdorini emas, aynan samimiyligni sevadi va uni duo qiladi. Jumladan, bir kishi, shaxsiy ehtiyojlari bo’lishiga qaramay, o’z hadyasini sodiqlik bilan, xizmat uchun har oy o’ttiz dollardan berishi mumkin. Xudo bunday hadyani, pullarning o’zidan ko’ra ko’proq qadrlaydi, chunki unda inson hayotining bir qismi bor. Boshqa kishi esa oyiga ming dollar keltirishi, lekin unda oshib-toshgani uchun shuncha berishi mumkin. Xudoning ko’zida ikkalasi ham ajoyib, biroq U o’ttiz dollarlik hadyani ko’proq deb hisoblaydi. Bu haqiqat qurbonlikka ikki tanga olib kelgan beva ayol voqeasida o’z aksini topgan (Mark 12:41-44 ga qarang).

Xudo hadyalarimizni yerdagi hayotimizda ham ko’paytirishini unutmashimiz kerak. Bu oqim biz yanada ko’proq berishimizga imkon yaratadi. Kalom shunday deb ta’kidlaydi: «Ba’zi odam saxiylik bilan ekadi va unga yana boylik qo’shiladi, boshqasi esa keragidan ortiq tejaydi, biroq qashshoqlashadi» (Hikmatlar 11:24). O’ylab ko’ring: sizning qurbonliklaringiz nafaqat manguilikda ko’payadi, shuningdek bu o’sish tabiiy dunyoda ham namoyon bo’ladi va bu narsa yana ko’proq berishga zamin yaratadi. Bu doira doimo yangilanib va ko’payib turadi.

Yigirma ikki yil oldin men tanigan ishbilarmonlar bir guruh bo’lib yig’ildilar va o’z daromadlaridan bir qismini Xushxabar yoyilishi uchun ajratishga va’da berdilar. Boshlanish miqdori kam edi, lekin har yil oshib borardi. Ular o’z bag’ishlov va hamkorligida doimiy bo’lib qolishdi. Birinchi

yigirma yil ularning imkoniyatlari shu darajagacha kengayib ketdiki, ular Xushxabar uchun har yil 120 milliondan ko'proq ham bera olardilar. O'z minasini Shohlik maqsadida ko'paytirgan bu odamlar kelgusida buyuk mukofotga erishadilar.

Jamoatda ishi yaxshi bo'lgan behisob erkak va ayol tadbirkorlar bor, ammo ularning ko'pchiligi daromadidan ozgina qismini Shohlik uchun qurbonlik qiladilar. Ular jamiyat ko'zida muvaffaqiyatli ko'rinsa-da, ularning o'zlariga olib qolgan pullariga Rabbiy qanday nigoh bilan qarar ekan? Hatto millionlab daromad qilgan bo'lsalar ham, o'sha bitta minaga ega bo'lgan xizmatkorga o'xshab, ular ham sud bo'lisharmikan? Ular Shohlik uchun berilgan pullarni ko'paytirmadilar. Bunday yo'l tutadiganlar abadiyat tomonidan harakatlanmayotgan kishilardir.

Men yaqinda bizning xizmatimizga vaqti-vaqti bilan qurbonlik qilib turadigan ishbilarmon bilan golf o'ynadim. O'yindan so'ng u meni mehmonxonaga olib bordi. U yo'lda dedi: «Jon, men qariyb ellik yoshga kirdim. Men jon-jahdim bilan ishladim va hisobida to'qqiz million dollarlik shirkat barpo qildim. Hammasi zo'r, ishning o'zi mustaqil faoliyat ko'rsatmoqda, oilamning hayotida hamma narsa joyiga qo'yilgan. O'zimni qiynab va yana shirkatim hisobini o'ttiz yoki qirq millionga ko'tarish uchun o'n yilimni ishga sarflab, nima qilaman?»

U Xudo uyining qurilishidagi o'zining qismini ko'rmasligini angladim. U menga Shohlikda muhim ahamiyatga ega kishi sifatida qarar, lekin tadbirkor sifatidagi o'z qiymatini ko'rmasdi.

Men shu zahoti savoliga savol bilan javob berdim: «Faraz qilib ko'r, agar men senga "Men jon-jahdim bilan ishladim, o'n yettita kitob yozdim, yetti million kilometr bosib o'tdim, minglab voizliklar aytdim. Ishlar joyida, xizmatimning o'zi mustaqil ravishda rivojlanyapti, biz xotinim va farzandlarim bilan yaxshi hayot kechirmoqdamiz. O'zimni qiynab va yana yangi kitoblar yozib, xizmat safarlariga borib va voizliklar qilishimning nima keragi bor?" deyman. Nima deb o'ylaysan, mening shu savolimga Iso nima deb javob bergan bo'lardi?»

U kulib yubordi va dedi: «Shu gaplarni aytish uchun U bilan uchrashganingda, men sening o'rningda bo'lishni istamasdim».

Men tezgina javob berdim: «Sen aynan shunday deyapsan!»

Men unga o'ylab ko'rish uchun vaqt berdim va so'ng davom etdim: «Iso Uning Shohligini qurishim uchun in'omlar berdi – voizlik qilish va kitoblar yozish. Senga esa Iso, Uning Shohligi qurilishida ishtirok etishing uchun – pul ishlab, Shohlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash in'omini berdi. Sen haqiqatni butunligicha ko'rmayapsan. Men Rabbiy uchun amalga oshirishim kerak bo'lgan ishlarimda, sening itoating yoki itoatsizligingga bog'liqman. Bu xuddi odamlarga voizlik qilishim uchun og'zim chegaralangan, voizlikka boradigan oyoqlarim harakat qilishdan to'xtashni qaror qilganga o'xshaydi». Suhbatdoshim qotib qoldi.

Yarim yildan so'ng unga qo'ng'iroq qildim va ishlari qandayligini so'radim. U javob berdi: «Jon, yarim yil oldin aytgan so'zlaring, yaxshi ma'noda, meni har kuni ta'qib qildi. Shu vaqt ichida har kuni ko'proq qurbonlik qilish uchun yanada ko'proq daromad qilay deb, bor kuchim bilan ishlayapman». Menga bu odamning ko'nikuvchanligi yoqdi.

Boshqa tomondan, biz xotinim bilan mahalliy jamoatimizdagi qayerda kerak bo'lsa, hamma joyda faol xizmat qiladigan bir kishini taniymiz. U o'zining xizmati to'liq xizmatda emas, balki tadbirkorlikda ekanini biladi. U daromadining o'n foiziga yashashni, to'qson foizini esa Xudoga berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Tanishimiz o'z maqsadiga erishdi. Bor-yo'g'i o'n foizga yashab, u juda qimmat mashinada yuradi va hashamatli uyi ham bor. Hamkorlik uning ishiga rivoj keltirdi, natijada unga qoladigan o'n foiz yetarli darajada o'sib ketdi. U Isoning qonunini qo'lladi: kamiga sodiq, ko'piga ham sodiq bo'ladi.

Hamkorlikka kirishishning yana bir sababi – bu yo'l bilan bizga xizmat qilgan xizmatkorlarni duo qilish imkoniyatini qo'lga kiritamiz. Pavlus aytgan: «Toki sizlar har qanday saxiylik uchun hamma narsada boy bo'linglar. Saxiyligingiz esa biz orqali Xudoga minnatdorchilik keltiradi. Chunki bu xizmatning ijro etilishi nafaqat muqaddaslarning ehtiyojlarini qondiradi, balki ko'pchilikda Xudoga mo'l-ko'l minnatdorchilikni keltirib chiqaradi» (1-Korinfliklarga 9:11-12).

Bu tabiiy holat. Do'stingizdan sovg'a olib, boshqa kishiga minnatdorlik xatini yubormaysiz. Sizni duo qilgan kishiga rahmat aytasiz, shu bilan

o'zaro munosabatlaringizni mustahkamlaysiz. Xudo hamma narsani belgilangan maqsad bilan yaratdi. Imonga kelgan odamlarning soni qancha ortsa va xizmatlar ko'paysa, shuncha ko'p moddiy ehtiyojlar yuzaga keladi. Shunday qilib, agar xizmatdagi har bir kishi qurbonlik qilsa (hatto ikki tanga bo'lsa ham), xizmatning davom etishi va kengayishidagi barcha sarf-xarajatlar qoplanadi.

Filippiliklarga aytilganlarga yakun yasab, Pavlus shunday yozgan:

«Men hamma narsaga egaman va mo'lichilikda yashamoqdaman. Sizlarning xushbo'y tutatqingizni, ya'ni Epafrodit orqali yuborgan Xudoga ma'qul bo'lgan yoqimli qurbonligingizni olib, men to'q bo'lib yuribman. Mening Xudoyim esa Iso Masih orqali sizlarning har qanday muhtojliklaringizni O'z shuhratining boyligi bilan qondiradi» (Filippiliklarga 4:18, 19).

Har qanday muhtojlik Xudoning boyligi bilan qondirilishi haqidagi va'da xizmatdagi hamkorlarga qaratilgan. Siz o'nlik bersangiz va xizmatda hamkor bo'lsangiz, shunda Xudoning ushbu va'dasida qattiq turishingiz mumkin.

Ibodat orqali ko'payish

Ko'payishning yana bir yo'li – bu ibodat. Alohida odamlar, oilalar, jamoatlar, shaharlar va xalqlar uchun ibodat qilib, bag'ishlov orqali sodir bo'lganidek, odamlarning hayotiga abadiyga ta'sir ko'rsatishimiz mumkin va ular bilan faqat samoda uchrashamiz. Xizmatchilar uchun ibodat qilganda ham, odamlarning hayotiga ta'sir ko'rsatamiz. Bizning xizmatimizda moliyaviy hamkorlarimiz bo'lgani kabi ibodatchi hamkorlarimiz ham bor. Ibadat hamkorlari «Xalqaro elchi» xizmati uchun har kuni o'zlarini ibodatga bag'ishlaydi.

Ko'pincha odamlar kelib, menga deydilar: «Men sizlar uchun har kuni ibodat qilaman». Men har safar ular chindan ham ibodat qilyaptimi yoki shunchaki shunday deyaptimi, aniq ayta olaman. Samimiy ibodatdagi kishilarga quyidagicha javob beraman: «Sizning ibodatingiz xizmatimiz uchun eng katta yordam!» Bu haqiqat! Kimdir ibodat qilganda, ko'proq odamlarning hayoti o'zgarishi mumkin. Xudo ibodat orqali Uning xizmatiga qurbonlik qilish

uchun odamlarni ruhlantiradi va yuraklarini ochadi, binobarin moliyaviy hamkor va ibodat hamkorining birini tanlash zarur bo'lsa, men avval ibodat hamkorni tanlagan bo'lardim. Lekin unisi ham, bunisi ham kerak.

Ko'makchilik xizmati orqali ko'payish

Minalarni ko'paytirishning boshqa yo'li – bu ko'makchilik xizmati. Biz Liza bilan doim tashkilotimizning ko'pchilik yordamchi va hamkasblarini bizning xizmatimiz orqali har bitta o'zgargan hayot uchun ulkan mukofotga erishadigan kishilar sifatida eslaymiz.

Bu so'zlar Dovud jang maydonidan qaytgan odamlarga qarata aytgan so'zlaridan olinganini bilaman. Birinchi Shohliklar kitobi 30-bobida Dovud uning harbiylari qarorgohidan o'g'irlangan va asrga olinganlarni qaytarish uchun Amaliklarni izidan quvgani to'g'risida o'qiydiz. Jangda qatnashib, Dovud bilan safga qaytganlarning ayrimlari qo'lga kiritilgan o'ljani qarorgohni qo'riqlab qolganlar bilan bo'lishishni istashmadilar. Shundan so'ng, Dovud nima deb javob berganini tinglang:

«Urushga borganlar bilan anjomlar yonida qolganlarning ulushi bir xil bo'ladi, hammaga teng bo'lish kerak. O'sha kundan boshlab keyinga, hatto bugungi kunlarga qacha Dovud bu tartibni Isroilda qonun va qoida qilib o'rnatdi» (1-Shohliklar 30:24-25).

Dovud – Isoning timsoli. Shuning uchun «o'sha kundan boshlab keyingi, hatto bugungi kunlarga qacha Dovud bu tartibni Isroilda qonun va qoida qilib o'rnatdi» iborasi menga bugun ham Iso va Uning Jamoati uchun amal qilishini bildiradi. Xizmat orqali amalga oshirilgan hamma narsa uchun nafaqat boshqaruvchi, qolaversa, barcha sodiq xizmat qilgan, moddiy yordam bergan va ibodat qilganlar ham taqdirlanadi, garchi ular jang maydonida ko'rinmagan bo'lsalar ham.

Munosabatning muhimligi

Yuqorida xizmatga bo'lgan munosabatimiz haqidagi haqiqatlar bizning mukofotimizni belgilaydigan muhim jihat hisoblanadi. Nafaqat ishlarimiz, qolaversa, o'sha ishlarni qay sababga ko'ra amalga oshirganimiz va

istaklarimizning ortida turgan munosabatimiz ham hisobga o'tadi. Xudo deydi: «Agar xohlasangizlar va itoat qilsangizlar, yerning ezguliklaridan yeysizlar» (Isha'yo 1:19).

Men Xudo bilan munosabatlarimda qurg'ochilik kechirgan davrimni eslayman. O'sha payt, jamoatdagi xizmatlardan, ayniqsa, cho'ponimning voizliklaridan hech nima olmayotgandek tuyulardi. Hayotimda sezilarli darajada oldinga siljish yo'q edi.

Sakkiz mingtalik jamoatda bevosita cho'ponning boshqaruvida doimiy xizmatda bo'lib, kundan-kunga unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'la boshladim. Bir kuni tongdagi ibodatimda Xudo menga dedi: «Muammo cho'ponda emas, muammo senda».

Men turgun joyimda qotib qoldim: «Mening muammom nimada?»

Rabbiy mendan Isha'yo payg'ambar Kitobida (1:19) nima deb yozilgani haqida so'radi. Men bu oyatni yoddan bilganim uchun uni qaytarib aytim. So'ng U dedi: «Sening muammong mana shunda. Sen doimo oziq olmayapman deysan va bu to'g'ri, chunki sen yerning ezguliklaridan yemayapsan».

Men shu zahoti e'tiroz bildirdim: «Men itoatkorman, cho'pon nima buyursa, barini bajaraman!»

Rabbiy javob berdi: «Men, agar sen itoatkor bo'lsang – yerning ezguliklaridan yeysizlar, demadim. Men: «Agar xohlasangizlar va itoat qilsangizlar...», – dedim.

U yana dedi: «Itoatkorlik sening harakatlaringga, xohish esa – munosabatingga bog'liq, sening munosabatingdan esa, qo'lansa hid kelyapti!»

Rabbiy men ko'rinishdan itoatli va ko'nuvchan bo'lganim, shu bilan birga munosabatim tanqidiy va hukm qiluvchi bo'lib qolavergani va bu xizmat qilishimga ta'sir qilishini ochishni boshladi.

Men shu zahoti tavba qildim va keyingi xizmatda men uchun samo ochildi, men yana samoning huzurini his eta boshladim. Cho'ponning voizligini tinglab, o'z munosabatim tufayli qancha ko'p narsani o'tkazib yuborganimni o'ylab, ko'z yoshlarim daryo bo'lib oqardi. Shundan so'ng

tez orada Pavlusning Muqaddas Ruh bilan ruhlantirilgan so'zlarini tushunib yetdim: «Men buni sizlarga munosabatingizni sinash va sinovdan o'ta olishingizni, itoatingizni hamda hammangiz (mening yo'l-yo'rig'imga rioya qilib) hamma narsadan mamnun yoki yo'qligingizni ko'rish uchun yozdim» (2-Korinfliklarga 2:9, Kengaytirilgan tarjima).

Xudo biz uchun belgilangan irodasiga bo'ysunishimizdagi munosabatimizni sinab ko'rishini anglab yetdim. Men hozir shayton bizga singdirishga harakat qiladigan chidab yurish haqida aytmayapman. Bunday munosabatdan ozod bo'lishimiz uchun Iso haq to'ladi. Biz ibodat, imon va Xudoning So'zini e'tirof etish orqali shaytonga qat'iylik bilan qarshi turishimiz lozim. Xudo istagan yo'ldan borganimizda namoyon bo'ladigan munosabatimiz haqida gapiryapman. Pavlus shunday deb yozgan: «Chunki Iso Masihda bo'lgan fikr yuritish sizlarda ham bo'lishi kerak» (Filippiliklarga 2:5). Iso Otasi Unga tayyorlab qo'ygan idishdan nafaqat ichdi, shuningdek, U buni sidqidildan bajardi. Binobarin Pavlus bizga deydi: «doimo (ong va ruhning yangilangan munosabatiga ega bo'lib) ongingizning ruhi bilan yangilaninglar» (Efesliklarga 4:23, Kengaytirilgan tarjima).

Nega? Chunki munosabat niyatlarimizga ta'sir ko'rsatadi, sudda esa nafaqat ishlarimiz uchun, qolaversa, ularning ortida turgan niyatlarimiz uchun ham taqdirlanamiz. Keling, Pavlusning so'zlarini yana bir marta o'qiyamiz:

«...Chunki hammamiz tanada yashagan paytimizda qilgan yaxshi yoki yomon ishlarimizga qarab (maqsad, niyat va yutuqlar, shuningdek bu yutuqlarga erishish yo'lidagi ishlar, nimalarga e'tibor berganimiz va o'zimizni nimalarga bag'ishlaganimizni hisobga olib) qarimtamizni olish uchun Masihning hukm kursisi oldida hozir bo'lishimiz kerak» (2-Korinfliklarga 5:10, Kengaytirilgan tarjima).

Xudoga xizmat qila turib, alam bilan to'lgan odamlarni ko'rib, ezilib ketaman. Bundaylar holdan toygan holatda harakatlanishda davom etib, abadiylikdagi kelajakni ko'zdan qochirib qo'yadilar hamda hasad va shaxsiy manfaat yuzasidan xizmat qilib yuradilar. Menimcha, boshida Xudoga samimiy intilishga to'lgan odamlar oxirida yomon holatga tushib qolishining sababi ham aynan shunda deb bilaman. Mana nima uchun

bizga ushbu ogohlantirish berilgan: «Diqqat qilinglar, toki hech kim Xudoning inoyatidan mahrum bo'lib qolmasin, toki biror achchiq ildiz paydo bo'lib, zarar yetkazmasin va u orqali ko'plar harom bo'lmasinlar» (Ibroniylarga 12:15).

«Ko'plar» harom bo'lishi mumkin degan so'zlarga e'tibor bering. Yigirma yil davomidagi xizmatimda qay tarzda achchiq ildiz tarqalishini qayta va qayta guvohi bo'lganman va bu har doim mening yuragimni ezgan. Muqaddas Kitobning Kengaytirilgan tarjimasida quyidagicha ilhomlangan so'zlar bor: «Bashoratingizda mashq qilinglar va (bir-biringizga) e'tiborli bo'linglar». Biz bir-birimizga vaziyatni oldini olish maqsadida ushbu so'zlarni aytishimiz joiz, toki vaqtida olib tashlanmagan achchiq ildiz tufayli sevikli birodarlarimiz yiqilmasin yoki to'liq mukofotini ololmay, mag'lubiyatga uchramasin.

Biz xotinim bilan birinchi navbatda o'z farzandlarimiz va hamkasblarimizga diqqat qilamiz. Biz doimo safarlarda bo'lishga da'vat etilganimiz bois farzandlarimizda buni ko'tara olishiga inoyat bor. Ammo biz ular bu inoyatni yo'qotib qo'yishlarini istamaymiz. Biz ularga dalda so'zlarini aytamiz, ularning munosabatlarini qo'riqlaymiz va kuchli qilib o'stiramiz.

Bir kuni to'rtala o'g'illarimga aytgan gaplarimni eslayman: «Bolalar, men har oy ko'p kunlarga safarga ketishimni va onangiz ham bir necha kun uyda bo'lmasligini yaxshi bilasizlar. Ketishimizning sababi – bu Xudoning biz uchun belgilagan da'vati. Aynan shu tarzda U O'z sharafi va Shohligi qurilishi yo'lida ko'p odamlarning hayotiga biz orqali kirib kelishni istadi».

So'ngra men ularga dedim: «Bu da'vatga turli xil tarzda yondoshish mumkin. Siz bunga o'zlaringizni xuddi ota-onangizni sizlardan olib qo'yan va boshqalarnikidek oilaviy hayotdan mahrumdek sezishlaringiz mumkin. Yoki bunga nafaqat ota-onangizning, shuningdek, sizning ham shaxsiy da'vatingiz deb qarashingiz mumkin. Xudo maqsadlarining ko'payishi uchun ota-onangizni minglab odamlar tomon yuborib, ularni «ekish» xizmati bilan shug'ullanishingiz mumkin. Agar sizning munosabatingiz shunday bo'lsa, biz ta'sir ko'rsatgan har bitta jonlar uchun Hukm kuni siz ham mukofotga ega bo'lasiz. Mabodo bunga xuddi ota-onangizni sizdan olib qo'ygandek qarasangiz, o'sha odamlar uchun beriladigan mukofotdan

ajralasizlar. Xullas, yigitlar, hammasi birgina soʻz: «munosabatga» bogʻliq.

Ular men aytgan soʻzni mahkam ushlab oldilar, natijada boshqa biror marta bizning safarlarimizdan noliganlari yoʻq. Aksincha, Liza bilan navbatdagi kishining taklifini qabul qilish haqida bosh qotirib turganimizda, ular koʻp marta bizni taklifga rozi boʻlishga ruhlantirishgan. Bizning har bir oʻgʻlimiz bilan munosabatlarimiz aʻlo darajada va ular Xudoni sevadi hamda ularning hammasi biz bilan Unga xizmat qiladi. Uning ajoyib inoyati uchun Unga sharaf boʻlsin. Ular kichiklik chogʻidan boshlab, oʻz minalarini koʻpaytirayptilar.

Oʻz ishchilarimga ham xuddi shunday dedim: «Siz bu yerdagi ishga shunchaki oddiy ish deb qarashingiz va oxir oqibat charchab, alamga toʻlib, hukm kuni mukofotingizdan quruq qolishingiz mumkin. Yoki bu yerdagi ishga millionlab kishilarning hayotiga taʼsir qilish imkoniyati deb qarashingiz mumkin. Siz yuborgan har bitta kitob, siz javob yuborgan har bitta xat, ijtimoiy tarmoqlar orqali zabt etgan har bir kishi, siz tashkillashtirgan har bitta yigʻilish, bularning bari sizga Xudo amalga oshirayotgan ishning muhim qismi boʻlish imkonini beradi. Siz Dovudning qarorgohini qoʻriqlaydigan harbiylar kabisizlar». Ishchilarimiz bilan munosabatlarimiz ham aʻlo darajada, chunki ular mening soʻzlarimni qabul qildilar. Mening ruhiy rahbar sifatidagi ishim – toʻgʻri munosabatni saqlashga yordam beradigan soʻzlarni eʼlon qilishdan iborat, buning amalga oshishi uchun javobgarlik esa ularning boʻynida.

Toʻgʻri munosabatga ega boʻlib, biz oʻz minalarimizni koʻpaytiramiz va oʻzgacha yakuniy natijalarga erishamiz. Xudo Oʻz uyini quryapti va bizda Uning hamkasblari boʻlish imtiyozi bor. Shunday qilib, ishdagi vazifangiz qanchalik ahamiyatsiz koʻrinmasin, har bir aʻzo muhimligini unutmang, samarali yoki samarasiz boʻlishni esa – oʻzingiz tanlaysiz. Men sizlar haqdagi umidimni havoriy Yuhanning soʻzlari bilan ifodalayman: «Oʻzlaringizga eʼtibor beringlar, toki bizlar qilgan mehnatimizni yoʻqotmaylik, balki toʻliq mukofotni olaylik» (2-Yuhanno 8).

SHAXSIY TA'SIR KO'RSATISH

Biroq sen mening yurish-turishimni va hayotdagi maqsadimni bilasan. Sen mening imonim va urinishlarimni bilasan. Sevgimni va sabr-toqatimni bilasan.

— 1-Timotiya 3:10, inglizchadan tarjima

Mungulikda, biz odamlarning hayotiga ko'rsatgan ta'sirimizga qarab, taqdirlanamiz yoki zarar ko'ramiz. Bu nafaqat xizmatchilarga, qolaversa, bizning shaxsiy munosabatimiz, hayot tarzimiz va odamlar bilan munosabatimizga ham bog'liq.

Bizning odamlarga nisbatan barpo etadigan yoki buzadigan munosabatimiz, odamlarni qay tarzda qabul qilishimizni ko'rsatadi. Agar ularga past nazarda qarasak, unda shunga mos ravishda munosabat bildiramiz, so'zlarimiz bilan ularni yerga uramiz va ularning muhtojliklariga e'tibor bermaymiz. Agar shaxsni sevsak, chin yurakdan sevgi va rahmdillik bilan inson hayotini qurish va mustahkamlash imkoniyatlarini izlaymiz.

Odamlarga vosita deb qarasak, shaxsiy istaklarimiz va ehtiyojlarimizni odamlarning o'zidan ustun qo'yib, ulardan o'z maqsadlarimiz yo'lida foydalanamiz. Agar odamlarga Xudoning suratida yaratilgan, aql-bovar etmas qadr-qimmatga ega shaxs sifatida qarasak, biz ularni duo qilishga urinamiz, hatto bu narsa ba'zida o'zimizga zarar keltirsa ham. Bu masihiy harakat.

Xudbinlik qotmalari

Isoni qabul qilguncha, men o'ta darajada butun e'tiborim o'zimda bo'lgan odam edim. 1979-yil imonga kelganimdan so'ng, Muqaddas Ruh mening odatiy yurish-turishimdagi xudbinlik qotmalariga hujum qilishiga

to'g'ri keldi. Masihdagi birinchi o'n yillik kuchli qarama-qarshilik davri bo'lganini aytib o'tirishning hojati yo'q.

Hayotimdagi shunday qotmalardan biri shahvoniy hirs edi. Buzuq rasmlarni ko'rishga moyil bo'lib, bu vasvasaga qarshi turish juda qiyin ish deb hisoblardim. Olti yillik kurashdan so'ng 1985-yil, ro'zamning to'rtinchi kuni ozodlik oldim. Xalos bo'lgan soniyadan boshlab, mening ongimda yangilanish jarayoni boshlandi.

Keyingi bir necha yilda hirsning ildizini topdim. Xudoning sevgisi yuragimda o'sishda davom etardi va Xudo yaratgan shaxs qadri men uchun tobora oydinlashib borardi. Men jinsiy hirs bog'liqligining sababi yuz tuban xudbinlik ekanini fahmlab yetdim. Ayolga hirs bilan qarash, uni bir bo'lak go'sht qadar yerga urishni bildiradi, bunday munosabat esa mening yuragimga kun sayin jirkanchli bo'lib borardi.

Ayol kishi Xudoning timsolida yaratilgani, shuhrat va hurmat bilan taqdirlangani haqidagi vahiy menda o'r'nashishni boshladi. Men bu narsani oldindan bilardim, ammo bilimim ong darajasi qadar bo'lib, borlig'imning bir qismi emasdi. Bir qancha vaqt o'tib, Xudoning qayta shakllantiradigan jarayoni haqiqat ekanini boshimdan kechirdim. Qarshimda reklamada, jurnallarning yuzida va oynaijahonda buzuq ayollarning suratlari paydo bo'lganida, o'zimda nafratni sezardim va Iso O'z qonini to'kkan bu shaxsning narxi bir bo'lak go'shtchalik ekani uchun ezilardim. Ayol kishining ahamiyati haqidagi vahiy ko'paygan sari, mening bu narsaga bo'lgan munosabatim o'zgarib borardi.

Men jamoatda ham erkaklarning ayollarga bo'lgan munosabatidan lol qolaman. Bundaylar ayollarga tepadan pastga qarab, ularning fikrini pastroq va hatto manfur deb hisoblaydilar. Bu bema'nilik. Erkaklar va ayollar – Xudo Shohligida teng huquqli merosxo'rlardir. Kuchliroq (qalb va yurak kuchi emas, balki jismoniy kuch nazarda tutilgan) idishlar hisoblangan erkaklar, ayollarni o'zlaridan yuqori darajada hurmat qilishlari lozim. Erkaklar ayollarni hurmat etish, qadrlash, himoya qilish va har doim ularni qurishga imkon topishlari lozim. Erlar – siz ittifoqning boshisizlar, biroq Shohlikdagi boshchilik oila uchun jonini berishni, o'z rafiqasi va farzandlari ustidan hokim bo'lish emas, balki ularga xizmat qilishni

anglatadi. Siz o'z hokimiyatingizni xotiningizdan o'zingizni ustun qo'yishda ko'rsangiz, sizning munosabatingiz uni jarohatlaydi va buzadi. Hukm kuni siz bu uchun javob berasiz.

Odamlarning ko'zida yaxshi bo'lishni izlash

Xudo menga xudbinlikning yana bir aldaydigan qirrasini ko'rsatdi. Saksoninchi yillarning o'rtalarida, taxminan to'rt yuzta ishchilardan iborat jamoatda xizmat qildim. Bizning jamoatimizda esa sakkiz mingdan ziyod odam bo'lib, faoliyatimiz butun davlat bo'ylab, boshqa minglab jamoatlarni o'z ichiga olardi.

O'sha vaqtda kelishmovchiliklarning har qanday turidan nafratlanar va bor kuchim bilan ulardan uzoqroqda yurardim. Men odamlar bilan haddan ziyod xushmuomala va iltifotli edim. Imkon tug'ildi deguncha, odamlarga yoqimli so'zlar aytardim, hatto ular haqiqat bo'lmasa ham. Men ofisimizda ishlaydigan eng yoqimli insonlardan biri bo'lish sharafiga erishdim. O'zim haqimda menga huzur bag'ishlaydigan yoqimli so'zlarni eshitib turardim.

Bir kuni ibodatda Xudo mendan so'radi: «1-Korinfliklarga 13-bobning qayerida, Men «sevgi yoqimli» deb aytganman?»

Men tutilib qoldim, so'ng javob berdim: «Hech qayerida».

So'ngra U dedi: «O'g'lim, sen odamlarga yolg'ondan bo'lsa ham, faqat yoqimli so'zlar aytib yurishingning asl sababini bilasanmi?»

Men javob berdim: «Bilmayman. Men bu haqda hech qachon o'ylab ko'rmaganman».

U shu zahoti javob berdi: «Odamlar seni qabul qilmay qo'yishidan qo'rqasan. Sen kimni ko'proq o'ylaysan – o'zingnimi yoki odamlarnimi? Sen ularni chindan ham sevganingda, ularga yoqadimi, yo'qmi, haqiqatni aytarding. Odamlar sendan yuz o'girishi xavfidan ko'ra ularning baxt-saodati uchun ko'proq qayg'urgan bo'larding».

Men xushmuomala niqobim ostidagi badbashara xudbinligimni ko'rdim va bu achchiq haqiqatdan o'zimni yo'qotib qo'ydim. Men odamlar ko'zida yaxshi ko'rinish istagini qondirish yo'lida ulardan foydalandim. Men uchun muhimi odamlarga yordam berish emasdi, lekin o'z ishonchsizligimni

yopish uchun boshqalardan maqto'v olishni ko'zladim. Men shunchaki, odamlarga yaxshi ko'rinishni istardim.

Aynan shu sababga ko'ra son-sanoqsiz voizlar nasihat, tuzatish yoki tanbehdan chetlashib, Xudo So'zining faqat «ijobiy» tomonlari haqida gapiradilar. Ular odamlarni haqiqatdan ham sevrishning o'rniga, jamoat a'zolarini xafa qilishdan va ularning sonini yo'qotishdan xavotirlanadilar.

Sevgining markazi kim: senmi yoki odamlarmi? Mulohazasizlarcha jarga qarab ketayotgan odamni ko'rib, nahotki u o'z yo'lidan to'xtashi uchun qichqirmaysiz? Men bir nechta shunga o'xshash «sevu'chi xizmatkorlarni» odamlar ko'rmagan paytlarda o'zini qanday tutishining guvohi bo'lganman. Ularning odamlarga bo'lgan munosabati qo'rqinchli. Chunki ular ofisiant, mehmonxona ishchilari va boshqa xizmat ko'rsatuvchilarga past nazar bilan qaraydilar. Bunday imonlilar shaxsiy hayotida boshqa odamlarga qanday o'rnak bo'lyaptilar? Ertaga ular yo'lidan chiqqan har bitta kishiga qanday namuna bo'lgani uchun bittama-bitta hisob berishiga to'g'ri keladi.

Muloyimdan qattiqqo'lga aylanish

Bu vahiyini olgach, mash'al boshqa tomonga qarab silkinishni boshladi. Men qattiqqo'l voizga aylandim. O'sha paytlarda yuragimda odamlarga nisbatan Xudoning sevgisi hali yonmagandi. Men odamlarning abadiy baxt-saodatiga emas, balki mumkin qadar to'g'ri bo'lishga e'tibor qaratardim. Ba'zida voizliklarimda baqirib, odamlarni bezor qilib yuborardim. Chunki hali-hanuz o'zimni o'ylardim, xudbinligim faqat endi boshqacha tusda namoyon bo'lardi. Mening xatti-harakatlarim Kalomdagi ushbu misolning an'anaviy misoli edi: «Siz barcha sizning komil bilimingizni ma'qullashi shart deb o'ylaysizmi. Bilim mag'rurlantiradi, haqiqiy sevgi esa jamoatni barpo etadi» (1-Korinfliklarga 8:1, 2, inglizchadan tarjima).

Xizmatimizning ilk yillariga qayrilib qarab, ko'p cho'ponlar men kelib ketgach, orqamdan jamoatini «tartibga keltirganini» o'ylab, uyali ketaman. Agar o'sha vaqtlarda o'zim cho'pon bo'lganimda, Jon Biverni jamoatimga voizlik qilgani aniq taklif qilmasdim. Hali ko'p narsalarda o'sishim kerakligiga qaramay, mendagi Xudoga va Uning xalqiga chin

ko'ngildan xizmat qilish istagini ko'rgan cho'ponlardan mingdan-ming minnatdorman.

Odamlarning ma'qullashiga erishish yoki rad etilishdan qochishga urinib, oldin odamlarga tilyog'lamalilik qilgan bo'lsam, hali ham yashirin xudbin istaklar bilan boshqarilib, endi haqiqatni keskin tarzda aytardim, Xudo meni bu narsadan ham pokladi.

Bir necha yildan so'ng, mashhur xizmatkor o'ta nufuzli cho'ponlar oldida meni tanqid qildi, u men haqimda aytgan gaplarni uchta har xil qit'a vakillaridan eshitdim. Boshida men juda achchiqlandim va tushkunlikka tushdim, biroq xafagarchilik meni Xudodan yanada uzoqlashtirishini bilardim. Nihoyat bu odamning men tomonga aytgan malomatlari Xudoga Uning sevgisini so'rab, har qachongidan ham kuchliroq faryod qilishimga majbur etdi. Xudodan birinchi navbatda, jon-jahdim bilan o'z hayotim uchun rahm-shafqat so'rab, vaqt o'tgan sari Xudo yuragimda Uning qimmatli odamlariga nisbatan sevgini o'stirganini payqamay qolibman.

Bu jarayon vaqtida Rabbii menga butun xizmatimni o'zgartirib yuborgan vahiy berdi. Hozir qandaydir teran va yashirin bo'lgan narsani eshitaman, deb o'ylaysizmi? Aslida hammasi juda oddiy. Agar so'zlarimni chuqur o'ylab qaramaguningizgacha, ular hatto ahmoqona bo'lib tuyulishi ham mumkin. Vahiy shundan iborat edi: «Bir qoshiq shakar dorining tarkibini buzib yubormaydi». Dorini shirinroq narsa bilan aralashtirib bersa, uning samaradorligi kamayib qolmaydi. Shunday qilinsa, uni yutish shunchaki osonroq bo'ladi, aksariyat hollarda esa, uni qo'shish yoqimli ta'm beradi.

Hozir ko'p xizmatchilar menga shunday deydilar: «Jon, sen qanday qilib, Xudoning So'zidan poklaydigan so'zlarni ayta turib, bizni kuldirishni uddalaganingdan hayratdaman. Sen jiddiy mavzuni hayot bilan to'ldirding». Men Xudoning inoyati bilan ulg'ayganimni tushunib yetdim. Buning uchun Undan minnatdorman!

O'sha cho'pon o'z tanqidlari bilan meni umuman duo qilishni istamagan bo'lsa-da, aslida bu narsa mening hayotimda buyuk barakaga aylandi. Yodingizda bo'lsin, Xudo ba'zida hayotingizda Uning irodasi amalga oshishi uchun odamlarning sizga nisbatan qilgan yomonliklaridan foydalanadi. U Yahudoning sotqinligidan Isoning Unga belgilangan

– xochga borishi uchun foydalandi. U Yusuf aka-ukalarining yovuz niyatlaridan uning Xudodan berilgan tushi amalga oshishi uchun foydalandi. Yana koʻplab boshqa misollar keltirish mumkin.

Maqsad – Xudoning sevgisi

Hamma narsa bizning odamlarga boʻlgan munosabatimizdan boshlanadi. Agar bizda Xudoning sevgisi va rahmdilligi oʻsishiga imkon bersak, biz odamlarga yuqoridan qaramaymiz. Odamlarga bunday nazar bilan qarash, bizda manmanlik, hukm qiladigan munosabat, harakatlarimizda qoʻpollik va boshqalarni keltirib chiqaradi. Pavlusning Rimdagi imonlilarga yozgan soʻzlariga eʼtibor bering:

«Ammo sen nima uchun birodaringni hukm qilyapsan? Yoki sen nima uchun birodaringni kamsityapsan? Zero hammamiz ham Xudoning hukm kursisi oldida hozir boʻlamiz-ku. Shunday qilib, bizning har birimiz Xudoga oʻzi uchun hisobot beradi» (Rimliklarga 14:10, 12).

Biz imonli boʻlib turib, ikkinchi muhim boʻlgan – yaqiningni sev amrini unutib qoʻysak, unda Pavlus aytgan qopqonga tushib qolishimiz turgan gap. Biz atrofdagilarga dimogʻdorlik bilan munosabatda boʻlishni boshlaymiz. Bunday munosabatlar Kalomdan bilimga ega-yu, ruhiy hosillar yoʻq joyda yanada gullab-yashnaydi.

Muqaddas Kalom Xudo sevgidir deydi. Sevgi esa Xudo emasligini bilish muhim. Bu yerda katta farq bor. Xudoning tabiati, Uning yoʻllari va maqsadlari bizning sevgiga bergan taʼrifimizga teng emas, chunki Isoni tanib-bilmaguncha, hech kim sevgi nimaligini bilmaydi. Faqat Iso sevgining haqqoniy mohiyatidir.

Muqaddas Kalomda biror marta Xudoda sevgi bor deyilmagan. Unda kuch bor, Unda inʼomlar bor, Unda hokimiyat va boshqalar bor. Biroq Isoning Oʻzi sevgidir. Shunday ekan, biz Unga oʻxshash boʻlishimiz lozim, negaki biz Uning tabiatidan qayta tugʻildik. Mana nima uchun Pavlus yozgan:

«Men insonlarning va farishtalarning tillarida gapirsam-u, lekin sevgiga ega boʻlmasam, jaranglaydigan mis yoki yangraydigan kimvaldirman.

Agar payg'ambarchilik in'omiga ega bo'lsam-u, bor bilimlarni va bor sirlarni tushunsam, agar tog'larni ko'chiradigan bor imonga ega bo'lsam-u, lekin sevgiga ega bo'lmasam, men hech narsa emasdirman. Agar bor mol-mulkimni tarqatib yuborsam, hatto tanamni yondirishga topshirsam-u, lekin sevgiga ega bo'lmasam, bundan menga hech qanday foyda yo'qdir» (1-Korinfliklarga 13:1-3).

Sevgi so'zlar bilan o'lchanmaydi, chunki sevaman deyishimiz, biroq ishlarimiz bilan esa buning aksini ko'rsatishimiz mumkin. Sevgi harakatlarimizdan ham boshlanmaydi. Pavlus yuqorida keltirilgan oyatda buyuk sevgi ko'rinishiga ega bo'lgan ishlarni amalga oshirish – odam bor mol-mulkini kambag'allarga bo'lib berishi yoki o'z hayotini qurbonlikka topshirishi, biroq ularni sevgisiz qilishi mumkin deydi. Chinakam sevgi yurakdan boshlanadi.

Biz sevsak, odamlarga sabr-toqatli va ezgu bo'lamiz. Begonaning muvaffaqiyatiga hasad qilmaymiz, binobarin bor yuragimiz bilan boshqalarning g'alabasini ko'rishni istaymiz. O'zimizni maqtamaymiz hamda takabburlik va mag'rurlikning har qanday ko'rinishidan qochamiz. O'z fikrimizni o'tkazish uchun oyoq tirab olmaymiz, jahllanmaymiz, betoqatlik qilmaymiz. Bizni xafa qilganlarning sonini sanab yurmaymiz, balki kechirimli bo'lishni tanlaymiz, adolatsizlikka quvonmaymiz, shafqat va haqiqatga intilamiz. Odamlar bizni hafsalamizni pir qila olmaydilar va bizlar ham ularga nisbatan ishonchimizni yo'qotmaymiz, chunki doim faqat yaxshi narsaga umid qilamiz. Odamning aybi isbotlanmaguncha, uni aybsiz deb hisoblaymiz, aybi isbotlangan taqdirda ham, uning tavba qilishiga va tiklanishiga ishonamiz. Biz umidga to'lganmiz va Shohlikning yoki yaqinimizning foydasi yo'lida qiyinchiliklarga chiday olamiz. Yakun yasaymiz: biz odamlarning diyonatli hayotini barpo qilish payida yashaymiz, bu esa Masihning irodasini bajarish orqali Unda imkonlidir xolos.

Ko'plarning hayotiga shaxsan ta'sir qilgan boshqaruvchi

Bir necha yil ilgari yaqin do'stim Michigan shtati, Detroyt shahrida Xalqaro Detroyt missiyasining asoschisi Jek Uollesning dafn marosimida

qatnashdim. Uning ko'p millatli jamoati o'n yilning ichida to'rt ming kishigacha o'sib ketdi. Do'stim Zimbabvedagi anjumanda voizlik qilishga borgan, biroq tayyoradan chiqqan zahoti unda infarkt sodir bo'lgan.

Dafn marosimida minglab odamlar yig'ildilar – butun Qo'shma shtatdagi turli xizmatlar rahbarlari, jamoatlar boshqaruvchilari, yirik uyushma prezident o'rinbosarlari, oddiy ishchilar, ko'cha daydilari va uybekalari. Uning jamoati mana shu odamlardan tashkil topgan edi. Marosimga Iso bilan shaxsan tanish bo'lmagan kishilar ham kelishdi, jumladan mehmonxona va restoranlardagi xizmat ko'rsatuvchilar – do'stim ularga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Marosimdagi jamoatga mansub bo'lmagan odamlarni ko'rib, hech hayron qolmadim, negaki biz Jek bilan jamoatdan tashqarida juda ko'p vaqt o'tkazganmiz va uning yo'lida uchragan odamlarga bo'lgan munosabatini ko'rib, ko'p o'rnak olganman. U har bir kishiga qimmatli shaxs sifatida yondoshardi. Ofisiant va mehmonxona xizmatchilariga Jek doimo saxiylik bilan choy-chaqa berardi. Men ba'zida bunday bachkanalikning hojati yo'q deb, o'zimni tortib turardim, biroq u bir kuni bu odamlar Xudoning qarshisida qanchalik qimmatli ekani haqida so'zlab, mening bunday ahmoqona tafakkurimni tuzatdi. Jek yonidagilarni nafaqat dunyodagi eng muhim odamdek his etishga majbur etar, balki siz haqiqatdan ham u uchun eng muhim odamga aylanardingiz.

Marosim to'rt yarim soat davom etdi. U bilan shaxsan tanish bo'lgan rahbarlardan minbarga chiqib, bir og'iz so'z aytishini so'radilar. To'rtta yoki beshta so'zga chiqqanlarning Jek bilan qanchalik yaqin bo'lganlari va u ular uchun naqadar ahamiyatga ega ekanini tinglab, bir juda taniqli xizmatchi chiqib dedi: «Men esa, o'zimni uning eng yaqin do'stiman deb hisoblab yurgan edim!» dedi. Hamma kulib yubordi.

Jek har birimiz bilan eng yaqin do'stdek munosabatda bo'lishini bilardik. Bu buyuk boshqaruvchi nafaqat xushxabar yig'inlari va oynaijahondan uzatilgan dasturlar orqali butun xalqlarga xizmat qildi, shuningdek, yo'lida uchragan har bir kishiga ta'sir ko'rsata oldi. Jek uchun inson, u ulkan uyushmaning rahbarimi yoki davlat nafaqasiga yashayotgan kishimi, hech qanday ahamiyati yo'q edi, u har bir kishining yuragiga

yo'l topishni, sevishni va shaxs sifatida qadrlashni bilar edi. Jek nafaqat o'z da'vatiga sodiq kishi edi, qolaversa, u minalarini barcha sohalarida ko'paytirishga erisha oldi.

Minglab insonlarning hayotiga ta'sir ko'rsatgan qorovul

Mening hayotimga katta ta'sir ko'rsatgan kishilarning ayrimlari hech qachon sahnada turmagan odamlardir. Ulardan biri «Rokvell Interneshnl» shirkatining moliyaviy sohasida ishlar edi. Uning ismi Mayk. Men masihiy bo'lganimdan atigi ikki yildan so'ng, u bilan tanishdim. Bizning ishchi joylarimiz yonma-yon edi va odatda dam olish daqiqalarida u bilan Xudo haqida gaplashardik. Keyinchalik shu qadar do'stlashib ketdikki, bir-birimiznikiga mehmonga borib va jamoatda soatlab birga vaqt o'tkazadigan bo'ldik. Menga ko'proq Maykning yaxlitligi va Kalomdan amaliy olgan donoligi ta'sir qildi. U rafiqasini, farzandlarini va hayot yo'lida uchragan har bir kishini qanchalik e'zozlashi, sevisi va hurmat qilishi meni lol qoldirardi.

Bir qancha vaqt o'tib, men «Rokvell» ketdim va xizmatkor bo'ldim. Tez orada u ham shirkatdan ketib, hozirgacha ishlayotgan shaxsiy moliyaviy tashkilotini ochdi. Mayk soliq masalalarida o'n ikki mingdan ziyod kishiga yordam ko'rsatdi, ulardan besh mingtasi esa uning tashkilotidagi doimiy mijozlarga aylandi. Ular Maykning halolligi va obro'si tufayli ko'p yillar birga hamkorlik qilar edilar.

Yaqinda men undan, qancha mijozlariga Xudoning So'zini aytganini so'radim. Mayk dedi: «Jon, taxminan hisoblaganda, to'qson foiz mijozlarga». Bu o'n mingdan ziyodroq odamni bildiradi.

Men qotib qoldim. So'ng qancha odamni imonga keltirganini so'radim. U javob berdi: «Yuzlab kishilarni. O'tgan hafta bir kubalik kishini najotga olib keldim va u rakdan shifo topishi uchun ibodat qildim».

Bundan tashqari u ko'pchilik xizmatkorlarga hisob-kitob bo'limini tartibga keltirishga ko'maklashdi. Bizning hisob-kitob bo'limimiz ham boshida shundaylar safida edi. Mayk mening da'vatim nima ekanini bilardi va bir necha yillar davomida soliq hisobotlari bilan bog'liq hamma narsada bepul yordam ko'rsatdi. Uning hayoti ko'plarning hayotiga turli xil yo'llar bilan ta'sir ko'rsatdi.

Mayk bilan uzoq vaqt uning hayotiga kuchli ta'sir qilgan bir qorovul haqidagi suhbatimizni eslab, yaqinda ham men unga qo'ng'iroq qildim va o'sha odam haqida qayta so'radim. U go'shakni ushlab yig'lashni boshladi.

U dedi: «Jon, to'qqizta xola va tog'alarimdan oltitasi ruhiy kasallar uyida olamdan o'tdilar. Mening onam ham o'sha yerda vafot etdi. Ikkala buvalarim ham qamaldilar. Oilamiz butunlay alg'ov-dalg'ov bo'lib ketgan va meni ham shunday taqdir kutib turgandi. Moddiy yetishmovchilik tufayli onam menga g'amxo'rlik qilishlari uchun boshqa oilaga berdilar. Men ular bilan yetti yil yashadim. Oila boshlig'i kichik qog'oz fabrikasida qorovul bo'lib ishlar edi. Uning ismi Charli edi. Uning pokdilligi, Isoga bag'ishlanganligi va odamlarga bo'lgan sevgisi hayotimdagi la'natni barbod qildi. Har hafta u meni jamoatga olib borar va Xudoning yo'llarini o'rgatardi. Men hozir kim bo'lsam, shunday bo'lishimga Charlining ta'siri sabab bo'ldi. Bir kuni qizim rasm chizdi va suratning tagiga «Men hech qachon ko'rmagan Buyuk Kishiga ataladi» deb yozib qo'ydi, bu so'zlar Charliga bag'ishlangan edi».

Bu dunyoda Charli haqida hoynahoy hech narsa eshitmaysiz. Lekin uning ta'siri Mayk xizmat qilgan o'sha minglab odamlargacha yetib bordi. Bu ta'sir menga ham tegdi. Shuningdek, men xizmat qiladigan minglab odamlar ham bilvosita Charlining ta'sirini his etishdi. Bir qorovul o'z minalarini qanchalik ko'paytira olgani va bir kuni o'z mukofotini olishini ko'ryapsizmi?

Merosga ta'sir ko'rsatish

Hamkasblarimdan biri yaqinda o'qib chiqqan Maks Juks ismli Xudoni rad etadigan kishi va diyonatli Jonatan Edvardslar haqida bo'lgan voqeani eslayman. Voqea shunday bo'lgan:

Maks Juks, Xudoga ishonmaydigan odam, betavfiq hayotda yashagan. U imonsiz qizga uylangan. Ularning juftligidan tug'ilgan 310 ta avlodi jamoatga kirmay o'lib ketdilar, ulardan 150 tasi jinoyatchi, 7 tasi qotil, 100 tasi aroqxo'r, ayollarning yarmidan ko'pi fohisha edilar. Uning 540 ta avlodi uchun davlat bir yuz yigirma besh million dollar sarfladi.

Biroq, Xudoga shukrki, Jonatan Edvardsdek ajoyib amerikalik haqida ham guvohlik bor. U Maks Juks bilan zamondosh bo'lib, imonli qizga uylandi. Tadqiqodlar shuni ko'rsatdiki, Jonatan Edvardsning bizgacha ma'lum 1394 ta avlodidan 13 tasi oliygohlar prezidenti, 65 tasi oliygoh professorlari, 3 tasi AQSh senatorlari, 30 tasi hakamlar, 100 tasi himoyachilar, 60 tasi shifokorlar, 75 tasi zobitlar, 100 tasi voizxonlar va 60 tasi taniqli yozuvchilar, bittasi AQSh prezidenti-o'rinbosari, 80 tasi jamiyat arboblari, 295 tasi turli oliygohlar bitiruvchilari bo'lishgan, ularning orasida shtatlar hokimlari va xorij elchilari ham bo'lgan. Uning avlodlari uchun Shtatlar bir sent ham sarflamagan.

Bu o'z minangizni ko'paytirishning yana bir yo'li. Charli, Mayk va Jonatan Edvardslar ko'p sonli kishilarga ta'sir ko'rsatdilar. Ularning buyuk merosga sabab bo'lgan ta'siri ommaviy xizmat orqali emas, balki shaxsiy namunali hayoti orqali keldi.

Bunday imtiyozni Xudo har birimizga beryapti. Polisiya xodimiga qay tarzda javob qaytarishingiz, cho'poningiz haqida aytgan so'zlaringiz, moliyaviy ishlaringizni qanday yuritishingiz, odamlarga aytadigan gaplaringiz va boshqa ko'p narsalar atrofingizdagi odamlarga ta'sir ko'rsatadi. Siz quruvchilikni tanlaysizmi yoki to'siq tosh bo'lishnimi?

Shunday qilib, bizning har birimiz Xudoga o'zimiz uchun hisobot beramiz. «Endi bir-birimizni boshqa hukm qilmaylik, yaxshisi, birodaringizga vasvasa yoki to'siq qo'ymaslik haqida mulohaza qilinglar. Tinchlikka va bir-birini barpo qilishga xizmat qiladigan narsalarga intilaylik» (Rimliklarga 14:12, 13, 19).

Pavlus to'g'ridan-to'g'ri, bizni o'rab turgan odamlarga ko'rsatgan ta'sirimizning har bir lahzasi diqqat bilan tekshiriladigan Sud haqida gapiryapti. Mana nima uchun doimo bu haqda o'ylab yurish lozim. Shunda biz faqat o'zimiz bilan mashg'ul bo'lmasdan, odamlarni Xudoga olib kelishga intilamiz.

Yigirmanchi asrda yashab o'tgan, Rebekka Rater Sprinjer samoga batamom o'z mukofoti sari ketishidan avval, ko'p marotaba u yerda bo'lib qaytdi. U samoga tashriflaridan so'ng, «Samo darvozalari ortida» nomli

klassik kichik hikoyalar to'plamini yozdi. Unda uzoq vaqt samoda umr kechirgan qarindoshining so'zlarini yozib qoldirdi. Uning aytishicha, o'sha qarindoshi erining akasi bo'lib, Rabbiyga yaqin odam bo'lgan ekan. Mana uning Rebekkaga aytgan so'zlari:

«Biz yerda bo'lganimizda, kundan-kunga abadiyatimizni qurayotganimizni anglaganimizda edi, hayotimiz ko'p sohalarda umuman boshqacha tus olardi! Har bitta ezgu so'z, har bitta saxiy fikr, har bitta beg'araz ishimiz kelgusidagi hayotda abadiy go'zallik ustunlariga aylanardi».

Odamlarni Isoga olib kelish

Insonga eng katta ko'rsata oladigan ta'sirimiz, bu uni Masihga olib kelishdir. Siz abadiy hukmlar haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lsangiz, tanishlaringizga najot rejasi to'g'risida so'zlab berishni istaysiz. Biz shunday deb o'qiymiz: «Dono odam jonlarni (baliqchi kabi, ularni Xudoga abadiylik uchun yig'adi) qo'lga kiritadi (ovlaydi)» (Hikmatlar 11:30, Kengaytirilgan tarjima).

Yosh masihiy bo'lganimda, yo'limdan chiqqan har bir kishiga Xushxabarni voizlik qilishga majburman deb bilardim. Lekin keyinroq Muqaddas Ruhdan qachon va nima gapirish kerakligini o'rgandim. Men Iso ham faqat Otasida ko'rgan narsanigina qilganini angladim. Xudo bilan yashaganimizda, xizmatimizda odamlarni bizdan itaradigan zo'rlash emas, balki oqim bo'ladi.

Ammo uyga olib ketilmagunimizcha, bizda odamlarni abadiy hayotga olib kelish xohishi doimo saqlanib qoladi. Xudoning sevgisi to'xtovsiz bu istakni tug'dirib turadi. Insonning Masihni qabul qilishi Xudo va barcha farishtalarda aql-bovar qilmas quvonch uyg'otadi. Bu xizmat maxsus mukofot olib keladi. Iso deydi: «O'ruvchi mukofot oladi va abadiy hayotga hosil to'playdi. Shunday ekan, ekuvchi ham, o'ruvchi ham birgalikda quvonadilar» (Yuhanno 4:36).

Men xotinimni, bizning birinchi uchrashuvimizda Rabbiyga olib kelishga muyassar bo'lganman. Najot topganimdan so'ng, Xudo menga o'zimning

xotinimni uchratmaguncha, qizlar bilan uchrashmayman deb va'da berganman. Agar Xudo Odamga Havvani bergan bo'lsa, men uchun ham xuddi shunday qila olishga qodir deb o'ylaganman.

Masihiy bo'lgunimga qadar, bir nechta qizlar bilan, keyinchalik bir nechta masihiy qizlar bilan tanishganman, biroq bu munosabatlar Xudo bilan munosabatlarimga xalaqit berayotganini sezib qoldim. Har safar navbatdagi uzilishdan so'ng, qalblarimizda chandiq va ko'z yoshlar qolib ketardi. Bu befoyda narsa ekanini fahmlab yetgunimcha, ko'p vaqt kerak bo'ldi. Xullas, kim bilandir uchrashishdan avval ibodat qilishga va'da berdim.

O'sha vaqtlarda xotinim sho'x qiz edi. Bir yigit Liza oliygohdagi eng tantiq qiz bo'lganini aytdi. Uning so'zlari qanchalik to'g'ri ekanini bilmasdim, ammo uni o'zim ham shunaqa qiz deb taxmin qilardim. O'sha vaqtgacha, bir yarim yildan beri qizlar bilan uchrashmagan edim, negaki har safar biror qizni uchrashuvga taklif etmoqchi bo'lganimda, Xudo ibodatda bunday qilma derdi. Bu safar esa Muqaddas Ruh uni ochiq havoda Muqaddas Kitob o'qish to'garagiga taklif etishga undadi. U taklifimni qabul qildi.

To'garakdan so'ng suhbatimizni u bilan oliygoh hovlisida davom ettirdik va soat 1.30 da unga Xushxabar aytdim. U gapimni bo'lib, shu zahoti najotni qabul qilishni istadi. Tez orada ikkimiz ham bizning oila qurishimiz Xudoning irodasi ekanini tushundik. Rostini aytganda, men katta yutuqni qo'lga kiritdim. Agar u hayotimda bo'lmaganda, men bugun bu narsalarga erishmasdim.

Liza millionlab odamlarning hayotiga ta'sir ko'rsatdi. U ajoyib yozuvchi, kitoblar muallifi va adolatsizlik qurbonlarining himoyachisi, u butun dunyo bo'ylab anjumanlarda voizlik qiladi. Unga Xudo haqida aytish imkoniyatidan foydalanmaganimda, nima bo'lardi? Ustimdan kulishlaridan qo'rqib, unga Iso haqida aytmaganimdachi? Men ishonaman, Xudo unga boshqa kishini yuborardi, men esa Xudoning men uchun tayinlagan eng yaxshi yarimtadan quruq qolardim va xotinim abadiyat uchun xizmat qilgan barcha odamlarning najotiga daxldor bo'lmasdim. Xudoning in'omi uchun Unga sharaf!

Yodingizdami, urug' ko'payadi, biroq uning o'zi arziyas bo'lib ko'rinadi. Hech qachon Muqaddas Ruhning boshqaruvini asossiz deb o'ylamang,

boz ustiga unga e'tiborsizlik qilmang. U meni undagan eng kichik narsalar hayotimdagi eng ulkan ko'payish omillariga aylangan. Xudovand sizning ko'payishingizni istaydi. Xudovand ko'payishingizni taqdirlashni istaydi.

Yakuniy nasihatlar

Xaritaga naqadar ko'p narsa qo'yilgan. Bizga yerda ishonib topshirilgan vaqtga yengiltaklik bilan qaray olmaymiz. Odamlarning abadiylikdagi taqdiri biz Xudoning rejasiga bo'ysunishimizga bog'liq. Uning irodasi hamma najot topishi va Isoning timsoliga o'xshash bo'lishidir. U kimdir qolib ketishini istamaydi.

Misrdan chiqqan butun boshli avlod cho'lda halok bo'ldi. Ular barcha zamonlarning eng buyuk rahnasiga ega edilar, biroq baribir mag'lubiyatga yuz tutdilar. Biz mashhur rahbarlarga ega bo'lishimiz mumkin, lekin Bosh Quruvchining reja va oldindan o'ylab qo'yilgan maqsadlarini amalga oshirishga faqat biz mas'ulmiz. U shunday degan: «Shohlik Xushxabari barcha xalqlarga guvohlik uchun butun yer yuzida voizlik qilinadi, shunda oxiri keladi» (Matto 24:14). Keling, o'z vazifamizni qo'ldan boy bermaylik! Ayni fursat va U eshik oldida turibdi! Mabodo o'z taqdirimizni bajarmasak, Yeshuaning avlodi bilan qilganidek, Xudo boshqa avlodni ko'taradi, negaki U allaqachon Uning uyi to'lishini e'lon qildi.

Bizga topshirilgan narsani ko'paytirib, Xudo rejasidagi o'z qismimizni bajaramiz. Hafsalangiz pir bo'lmasin. Sizga berilgan vazifani ahamiyatsiz deb hisoblamang. Itilishni yo'qotmang. Yangi Ahdda ravshan ta'riflangan samoviy ochiqlikni ko'zdan qochirmang, aslida ushbu kitobda aynan shu narsalar haqida gapirdik. Sizga o'z zamondoshlaringiz orasidagi, nafaqat Iso haqida aytishingizga mushtoklik bilan kutib turganlar, qolaversa, siz orqali Uning dalda va kuchini olishga muhtojlar ham umid qilmoqdalar. Sizni mangu taqdir kutmoqda! Siz Uning inoyatiga butunlay tayanib, muvaffaqiyatga ega bo'lishingiz mumkin. U sodiq Xudo!

Men sizga Shohlik hamyurtlari sifatida murojaat etyapman. O'z da'vatingizni amalga oshiring, tanlovingizni mustahkam qiling va o'z masofangizni oxiriga yetkazing. O'n million yildan so'ng mana shu vaqtga qarab, siz shunday yo'l tutganingizdan baxtiyor bo'lasiz. Xudoning irodasiga

bag'ishlanishda mukkasidan ketgan bo'lishning imkoni yo'q. Shunday ekan, g'alaba qozonay deb, yuguring!

Yakuniy nasihat sifatida sizga Pavlusning barcha muqaddaslarga bag'ishlagan ibodatini qoldiraman:

«Biz sizlarga nisbatan sevgi bilan to'lganimizday, Rabbiiy sizlarni ham bir-biringizga va hamma odamlarga nisbatan sevgi bilan to'ldirsin, to'ldirib toshirsin va Rabbimiz Iso Masih O'zining barcha muqaddaslari bilan kelishiga sizlarning yuraklaringizni Otamiz Xudo huzurida muqaddaslikda benuqson qilib mustahkamlasin» (1-Fessalonikaliklarga 3:12, 13).

*Kalomda abadiylikda beriladigan mukofotlar haqida yozilgan
oyatlar ko'p, ushbu kitob o'ziga
sig'dira olishidan ancha ko'proq.
DrivenByEternity/EternalRewards saytida
Kalomdan abadiy hukm va mukofotlar mavzusini yoritadigan
oyatlar ro'yxatini topasiz.*

❧ MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR ❧

6-BO‘LIM: 13, 14-BOBLAR

1. Sizda arzimas va unchalik ahamiyatga ega emasdek tuyuladigan savollar bormi? Ular haqda samo nuqtai nazaridan mulohaza yuritib ko‘ring. Nega ushbu ahamiyatsiz tuyulgan masalalar Xudo uchun katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin?
2. Ko‘pchiligimiz raqobat va o‘zimizni boshqalar bilan taqqoslash hissiga egamiz. O‘zimizni boshqa odamlar zamirida o‘lchashni to‘xtatganimizda, Xudoning Shohligiga bo‘lgan nigohimizda nimalar o‘zgaradi?
3. Hayotingiz ko‘payishlar bilan boymi? Siz o‘z vaqt, ibodat, qobiliyatlar va manbalingizni qay tarzda yaxshiroq idora eta olishingiz mumkin?
4. Kitobning boshida Yuhanning birinchi maktubi 4:7-oyatidan, biz Masih Hukmi qarshisida dadillikka ega bo‘la olishimiz haqida muhokama yuritdik. Endi yangi bilimlarga ega bo‘lgach, buning sababini tushuntiring.
5. Abadiylikda iz qoldiradigan hayot qurishni qanday boshlashingiz mumkin?

ILOVA

NAJOTGA QANDAY ERISHISH MUMKIN

XShunday qilib, agar sen Isoni Rabbim deb, o'z og'zing bilan e'tirof etsang va Xudo Uni o'liklardan tiriltirganiga o'z yuraging bilan ishonsang, najot topasan. Chunki inson haqlikka erishish uchun yuragi bilan ishonadi va najot topish uchun og'zi bilan e'tirof etadi.

— Rimliklarga 10:9, 10

Xudo hayotingizda abadiy turadigan muvaffaqiyatlarni ko'rishni istaydi. U sizga ishtiyoqmand va hayotingiz uchun rejaga ega. O'z taqdiringizga olib boruvchi yo'lni faqat – Xudoning O'g'li, Iso Masih orqali najot qabul qilish tariqasida tanlashingiz mumkin.

Isoning o'limi va tirilishi orqali Xudo sizdek O'z sevikli o'g'li va sevikli qizi uchun O'z shohligi tomon yo'l ochdi. Masihning xochdagi qurbonligi tufayli sizga abadiy farovon hayot berildi. Najot – bu siz uchun Xudoning in'omi, uni sotib olish yoki unga sazovor bo'lishning imkoni yo'q.

Bu qimmatbaho in'omga erishish uchun Yaratuvchidan mustaqil ravishda hayot kechirganingiz uchun (negaki bu siz sodir qilgan barcha gunohlarning ildizi hisoblanadi) gunohingizni tan olishingiz zarur. Tavba qilish – najotni qabul qilishdagi eng muhim qism. Petrus bu haqda Havoriylar kitobida besh ming kishi najotga kelgan kun aniq aytgan: «Shuning uchun, gunohlaringiz o'chirib tashlanishi uchun tavba qilinglar va Xudoga o'girilinglar» (Havoriylar 3:19). Kalom har birimiz gunohning quli bo'lib tug'ilganimizni ma'lum qiladi. Bu qullikning o'zagi o'zboshimchalik va

itoatsizlikka asos solgan Odamning gunohiga borib taqaladi. Tavba qilish – bu o'zingizga va yolg'onning otasi shaytonga bo'ysunishni bas qilish va siz uchun O'z hayotini bergan – yangi Xo'jayin, Iso Masihga itoat etishni qaror qilishni anglatadi.

Siz o'zingizni Masihga bo'ysundirishingiz, Uni Xo'jaynim deb qabul qilishingiz, hayotingiz ustidan hokimiyatni, o'zingizni (ruhingizni, joningizni va tanangizni) va boringizni Unga topshirishingiz lozim. U hayotingiz ustidan mutlaq hokimiyatga ega bo'ladi. Siz o'limdan hayotga o'tasiz va Uning farzandiga aylanasiz!

Agar siz Iso Masih orqali najot qabul qilishni istasangiz, shunday so'zlar bilan ibodat qiling:

Samodagi Xudo, men gunohkorligimni va Sening haqliging talablariga mos ravishda yashay olmasligimni tan olaman. Gunohlarim evaziga abadiy jazoga loyiqman. Sen meni shunday ahvolda tashlab qo'ymasliging uchun minnatdorman, chunki Sen men uchun o'lgan va mening gunohlarim uchun xoch jazosidan o'tgan, bokira Maryamdan tug'ilgan, O'zingning Yagona O'g'ling, Iso Masihni yuborganingga ishonaman. Uning uchinchi kun tirilgani va hozir Sening o'ng tomoningda o'tirganiga ishonaman. U Mening Rabbim va Najotkorim. Bugun Sendan mustaqil ravishda yashab kelganim uchun tavba qilaman va hayotimni to'liqligicha Rabbii Isoga topshiraman.

Iso, Seni Rabbim va Najotkorim deb e'lon qilaman. O'z Ruhing bilan hayotimga kirib kel va meni Xudoning farzandiga aylantirib, o'zgartir. Men shu paytgacha yashagan zulmatdan voz kechaman va bugundan boshlab o'zim uchun yashashni bas qilaman, lekin Sening inoyating bilan Sen uchun yashayman, chunki Sen men abadiy yashashim uchun O'zingni berding.

Rabbii, rahmat Senga. Endi mening hayotim Sening qo'llaringda va So'zingda aytilganidek, men uyatda qolmayman.

Oilamizga xush kelibsiz! Sizni hozirgina boshingizdan kechirganlaringiz haqida boshqalar bilan bo'lishishga chorlayman. Endi Muqaddas

Kalomga ishonadigan, birorta mahalliy jamoatga borishni va sizni imonda ruhlantiradigan imonlilar bilan muloqot qilishni boshlash zarur.

Siz eng ajoyib sayohatning boshida turibsiz. Siz har kuni Uni tanib-bilishda, inoyatda va U bilan do'stlikda o'sib-ulg'ayishingiz uchun Xudo sizni marhamatlasin!

SHAYTONNING XO'RAGI



«Shaytonning xo'ragi» kitobi dushman Xudoning irodasidan imonlilarni uzoqlashtirish uchun eng ustomon tuzoqlardan biri bo'lmish: vasvasalarni fosh qiladi. Ko'plab insonlar bu sirtmoqqa tutilgan va hatto, bu haqda gumonsiramaydi ham.

Aldanmanglar! Masih aytadiki: «Vasvasalar kelmasligining iloji yo'q» (Luqo 17:1).

Siz aldanish yoki aldanmaslikni tanlay olmaysiz, ammo siz bu kurashga qanday javob berishni qaror qilishingiz mumkin. Agar siz vasvasalarga to'g'ri javob berishni o'rgansangiz, siz mag'lub bo'lib qolmaysiz, ammo kuchli bo'lasiz. Faqatgina zarbaga to'g'ri javob berish sizga Xudovand bilan qarshiliksiz munosabatlarga ega bo'lishga ko'maklashadi.

Bu noma orqali Jon Biver, qanday qilib Xudovand irodasining payida bo'lishni va shubha hamda ishonchsizlikdan ozod bo'lishni o'rgatadi. Siz qurbon bo'lish dunyoqarashidan xalos bo'lishingiz, bo'rttirilgan muammosiz va umidsizliksiz yashashingiz mumkin. Qachon siz Xudovandga bo'ysunishning oliy pog'onasiga erishsangiz hayotingiz kechirimga, yarashishga va tugamas quvonchga to'ladi.

XUDO, QAERDASAN?!

O'z cho'lingizda kuch va maqsadni qo'lga kiriting



Hayotning qiyin davrlarida o'zingizni parishon his etib:


“Xudo, qaerdasan?!” deb savol berasizmi?

Ehtimol, siz shu paytgacha Xudoning ovozini eshitgandirsiz, biroq hozir U sukut saqlayotgandek bo'lib ko'rinyapti. Ehtimol, siz shu paytgacha imonda harakatlanib kelgansiz, ammo hozir Uning huzurini topa olmayapsiz. Xudodan va'dani olish va uni amalga oshishi o'rtasidagi joy bo'lmish – cho'lga marhabo.

Yaxshi xabar shundaki, cho'l – bu maqsadsiz va quruq yer emas. Xudo sizni da'vatingizga tayyorlash va anjomlash uchun cho'ldan foydalanadi. Aksariyat kishilar nima deb o'ylashidan qat'iy nazar, biz Xudoni shunchaki kutib o'tiraversak, bu davrdan o'ta olmaymiz. Cho'ldan o'tish uchun sizning ishtirokingiz ham kerak va sizning ishtirokingizning ahamiyati katta. Agar siz vaqtini behudaga sarflashni va bir joyda aylanib yurishni istamasangiz, cho'l nimaligini bilib olishingiz joiz.

Ushbu vahiylarga boy kitobda, ommabop kitoblar muallifi Jon Biver, Xudo siz uchun tayyorlab qo'ygan barcha narsani qo'lga kiritishda va hayotingizning qiyin va quruq mavsumidan o'tishda yordam beradigan Muqaddas Kitobdagi muhim bilimlar va sermazmun voqealar bilan otlantiradi.

RAQOBATDAN TASHQARIDA



Biz boshqa odamlarga raqobatchilar sifatida qarashimizning, qolaversa o'zimizni taqqoslash va raqobat bilan cheklashimizning sababi bor. Biz o'zimizga va bir-birimizga qarshi chiqishimizga umid qilib, ongimizga, irodamizga va hissiyotlarimizga hujum qiladigan dushmanimiz bor. U bizni yaqin aloqalardan mahrum qiladigan, o'zimizga xosligimiz haqida chalkashliklarni keltirib chiqaradigan va bizni da'vat qilingan vazifamizda cheklovlar qo'yadigan ilojisizlikka olib keladi.


“Raqobatdan tashqarida” kitobining mashhur muallifi Liza Biver, Xudoning sevgisi bu kishanlarni qanday buzish haqidagi ochiqlik bilan o’rtoqlashadi. Siz odamlarni raqobatchi sifatida ko’rishni to’xtatishni va Yaratuvchi bilan siz orzu qilayotgan chuqur munosabatlarni, xaqiqiy o’ziga xoslik va yaqinlik haqidagi va’daga ega munosabatlarni qurishni o’rganasiz. Bashoratli donolikka to’la bo’lgan, bizning davrimiz uchun dolzarb hisoblangan bu sog’lom Muqaddas Kitob ta’limotida, Liza hazil va ishtiyog bilan sizni da’vat qiladi.

– Raqobatdan voz kechish va o'zingizdagi eng yaxshi jihatlarini aniqlash –
O'zingiz qatnashishingiz kerak bo'lgan suhbatlardan yashirinishni to'xtatish
– Ayollar foydasiz, sodda va mulohazasiz, degan fikrni rad etish – O'z hayotida
jinsiy raqobatni qurolsizlantirish va erkaklar bilan birga mehnat qilish.


Raqobatdan tashqaridagi hayotga qadam tashlash vaqti keldi.

X MessengerX

Har bir kishi uchun, hamma joyda shogirdlikka yo'l



- 130 dan ortiq tillarda bepul
- Ilova hamda onlayn sifatida olish mumkin
- Sizning ruhiy o'sishingiz uchun mo'ljallangan manbalar
- O'zingizning o'tmishingizni va shogirdlik yo'lingizni kuzatib boring



“Messenger” yordamida o'qish uchun zahiralar kutubxonasini oling – elektron kitoblar, video va audio darsliklar, audio kitoblar, Muqaddas Kitob va hokozolar. O'zingizning barcha moslamalaringizda ko'ring, o'qing va tinglang.

MessengerX.com



Dunyoning barcha joyida App Store va Google Play orqali olish mumkin.

Sizni qanday abadiyat kutmoqda?

Agar keyingi 24 soat hayotingizning qolgan vaqti qanday bo'lishini belgilaydigan tajribaning bir qismi ekaningizni bilib qolsangiz, nima qilgan bo'lar edingiz? Ish joyingizdan tortib, yashaydigan tumaningiz va uyingizgacha, hamma narsa shu kunni qanday yashab o'tishingizga bog'liq. Ushbu 24 soatda nimalar qilgan bo'lar edingiz? Jon-jahdingiz bilan harakatda bo'larmidingiz yoki yaxshi kunlar kelishiga umid qilib, shunchaki kutish bilan shu kunni o'tkazarmidingiz?

Balki, bu misol haqiqatdan juda uzoqda tuyulishi mumkin, ammo bu bunday emas. Aslida, bu misol bugungi qarorlarimiz abadiylikdagi taqdirimizga ta'sir ko'rsatishini bildiradi.

“Abadiyat tomonidan boshqarilayotganlar” kitobida muallif Jon Biver nihoyatda ajoyib kinoya va Bibliya matni yordamida, qanday qilib yerdagi hayotimiz abadiylikdagi hayotimizni shakllantirishining tirik suratini chizadi.

Oxirgi nafasimizdan so'nggi hayotimiz, uning boshlanishidan ko'ra ancha muhimroq. Juda kech bo'lib qolishini kutmang. Hayotingizni shu yerda va abadiylikda qanday to'laqonli tarzda o'tkazishni hozirdan o'ylang.



Jon Biver va uning rafiqasi Liza – Messenger International tashkilotining ta'sischilaridir. Xizmatkor va ommabop kitoblar muallifi Jon, dadillik va ishtiyoq bilan chekinmas haqiqatni voizlik qiladi. Uning yuragi mahalliy jamoatlarga yordam berishga intiladi va xizmatkorlarga ularning yashash joyi, tili va iqtisodiy holatidan qat'iy nazar qo'llanmalarni hadya etadi. Bugungi kungacha uning kitoblari va video darslari dunyoning 90 dan ortiq tillariga tarjima qilingan, millionlab nusxalari butun dunyo bo'ylab cho'ponlar va xizmatkorlar o'rtasida tarqatilgan.



MessengerX

Bepul yuklash va tarmoqli video uchun
MessengerX.com ga kiring



Messenger
INTERNATIONAL

Bu kitob – muallifdan tuhfa.
Sotish man etiladi.

Ko'prog'ini istaysizmi?
Skanerlang

